O`G`ILOY ASQAROVA,
DILAFRO`Z MUMINOVA

# O`QISH DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR











O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

O`G`ILOY ASQAROVA, DILAFRO`Z MUMINOVA

# O`QISH DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

(o`quv qo`llanma)

NAMANGAN 2019

**UO‘K: 180.236.25**

**KBK: 81.11 (5O‘zb)**

**M: 25**

**O`g`iloy Asqarova, Dilafro`z Muminova O`qish darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar. –Toshkent: “Navro`z” nashriyoti, 2019.-218 b**

Ushbu o‘quv qo‘llanmada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirishning ijtimoiy-pedagogik mohiyati, asosiy yo‘nalishlari, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish mazmuni va pedagogik-psixologik mohiyati, xorijiy tajribalarining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi o‘rni, tamoyillari va muhim omillari , innovatsion texnologiyalari va ularni takomillashtirish borasida so‘z yuritiladi.

Shuningdek kitob o‘qish hamda kitobxonlikka bo‘lgan ijtimoiy-tarixiy yondashuv va an’analari, kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning konseptsiyasi va metodik ta’minoti yoritilgan.

O‘quv qo‘llanma boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, tarbiyachi-pedagoglariga, mustaqil tadqiqotchilar va ijtimoiy soha xodimlari uchun mo‘ljallangan.

**Taqrizchilar:** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent **M.S.Nishonov**

pedagogika fanlari nomzodi, dotsent **M.Yu. Sobirova**

**O`quv qo`llanma Namangan Davlat universiteti o‘quv-uslubiy kengashning 28-mart 2019-yildagi 8-sonli yig‘ilish qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.**

...ngan davlat universiteti
Inv. № 271352

**© O’.M.Asqarova, D.A.Muminova**

**ISBN 978-9943-565-29-6** **© Toshkent. “Navro‘z”nashriyoti, 2019**

**UO'K: 180.236.25**

**KBK: 81.11 (5O'zb)**

**M: 25**

**У.М.Аскарова, Д.А.Муминова Соврнменные педагогические технологии на уроках чтения. – Ташкент: Изд.дом "Навруз", 2019. –218 стр.**

В данном учебном пособии даны свидения о социально-педагогической сущности совершенствования механизма развития читательских умений учащихся начальных классов, оснавные направления, сущность педагогико-психологического процесса и значение развития читательских умений учащихся начальных классов, роль зарубежного опыта в развитии читательских умений младших школьников, инновационные технологии и их совершенствование.

Таким образом книга посвещена освещению методического обиспечения, социально-историческим традициям и подходам к чению, концепции развития читательских умений.

Учебное пособие предназначено для учебников начальных классов, педагогов-воспитателей, независимых исследователей и работников социальной сферой.

**Рецензенты:** Кандидат педагогических наук, доцент **М.С.Нишанов**

Кандидат педагогических наук, доцент **М.Ю.Собирова**

Учебное пособие рекомендовано к печати на основе 8-решения собрания ("28" марта 2019 г.) Учёного совета Наманганского государственного университета.

**© O'.M.Asqarova, D.A.Muminova**

**ISBN 978-9943-565-29-6** **© Toshkent. "Navro'z"nashriyoti, 2019**

**UO‘K: 180.236.25**

**KBK: 81.11 (5O‘zb)**

**M: 25**

**O.M.Asqarova, D.A.Muminova Modern educational technology in the classroom reading, – Tashkent: “Navruz” Publishing house, 2019. – 218 p.**

In this textbook the students of the primary schools are expected to discuss the socio- pedagogical nature of the development of reading skills, the main directions, the content and pedagogical –psychological essence of the development of reading skills of the elementary school pupils, the role of foreign experience in the development of reading skills in primary school pupils, principles and key factors, innovaiive technologies and their improvement.

It also describes the socio- historical approaches and traditions of reading, conceptual and methodological support for the development of reading skills.

Curriculum is designed for primary school teachers, educators, individual researchers and social workers.

**Reviewers:** Candidate of Pedagogical Sciences, **M.S.Nishanov**

Candidate of Pedagogical Sciences, **M.Yu.Sobirova**

The training manual was recommended for publication on the basis of the 8-decision of the meeting (March 28, 2019) of the Academic Council of Namangan State University.

**© O’.M.Asqarova, D.A.Muminova**

**ISBN 978-9943-565-29-6**

**© Toshkent. “Navro‘z”nashriyoti, 2019**

## MUNDARIJA:

**KIRISH**......................................................................................9

**I BO'LIM**........................................................................13
**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA KITOBXONLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-METODOLOGIK ASOSLARI**...........................................

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish mazmuni va asosiy bosqichlari.........................13

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA KITOBXONLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK TA'MINOTI**................................................42

1.Xorijiy tajribalarining boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni..................................42

2.Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishning ustuvor tamoyillari va muhim omillari.............64

**II BO'LIM**........................................................................89
**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA KITOBXONLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA DARS ISHLANMALARI**.......................................................89

**XULOSA**....................................................................................163

**ILOVALAR**................................................................................167

**GIOSARIY**...................................................................181

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**..................205

## СОДЕРЖАНИЕ

**ВВЕДЕНИЕ**.......................................................................................9

**I ЧАСТЬ**.............................................................................................13

**НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ЧИТАТЕЛЬСКИХ УМЕНИЙ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ**.............................................................................................

Содержание и основные этапы развития читательских умений учащихся начальных классов.....................................................13

**МЕТОДОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ЧИТАТЕЛЬСКИХ УМЕНИЙ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ** ...................................................................................42

1.Роль зарубежного опыта в развитии читательских умений учащихся начальных классов.....................................................42

2.Главные принципы и важные факторы развития читательских умений учащихся начальных классов .......................................64

**II ЧАСТЬ**............................................................................................89

**РАЗРАБОТКИ УРОКОВ ПО РАЗВИТИЮ ЧИТАТЕЛЬСКИХ УМЕНИЙ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ**..............................................................................................89

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ**..............................................................................163

**ПРИДЛОЖЕНИЯ**...........................................................................167

**ГЛОССАРИЙ**..................................................................................181

**СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ**...................205

## CONTENT


**INTRODUCTION.......................................................................9**

**I SECTION..................................................................13**

**CHAPTER. SCIENTIFIC –METHODOLOGICAL BASIS FOR DEVELOPMENT OF PRIMARY SCHOOL PUPILS' READING SKILLS...........................................................**

CONTENT AND BASIC STAGES OF THE DEVELOPMENT OF READING SKILLS FOR PRIMARY SCHOOL SCHOOL STUDENTS.......................................................................13

**CHAPTER. IMPROVING READING SKIILS IN PRIMARY SCHOOLS..............................................................42**

1.THE ROLE OF INTERNATIONAL EXPERIENCE IN DEVELOPING READING SKILLS FOR PRIMARY SCHOOL STUDENTS..............................................................42

2.PRIROTY PRINCIPLES AND KEY FACTORS OF THE DEVELOPMENT OF READING SKILLS FOR ELEMENTARY SCHOOL PUPILS.......................................................64

**II SECTION..............................................................89**

**II CHAPTER. LESSON PLANS FOR IMPROVING READING SKILLS IN PRIMARY SCHOOLS.................................89**

**CONCLUSION.......................................................................163**

**APPENDIX .........................................................................167**

**GLOSARY..............................................................181**

**REFERENCES ...................................................205**

# KIRISH

Xalq ta'limi vazirining 2017-yil 3 iyundagi "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari talablari asosida takomillashtirilgan o'quv dasturlarini tasdiqlash va amaliyotga joriy etish to'g'risida"gi 190-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan va umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-4-sinflari uchun davlat ta'lim standartlari amaliyotga joriy etildi.

Kitob o'qish, kitobxonlikning jamiyat va shaxs uchun ahamiyati, kitobxonlikni rivojlantirishning ijtimoiy-individual jihatlari, boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitob o'qish ko'nikma, malakalarini shakllantirish, uning pedagogik, psixologik, metodik talablari, oilaviy kitobxonlik va sinfdan tashqari kitob o'qishni tashkil qilish masalalari insonni ijtimoiylashuvida muhim dolzarb muammodir.

Umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich sinflarda o'qish fani o'quvchilarni ongli, to'g'ri va ifodali o'qishga o'rgatish bilan birga ularda kitobxonlik va nutq madaniyatini hamda mustaqil fikrlash qobiliyati shakllantiradi. O'quvchilarni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinflarida o'qish fanini o'qitishning asosiy maqsadi:

milliy hamda jahon adabiyotining nodir namunalarini o'qitish orqali o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy dunyosi, adabiy-estetik didini shakllantirish hamda ularda mustaqil fikrlash, obrazli tafakkurga oid bilim, ko'nikma, malakalarni hosil qilish va rivojlantirish;

o'quvchilarni badiiy adabiyotga qiziqtirish, asarlarni o'rgatish jarayonida olam va inson tabiati, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, shuningdek, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali o'quvchilarning ma'naviyatini, dunyoqarashini kengaytirib, mustahkamlab borishdan iborat.

O'qish (1-4-sinf) fanini o'qitishning asosiy vazifasi:

o'quvchilarning og'zaki nutqi adabiy til me'yorlari asosida shakllanishi va rivojlanishini ta'minlash, nutqiy kompetensiyani o'stirish;

yozma nutqda yuksak savodxonlik, adabiy til me'yorlariga rioya etish, uslubiy rang-baranglikdan foydalana olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish hamda dastlab tanish, keyin notanish matn ifodali o'qitilib, o'quvchidagi ko'nikma, malaka aniqlanadi. Shuningdek, miqdoriy ko'rsatkich – o'qish tezligi, ongli va ravon o'qish, bir daqiqada nechta so'z o'qiy olishi ham belgilanadi.

3- va 4-sinflar o'qish dasturida mavzular ko'lami ancha kengayadi. Bu sinflarda o'qish darslarining kattagina qismi asarni o'qish va matn ustida ishlashga qaratiladi.

Darsda o'quvchilarning faolligini oshiradigan, tasavvurlarini boyitadigan usullardan foydalanish, asarlarni janr mazmunidan kelib chiqib, rollarga bo'lib o'qish, qahramonlar nomidan qayta hikoya qilish, qahramonning taqdiri haqidagi hikoyani davom ettirish, qiziqarli mavzularda og'zaki hikoya tuzdirish kabi ijobiy topshiriqlardan foydalanish kabi ishlar amalga oshiriladi.

***Sinfdan tashqari o'qish*** o'qish darslari bilan bog'lab olib boriladi. Sinfdan tashqari o'qish mazmuniga ko'ra ta'limning har bir bosqichida ikki asosiy bo'limga ajratiladi:

Birinchi bosqichda o'qish doirasi, ya'ni o'qitiladigan kitoblar va ularni qaysi tartibda o'qish bilan tanishtirish yuzasidan o'quvchilarga ko'rsatma beriladi.

Ikkinchi bosqichda shu o'quv materiallar asosida bilim, ko'nikma va malakalar shakllantiriladi. O'quvchilar kitob va ularning mualliflari haqidagi bilimlarni bevosita amaliy faoliyatlari, ya'ni kitob ustida ishlash jarayonida egallaydilar. O'quvchilar o'qituvchi rahbarligi ostida avval mavzuga oid bir necha kitob bilan tanishsa, keyinroq bolalar yozuvchilarning asarlari bilan tanishadilar, so'ngra bolalarning qiziqishlariga mos, ruhiyatlariga yaqin har xil mualliflarning bir mavzuga doir kitoblarini mustaqil tanlab olishga o'tadilar.

O'quvchilar milliy va jahon adabiyotlarini o'qib, tahlil qilish asosida ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, go'zallik va xunuklik haqidagi xilma-xil talqinlarga duch kelishadi. Ularga ongli munosabat bildirish hamda o'zlaridagi axloqiy-ma'naviy fazilatlarning shakllanishi va rivojlanishiga zamin yaratadi. Mutolaa o'quvchilarning og'zaki hamda yozma nutqlari rivojlanadi. Bolaning matn mazmunini to'liq uqib olishi qayta hikoyalashi, shuningdek, o'zgalar nutqini eshitib, tushunib olishi malakalari hosil qilinadi.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda kitob o'qish ijtimoiy hamda madaniy antropologiyaning yangi madaniy amaliyoti deya baholanib, uni tahlil etish tarixiy tadrijiylik negizida amalga oshiriladi. Kitob o'qish, shuningdek, ijtimoiy-madaniy jarayonning indikatori sifatida belgilangandi. Shu sababli kitob o'qish xususiyatining retrospektiv ko'rsatkichlarini o'rganishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu jarayonda mustaqil kompaniyalar, davlat va ijtimoiy

tashkilotlar, tadqiqot markazlari (Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti, Osiyo axborot-tahlil jamg'armasi, Allensbach Institute, (Publishing Technology, The Pew Internet i American Life Project) va b.) faol ishtirok etmoqda. Xususan, AQSHning San'at milliy jamg'armasi (National Endowment for the Arts – NEA) tomonidan 2004 yilda olib borilgan tadqiqotda yoshlarning "badiiy asarlarni o'qish" darajasi keskin pasayib ketishining oldini olish umummilliy muammo ekanligiga alohida urg'u berilgan. G'arbiy Avstraliyada o'smirlarning kitob o'qish holatini o'rganish (West Australian Study in Adolescent Book Reading – WASABR) maqsadida tashkil etilgan tadqiqot doirasida 2011-2016-yillar davomida tegishli yosh toifasidagi shaxslarning kitob o'qishga munosabati, bu yo'lda amalga oshiradigan individual harakatlari, o'qituvchilar, ta'lim muassasasi va ota-onalar tomonidan beriladigan yordam masalalari o'rganilgan. Ayni vaqtda Internet orqali mahsulotlarni sotuvchi va xizmat ko'rsatuvchi jahondagi eng yirik kompaniya "Amazon" tomonidan mustaqil qurilma "Kindle" shakllantirilgan bo'lib, u o'z zahirasidagi 700.000 ortiq nomdagi elektron kitoblardan foydalanishga imkon beradi. Rossiya FRda 2007-2020 yillarga mo'ljallangan uch bosqichli (1-bosqich 2007-2010 yy; 2-bosqich 2011-2015 yy; 3-bosqich 2016-2020 yy) "Kitob o'qishni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish milliy dasturi" qabul qilingan.

O'zbekistonda 2017-yilning 13-sentabrida respublika Prezidentining "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi Qarori (lex.uz/docs/3338600) qabul qilindi. Unda "jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an'analarni chuqur qaror toptirishga, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy-intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan kitobxonlik madaniyatini oshirish" maqsadga muvofiqligi ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik

madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi (2017-yil 13-sentyabr) Qarori [1], “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi Farmoyishi [2] hamda “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi (2017-yil 7-fevral) Farmoni [3] belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlashda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

---

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Китоб махсулотларини нашр этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш хамда тарғиб қилиш бўйича комплекс чора-тадбирлар дастури тўғрисида"ги (2017 йил 13 сентябрь) Қарори //lex.uz/docs/3338600.

[2] Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Китоб махсулотларини чоп этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш хамда тарғибот қилиш бўйича комиссия тузиш тўғрисида"ги Фармойиши // http://uza.uz/oz/documents/kitob-masulotlarini-chop-etish-va-tar-atish-tizimini-rivozh-12-01-2017.

[3] Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги (2017 йил 7 февраль) Фармони // http://lex.uz/pages/getpage.aspx?lact_id=3107036#3109146

# I BO‘LIM
# BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA KITOBXONLIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-METODOLOGIK ASOSLARI

## Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish mazmuni va asosiy bosqichlari

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitob o‘qishning shaxsni intellektual, psixologik va fiziologik jihatdan rivojlanishiga yordam beruvchi ta’sirlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Binobarin, kitob o‘qish orqali o‘quvchilarning: nutq rivojlanadi; nutqi (nutq lug‘ati)ni boyiydi; tasavvuri o‘sadi; tafakkuri rivojlanadi; xotirasi mustahkamlanadi; hissiyoti (hissiy sifatlar, xususan, hamdardlik hissi) tarbiyalanadi; “ijtimoiy idroki” shakllanadi[4]. Ayni o‘rinda shuni ham qayd etib o‘tish kerak, shaxsda “ijtimoiy idrok”ning shakllanishi unda yashovchanlik qobiliyatining rivojlanishini ta’minlaydi. Bu esa boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning kitob o‘qishga ijobiy yondashishlariga erishish dolzarb pedagogik vazifalardan biri ekanligini tasdiqlaydi. Ushbu vazifani hal qilish orqali esa boshlang‘ich ta’lim davridan boshlab shaxs (o‘quvchilar)ni ijtimoiy munosabatlarga izchil, to‘g‘ri yo‘naltirish imkonini beradi.

Zamonaviy jamiyatda qaror topgan ayrim holatlar ta’lim sohasining jadal rivojlantirish yo‘lida to‘siq bo‘lmoqda. Xususan, jamiyat a’zosi bo‘lgan alohida aholi qatlamining real daromadlari o‘sganligiga qaramay, kitoblar hamda bosma OAVga bo‘lgan talab pastligicha qolmoqda; kitob o‘qish uchun talab qilinadigan bo‘sh vaqt tarkibiy tuzilmasining o‘zgarishi uning nufuzi pasayishiga olib kelmoqda; ta’lim sohasida savodxonlik va o‘qish madaniyatini rivojlantirishga nisbatan e’tibor pasaymoqda: a) umumiy o‘rta ta’limda – bitta til (masalan, rus tili va adabiyoti, yozma matnlarni bilan ishlash)ni

---

[4] Орлова Э.А. Рекомендации по повышению уровня читательской компетенции в рамках Национальной программы поддержки и развития чтении // http://ifapcom.ru/files/publications/rekomend_obr_1.pdf.

o'quv predmeti sifatida o'qitish uchun ajratilgan soatlarning qisqarganligi; b) o'rta maxsus ta'limda – kasbiy tayyorgarlik (OTM, qo'shimcha ta'lim, malaka oshirish) darajasida kitobxonlik kompetentsiyasi, yozma matnlar bilan ishlash mahoratini rivojlantirishga oid tizimli dasturlarning mavjud emasligi; axborot texnologiyalarining intensiv rivojlanishi kitob o'qishni ifodalovchi ijtimoiy-madaniy muhit doirasining torayishiga olib kelmoqda; nazariy jihatdan taklif etilayotgan kitob va kitob mahsulotlari (badiiy, ma'lumotli, ilmiy-ommabop, maxsus adabiyotlardan iborat mahalliy va tarjima asarlari) sifatining talab darajasi emasligi ko'plab hududlarda kitob o'qishning zamonaviy ijtimoiy-madaniy muhitini shakllantirishga to'sqinlik qilmoqda; ta'lim muassasalari, kutubxonalar, nashriyotlar, kitob savdosida kitob o'qishning nufuzini ko'taradigan, bu boradagi harakatni qo'llab-quvvatlaydigan hamda rivojlantiradigan malakali kadrlarning yetishmasligi kitobxonlar doirasini kengaytirish yo'lidagi to'siq bo'lmoqda[5].

Eng achinarli jihati yuqorida qayd etilgan muammoning yoshlar orasida kitob o'qishga bo'lgan qiziqishning pasayishi, ularning kitobxonlik madaniyatiga ega emasligidir. Falsafa kategoriyalarining mohiyatiga tayanib aytiladigan bo'lsa, har qanday oqibat (holat)ning yuzaga kelishi o'z-o'zidan bo'lmaydi, balki qanday sabablar negizida yuz beradi. Shu nuqtai nazardan olganda O'zbekistonda yoshlar, xususan, talaba va o'quvchilar o'rtasida kitob o'qishga bo'lgan salbiy munosabatning shakllanishi, ularning kitobxonlik malakalariga ega bo'lmasligini bir qator sabablar bilan izohlash mumkin. Chunonchi: 1) badiiy, ma'rifiy, ilmiy-ommabop, tarbiyaviy, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan adabiyotlarni chop etish, ular bilan ta'lim muassasalarini ta'minlash, milliy va jahon adabiyoti namoyandalarining yetuk asarlarini saralash, tarjima qilish ishlari puxta o'ylangan tizim asosida tashkil qilish, ta'lim va madaniyat muassasalari uchun kitob xarid qilishga mablag'lar yetarli darajada mavjud bo'lgan manbalar hisobidan jalb etish yo'lida jamiyat miqyosida faollikning

[5] Основы читательской культуры // https://studfiles.net/preview/ 6812001

yetishmayotganligi; 2) kitob sotishga ixtisoslashgan korxonalar tomonidan ta'lim muassasalari, kutubxonalar va mahallalarda yangi kitoblar taqdimotlarini o'tkazish, mutolaa madaniyatini oshirish, shu jumladan, ommaviy-axborot vositalari orqali targ'ibot-tashviqot qilishga qaratilgan tadbirlarning yuksak talablar darajasida emasligi[6].

Har qanday taraqqiyot ijtimoiy rivojlanishga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Axborot texnologiyalari jadallik bilan rivojlanayotgan mavjud sharoitda shaxs ehtiyojlarini qondiruvchi ma'lumotlarni tarqatuvchi OAV soni, turining ko'payib, ular qamrab olgan ko'lamning tobora kengayib borayotganligi kitob va kitobxon mavzusining yanada dolzarblashayotganligida ikki jihatni ko'rish mumkinligini tasdiqlaydi: "yaxshi tomoni, mutolaa ehtiyoji yuksalib, shaffoflashib borayotganligi; xavotir tarafi ommaviy kitobxonlik susayib, betiyiq kitoblarning rastalarda ko'payayotganligi" [7].

Avval aytib o'tilganidek, badiiy adabiyotlar turli yoshdagi kishilarga qaysi yosh davrida bo'lishidan qat'i nazar nutq, tasavvur va dunyoqarashni boyitish, tafakkurni kengaytirish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga, "insonning ma'nan yuksalishiga, salohiyatini boyitishga xizmat qiladi"[8]. Global axborotlashuv sharoitida ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy, madaniy qiymatga ega bo'lmagan kitob mahsulotlarining yaratilayotganligi, badiiy, hatto ilmiy adabiyotlarning yuqori saviya, amaliy qiymatga ega emasligi o'z navbatida shaxsning fikrlash qobiliyati, tafakkur salohiyatiga ega bo'lishiga erishishni ijtimoiy ehtiyojga aylanishini ta'minladi. Jamiyat a'zolarining ong, tafakkur va keng dunyoqarashga ega bo'lishlariga erishishning muhim omili sifatida kitob o'qishni, kitobxonlikni keng targ'ib qilish masalasini tobora dolzarblashishiga olib kelmoqda.

M.Yu.Gudovaning yondashuviga ko'ra kitob o'qishni uch hoiatga ko'ra, ya'ni: faoliyat, ijtimoiy institut hamda madaniy amaliyot sifatida

---

[6] Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги (2017 йил 7 февраль) Фармони // http://lex.uz/pages/getpage.aspx?lact_id=3107036#3109146.

[7] Нима учун китобларни ўқиш тинглашдан яхшироқ? // https://kun.uz/news/ 2018/10/16/nima-ucun-kitoblarni-ukis-tinglasdan-yahsirok.

[8] Янги қарор: энди янги туғилган чақалоқларга китоб ҳадя этилади // https://aniq.uz/yangiliklar/yangi-qaror-jndi-yangi-tugilgan-chaqaloqlarga-kitob-hadya-etiladi-1.

o'rganish[9] kerak. Bizning fikrimizcha, kitob o'qish jarayon hamda shaxs faoliyatining muayyan ko'rinishi, kitobxonlik esa kitob o'qish faoliyatini maqsadli, izchil va samarali tashkil etish asosida o'zlashtirilgani sifat sanaladi. O'z mohiyatiga ko'ra jarayon va faoliyat uni tashkiliy-metodik jihatdan to'g'ri, oqilona, tizimli tashkil etishni taqozo qiladi. Shunga ko'ra boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish jarayoni ham pedagogik-psixologik talablarga ko'ra maqsadli, izchil va tizimli tashkil etilishi lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish muammosining umumiy mohiyatini yoritishda dastlab tayanch tushunchalarni ajratish hamda ularning mazmunidan xabardor bo'lish tadqiqiy xarakterga ega pedagogik faoliyat yo'nalishini to'g'ri belgilash, sinovdan o'tkaziladigan nazariy g'oya va farazlarni aniq ifodalash, kutiladigan natijani oldindan to'la tasavvur etish imkoniyatini ta'minlaydi. Shu sababli ilmiy tadqiqotni olib borishda muammo asosini tashkil etuvchi, uning mohiyatini yorituvchi tayanch tushunchalarni ajratib olish va ularni pedagogik nuqtai nazardan yoritishga e'tibor qaratildi.

Pedagogika sohasida shaxs, shu jumladan, boshlang'ich sinf o'quvchilari hamda kitobxonlik o'rtasidagi o'zaro munosabatni yoritishda "kitob", "o'qish", "kitob o'qish" (yoki "mutolaa"), "kitobxonlik savodxonligi", "kitobxonlik", "kitobxonlik faoliyati", "kitobxonlik ko'nikmasi", "kitobxonlik malakasi", "kitobxonlik kompetentligi" hamda "kitobxonlik madaniyati" tushunchalari tanyach tushunchalar – asosiy kategoriyalar sifatida qabul qilingan. Quyida mazkur tushunchalar negizida pedagogika va psixologik yo'nalishlarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda shaxs (xususan, boshlang'ich sinf o'quvchilari)ning kitobga, kitob o'qishga bo'lgan munosabatining mazmuni ochib beriladi.

Tadqiq etilayotgan muammoga doir manbalarning barchasida arabchadan

---

[9] Хафизов Д.М. Социокультурные практики повышения читательской активности молодежи: стимулирующие возможности моды: Автореф.дис... канд.наук. культурологии. – Челябинск: 2017. – 27 с.

tarjima qilinganda "yozilgan, muqovalangan asar" [10] ma'nosini anglatuvchi "kitob" tushunchasi derli bir xil deya ta'riflanadi: ma'lum matnli varaqlardan iborat, juzlab tikilgan, muqovalangan, hajmi 48 varaqdan kam bo'lmagan bosma (qadimgi qo'lyozma) asar[11] ; bosma hamda qo'lyozma (qadimiy) asosidagi matnli va grafikli ma'lumotlarni o'z ichiga olib, juzlab tikilgan yoki alohida qog'oz yoki daftar sahifalaridan iborat qattiq muqovali nodavriy chop etiladigan nashr mahsuloti turlaridan biri[12]. Qolvaersa, "ko'p asrlardan buyon insonning yo'ldoshi bo'lib kelayotgan qadimgi madaniy atribut" bo'lgan "kitobdan dastlab voqeliklar, ilmiy bilimlarni yozib borish uchun foydalanishgan, so'ngra kitob chop etishning va badiiy adabiyotning yaratilishi bilan bog'liq holda bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazishning elementiga aylandi"[13].

Anglanganidek, kitoblarning eng muhim xususiyati ularning qo'lyozma (asosan, qadimgi adabiyotlar) va bosma shaklda bo'lishi, matnli yoki grafikli ma'lumotlarni o'z ichiga olishi, muqovalanishi sanaladi. Global axborotlashuv sharoitida kitoblar, nafaqat qo'lyozma va bosma, shu bilan birga elektron shaklda ham mavjud bo'ladi.

Kitoblar orasida bolalar uchun mo'ljallangan kitoblar o'ziga xos o'rin tutadi. Bu turdagi adabiyotlar ham boshqa turdagi kitoblar kabi borliq to'g'risidagi axborotlarni jamlovchi, kishilik taraqqiyoti tajribasini o'zida ham etuvchi manbadir. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarini ham kitobga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishlariga erishishda bolalar adabiyotlarini shunchaki ermak, o'yinchoq deb emas, balki ularni intellektual, hissiy, axloqiy madaniyatini shakllantirishning eng samarali vositasi sifatida qabul qilish maqsadga muvofiqdir. Zero, kitob va kitob o'qish "yosh avlodning ma'naviyatini yuksaltirish, milliy adabiyotimiz va san'atimizni yanada rivojlantirish, yoshlarni milliy

---

[10] Ўзбек тилининг изохли лугати. Н – Тартибли / 5 жилдли. Учинчи жилд. А.Мадвалиев тахрири остида. – Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2007. – 376-б.

[11] Ўзбек тилининг изохли лугати. Н – Тартибли / 5 жилдли. Учинчи жилд. А.Мадвалиев тахрири остида. – Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2007. – 376-б.

[12] Колесникова Е. В. Развитие интереса и способностей к чтению у детей 6-7 лет / Учеб.-мет.пособие. 3-е изд., перераб. – М.: Изд-во "Ювента", 2016. – 64 с.

[13] Чтение. 10 советов, как привить ребёнку любовь к чтению и книгам // https://mel.fm/chteniye/9635178-to_like_to_read.

Inv № 27352

qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash”[14] da o‘ziga xos o‘rin tutadi. Ayni o‘rinda shuni ham qayd etib o‘tish zarur, kitob “bolalarni qiziqtira olishi, zavqlantirishi, hayratlantirishi, to‘lqinlantirishi kerak”[15].

Bolalar adabiyotlari (bolalar uchun mo‘ljallangan badiiy asarlar)ning eng muhim didaktik ta’sirlaridan yana biri – bolalarda estetik dunyoqarash (estetik ong, his-tuyg‘u, did, ideal, sezgi, tasavur, tafakkur hamda qarash)ni shakllantirishga xizmat qilishi bilan belgilanadi. Estetik dunyoqarashning shakllanishi hamda rivojlanishi bolalarni hissiy jihatdan kamol topishiga yordam beradi. Hissiyot rivojlanishining eng muhim jihati – bolalar atrofdagilarga, borliqqa, tabiatga nisbatan befarq, loqayd bo‘lmaydi. Ming afsuski, “bugungi kunda o‘qish umummadaniy, estetik, hissiy ehtiyojlarni qondirishga emas, balki eng oddiy axborot olish ehtiyojini qodirish” [16] ga yo‘naltirilmoqda.

Bolalarning kitob bilan muloqoti uni o‘qishda ko‘rinadi. Mohiyatan o‘qish “ijtimoiy ahamiyatli axborotlar, kasbiy va kundalik faoliyatni tashkil etishda zarur bo‘lgan bilimlar, avval va hozirda madaniy jihatdan qadrli bo‘lgan tarixiy hamda zamonaviy voqealar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘zlashtirishning muhim usuli” [17] dir.

Pedagogik manbalarda o‘quvchilar, ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tomonidan tashkil etiladigan faoliyatning asosiy turlari o‘yin, mehnat va o‘qish ekanligi qayd etib o‘tiladi. O‘yin faoliyati ixtiyoriylikka asoslanib, o‘quvchilar tomonidan borliqni anglash, amaliy harakatlarni tashkil etish ko‘nikma, malakalarini o‘zlashtirish, kattalarning harakatlarini imitatsiyalash uchun imkoniyat yaratiladi. Mehnat va o‘qish faoliyatlari majburiylik xususiyatiga ega. Ular orqali o‘quvchilar mehnat va o‘qish (ta’lim olish)ni ijtimoiy zaruriyat ekanligini anglaydi, muayyan turdagi mehnat faoliyatini bajarishga oid

---

[14] Сайвид С. Китобсиз келажак йўқ //http://uza.uz/oz/society/kitobsiz-kelazhak-y-16-01-2017.

[15] Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2014. – 72 б.

[16] Миллионер бўлишга тайёр эканлигингизнинг 5 та белгиси //https://daryo.uz/k/2017/08/08/millioner-bolishga-tayyor-ekanligingizning-5-ta-belgisi.

[17] Инновационные формы работы по формированию читательской грамотности // http://gimnazia38.ru/wp-content/uploads/2016/03/Инновационные- формы-работы-по-формированию-читательской-грамотности.pdf

ko'nikma va malakalarni o'zlashtiradi, uni tashkil etish jarayonida ijobiy fazilatlar – mehnatsevarlik, tartiblilik, intizom, o'zgalarning mehnati hamda mehnat mahsulotlariga ijobiy munosabatda bo'lish, ularni asrash, ulardan tejamkorlik bilan foydalanish, o'z xatti-harakatlari uchun javobgarlik, mas'uliyat kabilarni o'zlashtirib boradi.

Garchi o'qish boshlang'ich sinf o'quvchilarining faoliyatida o'yin va mehnat kabi asosiy o'rinni egallasa ham ushbu jarayonni tashkil etish o'z-o'zidan ro'y bermaydi. Boshlang'ich sinflarda o'qish jarayonini samarali, muvaffaqiyatli tashkil etish o'quvchilarda kitobxonlik ko'nikmalarini nafaqat shakllantirish, shu bilan birga rivojlantirish muayyan pedagogik-psixologik shart-sharoitlarning mavjudligi, ularning individual-shaxsiy xususiyatlarini inobatga olish orqali ta'minlanadi. Quyida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik mohiyati to'g'risida so'z yuritiladi.

"Mutolaa" ("kitob o'qish") tushunchasi arab tilidan tarjima qilinganda "diqqat bilan o'qish", "o'rganish" ma'nolarini anglatadi. Nazariy jihatdan ushbu tushuncha "diqqat bilan o'qish, o'qib tushunib olish" [18] ni anglatadi. Shuni unutmaslik zarurki, kitob o'qish – boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mashaqqatli mehnat sanaladi. V.A.Suxomlinskiyning fikricha, "kitob o'qish aqlli, fikrlovchi tarbiyachi uchun bolaning yuragiga yo'l topishga yordam beradigan so'qmoq yo'lga o'xshaydi"[19] . So'qmoq yo'ldan yurish esa har doim ham oson kechmaydi. Shu sababli bu jarayonni asta-sekin, biroq, izchil tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Psixologlarning fikriga ko'ra, bolalarning aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik kamol topishida ikki muhim davr ko'zga tashlanadi:

a) 2 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan davr. b) 5 yosh va undan keyingi davr.

Mazkur davrlar o'zida quyidagi xususiyatlarni namoyon etadi[20] :

---

[18] Ўзбек тилининг изохли лугати. Н – Тартибли / 5 жилдли. Учинчи жилд. А.Мадвалиев тахрири остида. – Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2007. – 655-б.
[19] Сухомлинский В.А. Сердце отдаю детям. – Минск: Народная асвета, 2001. – 341 с.
[20] Фактор // http://ru.wikipedia.org/wiki

| Yosh davrlari | |
|---|---|
| **2 yoshdan 5 yoshgacha bo‘lgan davr** | **5 yosh va undan keyingi davr** |
| Bola o‘z ongi yordamida san’atni hayotdan ajrata olmaydi, shuning uchun badiiy asarlarga ham o‘yinchoqqa yondashgan singari munosabatda bo‘ladi yoki hayotning aynan o‘zi aks etadi, deb hisoblaydi; san’atni esa xuddi qiziqarli o‘yin kabi qabul qiladi | Bolaning o‘zi mustaqil ravishda hayotni san’atdan farqlay boshlaydi va san’at uning uchun qadrli bo‘lib boradi |
| O‘zining asar matnida bayon qilingan voqealar to‘g‘risidagi tasavvurlarida bola hech qachon badiiy asar chegaralaridan chiqmaydi, bayon etilayotgan voqealarni real joy yoki vaqt bilan bog‘lamaydi, voqelikni o‘zicha o‘zgartiradi, unga yangi personajlar yoki boshqa asarlardagi badiiy qahramonlarni qo‘shadi | Bola badiiy asarni boshqacha fikrlar, tuyg‘ular va tasavvurga ega begona kishi tomonidan yaratilgan, “o‘zga” dunyoning aksi sifatida qabul qila boshlaydi |

O‘qishni bilish va axborot olish faoliyatining ko‘rinishi sifatida shaxs shakllanishining tarkibiy tuzilmasida alohida o‘rin tutadi. Binobarin, u fikriy faoliyatni shakllantiradi, ahamiyatli darajada turli ijtimoiy sharoitlar, masalan, ta’lim va yosh xususiyatlariga bog‘liq holda bilimlarni egallash darajasi bo‘lgan rivojlanish, ta’lim va tarbiyaning, shuningdek, madaniy tajribaning asosi [21] sanaladi. Bu o‘rinda mashhur pedagog V.A.Suxomlinskiy kitob o‘qitishning ahamiyati haqida so‘z yuritar ekan, quyidagilarni yozadi: “Kitob bolalarning ma’naviy

[21] Бородина В. А. Культура чтения – универсум развития личности и модернизация образования // Культура чтения в контексте модернизации Российской школы: материалы Второй науч.-практ. конф. – СПб.: 2003. – С. 10.

hayotida katta rol o'ynaydi, faqat qachonki, bola yaxshi o'qiy olsa. "Yaxshi o'qish" deganda nima tushuniladi. Bu, avvalo, eng oddiy ko'nikma – o'qish texnikasini o'zlashtira olishdir"[22] .

Darhaqiqat, mutolaa kitobxon shaxsini shakllantirishning muhim asosi bo'lib, u muayyan ko'nikma, malaka va tajribaga ega bo'lishni taqozo qiladi. Pedagogik yo'nalish va bolalarda o'qish ko'nikmasi, malakasi va madaniyatini shakllantirishga qaratilgan tadqiqotlarning natijalarini umumlashtirilgan holda mutolaa ko'nikmalari quyidagilardan iborat ekanligini aytib o'tish mumkin: matnda nima, kim haqida so'z yuritilayotganligidan kelib chiqqan holda vaziyatni tushunish; muhim axborotni ajratib ko'rsatish; matn ostida ifodalangan yashirin sabab va mo'ljallarni tushunish; matnning hal qiluvchi tahlili: matnning turli qismlarini o'lchash; shaxsiy tajribani qiyoslash; matnning shaklini o'zgartirish va izohlash: mazmunni chiqarish; matn bo'yicha muhokamani tashkil etish, o'qilganlarga asoslangan holda xulosa chiqarish; matnni baholash, muallifning pozitsiyasi (yondashuvi)ni ko'ra olish, yaxlit holda asarning kayfiyatini his qilish; o'qilganlarga nisbatan shaxsiy munosabatni shakllantirish va o'z tanlovini izohlash[23] .

"Texnika, o'qish sur'ati, o'qiganlarni tushunish – kichik yoshdagi maktab o'quvchisining badiiy, shu bilan birga, umumiy ta'limdagi olg'a harakatlanishining asosiy tashkil etuvchilari sanaladi"[24] . Ayni o'rinda shuni ko'rsatib o'tish joizki, o'quvchilarning o'qish (mutolaa) sur'ati "ta'limning asosiy tarkibiy qismi emas, u ta'lim oluvchining individual xususiyatlari, kuch-quvvati, asab tizimining qo'zg'aluvchanligi, temperamentiga bog'liq. Shu sababli bir daqiqada o'qiladigan so'zlarning miqdori har bir bola uchun alohida belgilash"[25] talab etiladi.

Psixolog A.P. Nechayevning tadqiqotlarida o'quvchilarning o'quv-bilish darajasidan kelib chiqqan holda mutolaaning turlarini belgilab beriladi. Bunda muallif o'quv-bilish darajasiga tayangan holda bolalarni uch guruhga

---

[22] Сухомлинский В.А. Сердце отдаю детям. – Минск: Народная асвета, 2001. – 287 с.
[23] Бунеева Е.В., Чиндилова О.В. Технология работы с текстом в начальной школе и 5-6 классах (технология формирования типа правильной читательской деятельности) // Образовательные технологии. Сборник материалов. – М.: Баласс, 2008. – С. 77.
[24] Зрунин Т.П. Развитие самостоятельной читательской деятельности младших школьников // https://nsportal.ru/nachalnaya-shkola/chtenie/ 2012/03/31/razvitie-samostoyatelnoy-chitatelskoy-deyatelnosti-mladshikh.
[25] Зрунин Т.П. Развитие самостоятельной читательской деятельности младших школьников // https://nsportal.ru/nachalnaya-shkola/chtenie/ 2012/03/31/razvitie-samostoyatelnoy-chitatelskoy-deyatelnosti-mladshikh.

ajratadi:

1-guruh – matnni badiiy idrok va tasavvur qila oladigan o‘quvchilar:

2-guruh – o‘qilganlarni sust tushunadigan, matnga nisbatan shaxsiy munosabat bildira olmaydigan va ko‘rish idroki past darajali o‘quvchilar;

3-guruh – faol tasavvuri past darajada bo‘lgan, “ruhiy avtomatizm” belgilariga ega o‘quvchilar[26] .

Kitob o‘qishning izchil olib borilishi, davomiyligi natijasida asta-sekin o‘qish madaniyati o‘zlashtiriladi. O‘qish madaniyati “shaxsning kitobxon sifatida rivojlanganlik darajasini, ongi, faoliyati va muloqotining miqdor hamda sifat ko‘rsatkichlarini ifodalovchi holati” [27] demakdir.

L.A.Mosunova mutolaani o‘quvchi shaxsida o‘z-o‘zini anglash qobiliyatini rivojlantirish vositasi sifatida e’tirof etgan holda badiiy adabiyotni idrok etish murakkab jarayon bo‘lib, u bir necha tarkibiy asoslarga ega bo‘lishiga alohida urg‘u beradi. Muallifning e’tirofi badiiy adabiyotni idrok etishning tarkibiy asoslari quyidagilardan iboratligini ko‘rsatadi: qayta tiklash va ijodiy tafakkurlarni faollashtirish; o‘quvchilarda motivatsion zahiralarni ko‘paytirish; ta’lim jarayonini insoniylashtirish; ijodiy faoliyatni tashkil etish tajribasini bosqichma-bosqich rivojlantirish [28].

Kitob o‘qish (kitob mutolaasi) da eng muhim omil – qiziqish sanaladi. Asar syujetining qiziqarliligi, bayon etish usulining sodda, ravonligi bolalarni kitobga bo‘lgan e’tiborini tortadi. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kitob o‘qishga majburlash emas, balki ularda kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishni shakllantirish hamda tizimli ravishda rivojlantirib borish zarur. Xo‘sh, qanday omillar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishni yuzaga keltiradi?

---

[26] Нечаев А.П. Психологические основы разных типов процесса чтения у детей // Хрестоматия по возрастной и педагогической психологии. – М.. Изд-во МГУ, 2000. – С. 8-11.

[27] Инновационные формы работы по формированию читательской грамотности // http://gimnazia38.ru/wp-content/uploads/2016/03/ Инновационные- формы-работы-по-формированию-читательской-грамотности.pdf

[28] Мосунова Л.А. О теоретических основах развития полноценного восприятия художественной литературы // Ж. Вестник Вятского государственного гуманитарного университета. – Вятск: 2009. - №1. – С. 29.

Pedagogik kuzatish, boshlang'ich sinf o'quvchilari, shuningdek, ularning ota-onalari bilan olib borilgan savol-javob, suhbatlar natijasida bolalarda kitob o'qishga bo'lgan qiziqish quyidagi omillar yordamida yuzaga kelishiga ishonch hosil qilindi: kitobning o'ziga xos shaklga egaligi, ko'plab tasvirlar bilan boyitilganligi, ularni bezatishda yorqin ranglardan foydalanilganlik, asar syujetining oson, ravon bayon etilganligi, asar qahramonlarining hayvonlar, o'simliklar, gullar, qo'g'irchoqlar, o'yinchoqlardan iborat bo'lishi, shuningdek, sehrgarlik, sarguzasht va sayohatlarga asoslanganligi, asar xotimasining ijobiy yakuni. Shu bilan birga tadqiqotni olib borish davrida boshlang'ich sinflarda kitob o'qishga bo'lgan qiziqishni hosil qilishda samarali bo'lgan pedagogik faoliyatning tashkiliy shakllarini aniqlashga ham e'tibor qaratildi.

Pedagogika yo'nalishida olib borilgan tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitob o'qishga qiziqishni rivojlantirishda sinfdan tashqari mashg'ulotlar muhim ahamiyat va tarbiyaviy ta'sirga ega ekanligi, shuningdek, ularni tashkil etishda rolli o'qish, suhbat, "o'ziga tortuvchi" suhbatdan foydalanish, shuningdek, rang-barang syujetli matnlarni tanlash, ularni o'qish, yo'l-yo'lakay muhokama qilish, eng qiziq o'rinlarda to'xtalish kabi metodlardan foydalanish samarali ekanligi ko'rsatilgan[29] .

Aksariyat tadqiqotchilarning yondashuvlariga ko'ra, qiziqish shaxsga xos sifatlardan biri bo'lib, u orqali atrof-muhitga bo'lgan munosabat ifodalanadi. Jumladan, N.G.Morozov va A.V.Petrovskiylarning fikriga ko'ra, qiziqish bevosita shaxsningatrof-borliqqa bo'lgan ijobiy yoki salbiy mazmundagi shaxsiy munosabati. N.G.Morozovaning e'tirofiga ko'ra, qiziqish – sub'ekt va ob'ekt o'rtasidagi hissiy-anglash mohiyatiga ega munosabat bo'lib, u ijobiy ham salbiy ham bo'lishi mumkin [30]. A.V.Petrovskiy esa qiziqishni yagona ehtiyoj bilan bog'liq bilish xarakteridagi kognitiv-motivatsion holat deb hisoblaydi [31].

---

[29] Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2014. – 72 б.
[30] Сластенин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Педагогика / Учеб. пособие для студ. высш. пед.учеб. зав. – М.: Издат-ский центр "Академия", 2002. – С. 20.
[31] Петровский, А. В. Общая психология / Учеб. для студ.пед. ин-тов. – 2-е изд., доп. и перераб. – М.: Просвещение, 1996. – С. 195.

Pedagog olim G.I.Shukina ham qiziqishni shaxsning o‘z atrofidagi borliqqa bo‘lgan munosabati ekanligini to‘g‘risidagi fikrni tasdiqlaydi, biroq, N.G.Morozov, A.V.Petrovskiy [32] lardan farqli ravishda munosabatni ehtiyojligini inkor etadi. Uning firiga ko‘ra, munosabat va ehtiyoj bu bir-biridan farq qiladigan shaxsga xos sifat. Ular o‘rtasidagi farq "biologik va ijtimoiy, shuningdek, ko‘lami va hayotiy vazifasi"[33] da ko‘rinadi. Psixolog olim S.L.Rubinshteyn esa qiziqish va ehtiyojning bir-biriga bog‘liq emas, aksincha, alohida holatlarni ifodalashiga urg‘u beradi: "qiziqish predmetlar bilan tanishish istagini uyg‘otadi, ehtiyoj esa – ularga egalik qilish xohishini"[34] .

Turli yoshdagi bolalarning psixologik, fiziologik va jismoniy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ular uchun kitobni mutolaa qilish vaqti hamda asar hajmining to‘g‘ri tanlanishi ham ularda badiiy adabiyotlarga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirishga yordam beradi. Qolaversa, yosh xususiyatiga ko‘ra kitob o‘qish uchun vaqt va asar hajmining to‘g‘ri tanlanishi kitobni o‘qish jarayonida uning mazmunini yetarli darajada tushunish, bayon etilayotgan voqea va hodisalarning mohiyatini anglash, fikrlash, yuzaga keladigan savollar yuzasidan mushohada yuritish, ularga javob topish hamda muayyan xulosalar chiqarishga xizmat qiladi. Kitob mazmunining oson tushunilishi ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida uni o‘qishga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi.

Qiziqish va ehtiyojning mavjudligi o‘z navbatida o‘quvchilarda kitob o‘qishga ijobiy munosabatni shakllantiradi. Shaxsning voqelikka, voqelikdagi narsalarga, hodisalarga qarashi, yondashish tamoyili [35] tarzda talqin etiladigan "munosabat" tushunchasining arab tilidan tarjimasi "munosiblik", "muvofiqlik" ekanligi nazarda tutilsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kitob o‘qishga qiziqtirish uchun tanlangan asar ularning yosh, psixologik xususiyatlari va jismoniy-fiziologik

---

[32] Петровский, А. В. Общая психология / Учеб. для студ.пед. ин-тов. – 2-е изд., доп. и перераб. – М.: Просвещение, 1996. – С. 168.
[33] Щукина Г.И. Актуальные вопросы формирования интереса в обучении. – М.: Сфера, 2004. – 112 с.
[34] Рубинштейн Л.С. Основы общей психологии. – 2-е издание. – СПб.: Питер, 2009. – С. 186-525.
[35] Ўзбек тилининг изохли луғати. Н – Тартибли / 5 жилдли. Учинчи жилд. А.Мадвалиев таҳрири остида. – Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2007. – 640-б.

imkoniyatlariga muvofiq kelishi zarur.

Bir guruh pedagog va psixologlar tomonidan olib borilgan tajribalar natijalarigat ko'ra 1 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar bilan kitob o'qishda samarali bo'lgan vaqt hajmi aniqlangan (1.1.1-jadval):

**1.1.1-jadval. Maktabgacha ta'lim yoshi bolalarini kitob o'qishga jalb etishda samarali bo'lgan vaqt hajmi**

| № | Bolaning yoshi | Kitob o'qishning kunlik davomiyligi (o'qish va muhokama qilish) |
|---|---|---|
| 1. | 1 yoshdan 2 yoshgacha | Vaqt birligi kichik hajmli she'r, qo'shiqlarning tanlanishiga bog'liq |
| 2. | 2 yoshdan 3 yoshgacha | 5-10 daqiqa |
| 3. | 3 yoshdan 4 yoshgacha | 10-15-daqiqa |
| 4. | 4 yoshdan 5 yoshgacha | 10-15-daqiqa |
| 5. | 5 yoshdan 6 yoshgacha | 15-20-daqiqa |
| 6. | 6 yoshdan 7 yoshgacha | 20-25-daqiqa |

Kitob mutolaasi uchun sarflanayotgan vaqtning shaxsga xos bo'lgan psixologik, fiziologik va jismoniy imkoniyatlarga mos kelmasligi esa zerikish va toliqishga, natijada qiziqish va ehtiyojning pasayishiga olib keladi. Shu sababli kitob mutolaa qilish jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchilari, ota-onalar o'quvchilarning psixologik, fiziologik va jismoniy imkoniyatlariga tayanib ish ko'rishlari zarur.

Pedagogika va psixologik yo'nalishlarda amalga oshirilgan tadqiqotlarda e'tirof etilishicha, shaxs, xususan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining mutolaa ko'nikma va malakalariga egaliklari quyidagi mezonlar bilan o'lchanadi: 1. To'g'ri o'qish. 2. Tezkor o'qish. 3. O'qishning ifodaviyligi. 4. Tushunib o'qish.

Xo'sh, to'g'ri o'qish, tezkor o'qish, o'qishning ifodaviyligi, tushunib o'qish tushunchalari o'zida qanday ma'noni anglatadi?

Agar, ***to'g'ri o'qish*** – o'qilayotgan mazmunga ta'sir etmasligi uchun buzmasdan, ya'ni, xatolarsiz o'qish[36] bo'lsa, ***tezkor o'qish*** –

[36] Леонтьев А.Н. Психологические основы развития ребенка и обучения. – М.: Смысл, 2009. – С. 125.

o'qilganlarni ongli idrok etishni ifodalovchi va ta'minlovchi o'qish tezligi[37], tushunib o'qish (onglilik, anglanganlik) esa boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan o'qilgan matnning haqiqiy mazmunini tushunish, asarning g'oyasini, obrazlarini va badiiy vosita sifatidagi rolini to'g'ri anglash, shuningdek, o'quvchida muallif tomonidan tasvirlangan holatlarga to'g'ri munosabatning shakllanishi[38]. Bizning fikrimizga ko'ra, tushunib o'qish shaxsning asar mazmunini anglanishi, asar syujetini qayta talqin eta olishi, qahramonlarning xatti-harakatlari hamda asarga munosabat bildira olishidir.

**O'qishning ifodaviyligi** – asar mazmunining g'oyasi, obrazlari harakatga keltiradigan sifat tarzida uni tahlil qilish jarayonida shakllanadigan o'qish. Ifodaviylikda yetakchilik qiladigan intonatsiya nutqdagi to'xtalish va yarim to'xtalishlar, ritmi, urg'u, sur'at, ovozning ko'tarilishi va pasayishi kabi holatlar bilan belgilanadi [39].

A.V.Avdieeva va M.V.Molkovaning fikriga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilarining kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini quyidagi ko'rsatkichlar asosida aniqlash va baholash mumkin: kitobxonlik faoliyatiga ijobiy munosabatda bo'lish ("kitob o'qishni yaxshi ko'raman"); aniq (o'ziga yoqtirgan) kitoblarni o'qishga qiziqish ("mana shu kitoblarni o'qishni yoqtiraman"); o'qish jarayonidan zavqlanish ("kitobni qo'ldan qo'ygim kelmaydi"); boshqalar bilan kitobdan olgan taassurotlarini o'rtoqlashishga intilish ("boshqalar ham bu kitob haqida bilishni xohlayman") [40].

Shaxs va kitobxonlik masalasini o'rganishda "kitobxonlik savodxonligi"[41] tushunchasi ham qo'llaniladi. Elektron manbalardan birida bu tushuncha ikki xil talqin qilinadi: 1) shaxsning yozma matnlar mazmunini tushunish va ularni tushunish, ular to'g'risida mushohada yuritish hamda o'z maqsadlariga erishish, bilimlari va ijtimoiy hayotda ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish qobiliyati; 2) jamiyat talablari

---

[37] Леонтьев А.Н. Психологические основы развития ребенка и обучения. – М.: Смысл, 2009. – С. 134.
[38] Леонтьев А.Н. Психологические основы развития ребенка и обучения. – М.: Смысл, 2009. – С. 149-150.
[39] Леонтьев А.Н. Психологические основы развития ребенка и обучения. – М.: Смысл, 2009. – С. 119.
[40] Авдеева А.В., Молькова М.В. Формирование читательской компетенции младших школьников // Ж. Молодой ученый. – Казань: 2015. - №22. – С. 44.
[41] Филатова С.Г. Станиславчик Н.Ф. Формирование читательской грамотности младших школьников в рамках ФГОС //150.

yoki shaxsning o‘z qadriyatlaridan kelib chiqqan holda yozma nutqning turli-tuman shakllarini tushunish va undan foydalanish qobiliyati [42]. Bizning fikrimizcha, savodxonlik qobiliyat sifatida talqin etilmasligi zarur. Zero, “savod”, “savodxonlik” tushunchalarining o‘zi “o‘qish-yozishdan xabardorlik”, “o‘qish-yozishni bilish” [43] ekanligi, ko‘p holatlarda o‘qish-yozishning dastlabki, eng oddiy asoslari (qoidalari)ning o‘zlashtirilganligi, bu hodisaning dastlabki holati ekanligi nazarda tutilsa fikrimizning to‘g‘riligi tasdiqlanadi.

Mantiqan kitobxonlik savodxonligi “maktabgacha ta’lim yoshidan bolaning namunalar asosida va tarbiyachiga taqlid qilgan holda qadri, ahamiyatini tushunishi uchun kitob bilan muloqotda bo‘lishga o‘rgatish”ga qaratilgan pedagogik jarayonda shakllanadi [44].

S.G.Filatova va N.F.Stanislavchik [45] larning ishlarida muammo sifatida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik savodxonligini shakllantirish belgilangan. Bolalarni kitob bilan tanishtirish, ularda kitob o‘qishning dastlabki, eng oddiy asoslariga oid tushunchalarni shakllantirish yo‘lga qo‘yiladi. Demak, bolalarda kitobxonlik savodxonligini shakllantirish ushbu ijtimoiy institutlarda ta’minlanadi. Shu sababli, bizning fikrimizcha, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kitob bilan muloqotlarini ta’minlashga qaratilgan jarayon “kitobxonlik savodxonligini shakllantirish” deb emas (zero, bu jarayon oila va maktabgacha ta’lim muassasalarida o‘z yakuniga yetadi), balki “kitob bilan ishlash va mustaqil ishlash ko‘nikmalari shakllantirish” sifatida qabul qilinishi kerak.

Ushbu fikrning tasdig‘i sifatida elektron manbalarning birida bildirilgan bolalar o‘rtasida adabiy ta’limni tashkil etish, uning darajalari muddatini belgilashga oid quyidagi fikrlar ham tasdiqlaydi: “bolalar bog‘chasi va oilada adabiy ta’limning birinchi darajasi shakllanadi [46].

---

[42] Инновационные формы работы по формированию читательской грамотности // http://gimnazia38.ru/wp-content/uploads/2016/03/ Инновационные- формы-работы-по-формированию-читательской-грамотности.pdf.

[43] Ўзбек тилининг изохли луғати. Е – М / 5 жилдли. Иккинчи жилд. А.Мадвалиев тахрири остида. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – 416-б.

[44] Виды анализа текста (с примерами) // https://studfiles.net/preview/ 6812001/page:4.

[45] Филатова С.Г. Станиславчик Н.Ф. Формирование читательской грамотности младших школьников в рамках ФГОС //Ошибка! Недопустимый объект гиперссылки.

[46] Виды анализа текста (с примерами) // https://studfiles.net/preview/ 6812001/page:4.

Birinchi sinfdagi kitob o'qish o'quv-nutqiy faoliyat bilan belgilanadi. O'qituvchi bolalarga kitob o'qib berishni davom ettiradi.

Adabiy ta'limning ikkinchi darajasi – kitob bilan ishlashning asosiy metodi sifatida o'qish-suratlarni ko'zdan kechirish orqali boshlang'ich obrazlarning shakllanishi bilan belgilanadi. Ikkinchi sinfdagi kitob o'qish o'quv-bilish va kommuniktiv faoliyat (muallif yoki o'qituvchi bilan, shuningdek, o'quvchilarning bir-birlari bilan muloqotlari) asosida kechadi, unda o'qilganlardan olingan taassurotlar ifodalanadi.

Uchinchi va to'rtinchi sinflarda esa estetik kitobxonlik faoliyati (yoki estetik daraja oldi) boshlanadi. Estetik daraja – o'quvchi badiiy asarning aqliy va hissiy darajasini tushunishi bilan bog'liq .

Pedagogik terminologiyada "kitobxonlik savodxonligi" tushunchasini qo'llashga nisbatan dissertantning shaxsiy yondashuvini ifodalash negizida tadqiqotni olib borish davrida turli yosh davridagi shaxsning kitob bilan muloqotini muayyan tushunchalar yordamida ifodalashga harakat qilindi. Bizning fikrimizcha, turli yosh bosqichidagi shaxsning kitob bilan muloqotini quyidagi shaklda ifodalash to'g'ridir:

1) oila va maktabgacha ta'lim muassasasi (ijtimoiy institutlarning dastlabki bo'g'ini)da "kitobxonlik savodxonligi" (bolalar kitob o'qishning dastlabki, eng oddiy asos (qoida)lari bilan tanishtiriladi);

2) boshlang'ich ta'lim (1-4-sinflar)da "kitobxonlik ko'nikmasi" (o'quvchilarda o'qituvchi, ota-ona yoki volontyor bilan hamkorlikda izchil kitob o'qish ko'nikmalari shakllanib, asta-sekin kitobni mustaqil o'qish ko'nikmalari rivojlanadi);

3) umumiy ta'limning o'rta bo'g'ini (5-8-sinflar)da "kitobxonlik malakasi" (o'quvchilarda barcha metodik shartlaridan xabardorlik asosida mavjud ko'nikmalar kitob o'qishning ularni mustaqil tanlash, mazmunini tahlil qilish, asar mazmuni va syujetiga munosabat bildirish, xulosa chiqarishni ifodalovchi malakalarga aylanadi);

4) umumiy o'rta ta'limning yuqori bo'g'ini (9-11-sinflar) va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida "kitobxonlik kompetentligi" (o'quvchilar o'zlarining kitob o'qish va kitobxonlik asoslariga oid bilim, ko'nikma, malakalarni amaliyotga bevosita tatbiq eta olish, shuningdek, mavjud

hayotiy tajribalaridan amalda samarali foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi);

5) oliy ta'lim muassasalarida "kitobxonlik madaniyati" (talabalar kitob o'qish va kitobxonlik asoslariga oid bilim, ko'nikma, malaka hamda hayotiy tajribalarini amalda samarali qo'llagan holda muayyan yutuqlarni qo'lga kiritadi, zero, kitobxonlik negizida rivojlangan ma'naviy-axloqiy va estetik dunyoqarashga ega bo'lish individni shaxs sifatida kamol topishiga yordam beradi).

Shaxsning kitobga bo'lgan ijobiy munosabati u tomonidan izchil, samarali tashkil etiladigan kitobxonlik faoliyatida namoyon bo'ladi. "Kitobxonlik faoliyati – shaxsning kundalik faoliyati va hayot tarzini tashkil etishga bo'lgan yondashuvi"[47] ni anglatadi. Bu o'rinda keltirilgan ta'rif, bizning fikrimizcha, kitobxonlik faoliyati mohiyatini yetarlicha yoritmaydi, chunki "kundalik faoliyat" tushunchasi keng qamrovli bo'lib, yo'nalishi, xarakteri, qolaversa, shaxsning o'z oldiga qo'ygan maqsadi tufayli bir necha ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Jumladan, mehnat faoliyati, o'yin faoliyati, o'quv-bilish faoliyati, ijtimoiy faoliyati, kasbiy faoliyati va b. Shu sababli berilayotgan ta'rif aniq ifodalanishi zarur. Bu o'rinda tushunchani quyidagicha ta'riflash mumkin: kitobxonlik faoliyati – shaxsning kitob tanlash, uni o'qish, asar g'oyasi va mazmunini tahlil qilish, baholash, xulosa chiqarish, asar syujetiga nisbatan munosabat bildirishdan iborat xatti-harakati.

Kitobxonlikda nimalar ko'zga tashlanadi? Yoki boshqacha aytganda, haqiqiy kitobxon qanday sifatlarga ega bo'ladi?

Tadqiqot olib borish davrida hayotiy tajriba, pedagogik kuzatish hamda kitoblarni, shu jumladan, badiiy kitoblarni ko'p o'qiydigan shaxslar faoliyatini kuzatish natijasida o'qish va kitoblarga mehr qo'yshgan shaxslar quyidagi sifatlarga ega bo'lishlari aniqlandi: asar mazmunini tushunish; asar voqeliklari o'rtasidagi izchil bog'liqlik va aloqadorlikni ko'ra olish; asar qahramonlarining kechinmalari, o'y-fikrlari, hayotiy intilishlarini tushunish va ularga hamdardlik bildira

---

[47] Инновационные формы работы по формированию читательской грамотности // http://gimnazia38.ru/wp-content/uploads/2016/03/Инновационные-формы-работы-по-формированию-читательской-грамотности.pdf

olish; o'zini asar qahramonining o'rniga qo'yib, u duch kelgan muammolarni hal qilishga urinish, muammoni hal qilishning yo'llarini izlash; asar mazmuni va voqeliklariga nisbatan shaxsiy munosabatni ifodalash.

Pedagogik tadqiqotlarda, shuningdek, "kitobxonlik kompetentligi" tushunchasi ham qo'llaniladi. Masalan, rossiyalik pedagog A.Yu.Xanxatova o'zining ta'limiy loyihasida "boshlang'ich sinf o'quvchilarining kitobxonlik kompetentligi" tushunchasini sharhlashga e'tibor qaratgan. Muallifning nuqtai nazariga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilarining kitobxonlik kompetentligi – bolalarda kitobni o'qish va uni o'qishdan keyingi harakatlarga qo'yiladigan talablar asosida asar mazmunini maqsadga muvofiq tarzda individual anglash qobiliyati[48]. Bu o'rinda aytish mumkinki, ta'rif yetarli darajada to'g'ri ifodalanmagan. Chunki, "kompetentlik" tushunchasining mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni amalda qo'llay olish, hayotiy tajribadan samarali foydalanish ekanligi inobatga olinsa, berilgan ta'rif "kitobxonlik kompetentligi" atamasining mohiyatini to'la yorita olmaydi.

Bizning fikrimizga ko'ra, A.V.Avdieeva, M.V.Molkovalar tomonidan tushunchaga berilgan ta'rif nisbatan to'g'ri ifodalangan. Ya'ni, kitobxonlik kompetentligi – bolaga kitoblarni tanlashda mustaqil harakat qila olish, kutubxona xizmatidan foydalanish savodxonligi hamda kitob o'qishga ijobiy munosabatga ega bo'lish uchun zaruriy bilim, ko'nikma va malakalar majmui"[49] bo'lib, u shaxsning butun hayoti davomida takomillashib boradigan sifatlar tarzida rivojlanib boradi, deb hisoblaydi[50].

Bu o'rinda tushunchani quyidagicha ifodalash uning mohiyatini yetarlicha yorita oladi degan taklifni ilgari surmoqchimiz: kitobxonlik kompetentligi kitob o'qish, kitobxonlik faoliyatini oqilona tashkil etishga oid bilim, ko'nikma, malaka va hayotiy tajribadan amalda hech bir qiyinchiliksiz, samarali foydalana olish qobiliyatidir.

---

[48] Олимлар телевизор пультини китобга алмаштиришни тавсия қилишди //https://zamin.uz/life-style/12575-olimlar-televizor-pultini-kitobga-almashtirishni-tavsiya-qilishdi.html.

[49] Авдеева А.В., Молькова М.В. Формирование читательской компетенции младших школьников // Ж. Молодой учёный. – Казань: 2015. - №22. – С. 44.

[50] Авдеева А.В., Молькова М.В. Формирование читательской компетенции младших школьников // Ж. Молодой учёный. – Казань: 2015. - №22. – С. 45.

Shaxsning kitobxonlik kompetentsiyasini zarur darajada shakllantirishni ta'minlashda ta'lim muassasalari alohida o'rin tutadi[51]. Ularda boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik kompetentligini shakllantirishga doir ishlarni quyidagi yo'nalishlarda olib borish maqsadga muvofiqdir: 1) o'quvchilarda ovoz chiqarib va ovoz chiqarmay o'qish ko'nikma, malakalarini rivojlantirish; 2) har bir o'quvchida: 1) tanishish xarakteridagi o'qish; 2) chuqurlashtirilgan o'qish; 3) izlanishga asoslangan o'qish; 4) tomosha qilishga asoslangan o'qish kabi kitob o'qish turlari bo'yicha ko'nikma, malakalarni hosil qilish[52].

Xalqaro o'quvchilarning ta'limiy yutuqlarini baholash dasturi – PISA (Programme for International Student Assessment) jamoasi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar jarayonida kitobxonlik kompetentligi negizida g'oyasi, maqsadli va rasmiy tuzilishiga ko'ra turli xarakterdagi matnlarni tushunish, ular o'rtasida aloqani bir qadar kengroq hayotiy tajriba bilan bog'lay olish, ulardan o'quv faniga muvofiq turli maqsadlar uchun foydalanish imkoniyatiga ega, shuningdek, muhim bo'lsa-da, biroq, qo'yilgan maqsadga mos kelmaydigan axborotlarni matndan chiqarib tashlash qobiliyati tushuniladi[53].

Pedagogik sohadagi tadqiqotlarda "kitobxonlik madaniyati" tushunchasi ham faol qo'llaniladi. Elektron manbalardan birida ko'rsatilishicha, kitobxonlik madaniyati – kitobxonlik ko'nikmasi, ehtiyoji va dunyoqarashi: o'qishg va kitobga bo'lgan barqaror qiziqish, kitobxonlik zakovati, matnni ifodaviy va tushungan holda o'qitish ko'nikmasi, turli janrdagi asarlarni o'zlashtirishga bo'lgan qobiliyat, zaruriy nazariy-badiiy bilimlar, o'qilgan asarlarni biblografik, nutqiy va talqiniy bilimlar, o'qilganlar bilan bog'liq holda o'z fikri va tuyg'ularini ifodalovchi nutqiy, shuningdek, muallifning pozitsiyasini tushunish

[51] Основы читательской культуры // https://studfiles.net/preview/ 6812001.

[52] Авдеева А.В., Молькова М.В. Формирование читательской компетенции младших школьников // Ж. Молодой ученый. – Казань: 2015. - №22. – С. 45.

[53] Инновационные формы работы по формированию читательской грамотности // http://gimnazia38.ru/wp-content/uploads/2016/03/Инновационные- формы-работы-по-формированию-читательской-грамотности.pdf

malakasi rivojlanganligining muayyan darajasi[54] hisoblanadi. Bizning yondashuvimizga ko‘ra, “kitobxonlik madaniyati” negizida tegishli sifatning muayyan darajasi emas, balki yuqori darajasi aks etadi. Zero, “madaniyat” tushunchasi turli zamona va makonlarda ham yuqorilik, ustuvorlikni anglatishga xizmat qilgan.

Tadqiqotchi A.Mavrulov “Kitobxonlik madaniyati” tushunchasiga ta’rif berar ekan, quyidagichalarni qayd etib o‘tadi: kitobxonlik madaniyati – o‘zining kasbiy-mutaxassislik hamda badiiy-ma’naviy barkamolligini oshirish uchun kitobni tanlay olish va o‘zi uchun zarurini o‘qish; kitob ustida ishlash malakasini obdon o‘rganib olish va unga chuqur amal qila bilish; kitobni mustaqil o‘qiy bilish; o‘qigan kitobning asosiy mazmunini talqin qila bilish, uning fusunkor olamiga kira bilish; o‘qiganlaridan hayotiy xulosalar chiqarish; kitobning kerakli, zarur joylarini yon daftarchaga ko‘chirib olish, notanish bo‘lgan so‘zlarni esda saqlab qolishga intilish; muntazam ravishda o‘qish ko‘nikmasiga ega bo‘lish; kitob bilan muomalada eng qadrdon do‘stingga munosabatda bo‘lganday e’tibor bilan qarash; kitobni yaroqsiz holiga keltirmaslik uchun undan to‘g‘ri foydalana bilish; kitobni shoshilmasdan, o‘ylab, diqqat-e’tibor bilan o‘qish malakasiga ega bo‘lish, kutubxona kartotekalari bilan ishlay bilishni o‘rganish; o‘qigan kitobni do‘stlar bilan o‘rtoqlashish, yaxshi kitobni ularga tavsiya qilib, uni boshqalar ham o‘qib chiqishiga erishish; har bir yaxshi kitobni ilm qal’asining kaliti deb bilib, uning boqiy umrini ta’minlash[55] .

Bizning fikrimizga ko‘ra, kitobxonlik madaniyati – shaxsning yuqori darajada kitob o‘qish, kitobxonlik faoliyatini oqilona tashkil etishga oid bilim, ko‘nikma , malaka va hayotiy tajribadan samarali foydalana olish qobiliyatiga egaligi.

T.N.Pantyuxova va N.A.Zabrovskayalarning fikriga ko‘ra, kitobxonlik madaniyati o‘zida kutubxona etikasini, shuningdek, mustaqil ta’limning ko‘rinishi sifatida o‘qishning maqsadini (bu yerda bo‘sh vaqtning vazifasi ahamiyatsiz) ifodalaydi[56] .

---

[54] Виды анализа текста (с примерами) // https://studfiles.net/preview/ 6812001/page:4.
[54] Шарипов F. Китоб – хаётни ўргатувчи мураббий //http://uza.uz/oz/society/ kitob-ayetni-rgatuvchi-murabbiy-01-06-2018.
[55] Шарипов F. Китоб – хаётни ўргатувчи мураббий //http://uza.uz/oz/society/ kitob-ayetni-rgatuvchi-murabbiy-01-06-2018.
[56] Пантюхова Т.В. Читательская культура в обществе коммуникаций // Ж. Библиотековедение. – М.: 2008. - №3. – С. 63-53-8.

Shaxsda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, rivojlantirishda turli xarakterdagi tizimli topshiriqlarning berilishi samarali natijalarga erishishni kafolatlaydi. N.A.Kustovaning fikriga ko'ra tizimli topshiriqlar quyidagilar bo'lishi mumkin: 1. Savolga javob qaytarilishini taqozo etadigan topshiriqlar. 2. Savolni mustaqil ravishda qo'yishi taqozo etadigan topshiriqlar. 3. O'qish jarayonida savollar kelib chiqishiga turtki beradigan topshiriqlar. 4. O'qish jarayonida qo'yilgan savollarga javob qaytarilishini taqozo etadigan topshiriqlar[57] .

Bolalarda ijtimoiy xislatlar juda vaqtli uyg'onadi. Ular do'stlari, tengqurlari bilan ko'proq birga bo'lishga intiladi. A.I.Gertsen shunday deb ta'kidlagan edi: bolalar juda ochko'z tinglovchilardir, shuning uchun ular qiziquvchan bo'ladi, bitta hikoyani ko'p marta eshitishni yaxshi ko'radi. Ular nafaqat ertak va fantastik syujetlar, balki tarixiy voqealar, hayotiy dalillarga ham qiziqadi. O'quvchilarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda bularga alohida ahamiyat berish kerak [58].

Tadqiqotning ob'yekti boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmasini rivojlantirishdan iboratligi sababli tayanch kategoriyalar sirasida "kitobxonlik ko'nikmasi" tushunchasiga batafsil to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq deb topildi. Dastlab "ko'nikma" va "malaka" tushunchalari bilan ifodalanadigan holat o'rtasidagi farqni aniqlab olish pedagogik jihatdan to'g'ridir. "Ko'nikma, eng avvalo, ongli bajariladigan harakat bo'lsa, malaka ko'nikmaning avtomatlashish holatiga yetgan harakat, yuqori darajasi"[59] .

Kitobxonlik ko'nikmasiga ega bo'lishning muhim shartlaridan biri-kitob o'qish qoidalaridan xabardor bo'lish sanaladi. Shu sababli tajriba davrida dastlab sinov ishlariga jalb etilgan o'quvchilarning mutolaa ko'nikma, malakalariga egaliklarini aniqlashga ham e'tibor qaratildi.

A.G.Asmolov, G.V.Burmenskaya, I.A.Volodarskayalar boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan kitobxonlik ko'nikmalarini

---

[57] 20 лучших книг для чтения детям перед сном //https://www.7ya.ru/ article/Chtenie-bez-uvlecheniya-ili-Pochemu-rebenok-ne-hochet-chitat.

[58] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Н – Тартибли / 5 жилдли. Учинчи жилд. А.Мадвалиев таҳрири остида. – Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти. 2007. 19-21-б.

[59] Рубинштейн Л.С. Основы общей психологии. – 2-е издание. – СПб.: Питер, 2009. – С. 186.

shakllantirish masalalarini o‘rganar ekan, mazkur jarayonni tashkil etishda quyidagi harakatlarning amalga oshirilishi muhim ekanligini ta’kidlab o‘tadi: maqsadni anglash va qo‘yilgan vazifalardan kelib chiqqan holda o‘qish turini tanlash; asosiy va ikkinchi darajali axborotlarni aniqlash; matnning bosh g‘oyasi va muammosini shakllantirish[60].

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari badiiy asarlar vositasida o‘qish, fikrlash, his etish, ijod qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lib boradi. Badiiy asar bilan tanishish jarayonida yuzaga keladigan mazkur to‘rt holat (o‘qish, fikrlash, his etish, ijod qilish) muayyan didaktik vazifalarning bajarilishini ta’minlaydi. Ya’ni: yangi ma’lumotlarni o‘zlashtirish, atrof muhit bilan yaqindan tanishib borish (o‘qish); o‘zlashtirilgan ma’lumotlarga tayangan holda predmet, voqea va hodisalarni bir-biri bilan bog‘lash, natijaga ko‘ra xulosaga kelish (fikrlash); voqea, hodisalarning ishtirokchilari bo‘lgan qahramonlarning ruhiy holati tushunish, unga hamdard bo‘lish, uni qo‘llab-quvvatlash yoki tanqid qilish (his etish); asar voqea va hodisalarining boshqacha yechimga ega bo‘lishini istash, bu boradagi taklifni ilgari surish (ijod qilish).

“Kitobxonlik ko‘nikmasi” tushunchasini esa shunday ta’riflash mumkin: **kitobxonlik ko‘nikmasi** – boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kitob o‘qish qoidalaridan xabardorligi, qiziqishi va ehtiyojidan kelib chiqqan holda kitob (badiiy asar)ni tanlashi, kitob o‘qishga odatlanishi va bu yo‘lda harakatlarni izchil, doimiy tashkil etishi, kitob o‘qishdan zavqlanishi, asar mazmunini tushunishi, shuningdek, kitob o‘qishdan olgan taassurotlarini atrofdagilar bilan o‘rtoqlashishdan iborat ongli xatti-harakati, faoliyati.

**Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik ko‘nikmasini rivojlantirish** – tegishli yosh davri o‘quvchilari tomonidan kitob o‘qish (to‘g‘ri, tezkor, ifodali va tushunib o‘qish) hamda kitobxonlik (o‘qish qoidalaridan xabardorligi, kitob (badiiy asar)ni tanlashi, kitob o‘qishga odatlanishi va bu yo‘lda harakatlarni izchil, doimiy tashkil etishi, kitob

[60] Как проектировать универсальные учебные действия в начальной школе: от действия к мысли: пособие для учителя / Под ред. А.Г.Асмолова. – М.: Просвещение, 2011. – С. 15.

o'qishdan zavqlanishi, asar mazmunini tushunishi, kitob o'qishdan olgan taassurotlarini atrofdagilar bilan o'rtoqlashish) ko'nikmalarining malakaga aylanishini ta'minlashga qaratilgan pedagogik faoliyat jarayoni.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmasini samarali rivojlantirishda dastlab bu jarayonni tashkil etishda nimalarga e'tibor qaratish zarur, degan savolga javob topish talab etiladi. Bu jarayonda quyidagilarga e'tibor qaratish pedagogik faoliyatni metodik jihatdan to'g'ri, muvaffaqiyatli tashkil etilishini ta'minlaydi: 1. O'qituvchi, ota-onalar, oila a'zolarining kitobxonlik borasida boshlang'ich sinf o'quvchilariga namuna ko'rsata olishlari. 2. Maktabgacha hamda boshlang'ich ta'lim yoshi bolalari qiziquvchan bo'lishadi; ularning qiziquvchanligi sersavol bo'lishda yaqqol namoyon bo'ladi; o'quvchilarning xuddi shu xislatlariga tayangan holda ularning e'tiborlarini qiziqarli badiiy kitoblarga tortish asosida bu xislatni yanada boyitish mumkin. 3. Kitob mutolaasi vaqtida faqatgina bolalar tomonidan savollar berilishiga erishib qolmay, shu bilan birga vaqti-vaqti bilan ularga savollar asosida murojaat qilib, asarda bayon etilayotgan voqelik, qahramonlarning xatti-harakatlariga nisbatan munosabatlarini aniqlashtirib borish fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga, o'z munosabatini mantiqiy bayon qilishga o'rgatib boradi. 4. Asar voqeligida tilga olinayotgan qahramonlar (misol uchun, ularning yoshi nechadaligi (bu qahramonni real hayotdagi biror-bir shaxs bilan taqqoslash ya'ni, Kamronning akasi, Zilolaning oyisi, Shohruxning dadasi, mening buvimdek deyish asosida) ishtirok etayotgan turli buyum, predmet, jihozlarni qanday tasavvur qilayotganliklari bilan qiziqish (ularning qanday shaklda, rangda, kattalikda, miqdorda va h.k. tarzida) ularning bu haqidagi fikrlarini to'ldirish, yangi sifatlar bilan boyitish o'quvchilarning tasavvurini rivojlantirishda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. 5. O'qituvchi, ota-onalar yoki kutubxonasi tomonidan asar voqeligining muayyan o'rinlarida qisqa-qisqa to'xtalishlar qilish orqali o'quvchilarga shu jarayonning qanday kechishini to'g'risida o'ylab ko'rishga oid topshiriqni berish ta'limiy ahamiyatga ega bo'lib, ularda

mantiqiy fikrlash, o‘z fikrlash qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi.

Tegishli yosh davri o‘quvchilarida kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonining maqsadli, izchil, tizimli hamda samarali tashkil etilishida boshlang‘ich sinflarga rahbarlik qilayotgan o‘qituvchi muhim o‘rin tutib, asosiy vazifani bajaradi. O‘rganilayotgan jarayon tashkiliy-metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilishi zarur. Bunda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi kasbiy faoliyatni olib borishda quyidagilarlarga e’tibor qaratishi zarur: 1) boshlang‘ich sinflarning bosqichiga bog‘liq ravishda o‘quvchilar uchun ularning yoshi, psixologik xususiyatlari hamda jismoniy imkoniyatlariga muvofiq ravishda badiiy asarlarni tanlash; 2) o‘quvchilar bilan guruh yoki jamoa asosida badiiy asarlarni mutolaa qilishda samarali bo‘lgan shakl, metod va vositalarni tanlash; 3) o‘z sinfida o‘quvchilarning kitobxonlik ko‘nikmalariga ega bo‘lishlarini ta’minlash maqsadida oila, maktab axborot-resurs markazi, shuningdek, o‘rta hamda yuqori sinf o‘quvchilaridan iborat volontyorlar guruhi bilan hamkorlikka erishish; 4) ota-onalar, maktab kutubxonachisi va volontyorlar guruhi a’zolari bilan hamkorlikda badiiy asarlarni mutolaa qilishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat ish rejasini ishlab chiqish; 5) ota-onalar, maktab kutubxonachisi va volontyorlar guruhi a’zolariga boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan samarali ishlash yuzasidan metodik maslahatlarni tashkil etish yoki metodik yordam ko‘rsatish.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi ota-onalar, maktab kutubxonachisi va volontyorlar guruhi a’zolari bilan o‘zaro hamkorlikda o‘zi rahbarlik qilayotgan o‘quvchilarning kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonida kasbiy sifatlarga egaligini namoyon eta olishi zarur. Shuningdek, u “yuqori kasbiy mahoratli, nutqi ravon, mavzularni optimal yo‘llar bilan tushuntira oluvchi, ijodkor va tashabbuskor, o‘quvchilar bilan ta’limiy hamkorlikda ishlay oladigan, ularni mustaqil va mantiqiy fikrlashga yo‘naltiruvchi bo‘lishi kerak”[61] .

---

[61] Китоб – эзгулик, меҳр-оқибат элчиси //http://marifat.uz/marifat/v_pomosh_uchitelu-marifat/kitob.htm.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltiriladigan pedagogik-psixologik jarayon ma’lum talablar asosida tashkil etilishi zarur. Xususan: o‘quvchilarda badiiy adabiyotni idrok qilish va anglash qobiliyatini rivojlantirishga erishish; bu jarayonda o‘quvchilarning intellektual, bilish va hissiy faoliyati yotishini nazarda tutish; mazkur jarayonning muayyan bosqichlardan iboratligini inobatga olish asosida pedagogik faoliyatni tashkil etish; boshlang‘ich sinflarda badiiy asarlarni mutolaa qilish jarayonining ovoz chiqarib o‘qishga asoslanishi samarali ekanligini inobatga olish; yorqin ranglar, e’tiborni tortadigan obrazlar bilan boyitilgan bolalarga mo‘ljallangan, yuqori sifatli poligrafiya mahsuloti bo‘lgan badiiy asarlarni tanlash; badiiy asarlarni mutolaa qilish jarayonida o‘quvchilarning tasavvur dunyosini boyitish, orzularini erkin bayon qilishlari uchun zarur imkoniyatni yaratish; o‘quvchilarni turli janrdagi adabiyotlar bilan yaqindan tanishtirib borish; bunda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi tomonidan o‘quvchilarga badiiy asarlarning janrlari – proza (hikoya, qissa, ertak-roman), poeziya (she’r, ballada, qasida), dramaturgiya (spektakl, novella, miniatyura, radio instsenirovka) kabilar haqida qisqacha ma’lumot berib o‘tiladi; shuningdek, o‘qituvchi o‘quvchilarni folklyor asarlar (xalq og‘zaki ijodi namunalari) va ular (xalq ertaklari, topishmoq, maqol, masal, hisobga o‘rgatuvchi va hazil she’rlar)dan ham tanishtirib borishi ularni badiiy adabiyotlarni mutolaa qilishga bo‘lgan qiziqish va ehtiyojlarini kuchaytirishga yordam beradi; shuningdek, manbalarda bolalarni badiiy adabiyotlar bilan yaqindan tanishishda zamonaviy axborot texnologiyalarning texnik va funksional imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda bolalarga mo‘ljallangan badiiy adabiyotlarning audio va video mahsulotlarini yaratish “bolaning kitob bilan muloqotini yaxshilash va rang-barang bo‘lishi” [62] ga erishish imkoniyatini yaratishi aytiladi.

[62] Фактор // http://ru.wikipedia.org/wiki.

Har qanday ish-harakat, faoliyat ko'nikmalarini o'zlashtirishda uni tashkil etishga qanchalik ko'p kuch sarflash emas, balki jarayonning davomli, izchil, uzluksiz bo'lishi samarali sanaladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishda ham ana shu maqsadga qaratilgan pedagogik faoliyatning davomli, izchil bo'lishi muhimdir.

Tegishli yosh davri o'quvchilari bilan badiiy asarni mutolaa qilishda uning kichik teatr tomoshasiga aylantirish, o'quvchilarning o'zlarini ham unda ishtirok etishga jalb qilish kutilgan natijaga olib keladi.

Pedagogik va psixologik jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishda bir necha samarali yo'llardan foydalanish kutilgan natijaga erishishga yordam beradi.

Xo'sh, bular qanday yo'llar? Bizning fikrimizga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali bo'lgan yo'llar quyidagilardir:

1-yo'l – o'qituvchi yoki kutubxonachi ishtirokida sinf o'quvchilari bilan jamoa bo'lib kitob mutolaa qilish.

2-yo'l – o'qituvchi yoki kutubxonasining kitobni ifodali, ohang bilan o'qitilishiga e'tiborni qaratishi (asar voqeligidan kelib chiqqan holda personaj va obrazlarni ularning "tili"dan, mimika (yuz ifodasi), pantomimika (gavda harakati), turli jest (qo'l va oyoqlarning harakati) yordamida bayon etish, o'qish jarayonida ovoz ohangini turli holatlarda o'zgartirish o'quvchilarda kitobga bo'lgan qiziqishni oshiradi).

3-yo'l – o'qituvchi yoki kutubxonasi tomonidan o'qilayotgan kitob imkon qadar kulguli voqeliklarga asoslangan, aksincha, fojiali hodisalarning bayoniga asoslanmagan bo'lishi zarur.

Aksariyat boshlang'ich sinf o'quvchilari maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalangan. O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan barcha maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim dasturlariga muvofiq tarbiyalanuvchilarda yozish, o'qish, hisoblash, rasm chizish va turli xom ashyolardan rang-barang buyumlarni yasash ko'nikmalari shakllantiriladi. Shu sababli ular maktab ta'limiga muayyan amaliy

ko'nikma va malakalarga ega holda kelishadi. Ammo, boshlang'ich sinflarda ta'lim oladigan o'quvchilarning muayyan qismi maktabgacha ta'lim muassasalariga jalb etilmaganligi, uyda ota-onalar yoki vasiy (buva-buvi)lar, oilaning yoshi katta a'zolari tomonidan e'tibor qaratilmaganligi sababli bolaning maktab ta'limiga tayyorligini tavsiflovchi yozish, o'qish, hisoblash, rasm chizish va turli xom ashyolardan rang-barang buyumlarni yasash ko'nikma, malakalariga ega bo'lmaydi.

Shunga ko'ra boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'lim jarayonida ushbu holatni inobatga olgan holda o'quvchilarni rasmiy bo'lmasa-da, norasmiy ravishda quyidagi ikki guruhga ajratib olishlari zarur: 1) yozish, o'qish, hisoblash, rasm chizish va turli xom ashyolardan rang-barang buyumlarni yasash ko'nikma, malakalariga ega bo'lgan o'quvchilar; 2) yozish, o'qish, hisoblash, rasm chizish va turli xom ashyolardan rang-barang buyumlarni yasash ko'nikma, malakalariga ega bo'lmagan o'quvchilar.

Bugungi kunda ko'pincha bolalar kitob o'qimayotganlikda ayblanadilar. Lekin ularga rang-barang adabiyotlar tavsiya qilish zarurligi o'qituvchilarning ham, kutubxonachilarning ham e'tiboridan chetda qolmoqda. Buning uchun o'qituvchilardan o'quvchilarning kitoblarga bo'lgan qiziqishlari, ehtiyojlarini yaxshi bilishilari talab etiladi... O'quvchilar kitob o'qimasligining sabablardan biri oilada ota-ona, maktabda o'qituvchi tomonidan kitobga mehr uyg'ota olmaslik yoki o'qiydigan, qiziqarli badiiy kitoblar yetishmasligidadir [63]. O'quvchilarning kitob o'qish va kitobxonlikka nisbatan salbiy munosabatda bo'lishlarida, yuqorida aytilganidek, bu jarayonni tashkiliy, moddiy ta'minotini yaratuvchi nashriyotlar, nazariy-pedagogik va amaliy-metodik jihatdan oqilona, samarali uyushtira olmayotgan ota-onalar, o'qituvchilar hamda soha uchun mas'ul ijtimoiy tashkilotlarning javobgarligini inkor qilib bo'lmaydi. Binobarin, ta'lim jarayonini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish o'quvchilarda

---

[63] Қаюмхўжаева Ё. Ўқувчиларнинг китобхонлик маданиятини шакллантириш имкониятлари. – Т.: А.Қодирий номидаги Тошкент давлат маданият институти, 2007. – 12-б.

kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning tashkiliy-pedagogik jihatlarini takomillashtirish bilan bog‘liqdir[64] .

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida shakllantirilgan kitobxonlik ko‘nikmalari (kitobni mavjud talablarga muvofiq ota-onalar, o‘qituvchi, kutubxonachi va volontyorlar yordamida o‘qishni o‘rganish)ning keyingi darajasi kitobxonlik malakasi (kitobni mavjud talablarga muvofiq ota-onalar, o‘qituvchi, kutubxonachi va volontyorlar yordamisiz, mustaqil o‘qishni o‘rganish)ning shakllanishi bo‘ladi. Maktabgacha ta’lim yoshining yuqori bosqichlaridayoq asar qahramonlarining tuyg‘ulari, o‘y-fikrlari, ichki kechinmalari, hayotiy intilishlarini his qilish, syujetning rivojlanishini kuzatib borish, asarda bayon etilgan voqea, hodisalarni bir-biri bilan o‘zaro taqqoslash kabi sifatlar rivojlanadi. Boshlang‘ich sinflarda esa ushbu ko‘nikmalarning malakalarga aylanishini ta’minlash maqsadga muvofiqdir.

Nazariy tahlil natijalariga ko‘ra aytish mumkinki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish bevosita beshta bosqichda amalga oshiriladi. Ya’ni (1.2.1-rasm)




**1.2.1-rasm. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik Ko‘nikmalarini rivojlantirishning asosiy bosqichlari**

[64] Quronov D. Muhimi – kitobxonlik darajasi va madaniyati // https://ziyouz. uz/suhbatlar/dilmurod-quronov-muhimi-kitobhonlik-darajasi-va-madaniyati-2015.

Shunday qilib, boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirish murakkab pedagogik jarayon. Uning samarali tashkil etilishi boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan ushbu jarayonga maqsadli, tizimli yondashishni talab etadi. Binobarin, tegishli yosh davri o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirishda boshlang'ich sinf o'qituvchilari yetakchi o'rin egallaydi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilarda kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirish jarayonining pedagogik-psixologik asoslari, tashkiliy-metodik talablaridan yetarli darajada xabardor bo'lsalargina kutilgan natijani qo'lga kiritish mumkin. Ular, shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirishda bu boradagi mavjud ahvoldan, qolaversa, mazkur jarayonning samarali kechishiga xizmat qiladigan omillar, ularning pedagogik-psixologik ta'siridan ham xabardor bo'lishlari zarur.

# BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA KITOBXONLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK TA'MINOTI

## Xorijiy tajribalarining boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni

Har bir jamiyatning istiqboli bugun kamol topayotgan bolalar, yoshlar tomonidan bunyod etiladi. Shu sababli yosh avlod tarbiyasini tashkil etish eng muhim ijtimoiy-pedagogik vazifa sanaladi. U qanday zamon, qaysi makon bo'lishidan qat'iy nazar hamisha ushbu vazifaning ijobiy hal qilinishi jamiyatning e'tibor markazida bo'lgan.

Mavjud sharoitda O'zbekistonda yosh avlodga ta'lim berish, ularni umuminsoniy qadriyatlar, ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiyaning rivoji bilan bog'liq ma'naviy-axloqiy talablar, ijtimoiy ehtiyojlar asosida tarbiyalash davlat siyosati darajasida hal etilmoqda. Zero, yosh avlodning kamoloti, u bilan uzviy bog'liq holda jamiyatning ravnaqi ularning ijtimoiy-hayotiy maqsadlari, ustuvor qadriyatlari, oliy darajadagi intilishlari hamda keng dunyoqarash asosida ta'minlanadi. Bunga erishishda bolalar va yoshlarning kitob o'qishga, kitobxonlikka bo'lgan munosabatlari muhim ahamiyatga ega.

Asriy yondashuvlarga tayangan holda aytish mumkinki, kitoblar yoshlar shaxsini shakllantiradi, ularning keng dunyoqarash, boy intellektual salohiyat va tafakkurga ega bo'lishlari uchun asosiy poydevorni yaratadi. Bu o'rinda: "...Bugungi bolalar ertangi kunda xalqqa aylanadi. Yoshlarni kitobga qaytarishimiz kerak. Axborot-kommunikatsiya sohasidagi oxirgi yutuqlarni o'zlashtirish bilan birga, yoshlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirishga, ularning kitob bilan do'st bo'lishiga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim"[65], - deya alohida ta'kidlab o'tadi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev.

[65] Саййид С. Китобсиз келажак йўк //http://uza.uz/oz/society/kitobsiz-kelazhak-y-16-01-2017.

Jamiyat va shaxs kitobxonligi yo‘nalishida olib borilgan tadqiqotlarning natijalari ham kitob o‘qish katta yoshdagi kishilarning intellektual, psixologik va fiziologik rivojlanishi uchun yanada ijobiy ta’sir ko‘rsatishidan dalolat beradi. AdMe.ru saytida e’lon qilingan ma’lumotlar ushbu fikrning haqqoniyligini tasdiqlaydi. Keltirilgan ma’lumotlar sirasida kitob o‘qishning bolalar va o‘smirlarning umumiy psixologik, intellektual, hattoki, fiziologik rivoji uchun ahamiyatli bo‘lgan g‘oyalar ham mavjud. Chunonchi, kitob o‘qish: asabni tinchlantiradi (Sasseks universiteti (AQSh) olimlarining yondashuvlariga ko‘ra, kitob o‘qitish asabni tinchlantirishda eng samarali usul ekan; buning uchun kuniga bor-yo‘g‘i 6 daqiqa vaqt sarflash talab etiladi); hissiyotlarni (xuddi duo yoki she’r o‘qish kabi) tarbiyalaydi (badiiy asar o‘qigan odam hayotda ham boshqalarning his-tuyg‘ularini yaxshi tushunadi); miya faoliyatining faolligini oshiradi, miyadagi asab tolalarining sonini ko‘paytiradi (Emori universiteti (AQSh)ning tadqiqotchilariga ko‘ra, kitob o‘qish natijasida insonning aqliy salohiyati bir necha kun davomida yuqori holatda bo‘ladi); kommunikativlik, tinglash, yozish hamda ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantiradi (Obafemi Avolau universiteti (AQSh) pedagoglari bolalarda ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishini aniqlashgan, darhaqiqat, ko‘p kitob o‘qigan shaxslarning aksariyati she’r, hikoya, esse yoki ilmiy maqolalarni yuqori saviyada yoza oladi; badiiy asarlarni, ayniqsa, she’rlarni ifodali o‘qish, sahna asarlarini yuksak mahorat bilan ijro etish qobiliyatiga ega); ijtimoiy faollikni oshiradi; badiiy didni o‘stiradi; xorijiy tillarni o‘rganishni osonlashtiradi (boshqa tillarni o‘rganishda yangi so‘zlarni oson tushunishga va yodda saqlab qolishga yordam beradi); ko‘p kitob o‘qiydigan bolalar darslarni yaxshi o‘zlashtirishadi; yaxshi hikoyanavisga aylantiradi (qancha ko‘p kitob o‘qilsa, shaxsning hikoya qilish qobiliyati shunchalik oshadi), ota-onalar va farzandlarning o‘zaro munosabatlari yaxshilanadi[66] .

Yel universitetida olib borilgan tadqiqotlar natijalarining tasdiqlashicha, bir haftada 3,5 soat yoki bir kunda o‘rtacha 30 daqiqa

---

[66] Китоб ўқишнинг 21 фойдаси //https://zamin.uz/life-style/14196-kitob-oqishning-21-foydasi.html.

kitob o'qish o'lim xavfini 17 foizga qisqartiradi. Haftasiga 3,5 soatdan ko'p kitob mutolaa qiluvchilar uchun esa o'lim xavfi 23 foizga qisqarishi ma'lum bo'ldi. Tadqiqotchilarning fikricha, kitoblar "bilim ko'nikmalari"ni oshirish bilan bir qatorda "hamdardlik, ijtimoiy idrok va hissiy intellektni rivojlantirish"ga xizmat qiladi[67] .

Rossiya FRda olib borilgan tadqiqotlarda o'quvchilarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirish ishlarini tashkil qiluvchi tashkilotchilarning faoliyati yuzasidan V.G.Belinskiy, A.I.Gertsen, N.A.Dobrolyubov, L.N.Tolstoy, N.G.Chernishevskiy, K.D.Ushinskiy kabi yozuvchi, tanqidchi va pedagoglar o'z fikrlarini bildirgan [68].

Ma'lumki, bolalarning kitoblarga bo'lgan ijobiy munosabatini shakllantirishda ular uchun mo'ljallangan adabiyotlar muhim ahamiyatga ega. Bu esa ko'plab tadqiqotchilarni bolalar adabiyotlari va ularning yaratish tarixini yaratishga undagan. Ana shunday tadqiqotlardan biri rossiyalik pedagog F.I.Setina tomonidan olib borilgan. Tadqiqotchining bildirishicha, Rossiyada bolalar uchun birinchi badiiy asar XV asrning ikkinchi yarmida vujudga kelgan"[69]. Davlatchilik tarixini o'rganish ham Rossiyada XV asrning oxiri XVI asrning boshlarida ishlab chiqarish manufakturadan texnika zimmasiga o'tkazila boshlagan. Bu esa tabiiy ravishda zavod va fabrikalarga ishga qabul qilinayotganlarning savodli bo'lishini taqozo etardi. Natijada aholining mehnatga yaroqli qatlamiga tezkor tarzda ta'lim berish yo'l va usullarini izlab topishni taqozo qilardi. Asosiy ish kuchini tashkil etuvchilar orasida bolalarning ham borligi ularda savodxonlik ko'nikma, malakalarini rivojlantirishga nisbatan zaruriyatni yuzaga keltirdi. Bu zaruriatni qondirishning samarali yo'llaridan biri – bolalar uchun mo'ljallangan adabiyotlarni yaratish orqali ularning savodini chiqarish, dunyoqarashini kengaytirish, degan xulosaga kelindi.

1574-yilda I.Fyodorov tomonidan birinchi marta bolalar uchun "Azbuka" kitobi bosmadan chiqarilgan. Mazkur kitobda bolalarga

---

[67] Орлова Э.А. Рекомендации по повышению уровня читательской компетенции в рамках Национальной программы поддержки и развития чтении // http://ifapcom.ru/files/publications/rekomend_obr_1.pdf.

[68] Каюмхўжаева Ё. Ўкувчиларнинг китобхонлик маданиятини шакллантириш имкониятлари. – Т.: А.Қодирий номидаги Тошкент давлат маданият институти, 2007. – 20-б.

[69] Каюмхўжаева Ё. Ўкувчиларнинг китобхонлик маданиятини шакллантириш имкониятлари. – Т.: А.Қодирий номидаги Тошкент давлат маданият институти, 2007. – 20-21-б.

ta'lim-tarbiya berish bo'yicha ota-onalarga maslahatlar, bolalar mustaqil o'qishlari uchun ijod namunalari ham berilgan. L.Zizaniya tomonidan 1596-yilda Vilnoda chop etilgan kitob ham o'sha davrda katta qiziqishga ega bo'lgan. Mazkur kitobda muallif ilk bor bolalarning qiziqishlari va imkoniyatlarini hisobga olishga harakat qilgan[70].

So'z yuritilayotgan davrda "ko'p kitoblar, asosan, cherkov kutubxonalarida saqlangan... Bilimli va ko'p o'qigan monaxlar orasidan kutubxonachilar tayinlangan. Ularning asosiy vazifasi kitoblarni saqlash va o'quvchilarga tarqatishdan iborat bo'lgan" [71].

V.G.Belinskiy bolalarning ma'naviy, madaniy, badiiy-estetik sifatlari, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, ularni vatanparvar, insonparvar qilib tarbiyalash, mehnat, hayotga tayyorlashda kitob va kitobxonlikning ahamiyati kattaligini alohida ta'kidlab o'tgan. "Bolalar kitoblari haqida" maqolasida muallif: "Tarbiya – buyuk ish, u orqali inson taqdiri hal qilinadi... Aynan bolalar uchun yoziladigan kitoblar tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi lozim", - deb yozadi.

Bolalar tomonidan kitoblarning tushungan holda, izchil o'qilishi uchun ular uchun mo'ljallangan kitoblar muayyan talablar asosida yaratilishi zarur. V.G.Belinskiy bolalar kitoblarining mazmuniga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqib, bu turdagi kitoblarda bolalarning hissiyoti va tasavvurlarini rivojlantirishga qaratilgan matn, ertak va hikoyalarning o'rin olishi lozimgini ta'kidlab o'tgan. "Bolalar uchun yozilgan kitoblar ularga quvonch, hayrat, qiziqish, his-hayajon bag'ishlashi, qiziquvchanlik xislatlarini uyg'otishi lozim [72].

XX asrning boshlarida ham ilg'or qarashlarga ega insoniyat yoshlarni kitob o'qishga, kitobxonlikka rag'batlantirish jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy omil ekanligini e'tirof etgan holda bu yo'lda amaliy ishlarni olib borishga urindi. Xususan, 1929-31-yillar oralig'ida Rossiyada turli yosh davrlariga mansub kishilarda kitob o'qishga ijobiy munosabatni shakllantirish, kitobxonlik ko'nikma,

---

[70] Каюмхўжаева Е. Ўқувчиларнинг китобхонлик маданиятини шакллантириш имкониятлари. – Т.: А.Қодирий номидаги Тошкент давлат маданият институти, 2007. – 21-б.

[71] Каюмхўжаева Е. Ўқувчиларнинг китобхонлик маданиятини шакллантириш имкониятлари. – Т.: А.Қодирий номидаги Тошкент давлат маданият институти, 2007. – 21-б.

[72] Каюмхўжаева Е. Ўқувчиларнинг китобхонлик маданиятини шакллантириш имкониятлари. – Т.: А.Қодирий номидаги Тошкент давлат маданият институти, 2007. – 22-23-б.

malakalarini rivojlantirishning psixologik jihatlarini tadqiqot etishga qaratilgan turkum ilmiy izlanishlar olib borildi. N.A.Rubakinning "Kitobxon ruhiyati va kitoblar" ("Психология читателяи книги"; 1929-y.), Ya.Shafiming "Kitobxon ruhiyatidan ocherklar" ("Очерки психологии читателя"; 1927-y.), S.L.Valьdgardning "Kitob o'qish (mutolaa) psixologiyasi ocherklari"; 1931-y.), Ya.V.Rivlinning "Kitob o'qish (mutolaa) psixologiyasi; 1929-y.) nomli asarlarida shaxsni faol kitobxon bo'lib shakllanishida nafaqat ruhiy, shu bilan birga ijtimoiy, pedagogik omillar ham muhim o'rin tutishi aytib o'tilgan[73] .

Mavzuga doir tadqiqotlarda shaxsning kitob o'qishga bo'lgan munosabati ikki xil: birinchidan, tuzilmaviy (kitob o'qishning o'zaro aloqador elementlardan tarkib topgan qandaydir murakkab tuzilmaga ega sifatida tasavvur qilish), ikkinchidan, amaliy (alohida ruhiy jarayonlar – diqqat, xotira, tafakkur, hissiyot va ularning kitob o'qish jarayonida namoyon bo'lishi) yondashuvni o'zida namoyon etishi tarzida e'tirof etiladi[74] .

S.A.Denisovaning tadqiqoti [75] da bolalarda kitob o'qishga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantiruvchi asosiy muhit sifatida oila va unda tashkil etilayotgan tarbiya masalalari o'rganiladi. Muallifning e'tirof etishicha, qachonki oilaning katta yoshli a'zolari kitobxon bo'lsa, oilada kitobga nisbatan kattalarning ijobiy munosabati aks etsa, oila davrasida kitoblar va ularda bayon etilgan voqeliklar, qahramonlarning xatti-harakatlari muhokama qilinsa, ularga nisbatan munosabat bildirilsa, oila a'zolari tomonidan yangi chop etilgan asarlar haqidagi ma'lumotlar o'zaro o'rtoqlashilsa, uning juda ham qizilarli ekanligi e'tirof etilsa, bolalarda ham kitob o'qishga bo'lgan qiziqish hamda ehtiyoj yuzaga keladi.

Muallif bolalarda juda yoshligidan shakllantirilgan kitobga nisbatan ijobiy munosabat uning butun hayoti davomida o'z izini qoldiradi. Qolaversa, bu o'rinda uy kutubxonasining tshkil etilishi ham kutilgan natijalarni qo'lga kiritish uchun sharoit yaratadi.

---

[73] Збаровская Н.В. Информационная культура личности // Ж. Библиотечное дело. – М.: 2005. - №1. – С. 156.
[74] Збаровская Н.В. Информационная культура личности // Ж. Библиотечное дело. – М.: 2005. - №1. – С. 156.
[75] Денисова С.А. Родители о детском чтении и роли библиотек // Ж. Родительское собрание по детскому чтению. – 2008. – С. 32.

M.M.Bezrukix tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda bolalar. yoshlar va umuman, aholi o'rtasida kitobxonlik malakasi va madaniyatini shakllantirishda davlatning o'ziga xos o'rin tutishiga e'tibor qaratilgan. Tadqiqotchi davlatning bu boradagi roli quyidagi ikki yo'nalishda namoyon bo'ladi, deb hisoblaydi: 1) oliy ta'lim jarayonida bo'lajak pedagoglarni to'g'ri o'qishga o'rgatishdan iborat; 2) ota-onalar o'rtasida ma'rifiy targ'ibotni tashkil etish; uchinchidan, bolalar yozuvchilari faoliyatini qo'llab-quvvatlash [76].

Tajriba-sinov ishlarini olib borish davrida xorijiy davlatlarda yoshlar, xususan, bolalarda kitob o'qishga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantirish yo'lida ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, ilg'or an'analar o'rganildi. O'rganish natijalarining ko'rsatishicha, Rossiya FRda ana shu maqsadda bir qator ta'lim dasturlari ishlab chiqilganligiga guvoh bo'lindi. Ular (3.1.1-jadval):

3.1.1-jadval

**Bolalar kitobxonligini rivojlantirishga doir xorijiy ta'lim dasturlari (Rossiya FR)**

| № | Dasturlarning nomi | Dasturlarning mualliflari |
|---|---|---|
| 1. | "Радуга" ("Kamalak") | T.N.Doronova, V.V.Gerbova, T.I.Grizik, Ye.V.Solovyeva, Ye.V.Solosheva, S.G.Yakobson |
| 2. | "Развитие" ("Rivojlanish") | E.V.Andreeva, V.I.Bardina va b.; A.I.Bulichevaning tahriri ostida |
| 3. | "Истоки" ("Sarchashma") | T.I.Alieva, T.V.Antonova, L.A.Paramonova, Ye.P.Arnautov va b. M.N.Lazutovning tahriri ostida |
| 4. | "Детство" ("Bolalik") | T.I.Babayeva, V.I.Loginova, A.G.Gogoberidze, 3.A.Mixaylova, O.V.Solntseva va b. |
| 5. | "Из детства – в отрочество" | T.N.Doronova, L.G.Golubeva, T.I.Grizik va b. |

[76] Мокина М. Чтение – основа грамотности // Ж. Этносфера. – М.: 2008. – № 12. – С. 21-22.

| | | |
|---|---|---|
| | ("Bolalikdan o'smirlikka") | T.N.Doronova muharrirligi ostida |

Quyidagi bolalarda kitob o'qish ko'nikmasini shakllantirishga doir mazkur ta'lim dasturlari[77] ning mohiyati, asosiy maqsadi va yo'nalishlar bo'yicha belgilangan vazifalar xususida so'z yuritiladi (3.2-jadval):

**3.2-jadval. Bolalar kitobxonligini rivojlantirishga doir xorijiy ta'lim dasturlarining umumiy mohiyati (Rossiya FR)**

| Dasturlarning maqsadi | Ta'lim dasturlarining vazifalari (yo'nalishlari) |
|---|---|
| I. "Радуга" ("Kamalak") | |
| Bolalarning jismoniy, ruhiy salomatligini saqlash, mustahkamlash, ularda sog'lom hayot tarziga bo'lgan odatlarni shakllantirish; har bir bolaning o'z vaqtida va to'laqonli ruhiy rivojlanishi uchun ko'maklashish; har bir bolaning bolalik davrini quvonch bilan va mazmunli o'tkazilishini ta'minlash | Bolalarda badiiy adabiyotga bo'lgan qiziqishni hosil qilish va mustahkamlash; bolalar bilan o'qilganlarning mazmunini muhokama qilish, ularda "badiiy til"ni qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish; yetarli darajada matnlarni tahlil qilishga o'rgatish; janr jihatdan turlicha bo'lgan badiiy asarlar bilan tanishtirish; kitobga ehtiyotkorona yondashish ko'nikmasini shakllantirish |
| II. "Развитие" ("Rivojlanish") | |
| Bolalar adabiyotlari bilan tanishtirish asosida bolalarda nutqni rivojlantirish | 1-yo'nalish: bolalarni badiiy adabiyotlar bilan tanishtirish.<br>2-yo'nalish: bolalar tomonidan badiiy-nutqiy faoliyatni tashkil etishning maxsus vositalarini o'zlashtirishga |

[77] Из детства – в творчество / Программа для родителей и воспитателей по формированию здоровья и развитию детей от 1 года до 7 лет. Т.Н.Доронова и др. – М.: Просвещение, 2007. – 303 с.

| | |
|---|---|
| | ko‘maklashish.<br>3-yo‘nalish: bolalarni ular uchun mo‘ljallangan adabiyotlar bilan tanishtirish asosida ularda bilish qobiliyatini rivojlantirish |
| III. "Истоки" ("Sarchashma") | |
| Bolalarning individual va yosh imkoniyatlarini inobatga olgan holda ularni har tomonlama to‘laqonli rivojlanishini ta’minlovchi sharoitlarni yaratish | Bolalarda turli janr (ertak, hikoya, she’r) va mavzulardagi badiiy va folьklor asarlarni tinglash qobiliyatini rivojlantirish; asarga nisbatan hissiy ta’sirchanlikni shakllantirish; kitob o‘qishdan bolalarni yaqin-uzoq "dunyo", ertaklarning qahramonlari, ularning xarakteri, real voqeliklar, kattalar va bolalarning xatti-harakatlari to‘g‘risidagi tasavvurni boyitish; bolalarda asardagi harakatlar (syujet rivoji)ni kuzatib borish ko‘nikmasini shakllantirish; o‘qilganlarni tushunishga oid savollarga javob berish va uni muhokama qilishga o‘rgatish |
| IV. "Детство" ("Bolalik") | |
| Har bir bolada atrof muhit bilan o‘zaro munosabatga kirishish, turli faoliyat turlarini o‘zlashtirish, o‘z-o‘zini ijodiy shakllantirish (mustaqillik, bilishga bo‘lgan layoqat, kommunikativ faollik, ijtimoiy ishonch, qadriyatli | 1) turli janrdagi folklyor namunalari (hayvon-lar va sehrgarlik mavzusidagi qochirim, topish-moq, afsona, ertaklar), badiiy proza (ertak, hikoya) va poeziya (she’r, she’riy ertak va mualliflik topishmoqlari) negizida badiiy asarni tinglash tajribasini kengaytirish; 2) bolalarda adabiyotga bo‘lgan qiziqishni chuqurlashtirish, kitoblar bilan kattalar yordamida yoki mustaqil ravishda |

| | |
|---|---|
| yo‘nalganlik va b) qobiliyatlarni rivojlantirish uchun sharoit yaratish | doimiy muloqotda bo‘lishga nisbatan qiziqishni tarbiyalash; 3) matnni tushunish: aso-siy mazmunni tushunish, vaqtinchalik va oddiy sababiy aloqalarni tiklash, qahramonlarning asosiy sifatlarini, murakkab bo‘lmagan motiv va xatti-harakatlarini ko‘rsatish, ularning pozitsiyalarini axloqiy me’yorlar asosida baholash, asar qahramonlariga achinish, ularga hamdard bo‘lish; badiiy ifodaviylikning ahamiyatini anglash qobiliyatini rivojlantirish |
| V. “Из детства – в отрочество” (“Bolalikdan o‘smirlikka”) | |
| Bolalarinng ruhan har tomonlama kamol topishlari uchun oilada va ta’lim muassasalarida zarur shart-sharoitlarni yaratish | Turli nuqsonlarni erta proflaktika va korrek-tsiyalash asosida bolalarning salomatligi va rivojlanishini ta’minlash, turli zo‘riqishlarga nisbatan barqarorlik, immunitetni oshirish va biologik omillar hamda ijtimoiy xavf-xatar-larni inobatga olgan holda organizmning barcha amaliy tizimi sifatli yetilishiga erishish; milliy o‘ziga xoslik, til va an’anaviy qadriyat-larni hurmat qilishga o‘rgatish, kattalar va teng-doshlar bilan muloqot qilish ko‘nikmasini shakllantirish |

Z.A.Gritsenkoning “Yoqimli narsalar haqida o‘qidim...” (“Пришли мне чтения доброго...”)[78], “O‘qishga yuragingni joyla”

[78] Гриценко З.А. Пришли мне чтения доброго / Пособ. для чтения и рассказывания детям седьмого года жизни (с метод. реком. – М.: Просвещение, 2003. – 93 с.

("Положи твоё сердце и чтения")[79] nomli uslubiy qo'llanmasi maktabgacha ta'lim yoshi, shuningdek, yetti yoshli bolalar uchun mo'ljallagan. Ushbu uslubiy qo'llanmalarda bolalarni ularga mo'ljallangan adabiyotlar bilan tanishtirish, ularni o'qish va qayta hikoya qilishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar tizimini keltiradi, shuningdek, bolalarda kitobxonlik ko'nikmalarini izchil shakllantirishga doir metodik tavsiyanomalarni beradi. Qo'llanmalarning amaliy qiymati shundaki, unda ota-onalar uchun bolalarga mo'ljallangan badiiy asarlarning ro'yxati berilgan[80] .

O.V.Akulova, L.M.Gurevich[81] larning "Badiiy asarlarni o'qish" ("Чтение художественной литературы"), L.M.Gurovichning "Bola va kitob" ("Ребёнок и книга", bolalar bog'chalarining tarbiyachilari uchun) tomonidan chop etilgan o'quv-uslubiy qo'llanma hamda uslubiy qo'llanmalarda tegishli yosh davridagi bolalarda kitob o'qishga, badiiy asarga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantirish masalalari yoritilgan. Mualliflarning bu boradagi yondashuvlari ta'limiy o'yin xarakteridagi vaziyatlar, o'yinlar, suhbatlar asosida ertak, hikoya va she'rlarni o'qish, ularni qayta hikoya qilish, asar voqeliklarini hissiy idrok etish, badiiy ijodkorlikni shakllantirish, lug'at boyligini oshirish, bolalar uchun badiiy asarlarni tanlash bo'yicha ota-onalarga berilgan metodik tavsiyalar to'g'risida so'z yuritilgan.

Rossiya FRda kitobxonlikning o'quvchilarni estetik va ma'naviy-axloqiy tarbiyalashdagi ahamiyati hamda me'yoriy o'quv jarayoniga qo'shish imkoniyatini anglagan holda boshlang'ich sinflarda qo'shimcha ta'lim bo'yicha sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari tashkil etiladi. Mazkur muammodan kelib chiqqan holda 2, 3 va 4-sinflar uchun sinfdan tashqari o'qish bo'yicha tajriba dasturi tayyorlandi. Uch yil mobaynida tayyorlangan "Вдумчивое чтение" ("Mulohaza asosida o'qish") nomli ushbu dasturning maqsadi asosiy hamda qo'shimcha ta'lim sifatida o'quvchilarning uyda ham, sinfdan tashqari o'qish darslarida ham

---

[79] Гриценко З.А. Положи твое сердце у чтения / Пособ. для родителей по орг. чтения дошкольникам. 2-е изд. – М.: Просвещение: РОСМЭН, 2004. – 77 с

[80] Из детства – в творчество / Программа для родителей и воспитателей по формированию здоровья и развитию детей от 1 года до 7 лет. Т.Н Доронова и др. – М.: Просвещение, 2007. – 303 с.

[81] Акулова О.В., Гуревич Л.М. Чтение художественной литературы. – М.: Изд-во "Детство-Пресс", 2012. – 192 с.

mustaqil o'qishini ta'minlovchi sinfdan tashqari o'qish darslari tizimini qayta shakllantirishdan iborat. Dasturning maqsadini amalga oshirishda quyidagi vazifalar hal qilinadi: boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy-madaniy dunyoqarashini kengaytirish; ularda mashhur rus va xorijlik bolalar yozuvchi hamda shoirlari ijodining o'ziga xosliklari to'g'risidagi dastlabki tasavvurni hosil qilish; o'ylash, tasavvur qilish, badiiy-ijodiy qobiliyatni rivojlantirish; kitobxonlik madaniyati, badiiy didi va badiiy tafakkurini shakllantirish[82] .

"Вдумчивое чтение" ("Mulohaza asosida o'qish") dasturi [83] g'oyalarini amalga oshirishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh, psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ular uchun badiiy adabiyotlardan olingan matnlar quyidagi tamoyillar asosida tanlandi: asarning badiiy qiymatga ega bo'lishi; bolalarning kitobxonlik qiziqishlarini hisobga olish; badiiy matnlarning rang-barang mavzu va janrlar asosida bo'lishiga erishish; matnlarning bir nechta mualliflarning asarlaridan olinishini ta'minlash; tanlangan badiiy matnlarning "O'qish" darsida o'rganiladigan asarlardan bo'lmasligi, aksincha, ularni boyitish va to'ldirish imkoniyatiga ega bo'lishiga erishish.

To'rt bo'limli bu dasturga quyidagi ertak va qissalardan olingan badiiy matnlar kiritilgan: shvedtsiyalik yozuvchi Astrid Lindgrenning "Mittivoy va Karlson", rossiyalik yozuvchi Kira Bulichevaning "Alisaning sarguzashtlari", amerikalik yozuvchi Mark Tvenning "Tom Soyerning sarguzashtlari", frantsuz yozuvchisi Antuan de Sent-Ekzyuperining "Kichik shahzoda", angliyalik yozuvchi D.Barrining "Piter Pen", shvedtsiyalik yozuvchi Selmi Lagerlefning "Nilsning g'ozlar bilan ajoyib sarguzashti", angliyalik yozuvchi Daniel Defoning "Robinzon Kruzoning sarguzashtlari", frantsuz yozuvchisi Jyul Vernning "Kapitan Grant bolalari", rus yozuvchisi Yana Larrining "Karik va Valining g'aroyib sarguzashtlari", nemis yozuvchisi Ernst Teodor Amadey Gofmanning "Qarsildoq bola va sichqonlar qiroli",

---

[82] Посашкова Е.В. Формирование читательской культуры младших школьников на уроках внеклассного чтения (на материале авторской программы по внеклассному чтению) // Ж. Педагогическое образование. – М. 2009 №1. – С 76-77.
[83] Посашкова Е.В. Формирование читательской культуры младших школьников на уроках внеклассного чтения (на материале авторской программы по внеклассному чтению) // Ж. Педагогическое образование. – М.: 2009. №1. – С. 78.

angliyalik yozuvchilar – Lyuis Kerrollning “Alisa Mo‘’jizalar mamlakatida”, Jon Ronald Ruel Tolkinning “Xobbit yoki o‘sha yoqqa va orqaga”, urallik yozuvchi Vladislav Petrovich Krapivinning “Moviy flamingo bolalari”[84] .

“Вдумчивое чтение” (“Mulohaza asosida o‘qish”) dasturi doirasida 2, 3 va 4-sinflar uchun “Sinfdan tashqari o‘qish bo‘yicha ishchi daftar” ishlab chiqilgan. Mazkur ishchi daftar o‘ziga xos metodik jihatdan amaliy didaktik ahamiyatga ega. Ta’lim jarayonida undan foydalanish bir qator didaktik imkoniyatlarni kafolatlaydi. Chunonchi: 1) ishchi daftar har bir o‘quvchining mustaqil o‘qishi va unga muvofiq o‘qituvchi tomonidan bolalarda sinfdan tashqari vaqtdagi mashg‘ulotlarda kitobxonlik faoliyati ko‘nikmalarini samarali shakllantirish imkoniyatini beradigan badiiy matnlar bilan ta’minlash imkoniyatini yaratadi; 2) daftarning metodik imkoniyati yordamida o‘qituvchi o‘quvchilarda kitobxonlik ko‘nikmalari (annotatsiya (eslatma, qisqacha ta’rif), qayta hikoya qilish, asar qahramonlarini tavsiflash va b.)ni samarali shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘ladi; 3) ishchi daftar o‘quvchilarning badiiy rivojlanganlik darajasiga ko‘ra tabaqalashtirilgan holda ularga o‘quv topshiriqlarini berish va ularning bajarilishini baholovchi sharoitni yaratgan holda ta’limni individuallashtirishga imkon beradi; 4) daftar o‘qituvchi tomonidan barcha o‘quvchilarning mustaqil o‘qish faoliyatini o‘z vaqtida nazorat qilinishini ta’minlaydi; 5) ishchi daftar yordamida o‘qituvchi o‘quvchilarning turli o‘quv va kitobxonlik faoliyatini tashkil etish shakllaridan foydalanilgan holda ularning mashg‘ulotlarda samarali ishlashini tashkil etadi; 6) daftar sinfdan sinfga o‘tgan holda yozuvchi va shoirlarning shaxsi va ijodiga oid batafsil materiallarni taqdim etadi; yozuvchi va shoirlar haqidagi har bir material ularning portretlari, hayotlariga oid ma’lumotlar, muhim asarlari, har bir yozuvchi hamda shoir asarlarining o‘ziga xos tavsifiga doir axborotlar bilan boyitilgan; berilgan axborotlar barcha o‘quvchilar tomonidan birdek oson o‘zlashtiriladi; 7) ishchi daftarda, shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining badiiy dunyoqarashini boyitishga

---

[84] Посашкова Е.В. Формирование читательской культуры младших школьников на уроках внеклассного чтения (на материале авторской программы по внеклассному чтению) // Ж. Педагогическое образование. – М.: 2009. №1. – С 79.

xizmat qiladigan test, viktorina savollari, krossvord hamda badiiy xarakterdagi o‘yinlar berilgan[85].

V.N.Zaytsev, I.T.Fedorenkolarning metodik tavsiyalariga tayangan va ularni boyitgan holda pedagog olima T.P.Zarutskaya boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish texnikasini hosil qilishga oid tajribasi to‘g‘risida so‘z yuritadi. Chunonchi: “Agar bola o‘qish texnikasini o‘zlashtirishning dastlabki pog‘onasida bo‘lsa, u holda uni uzoq vaqt davomida o‘qishga undash mumkin emas. Eng yaxshisi, kam-kamdan (kam sonli bir necha daqiqadan), ammo tez-tez (bir kunda bir necha marta) o‘qish. Bola 5-7 daqiqa davomida matnni o‘qisin va xat boshi (abzats)ni qayta bayon qilsin. Bir soatdan so‘ng yana 1-2 xat boshini o‘qish va qayta hikoya qilish maqsadga muvofiq. Uyquga yotish oldidan yana bir marta bu harakatni takrorlash kerak. Bu kabi mashq qilishning samaradorligi bir soat davomida bir marta o‘qishdan ko‘ra yaxshiroqdir.

Ohista o‘qish tartibi bolaga yanada ko‘proq yordam beradi. Bola ohista o‘qish tartibiga ko‘ra 1-2 qatorni o‘qiydi va undan keyin qisqa muddat dam oladi. Bordi-yu, bola diafilm tomosha qilayotgan bo‘lsa, u holda bunday tartib o‘z-o‘zidan ro‘y beradi: kadr ostidagi ikki qator matnni o‘qiydi, kartinani tomosha qiladi, dam oladi. Bunday usul o‘qishni unchalik xohlamaydigan bolalarga juda mos keladi[86].

Rossiyalik pedagog M.P.Voyushina boshlang‘ich sinflarda badiiy asarni o‘qish jarayonida uni hamda qismlarini diqqat bilan, ko‘p darajali va ko‘p tomonli o‘rganish kutilgan natijalarni qo‘lga kiritishga yordam beradi, deb hisoblaydi[87].

Avstraliyalik pedagog M.Kristin Mergan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘z ma’naviy ehtiyojlarini qondirish, zavqlanish uchun badiiy asarlarning o‘qishi “ularda savodxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish”[88] ning eng oddiy usullaridan biri deb hisoblaydi. Tadqiqotchi “zavqlanish uchun kitob o‘qish nafaqat bolaga zavq beradi,

---

[85] Посашкова Е.В. Формирование читательской культуры младших школьников на уроках внеклассного чтения (на материале авторской програмы по внеклассному чтению) // Ж. Педагогическое образование. – М.: 2009. №1. – С. 80-81.
[86] Зарувая Т.П. Развитие самостоятельной читательской деятельности младших школьников // https://nsportal.ru/nachalnaya-shkola/chtenie/ 2012/03/ 31/razvitie-samostoyatelnoy-chitatelskoy-deyatelnosti-mladshikh.
[87] Методика обучения литературе в начальной школе / Учебник для студ. высш. учеб.заведений. Под ред. М.П.Воюшиной. – М.: Издат центр "Академия", 2010. – 203 с
[88] Amanda Lenhart. Writing. Technology and Teens. – Washington: Pew Internet and American Life Project, 2008.

shu bilan birga bir qator, shu jumladan, savodxonlik bo'yicha sezilarli natijalarga erishish borasida qator afzalliklarga ega bo'lsa, savodxonlik darajasi esa akademik hamda kasbiy istiqbollarni belgilovchi ustunliklar bilan bog'liq", deb hisoblaydi.

G'arbiy Avstraliyada o'smirlarning badiiy asarlarni o'qish holatlarini o'rganish (WASABR) natijalari o'qituvchilar va ota-onalarning ko'magi mazkur yosh toifasidagi shaxslarning dimiy, izchil ravishda kitob o'qishga bo'lgan ijobiy munosabatlarini barqarorlashuvchini ta'minlaydi. Merga M.Kristin bu o'rinda o'qituvchi va ota-onalarga quyidagilarni tavsiya etadi: o'quvchilarni maktab yoki bolalar kutubxonasiga olib borish, mustaqil o'zi o'qishni xohlagan kitoblarni tanlash va uyga olib ketishni taklif qilish; o'smirlarga ovoz chiqarib o'qishlariga qarshilik qilmaslik (chunki bunday o'qish ularga yoqadi); kitob tanlash usullarini o'rgatish (bu boshlang'ich sinflarda o'rgatilgan bo'lishi kerak, deb o'ylamang); kitob o'qish va kitob o'qishga qiziqishda ularga namuna bo'lish; o'quvchilar qaysi kitoblarni o'qiyotganliklari bilan qiziqqan holda ular bilan tanishish orqali o'smirlar bilan muloqotda bo'lish; mavularni cheklamagan holda uyda va maktabda kitoblar to'g'risida o'smirlar bilan suhbatlashish; o'smirlarning hissiy ta'sirlanishlari: asarning ijobiy qahramonlarini yoqtirish, salbiy personajlaridan nafratlanish, asarni yarmini o'qigan joyda tashlab ketish va sevimli asarlarni qayta o'qish kabi harakatlarini qo'llab-quvvatlash (o'ta qiziquvchan kitobxon qanday bo'ladi, mazusida suhbatlanishish); zarur yumushlarni chetga surgan holda zavqlanish uchun kitob o'qish amaliyotining amaliy qiymati to'g'risida hikoya qilib berish; o'smirlarni shunchaki elektron qurilmalar bilan qurollantirishing o'zi ularda o'z-o'zidan qiziqishni yuzaga keltiradi, deb o'ylash mumkin emas[89].

E.Perrinning "Kitob o'qish – 2016" ("Book Reading – 2016") nomli ishida qayd etilishicha, amerikaliklar orasida elektron kitoblar qanchalik ommalashganligiga qaramay, bosma kitoblar o'z ahamiyatini yo'qotmagan holda ularga nisbatan yetakchi o'rinni egallamoqda. Pyu

---

[89] Kristin Merga M. How to get teenagers to read? //https: //theconversation.com/how-to-get-teenagers-to-read-42757.

tadqiqotlar markazi (Pew Research Center)ning o'rganishiga ko'ra, amerikaliklarning kitob o'qish bo'yicha hissasi 2012 yilda (73%) 2011 yildagina nisbatan deyarli o'zgarmagan. So'nggi bir yil (2012 yil ma'lumoti)da AQSh aholisining 65%i bosma, 28%i (2011 yilga qaraganda uch marta ko'p) elektron, 14%i esa audio kitoblarni o'qishga muvaffaq bo'lgan. Amerikaliklar o'rtacha (o'rta hisobda) yiliga 12 tadan kitob o'qiydi, xuddi shu vaqt oralig'ida o'rta tabaqadagi amerikalik 4 ta kitobni bir yilning so'nggi oyida o'qigan. Kollejlarning bitiruvchilari o'rta ta'lim maktablarini tamomlaganlarga nisbatan taxminan to'rt marta ko'proq elektron, ikki marta ko'proq bosma va audio kitoblarni o'qiydi. 2011-2016-yillarda kitobxon amerikaliklar orasida planshetlarda foydalanuvchilar soni to'rt marta (4%dan 15%ga), smartfonlar orqali o'qiydiganlar soni ikki barovar (5%dan 13 %gacha) oshgan.

Ushbu tadqiqot natijalariga ko'ra, turli yoshdagi amerikalar orasida: 84%i o'zlarini qiziqtirgan aniq mavzularga oid, 82%i jamiyatda kechayotgan o'zgarishlardan ortda qolmaslik (ularning 47%i deyarli har kuni), 80%i kitobdan zavq olish (ularning 35%i deyarli har kuni), 57%i ish joyida yoki maktablarda (ularning 31%i deyarli har kuni) kitobxonlarni tashkil etadi [90].

Amerikalik tadqiqotchi Moyer E.Djessikaning "Bugun o'smirlar kitob o'qimay qo'yishdi". Kitob o'qishga munosabat negizida turli qiziqish va tushunchalarni tadqiq qilish: asoslash va metodologiya" ("Teens Today Don't Read Books Anymore": A Study of Differences in Interest and Comprehension Based on Reading Modalities: Introduction and Methodology" nomli ishida esa AQShning San'at milliy jamg'armasi (National Endowment for the Arts – NEA) tomonidan 2004 yilda olib borilgan tadqiqotda yoshlarning "badiiy asarlarni o'qish" darajasi keskin pasayishi sabablari o'rganilar ekan, 18-24 yosh toifasidagi shaxslarda kitob o'qishga bo'lgan qiziqishning pasayishi[91] xavfli tus olayotganligi ko'rsatib o'tilgan.

---

[90] Perrin A. Book Reading – 2016 // https://www.pewinternet.org/ 2016/09/01/book-reading-2016.

[91] Moyer E. Jessica. "Teens Today Don't Read Books Anymore": A Study of Differences in Interest and Comprehension Based on Reading Modalities: Part 1, Introduction and Methodology // http://www.yalsa.ala.org/jrlya/2010/11/ teens-today-dont-read-books-anymore-a-study-of-differences-in-interest-and-comprehension-based-on-reading-modalities-part-1-introduction-and-methodology.

San'at milliy jamg'armasi (National Endowment for the Arts – NEA)ning 2007-yilda olib borilgan tadqiqotida esa yoshlarning tobora kitob o'qishdan "uzoqlashib borayotganligi"ga urg'u berilgan. Unda qayd etilishicha, "13 yoshli o'smirlarning har uchtasidan bir nafari har kuni kitob o'qiydi. Bu esa 20 yil avvalgi holatdan 14 % past ko'rsatkichdir. 17 yoshlilar o'rtasida kitob o'qiydiganlarning soni esa so'nggi 20 yilda ikki baravarga ortgan, ya'ni 1984-yildan 2004-yilga qadar ushbu yosh toifasidagilarning kitob o'qishga bo'lgan munosabatlari salbiy jihatdan 19 %ga ko'tarilgan. Agar o'rta yoshli amerikaliklar kuniga televizor tomosha qilishga o'rtacha ikki soatdan vaqt sarflayotgan bo'lsalar, kitob o'qishga sarflanayotgan vaqt hajmi 7 daqiqani tashkil etadi[92] .

Pyu tadqiqotlar markazi (Pew Research Center) izlanishlarini tahlil qilishga yo'naltirilgan "Pyu Internet va amerikacha hayot" ("The Pew Internet i American Life Project") loyihasi XXI asr yoshlari o'rtasidagi raqamli (Internet) savodxonligi masalalari o'rganuvchi tashkilot tomonidan tarqatilgan ma'lumot ("Yozuv, texnologiya va o'smir" – "Writing, technology and teens" tadqiqoti natijalari) inobatga olinsa, u holda garchi yoshlar o'zlarini Internet savodxonligiga ega deb hisoblasada, biroq, ularning yozish va o'qishdagi holatlari aslida yuqori darajada emas. Bunday xulosaga kelinishining sababi, tadqiqot anketasiga "bosma kitoblarni o'qish" darajasini aniqlashga oid savol kiritilib, so'rov doirasida yoshlarning elektron va audio kitoblar bilan qanchalik tanish ekanligi o'rganilmagan[93] .

Loyiha tomonidan 2007 yilda e'lon qilingan "Pyu o'smir hamda ijtimoiy tarmoqlar to'g'risida" ("I drink about teenagers and social networks")gi hisobot ma'lumotlarga taniladigan bo'linsa, so'rovda ishtirok etganlarning 59 %i on-layn ijod mahsulotlaridan xabardor bo'lib borishlari ma'lum qilingan [94].

---

[92] Moyer E. Jessica. "Teens Today Don't Read Books Anymore": A Study of Differences in Interest and Comprehension Based on Reading Modalities. Part 1, Introduction and Methodology // http //www.yalsa.ala.org/jrlya/2010/11/ teens-today-dont-read-books-anymore-a-study-of-differences-in-interest-and-comprehension-based-on-reading-modalities-part-1-introduction-and-methodology.

[93] Amanda Lenhart. Writing, Technology and Teens. – Washington: Pew Internet and American Life Project, 2008.

[94] Amanda Lenhart. Teens and Social Media. – Washington: Pew Internet and American Life Project, 2007

Kayzer oilasi jamg'armasi (The Kaiser Family Foundation)ning ilmiy izlanishlari natijasi sifatida e'lon qilingan "Ming yillik avlodi: OAV 8-18 yoshlilarning hayotida" (*"Generation M: Media in the Lives of 8 to 18 Year Olds"; generation M* – millennial generation) nomli hisobotda yosh avlodning kundalik hayotida multimedia turlari – iPod dan tortib, Internetga bog'lanuvchi kompьyuter qurilmalarining tutgan (2005-yilda 75 %ni tashkil etgan) o'rni tahlil qilinadi. Yoshlarning mazkur qurilmalardan foydalanishga sarflaydigan vaqti 1999-yildan 2004-yilga qadar o'rtacha 27 daqiqadan 62 daqiqagacha o'sgan. Umumiy hisobda kuniga 6 soatdan 6,5 soatgacha elektron qurilmalardan foydalanishga vaqt sarflaydigan yoshlar ham qayd etilgan. Ko'rsatilgan davrda yoshlarning bosma kitoblarni o'qishga sarflagan vaqti 43 daqiqagacha qisqargan[95] .

Xorij tajribalari shaxsda kitob o'qish, kitobxonlikka nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish, jamiyat a'zolarining bosma, elektron va audio kitoblarni o'qishga bo'lgan qiziqishlarini tahliliy o'rganish muammosi yetakchi davlatlar amaliyotida muhim ahamiyat kasb etganligini ko'rsatdi. Nazariy tahlil natijasida soha bo'yicha yetakchi xorijiy davlatlar amaliyotida quyidagi jihatlar ustuvor ekanligiga ishonch hosil qilindi:

1. AQSh, Buyuk Britaniya, Frantsiya, Finlandiya, Norvegiya, Yaponiya, Rossiya FR va boshqalarda maktabgacha ta'lim muassasalari hamda boshlang'ich maktablardan boshlab bolalar, o'smirlarda badiiy kitob o'qish, kitobxonlik ko'nikma, malaka hamda madaniyatini shakllantirish (rivojlantirish) davlat siyosati darajasida hal etiladigan, shaxs kamolotida muhim ahamiyat kasb etuvchi masala sanaladi.

2. Nomlari qayd etilgan davlatlarda bolalar va o'smirlarning kitob o'qishga, badiiy adabiyotga, kitobxonlikka bo'lgan munosabatlari mazmunan, shuningdek, dinamik ko'rsatkichlariga muvofiq tahliliy o'rganish monitoringi yo'lga qo'yilgan.

---

[95] Roberts D. F., Foehr U. G., Rideout V. Generation M: Media in the Lives of 8 to 18 Year Olds. – Washington: Menlo Park, CA, 2005. – pp. 3-4.

3. Bolalar va o'smirlarda kitob o'qish, kitobxonlik ko'nikma, malaka va madaniyatining rivojlanishi nafaqat tadqiqotchilar - Kristin M.Merga, A.Lenxart, Ye.Jessika Moyer, A.Perrin, D.Fallouzlar tomonidan avtonom, shu bilan birga ixtisoslashgan (kitoblarni yaratuvchi, chop etuvchi va tarqatuvchi) yirik (masalan, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti, Osiyo axborot-tahlil jamg'armasi, Allensbach Institute, Publishing Technology, The Pew Internet i American Life Project, AQShning San'at milliy jamg'armasi (National Endowment for the Arts – NEA), G'arbiy Avstraliyada o'smirlarning kitob o'qish holatini o'rganish (West Australian Study in Adolescent Book Reading – WASABR), Kayzer oilasi jamg'armasi (The Kaiser Family Foundation), Pьyu tadqiqotlar markazi (Pew Research Center) kabi o'nlab) markaz, kompaniyalar tomonidan milliy-ijtimoiy jihatdan izchil o'rganish orqali tashxislanadi.

4. Jamiyatda kechayotgan o'zgarishlarga bog'liq ravishda bolalar, o'smirlarning kitobxonlik ko'nikma, malaka, madaniyatiga egaliklari masalasi nomlari ko'rsatilgan markaz hamda kompaniyalar tomonidan kovariatsiyali (covariance analysis; o'zaro bog'liq qiymatlar va miqdor hamda sifat ko'rsatkichlari o'rtasidagi aloqani belgilovchi modelni aniqlash), korrelyatsiyali (correlation analysis; bir nechta tasodifiy qiymatlar o'rtasidagi bog'liqliklarni topish), dispersiyali (og'ishli) tahlil (variance analysis; tajriba ma'lumotlari bo'yicha o'rtacha qiymat farqlarining ahamiyatini tadqiq qilish), regressiya (regression analysis; o'zaro bog'liq o'zgarishlarda bitta yoki bir nechta mustaqil o'zgarishlarning aks etishini tadqiq qilish) tahlillari asosida o'rganilgan.

5. O'rganishlar natijasi bolalar va yoshlar o'rtasida ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy-qadriyatli yondashuvlarning qaror topishi bilan bog'liq holda bosma, elektron hamda audio kitoblarni o'qish an'analari shakllanganligini ko'rsatadi.

6. Global axborotlashuv sharoitida garchi kitob o'qishning innovatsion shakllari paydo bo'lganligiga qaramay, yildan yilga bolalar va o'smirlar o'rtasida kitob o'qishga, kitobxonlikka bo'lgan qiziqish, ehtiyoj, shuningdek, unga ajratiladigan vaqt hajmi kamayib bormoqda.

7. Sohada yuzaga kelgan muammoning asosiy sabablari ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning o'zgarishi, shaxs moddiy ehtiyojlari hududining kengayishi, uni qondirish uchun vaqt byudjeti asosiy qismining sarflanishi, bo'sh vaqt ulushining tobora qisqarib borayotganligi, bolalar va yoshlarga mazmunan sayoz, yengil, hazil-mutoyibaga asoslangan badiiy adabiyotlarning taqdim etilayotganligi kabilardan iborat.

Xorij tajribalarida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitob o'qish, kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish uchun bir qator samarali metodlardan foydalanish taklif etiladi. Quyida ushbu metodlardan ayrimlarining didaktik imkoniyatlari to'g'risida so'z yuritiladi:

1. **Kassil metodi.** Unga ko'ra o'qituvchi yoki ota-onalar asarning eng qiziq joyida kitob o'qishni to'xtatadi. Ular shu o'rinda o'qishni davom ettirish uchun vaqtlari yo'qligini, bajaradigan boshqa muhim ishlari borligini aytishadi. Oxir-oqibat bola asar qahramonining hayoti qanday kechganligini bilishni istaydi va kitobni qo'liga oladi. Boshlang'ich sinflarda alifbodagi harflar bilan tanish bolalar asarning davomini garchi hijjalab bo'lsa-da, o'zi o'qishga harakat qiladi. Ammo hali u qadar o'qishni yaxshi uddalay olmaydigan bolalar beixtiyor oilaning boshqa a'zolari yoki maktabda o'qituvchidan yordam so'rashga majbur bo'ladi. Shunda oila a'zolari yoki o'qituvchining javobi quyidagicha bo'lishi zarur: "Yaxshi, yordm beraman, ammo, shunday yo'l tutamiz: ikkita xatboshi (abzats)ni men o'qiyman, bitta xatboshi (abzats)ni sen!". Voqeaning rivojiga juda qiziqqan bolalar bu taklifga rozi bo'ladi.

2. **Iskra Daunis metodi.** Kasbi psixolog bo'lgan I.Daunis ham maktabgacha hamda boshlang'ich ta'lim yoshi bolalarida kitob o'qishga qiziqishni rivojlantirish maqsadida samarasi yuqori bo'lgan metodni asoslagan. Psixolog nomi bilan ataladigan ushbu metodning mohiyati quyidagicha: kunlardan bir kuni bola uyquga yotadi va uyqudan turgach, yostig'i ostida o'zining sevimli mulьfilьmi qahramoni bo'lgan Karlsondan maktub oladi. Maktubda ikki qatorda yirik harflar bilan Karlson u bilan do'stlashmoqchi ekanligini va unga u yer bu yerda

qoldiriladigan sovg'alarni berishni aytadi. Ertasi kuni ertalab esa bola yostig'i ostidan yana bir maktubni topadi. Endi maktubda soqg'a haqida emas, balki Karlson uning uchun tsirkka bilet qoldirmoqchi ekanligini bildiradi. Ammo biletni olib kelgan vaqtda bolaning mushugini ko'rib qolib, uning dumidan tormoqchi bo'ladi. Mushuk esa qattiq miyovlab uni cho'chitib yuboradi. Qo'rqib ketgan Karlson biletni qoldirmay, mushukdan qochib ketadi. Biletni esa qoldirishni unutadi. Bola shu tahlitda har kuni Karlsondan maktub oladi. Maktubda yozilgan matn kundan-kunga uzunroq, lekin o'qilishi osonroq bo'lib boradi.

**3. "Qadimgi xalqlar" metodi.** Uni "Kitoblar xalqi" (yoki "Kitobsevar xalq" metodi) deb ham atashadi. Metodning mohiyatiga ko'ra, bolaga nafaqat u o'zini namunali tutsa, mukofot sifatida qiziqarli asarning bir necha qatori, hatto, yarim sahifani o'qishga ruxsat berishgan, shu bilan birga kitob ko'rinishiga ega pechenьelar ham tayyorlashgan. Bola kitob o'qishdek quvonchli hodisa sharafiga ana shunday pechenьelarni olgan. CHunki qadimda xalqlar kitob o'qishni – quvonch va bayram sifatida qabul qilgan. Bola buni har gal qo'liga kitob olganda yodda tutishi zarur bo'lgan. Agar bola o'zini namunali tutmasa, u holda unga kitob o'qishga ruxsat berilmagan. Mazkur metod bolalar kitob (Muqaddas kitob) o'qishga kirishganlarida asoslangan.

Aksariyat tadqiqotchilar "Qisqa muddatli" o'qish metodining afzalligini ta'kidlaydi. Metodning afzalligi o'quvchini toliqtirmagan holda har kuni uyqudan oldin 10 daqiqadan u bilan birga kitob o'qishni ota-onalarga tavsiya qiladi. Bu tahlitda yo'l tutilganda boshlang'ich sinfning 1-2-sinf o'quvchilari haftasiga 1 soatga yaqin kitob o'qish imkoniyatiga ega bo'ladi. Asarni ifodali, qahramonlarning xarakteri, xatti-harakatlariga mos ohangda o'qish, asarning ma'lum o'rinlarida qisqa to'xtalishlar qilib, bolaga "Sening-cha, voqeaning keyingi rivoji qanday bo'ladi", deb murojaat qilish (suhbat chog'ida pand-pasihat qilmaslik, tanbeh bermaslik zarur), shuningdek, mutolaa yakunlangandan keyin o'qilgan voqea va hodisalar to'g'risida bola bilan kichik suhbat tashkil etish maqsadga muvofiqdir [96].

---

[96] 20 лучших книг для чтения детям перед сном //https://www.7ya.ru/ article/Chtenie-bez-uvlecheniya-ili-Pochemu-rebenok-ne-hochet-chitat.

**4. "Asarning muqovasini diqqat bilan o'rganish" metodi.** Xorijlik pedagog olimlar tomonidan tavsiya etilayotgan metodlardan yana biri – asarning muqovasini diqqat bilan o'rganish sanaladi. Ushbu metoddan foydalanishda quyidagi tartibda yo'l tutiladi: 1) o'quvchilarga badiiy asarning muqovasini ko'zdan kechirish, asosiy yozuvlar – muallifning ismi, sharifi hamda asarning nomi hamda illyustratsiyasi (bezagi)ga e'tibor qaratish talab etiladi; 2) o'quvchilar asarning muqovasini ko'zdan kechiradi; 3) o'quvchilarga asar muallifi bo'lgan yozuvchi yoki shoir, uning asarlari to'g'risida qanday ma'lumotlarga egalikni yodga olish taklif qilinadi; 4) o'quvchilar muallif, uning asarlariga oid ma'lumotlarni bayon qilishadi; 5) o'qituvchi boshchiligida asar bo'yicha ishlangan mulьtfilьm yoki badiiy filьm tomosha qilinadi; 6) o'quvchilarga asar va unga ishlangan mulьtfilьm yoki badiiy filьm syujetlarini o'zaro solishtirish topshirig'i beriladi; 7) o'qituvchi boshchiligida o'quvchilar tomonidan topshiriqning bajarilishi muhokama qilinadi[97] .

**5. "Og'zaki rasm" metodikasi.** Xorijiy davlatlarning tajribasida bolalarda kitob o'qish, kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirishda samarali bo'lgan metodlargina emas, balki metodikalar ham asoslangan. Ana shunday metodikalardan biri "Og'zaki rasm" metodikasi samarali sanaladi. Ushbu metodika o'quvchi ongida badiiy asarni o'qish jarayonida yuzaga kelib, undagi obraz va syujetlarning bayonini ifodalashga xizmat qiladi[98]. Mazkur metodika "So'zli tasvir" deb ham nomlanadi. U o'quvchilarda so'z yordamida obrazlarni ularga xos xususiyatlarga ko'ra yanada aniqlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltiriladi, unga ko'ra o'quvchi asarni o'qish jarayonida obraz va syujetlarni yoritishda qo'llanilmaydigan so'zlar, sifatlar, fe'llarni ishlatmasligi zarur[99] .

**6. "Adabiyot daholari" o'yini.** Boshlang'ich sinf o'quvchilaring yosh va psixologik xususiyatlari ular o'rtasida kitob o'qishni targ'ib

---

[97] Жостиова Е.А. Мир детства в творческом сознании и художественной практике В.И.Даля // Ж. Филологические науки. Вопросы теории и практики. – М.: 2014. № 4-3 (34). – С. 74.
[98] Жостиова Е.А. Мир детства в творческом сознании и художественной практике В.И.Даля // Ж. Филологические науки. Вопросы теории и практики. – М.: 2014. № 4-3 (34). – С. 71.
[99] Гуеев Д.А. Педагогический потенциал народного творчества в контексте исторического анализа развития образовательных учреждений на селе // Ж. Гуманитарные науки и образование. – М.: 2015. - № 1 (21). – С. 44

qilishda o'yin texologiyalaridan ham foydalanish samarali ekanligi ko'rsatiladi. Badiiy xarakterdagi o'yinlar sirasiga "Adabiyot daholari"ni kiritish mumkin. O'yin qoidasiga ko'ra o'quvchilar ikki guruhga ajraladi va belgilangan vaqt mobaynida sinf va sinfdan tashqari o'qish jarayonida o'rganilgan badiiy adabiyotlar bo'yicha berilgan savollarga javob qaytaradi[100].

**7. "Bilim daraxtini parvarishlash" o'yini.** Rossiyalik pedagog Ye.E.Moroz o'quvchilarda kitob o'qishga, kitobxonlikka bo'lgan mehrni uyg'otish maqsadida "Bilim daraxtini parvarishlash" o'yinini taklif etadi. O'yin jarayonida plakatdan foydalanish taklif qilinadi. Plakatda ertak daraxti tasvirlanadi. Alohida barglarda bolalar uylarida ota-onalari bilan o'qigan ertaklarning nomlari yoziladi. "Ertak daraxti"ni tasvirlashda ota-onalar ham ishtirok etadi. O'quvchilar darsga kelganlarida o'zlari o'qigan ertaklarning nomi yozilgan bargni "Ertak daraxti"ga yopishtiradi. Dars boshlangandan so'ng bolalar o'qituvchi bilan birgalikda sinf yozuv taxtasiga yaqinlashib, o'zlari "Ertak daraxti"ga ilgan barglarni ko'rsatadi va ertakning mazmunini qisqacha bayon etadi[101].

Demak, boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishdagi xorijiy tajribalarni o'rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli tadqiqotni olib borishda AQSh, Buyuk Britaniya, Frantsiya, Finlandiya, Norvegiya, Yaponiya, Rossiya FR kabi davlatlarning shaxsda kitob o'qish, kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishga doir tajribalari o'rganildi. O'rganishlar natijasi tadqiqot muammosining ushbu davlatlarda davlat siyosati darajasida hal etilishini ko'rsatdi. Sohaga oid tadqiqotlar jismoniy hamda yuridik shaxslar tomonidan izchil olib borilayotganligini tasdiqladi. Ayni vaqtda global axborotlashuv ta'sirida yetakchi xorijiy davlatlarda bolalar va o'smirlar tomonidan bosma, elektron, audio kitoblarni o'qish an'analari shakllangan. Shunga qaramay, bolalar va o'smirlarning kitob o'qish,

---

[100] Жесткова Е.А. Мир детства в творческом сознании и художественной практике В.И.Даля // Ж. Филологические науки. Вопросы теории и практики. – М.: 2014. № 4-3 (34). – С. 73.

[101] Жесткова Е.А. Мир детства в творческом сознании и художественной практике В.И.Даля // Ж. Филологические науки. Вопросы теории и практики. – М.: 2014. № 4-3 (34). – С. 73-74.

kitobxonlikka bo'lgan munosabatlari ijobiy ahamiyat kasb etmayapti. Shu borada yildan yilga pasayish kuzatilmoqda va bu holat qator sabablar bilan izohlanadi.

Xorij tajribalarida aynan boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitob o'qish, kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirish (rivojlantirish)ga qaratilgan pedagogik faoliyat Kassil metodi, Iskra Daunis metodi, Qadimgi xalqlarning metodi, "Asarning muqovasini diqqat bilan o'rganish" metodlar, "Og'zaki rasm" metodikasi, "Adabiyot daholari" hamda "Bilim daraxtini parvarishlash" o'yin texnologiyalari asosida tashkil etiladi. Ammo global o'zgarishlar, yangi ijtimoiy-madaniy ehtiyojlarni inobatga olgan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitob o'qish, kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishning puxta asoslangan tamoyillarini, shuningdek, ta'sirchan samarali omillarini aniqlash talab etilmoqda. Shu sababli ishda boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitob o'qish, kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishning puxta asoslangan tamoyillarini, shuningdek, ta'sirchan samarali omillarini aniqlashga alohida e'tibor qaratildi. Ishning keyingi paragrafida ana shular to'g'risida so'z yuritiladi.

## Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishning ustuvor tamoyillari va muhim omillari

Har qanday faoliyat, jarayon va tizimning g'oyasi, amaliy qiymati uning qanday tamoyillarga tayanganligiga bog'liq bo'ladi. Shu sababli faoliyatni tashkil etishni rejalashtirish, jarayonning kechishini ta'minlash va tizimni shakllantirishda uning mohiyatida yetakchi o'rin tutuvchi ustuvor tamoyillar belgilab olinadi. Zero, tamoyillar ularning tadrijiy yo'nalishini belgilab beradi, shuningdek, tartib, qoida tusini oladi. Shu bois tadqiqotni olib borish davrida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayon samaradorligini ta'minlashda ustuvor bo'lgan tamoyillarni aniqlashga alohida e'tibor qaratildi. Tadqiqot muammosiga oid ilmiy ishlarni nazariy tahlil qilish, pedagogik amaliyotni kuzatish, tajriba-sinov ishlariga jalb etilgan respondent-o'quvchilar, metodist o'qituvchilarning

jarayonga bo'lgan munosabatlarini tahlil qilish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishda quyidagi tamoyillar ustuvor ahamiyatga egaligiga ishonch hosil qilindi (2.2.1-rasm):




**2.2.1-rasm. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishda ustuvor bo'lgan tamoyillar**

Quyida yuqorida qayd etilgan tamoyillarning boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati qisqacha yoritildi.

**I. Korporativ yondashuv** o'quvchilar, shu jumladan, boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida kitob o'qish, kitobxonlik g'oyalarini targ'ib etish umumiy o'rta ta'lim maktablari jamoasining birgalikda, yakdillik va hamkorlikda amalga oshiriladigan tizimli, majmuaviy jarayon ekanligini anglatadi. Unga ko'ra har bir umumiy o'rta ta'lim maktabi o'zining bu boradagi kontseptsiyasi, umumiy ish rejasiga ega bo'lishi bilan birga, yagona maqsad asosida har bir sinfning ham istiqbol vazifalarni belgilovchi yo'naltiruvchi dastur negizida faoliyat yuritishidan dalolat beradi. Sinflarning o'z yo'naltiruvchi dasturi g'oyalarini pedagogik amaliyotga samarali tatbiq etishda umumiy o'rta ta'lim maktabi jamoasi nazariy-metodologik, tashkiliy-texnologik hamda amaliy-metodik yordam ko'rsatadi. Erishilgan yutuqlarning

omili, mavjud kamchiliklarning maktab pedagogik jamoasi tomonidan birgalikda tahliliy o'rganiladi hamda keyingi davr (o'quv yili) uchun istiqbolli loyihalarni o'zaro hamkorlikda ishlab chiqadi.

**II. Maqsadli yondashuv** umumiy o'rta ta'lim maktabi, qolaversa, mavjud sinflarning o'quvchilar, shu jumladan, boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida kitob o'qish, kitobxonlik g'oyalarini targ'ib etish yo'lida qisqa, o'rta va uzoq muddatli pedagogik loyihalarga, ular asosida tashkil etiladigan pedagogik faoliyatning asosiy, bosh maqsaddan kelib chiqib belgilangan xususiy maqsadga egaligidan dalolat beradi. Pedagogik faoliyatning aniq maqsadga muvofiq tashkil etilishi jarayonning tizimli, izchil, tartibli, uzluksiz kechishini ta'minlash, o'quvchilarda muayyan vaqt (mavsum – 3 oy, yarim va bir o'quv yili, boshlang'ich ta'lim davri) davomida shakllantiriladigan kitob o'qish, kitobxonlikka oid ko'nikma, malakalarni oydinlashtirish bilan birga, o'quvchilar faoliyatini puxta asoslangan mezonlarga muvofiq baholanishi uchun imkoniyat yaratadi.

**III. Loyihaviy yondashuv** umumiy o'rta ta'lim maktabi, uning tarkibidagi har bir sinfning o'quvchilar o'rtasida kitobxonlik g'oyalarini targ'ib qilishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayonining puxta asoslangan loyiha (umummaktab va sinf loyihalari)ga egaligini ifoadlaydi. Loyihalarning ishlab chiqilishi nazarda tutilayotgan davrda o'quvchilarda kitob o'qish, kitobxonlik ko'nikmasi, malakasini shakllantirish, so'ngra tadrijiy (evolyutsion) tarzda rivojlantirishni bashoratlash, rejalashtirish, modellashtirish va konstruktsiyalash orqali amalga oshirish pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Zero, mavjud omillarni hisobga olish (bashoratlash), faoliyatni tizimli, bosqichma-bosqich tashkil etish (rejalashtirish), mazmunini shakllantirish (modellashtirish) hamda nazariy g'oyalarni amaliyotga tatbiq etish (konstruktsiyalash) yaxlit tizimning tarkibiy elementlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va aloqadorlikka erishish, ichki imkoniyatlarni yagona nuqtaga jamlashga yordam beradi.

**IV. Tabaqaviy yondashuv** boshlang'ich sinflarning har bir o'quvchisiga ikki: 1) savodxonlik (o'qish va yozish ko'nikmalariga egalik); 2) kitob o'qish ko'nikmasiga egalik jihatdan yondashishni

ko'zda tutadi. Zero, o'quvchilarning ayrimlari boshlang'ich sinflarga qabul qilinmasdan avval oilada, maktabgacha ta'lim muassasasida savodxonlik ko'nikmalarini o'zlashtirishga muvaffaq bo'ladi. Shunga ko'ra birinchi sinflarda kitobxonlik g'oyalarini targ'ib qilishda o'qituvchilar o'quvchilarni shartli ravishda quyidagi ikki guruhga ajratiladi:

1-guruh o'quvchilarida savodxonlik ko'nikmasi shakllantiriladi (bu guruhda badiiy kitoblarni o'qish o'qituvchi, ota-onalar, kutubxonachi, volontyorlar tomonidan tashkil etilib, o'quvchilar bilan kichik suhbatlar tashkil etiladi);

2-guruh o'quvchilarining savodxonlik ko'nikmasi rivojlantirilib, malakaga aylanishi ta'minlanadi (bu guruhda badiiy asarlarning sekin-asta o'quvchilarning o'zlari tomonidan o'qilishiga erishiladi; o'qituvchi, ota-onalar, kutubxonachi, volontyorlarning kitob o'qish jarayonida ishtiroki o'quvchilarni yo'naltirish, kitob tanlashda ko'maklashish, o'qilgan kitoblarni birgalikda muhokama qilishdan iborat bo'ladi).

**V. Qadriyatli yondashuv** o'quvchilarda kitobga, kitob o'qishga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantirish, kitob o'qishning ijtimoiy va shaxsiy ahamiyati, shaxsga zavq bag'ishlovchi, shuningdek, azal-azaldan qadrlanib keladigan manba ekanligi to'g'risidagi tushunchalarni hosil qilish, kitoblarni asrashga o'rganish, kitob o'qishni kundalik odatga aylantirishga erishishni nazarda tutadi.

**VI. Interfaol yondashuv** boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy kitoblarni o'qishdagi harakatlarining tengdoshlari bilan, qolaversa, o'qituvchi, ota-onalar, kutubxonachi, volontyorlar bilan o'zaro hamkorlikda tashkil etilishini anglatadi. Badiiy kitoblarni o'qishdagi o'zaro hamkorlik asar matnining navbatma-navbat (dastlab bir-ikki jumla, keyin ikki-uch qator, 3-4-sinflarda esa ikki-uch satrboshidan) o'qishga, asar mazmunini birgalikda muhokama qilish, savollarga birgalikda javob berish, asar qahramonlarining suratlarini chizish, kitoblarni ta'mirlash, sinf kutubxonasi faoliyatini yuritish kabilarga asoslanadi. Tadqiqot jarayonida, shuningdek, "Blits-so'rov", "Klaster", "Barcha omillarni hisobga ol!" (BOHO), "Mantiqiy chalkash

zanjir", "Sinkveyn" va "Kontseptual jalval" kabi interfaol metodlardan samarali foydalanildi.

**VII. Innovatsion yondashuv** boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning ilg'or, noan'anaviy shakl, metod, vosita hamda texnologiyalar yordamida tashkil etilishini bildiradi. Pedagogik faoliyatning innovatsion shakl, metod, vosita va texnologiyalar yordamida tashkil etilishi o'quvchilarda kitob o'qishga, kitobxonlikka bo'lgan qiziqish, ehtiyojni yuzaga keltirib, ijobiy munosabatni shakllantiradi. Tadqiqotni olib borishda binar-dars, muammoli suhbat, virtual-ko'rgazma (tashkiliy shakl), "Blits-so'rov", "Klaster", "Barcha omillarni hisobga ol!" (BOHO), "Mantiqiy chalkash zanjir", "Sinkveyn" va "Kontseptual jalval" (metod), mobil telefon, Internet, planshet (vosita), shuningdek, "Ko'p qismli asar", "Ertak (hikoya, she'r)ni yakunla", "Savollarga asoslangan ertaklar", "Men yoqtirgan she'r", "Tasvirdagi ertak" texnologiyalaridan o'rinli, samarali foydalanildi.

**VIII. Refleksiv yondashuv** boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonida o'qituvchilar, ota-onalar hamda kutubxonachi muayyan vaqt oralig'ida o'z faoliyati samaradorligini tahlil qilib borishi zarurligini ko'rsatadi. Bosib o'tilgan jarayonni tahliliy o'rganish o'qituvchilar, ota-onalar hamda kutubxonachiga bolalarda kitob o'qishga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantirish yo'lida erishilgan yutuq va kamchiliklardan xabar bo'lish, yutuqlarni boyitish, kamchiliklarni bartaraf etish yo'lida amaliy harakatni tashkil qilish, istiqbol loyihalarini ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi.

**IX. Volontyorlik** (lot. "voluntarius" — ko'ngilli ravishda, ko'ngilli bo'lib) ko'ngilli ravishda tashkil etiladigan faoliyat turi bo'lib, boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish jarayoniga umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'rta va yuqori sinf o'quvchilarining jalb etilishini nazarda tutadi. Ma'lumki, ta'lim muassasalarida ijtimoiy-foydali mehnat tashkil etiladi. Volontyorlik ham o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy-foydali faoliyat turi sifatida ikki tomonlama amaliy qiymatga ega. Birinchidan, volontyorlik

qilayotgan o'quvchilarda ijtimoiy faollik, o'zini anglash, o'z kuchiga ishonish, o'z-o'zini baholash, o'z-o'zini hurmat qilish, olijanoblik (atrofdagilarga yordam berish), kommunikativlik kabi sifatlarni hosil qilsa, ikkinchidan, boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan jarayonning izchil, uzluksiz va tizimli olib borilishi uchun zarur sharoitni yuzaga keltiradi. So'z yuritilayotgan jarayonda ko'ngilli o'quvchilar boshlang'ich sinf o'quvchilariga badiiy asarlarni o'qib berish, o'qituvchi yordamida tayyorlangan savollar asosida suhbat tashkil etish, ularni asar qahramonlarining suratini ishlashga jalb qilish, o'qish boshlangan ertakni davom ettirishga undash kabi vazifalarni bajaradi.

**X. Yosh xususiyatlarini inobatga olish** boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun badiiy asarlarni to'g'ri tanlashga imkon beradi. Zero, yosh xususiyatiga ko'ra ushbu ta'lim yoshi o'quvchilari uchun: kichik hajmli, qiziqarli, rasmlar hamda yorqin ranglar bilan bezatilgan, o'ziga xos orginal shaklga ega badiiy asarlarni tanlash taqozo etiladi.

**XI. Izchillik, uzluksizlik, tizimlilik** boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik faoliyatning davomiy va samarali tashkil etilishini ta'minlaydi. Chunki, aynan izchillik, uzluksizlik, tizimlilik negizida jarayon tadrijiy tarzda rivojlanadi, mavjud omillarning ta'siri va imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanish uchun zarur pedagogik sharoitni yaratadi.

**XII. Dars va sinfdan tashqari o'qish mashg'uloti birligi** boshlang'ich sinf o'quvchilarida savodxonlikni va kitobxonlik ko'nikmalarini o'zaro aloqadorlikda rivojlantirishni anglatadi. Agar dars jarayonida o'quvchilar o'qish ko'nikmalari (to'g'ri o'qish, tezkor o'qish, o'qishning ifodaviyligi, tushunib o'qish ko'nikmalari)ning kitobxonlik ko'nikmalari (boshlang'ich sinf o'quvchilarining kitob o'qish qoidalaridan xabardorligi, qiziqishi va ehtiyojidan kelib chiqqan holda kitob (badiiy asar)ni tanlashi, kitob o'qishga odatlanishi va bu yo'lda harakatlarni izchil, doimiy tashkil etishi, kitob o'qishdan zavqlanishi, asar mazmunini tushunishi, shuningdek, kitob o'qishdan olgan taassurotlarini atrofdagilar bilan o'rtoqlash)ga aylanishiga yordam beradi.

**XIII. Vizualizatsiya** yosh xususiyatlariga ko'ra boshlang'ich sinf o'quvchilari ijtimoiy va tabiiy borliqqa oid axborotlarni ko'z orqali samarali qabul qiladi. SHunga ko'ra boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonida kitob o'qish bilan birga asar mazmuni, syujetini suratlar, plakatlar, asarning o'zi va taqdimot asosida yoritish maqsadga muvofiq sanaladi. Binobarin, vizualizatsiya tegishli yosh davri o'quvchilarining asar voqeligi haqidagi tasavvurlarining aniq, to'liq bo'lishiga yordam beradi.

**XIV. Rang-baranglik** boshlang'ich sinf o'quvchilari yosh, psixologik va fiziologik xususiyatlarga ko'ra serharakat, beqaror diqqatga ega, shu bilan birga matn, tasvir, ovoz ko'rinishdagi ko'plab axborotlarni qabul qilishga qiziquvchan bo'ladi. Shu sababli ularni muayyan vaqtda e'tiborini biror-bir ob'ektda "ushlab turish" oson kechmaydi. Bu maqsadga erishishning yagona chorasi ularning e'tiboriga qiziqarli, rang-barang badiiy adabiyotlarni havola etish sanaladi. Buning aksi bo'lgan holatlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitob o'qishga, kitobxonlikka bo'lgan ijobiy munosabat yuzaga keladi, kitob o'qishni istamaslik, qiziqishning pasayishi kuzatiladi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilariga rang-barang badiiy adabiyotlarni taqdim etish, ularini o'qish jarayonida o'qish faoliyatining turli-tuman shakl, metod, vosita, texnologiyalar asosida tashkil etilishiga erishish zarur.

Tadqiqotni olib borishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayonda samarali bo'lgan omillar ham aniqlandi. Quyidagi ular haqida so'z yuritiladi.

**I. Bolalar adabiyotlari.** Bu turdagi kitoblarni yaratish ta'lim berishga ehtiyojning vujudga kelishi bilan paydo bo'lgan. O'tgan vaqt mobaynida yaratilgan bolalar adabiyotlari mavjud ijtimoiy-iqtisodiy tuzum, milliy-madaniy qadriyatlar, shuningdek, kitobga bo'lgan milliy yondashuvdan kelib chiqqan holda takomillashib bordi. Zamonaviy bolalar adabiyotlar o'z mazmuni, g'oyasi, dizayni, didaktik imkoniyatlariga ko'ra bugungi kun talabi va ehtiyojiga to'la javob berardi.

Bugungi kunda kitob do'konlarida o'yinchoq, kesik, yumshoq va manzarali (panorama) kitoblar[102] mavjud bo'lib, ularning o'ziga xos dizayni, poligrafiyasi bolalarning diqqatini tortib, ularda badiiy asarlarni o'qishga bo'lgan qiziqishni oshirmoqda. Bu kabi kitoblardan maktabgacha ta'lim muassasalari hamda boshlang'ich ta'limning 1-2-ikkinchi sinflarida foydalanish tarbiyalanuvchi va o'quvchilarda kitobxonlik ko'nikmalarini dastlab shakllantirish, so'ngra sekin-asta rivojlantirib borish imkoniyatini beradi.

Bolalar uchun mo'ljallangan kitoblarning barchasi besh jihatdan amaliy qiymatga ega: birinchidan, bolani atrof-muhit bilan yaqindan tanishtirgan holda ularning tasavvurini boyitadi; ikkinchidan, ularda kitobga, kitob o'qishga bo'lgan qiziqishni hosil qiladi; uchinchidan, bolalarni ongini boyitadi, nutqi va tafakkurini boyitadi, to'rtinchidan, boy tasavvurga ega bo'lishini ta'minlaydi, nutq boyligini oshiradi; beshinchidan, mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini hosil qiladi.

Shuningdek, ishlab chiqaruvchilar bolalarni kitobga, kitob o'qishga qiziqtirish maqsadida musiqali, gapiruvchi, oynali, tirqishli, siljiydigan elementli, taktil kabi turdagi kitoblarni ham taqdim etmoqda. Ayni o'rinda qanday kitoblar "taktil kitoblar" deb nomlanishi xususida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Taktil kitoblar – cho'ntaklariga turli rasm, applikatsiya, tikish-to'qish ishlari va mayda yumshoq o'yinchoqlar solingan kitoblar[103] sanaladi. Bu kabi kitoblarning tarkibiy elementlari rasmlardan tashqari yirik harf va raqamlar yordamida chop etilgan yoki disk (avvallari kasseta)ga hikoyalar, tovushlar (yomg'ir tovushi, qorning g'irchillashi, otlarning chopishi, biron-bir musiqa asbobida ijro etilayotgan kuy, avtomashinaning ishlayotgan motori, tramvay tovushi, avtomashinalarning signali, tez yordam mashinasi sirenasining ovozi va b.) yozilgan matnlarga ega bo'ladi. Taktil kitoblarda, odatda, braylь yozuvlari ham ilova qilinadi va bu turli darajada ko'rish imkoniyati

---

[102] Книжки-панорамки // https://www.google.com/ search?q=книжки-панорамки+для+детей&tbm=isch&source=univ&sa=x&ved=2ahukewixszs_8zngahvqliskhstganeqsar6bagbeae#imgrc=00po7ulgjplw8m.

[103] Тактильная книга что такое? //http://www.tagillib.ru/bibliofeels_club/club_program/a_special_children_special_books/tactile_book_the_requirements_methodology_work php.

cheklangan bolalarni badiiy asarlar hamda atrof-muhit bilan tanishtirish imkoniyatini yaratadi.

Pedagog V.P.Ermakovning e'tirof etishicha, taktil kitoblardan o'quv-tarbiya jarayonida foydalanish ko'rish imkoniyati cheklangan bolalarni atrof-muhitni ilmiy qabul qilishga yaqinlashtirish, ularning badiiy va ijtimoiy tajribalarini boyitishga xizmat qiladi[104].

Shakllantiruvchi tajriba jarayonida kitob do'konlari va umumiy o'rta ta'lim maktablarining axborot-kutubxona resurslarini o'rganish asosida bugungi kunda badiiy adabiyotlarning mualliflari, nashriyotlar hamda savdo tarmoqlari orqali maktabgacha hamda boshlang'ich ta'lim yoshi bolalari uchun quyidagi turdagi kitoblar taqdim etilayotganligiga guvoh bo'lindi:

**O'yinchoq kitoblar**






**Kesik kitoblar**







**Yumshoq kitoblar**






---

[104] Талабалар китобхонлиги даражасини ва мутолаа фаоллигини оширишга кўмаклашиш лойиҳаси // http://tanlov.uz/ru/event/talabalar-kitobonligi-darajasini-va-mutolaa-solligini-oshirishga-kmaklashish-loyiasi

## Manzarali (panorama) kitoblar



**II. Oilaviy o'qish.** O'z mohiyatiga ko'ra "oilaviy o'qish – ota-onalarning farzandlari bilan birgalikda badiiy adabiyotlarni o'qish asosida ularda intilishni kuchaytiradigan axloqiy mavzulardagi suhbatlari[105]. Suhbatlar tanlangan badiiy asar mohiyati, xarakteri, janri, hajmiga ko'ra qisqa va uzun bo'lishi mumkin. Oila davrasida badiiy asarlar yuzasidan kechadigan suhbatlarda muloqot, asosan, ota-onalar (buva-buvilar) va farzandlar o'rtasida kechadi. Biroq, bu kabi suhbatlar yoshi katta (o'smir, o'spirin) aka-opalar va uka-singillar o'rtasida ham tashkil etilishi mumkin. Suhbat jarayonida kattalarning vazifasi "bolalarni bilish faoliyatiga yo'naltirish va tafakkur qilishga undashdan iborat bo'lishi", qolaversa, ularning "har kungi belgilangan yoki kechqurungi bo'sh vaqtda birgalikda tashkil etiladigan eng yaxshi, xayrli oilaviy an'anaga aylanishi"[106] ga erishish zarur.

Har qanday jarayonda bo'lgani kabi oilaviy o'qishni tashkil etish ham muayyan shartlar asosida kechsagina kutilgan natijaga olib keladi. Shu sababli oilaviy o'qishni samarali yo'lga qo'yish uchun boshlang'ich sinf o'quvchilari ota-onalarga metodik yordam ko'rsatishlar lozim. Bu o'rinda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining rossiyalik pedagog olim T.P.Zarutskaya tomonidan ota-onalarga ohista o'qish tartibi bo'yicha tavsiya etgan ushbu eslatmadan xabardor bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Eslatma mazmuni quyidagicha: I. Matnni 5-7 daqiqa davomida o'qish. II. O'qiganlarni qayta hikoya qilish. III. 1-2 soat davomida dam olish. IV. Yana bir xat boshi (abzats)ni o'qish. V. O'qilgan parchani qayta hikoya qilish. VI. Dam olish[107].

---

[105] Формирование читательского интереса у младших школьников на уроке литературного чтения // https://nsportal.ru/npo-spo/obrazovanie-i-pedagogika/ library/2017/10/29/formirovanie-chitatelskogo-interesa-u-mladshih.

[106] Формирование читательского интереса у младших школьников на уроке литературного чтения // https://nsportal.ru/npo-spo/obrazovanie-i-pedagogika/ library/2017/10/29/formirovanie-chitatelskogo-interesa-u-mladshih

[107] Зарутская Т.П. Развитие самостоятельной читательской деятельности младших школьников // https://nsportal.ru/nachalnaya-shkola/chtenie/ 2012/03/ 31/razvitie-samostoyatelnoy-chitatelskoy-deyatelnosti-mladshikh

**III. Ta'lim jarayoni (dars).** O'quv muassasalarining faoliyatida ta'lim jarayoni (dars) asosiy o'rinni egallaydi. O'qitish jarayonida vaqt byudjeti, o'qituvchilar kontengenti, zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish asosida uzluksiz ta'lim tizimining muayyan bosqichida ta'lim oluvchi (o'quvchi, talaba)lar tomonidan DTSda belgilangan bilim, ko'nikma, malakani o'zlashtirilishi ta'minlanadi. Qolaversa, boshlang'ich sinflarda o'qitilishi yo'lga qo'yilgan "O'qish" fanining o'quv dasturidan juda ko'plab badiiy asarlardan namunalar o'rin olgan. Shu sababli ushbu fan doirasida mavzular negizida berilgan matnlar samarali o'zlashtirish o'quvchilarning kitob o'qishga, kitobxonlikka bo'lgan qiziqish, ehtiyoj, intilishlarini rivojlantiradi.

Tadqiqotni olib borishda "O'qish" fanidan tashkil etiladigan darslar hamda sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarining birligining boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyatini o'rganishga e'tibor qaratildi. Mashg'ulotlar davomida darslarning noan'anaviy, innovatsion hamda interfaol xarakterga ega bo'lishiga e'tibor qaratildi. Quyida "O'qish" darslarida badiiy matnlarni o'zlashtirishga nisbatan innovatsion va interfaol yondashuv mohiyati ochib beriladi.

**1. "Blits-so'rov" metodi** yordamida "Chaqimchiga mukofot" hikoyasida ishlatilgan tushunchalar mazmunini yoritish. "Blits-so'rov" metodi (ing. "blits" – tezkor, bir zumda) berilgan savollarga qisqa, aniq va lo'nda javob qaytarilishini taqozo etadigan metod. O'qituvchi savollar berdi. O'quvchilar javoblarni o'qituvchi tomonidan belgilangan yondashuvga ko'ra jamoaviy, guruhli, juftlik yoki individual tarzda qaytardi. Guruh va juftlikda ishlanganda bir nafar o'quvchi, ko'p holatlarda esa har bir savolga alohida-alohida o'quvchi javob qaytardi, guruhdoshlari yoki sherigining javobni to'ldirdi. Bunga javobning qisqa, lo'nda va aniq bo'lishiga e'tibor qilindi.

Dars jarayonida "Chaqimchiga mukofot" hikoyasi bo'yicha blits-so'rov tashkil etilib, o'qituvchi tomonidan tanlangan tushunchalar negizida o'quvchilar ularni sharhladi:

**“Chaqimchiga mukofot” hikoyasi bo‘yicha blits-so‘rov**

| **Blits-so‘rov savollari** | **Blits-so‘rov javoblari** |
|---|---|
| 1. Hokim – | 1. **Hokim** – boshliq |
| 2. Jilovdor – | 2. **Jilovdor** – jilovni ushlab yuruvchi |
| 3. Otboqar – | 3. **Otboqar** – otni parvarish qiluvchi kishi |
| 4. SHikor – | 4. **SHikor** – ov |
| 5. Sir – | 5. **Sir** – hech kimga aytilmaydigan gap |
| 6. Oshkor qilmaslik – | 6. **Oshkor qilmaslik** – birovga aytmaslik |
| 7. Qasam – | 7. **Qasam** – biror-bir ishni bajarishga qat’iy kirishish |
| 8. Bevafo – | 8. **Bevafo** – kimnidir ishonchini poymol qilish |
| 9. Xiyonat – | 9. **Xiyonat** – kimnidir ishonchiga qarshi ish qilish |
| 10. Fursat – | 10. **Fursat** – vaqt |
| 11. Tadbir – | 11. **Tadbir** – biror-bir ish |
| 12. Fosh qilish – | 12. **Fosh qilish** – aytib qo‘yish |

**2. “Klaster” grafik organayzerida** Shukur Sa’dullaning “Qovun sayli” hikoyasi mohiyatini yoritish. “Klaster” (g‘uncha, to‘plam, bog‘lam) grafik organayzer. U puxta o‘ylangan strategiya bo‘lib, ilgari surilgan g‘oyalarni umumlashtirish, ular o‘rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi. Klaster odatda elippsda ifodalanadi. Zero, elipps $360^0$ da tushunchalarni o‘zaro bir-biri bilan bog‘lash imkoniyatini yaratadi.

Shukur Sa’dullaning “Qovun sayli” hikoyasi mohiyatini “Klaster” GO yordamida yoritishda quyidagi ish qog‘ozi bilan ishlanadi:

## "Qovun sayli" Shukur Sa'dulla




Shukur Sa'dullaning "Qovun sayli" hikoyasi
Mohiyatining "Klaster"da yoritilishi



**3. Sinkveynda Abdulla Jo'rayevning "Kichik Vatan" hikoyasi mazmunini ifodalash.** Sinkveyn (fr. "besh qator") – ma'lumotlarni sintezlash (alohida ma'lumotlar asosida yaxlit g'oyalarni shakllantirish)ga yordam beradigan qofiyasiz she'r bo'lib, u asosida o'rganilayotgan mavzu (tushuncha, hodisa, voqea)larga oid ma'lumotlar to'planadi; har bir o'quvchi ushbu ma'lumotlar yig'indisi (qofiyasiz she'r)ni o'z so'zlari bilan turli variant yoki qarashlar orqali ifodalash imkoniyatiga ega.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga sinkveynga asoslangan o'quv topshirig'ini berishda dastlab ushbu strategiyaning mohiyatini tushuntirish maqsadga muvofiqdir. "O'qish" darsida o'qituvchi o'rganilayotgan hikoya yoki she'rning mohiyatini quyidagi shartlar asosida ochib berish kerakligini muvofiq ekanligini aytib o'tadi:

Ayni o'rinda Abdulla Jo'rayevning "Kichik Vatan" hikoyasi mohiyati: 1-qatorda bitta ot asosida; 2-qatorda ikkita sifat yordamida; 3-qatorda uchta fe'l orqali; 4-qatorda esa to'rtta so'z yordamida; 5-qatorda esa 1-qatorda berilgan otga sinonimni topish orqali yoritilishi zarur.

Ko'rsatib o'tilgan hikoyaning mohiyati sinkveyn asosida quyidagicha yoritiladi:

**"Kichik Vatan" Abdulla Jo'rayev**

*1-qator. **Hovli-joy*** (1ta ot)
*2-qator. **Qadrdon, bebaho*** (2 ta sifat)
*3-qator. **Unda odamlar yashaydi,***
***u odamlarni issiq-sovuqdan asraydi,***
***u bir necha avlodga xizmat qiladi*** (3 ta fe'l)
***4-qator. Odamlar uchun qadrli maskan (4 ta so'z)***
*5-qator. **Boshpana*** (1 ta so'z yoki gap)

Sinkveyn o'quvchilar tomonidan o'qituvchi ishtirokida to'ldirilishi zarur. Eng avval, o'qituvchi har bir qator bo'yicha o'quvchilarning takliflarini tinglab, sinf doskasida qayd etib boradi. So'ngra barcha qatorlar bo'yicha o'quvchilar tomonidan bildirilgan takliflar umumlashtirilib, yagona variant shakllantiriladi. Yagona variantni

shakllantirishda o‘qituvchi o‘quvchilarning fikrlarini grammatik jihatdan to‘g‘rilab ketishi ham mumkin. Masalan: o‘quvchilar “odamlar yomg‘ir, qor yoqqanda, sovuq bo‘lganda unga berkinadi” degan fikrni bildiradi. O‘qituvchi esa bu fikrni grammatik jihatdan “odamlarni issiq-sovuqdan asraydi” tarzida qayd etib, “issiq-sovuqdan asrash” aynan “yomg‘ir, qor va sovuqdan berkitish” ekanligini tushuntiradi. Yoki o‘quvchilar “hovlida ota-onalar, ularning bolalari, nabiralar yashaydi” degan taklifni bildiradi, o‘qituvchi esa bu fikrni “u bir necha avlodga xizmat qiladi” shaklida qayta bayon qiladi. So‘ngra “avlod” tushunchasini izohlab, o‘quvchilarni yangi so‘z bilan tanishtiradi.

“Avlod” atamasi lug‘aviy jihatdan arab tilidan tarjima qilinganda, “o‘g‘illar”, “bolalar”, “nasl”, mazmunan esa “ota-bobodan qolgan nasl”[108] ma’nolarini anglatadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini “avlod” atamasining ma’noni tushuntirishda “bobo yoki otalarning farzandlari, nabiralari” deya talqin etish ular uchun tushunarli bo‘lishni ta’minlaydi.

**4. “Kontseptual jadval” grafik organayzerda** “Saxovatli fasl” mavzusini yoritish. “Kontseptual jadval” (“Ta’riflovchi jadval”) o‘quvchilarni mavzu (masala, muammo)ni ikki yoki undan ortiq jihatlarini o‘zaro taqqoslashga o‘rgatadi, ularda mantiqiy fikrlash, ma’lumotlarni tizimlashtirish qobiliyatini o‘stiradi.

Tajriba-sinov ishlari davrida respondent-o‘quvchilardan iborat kichik guruhlarga quyidagi ish qog‘ozi taqdim etildi:

| **Muhim jihatlar** | **Asosiy belgi (tavsif)lar** | | |
|---|---|---|---|
| | **1-belgi (tavsif)** | **2-belgi (tavsif)** | **3-belgi tavsif)** |
| 1. Tabiatdagi o‘zgarishlar | | | |
| 2. Dehqonchilik | | | |
| 3. Ob-havo | | | |

[108] Ўзбекистон Республикаси “Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури” //Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Т.: Шарқ нашриёт-матбаа концерни, 1997. – 32-б.

**"Saxovatli fasl" mavzusidagi kontseptual jadval**

| Muhim jihatlar | Asosiy belgi (tavsif)lar | | |
|---|---|---|---|
| | **1-belgi (tavsif)** | **2-belgi (tavsif)** | **3-belgi tavsif)** |
| 1. Tabiatdagi o'zgarishlar | Kuzgi gullar ochiladi | Daraxtlarning barglari sarg'ayadi | Qushlar issiq o'lkalarga uchib ketadi |
| 2. Dehqonchilik | Mevalar g'arq pishadi | Sabzavotlar (sabzi, turp, qovoq, qovun, tarvuz va b.) yig'ishtirib olinadi | Paxta yig'im-terimi boshlanadi |
| 3. Ob-havo | Yomg'irlar yog'adi | Kunlar asta-sekin soviy boshlaydi | Kun qisqarib, tun uzaya boshlaydi |

**5. "Barcha omillarni hisobga ol!" (BOHO) metodi** yordamida G'ulom Shomurodning "Ozod Vatan mehri" she'ri mazmunni yoritish. "Barcha omillarni hisobga ol!" (boho) metodi o'quvchi e'tiborini muayyan omillarga qaratishga xizmat qiluvchi metod sanalib, uni qo'llashdan ko'zlangan maqsad shaxs ongini rivojlantirish, tasavvurini kengaytirish, tafakkurini boyitishdir.

Metod qanchalik aniq maqsad asosida qo'llanilsa, uning samaradorligi shuncha yuqori bo'ladi. Agar o'quvchi u yoki bu fikrni ochiq aytishga tortinsa, u holda metodni qo'llash hech qanday samara bermaydi.

Shakllantiruvchi tajriba chog'ida kichik guruhlarga quyidagi ish qog'ozi taqdim etildi:



Har bir guruh tomonidan toppshiriqning to‘la bajrilishi uchun o‘qituvchi o‘quvchilarning e’tiboriga “Ozod Vatan mehri” she’rining matnini havola qilishi mumkin:

| | |
|---|---|
| O‘zbekiston – ozod diyor,<br>Ko‘rkam, buyuk Vatandir.<br>Tuprog‘i zar, xo‘p hosildor,<br>Bag‘ri bog‘-u chamandir. | Dilda tuyib Vatan mehrin,<br>Yurt haqida o‘ylaymiz.<br>SHu boisdan uning madhin<br>To‘lib-toshib kuylaymiz |

Guruhlar ish qog‘ozi asosida “Ozod Vatan mehri” she’rida Vatanga berilgan tavsif (sifat)larni yoritadi. Topshiriq quyidagicha bajarildi (namuna):




**6. “Mantiqiy chalkash zanjir” strategiyasi** asosida To‘lqin Hayitning “Qodir boboning orzusi” hikoyasi mazmunini yoritish. Strategiya tushunchalar, bildirilgan fikrlar o‘rtasida bog‘liqlikni yuzaga keltirish, ularni mantiqiy jihatdan ketma-ketlikda to‘g‘ri ifodalashga yordam beradi. Uning mohiyatiga o‘qituvchi mavzuni yorituvchi ma’lumotlarni to‘g‘ri va noto‘g‘ri tartibda bayon etadi. O‘quvchilarning vazifasi mantiqiy jihatdan noto‘g‘ri ifodalangan ma’lumotlarni to‘g‘ri dalillarga aylantirish, yuzaga kelgan mantiqiy chalkashlikni tuzatish, fikrlarni muayyan ketma-ketlikda to‘g‘ri joylashtirgan holda uzilgan zanjirni “ulash”dan iborat.

**To'lqin Hayitning "Qodir boboning orzusi" hikoyasi asosidagi mantiqiy chalkash zanjir**

| Topshiriq | Topshiriqning bajarilishi |
|---|---|
| Qodir bobo | Qodir bobo |
| Nabira | Nabira |
| Po'latjon | Po'latjon |
| Kasb | Kasb |
| Sakson yosh | Sakson yosh |
| Rasm | Rasm |
| Asaka shahri | Asaka shahri |
| Toshkent shahri | ***Toshkent shahri*** |
| Avtomobilь | Avtomobilь |
| "Tiko" | "Tiko" |
| "Damas" | "Damas" |
| "Nexsiya" | "Nexsiya" |
| "Lada" | ***"Lada"*** |
| "Nissan" | ***"Nissan"*** |

**IV. Sinfdan tashqari o'qish.** Xorijiy davlatlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitob o'qishga ijobiy munosabatni shakllantirish yo'lida olib borilgan tadqiqotlar natijasida sinfdan tashqari o'qish pedagogik faoliyatning samarali shakli ekanligini tasdiqlagan.

T.P.Zarutskaya, shuningdek, "O'qish" darslari hamda sinfdan tashqari o'qish jarayonida bolalar faoliyatining bir qator ijodiy shakllari samaradorlikni oshirishga xizmat qilishini ta'kidlab o'tadi. Bu o'rinda muallif faoliyatning ijodiy shakllari sifatida quyidagilarni keltirib o'tadi: 1. Maqollarni ajratib olish imkonini beradigan parchalarni o'qish. 2. Diafilm uchun yozilgan stsenariylarni o'qish. 3. O'qilganlarni jestlar, mimika va gavda holati yordamida qayta hikoya qilish. 4. "Jonli surat" (bir o'quvchi matnni o'qiydi, boshqasi esa eshitganlarini mimika orqali namoyon qiladi). 5. "She'r o'qish" tanlovi (hay'at a'zolari tanlov g'oliblarini aniqlaydi). 6. Qat'iy, nafrat, o'tinch, achinish, norozilik,

piching, quvonch, xursandchilik, qayg'urish va boshqa holatlarda o'qiladigan parchalarni topish. 7. Muallif so'zini qoldirgan holda dialogni rollar bo'yicha o'qish. 8. Hikoya qiluvchining yuzini o'zgartirgan holda o'qilganlarni qayta bayon qilish. 9. Instsenirovka. 10. O'qilganlarni so'zlar yoki grafik tasvirlar yordamida ifodalash. 11. Sabab-oqibat aloqalari asosida o'qish. 12. Obrazli so'zlar, ta'riflarni topish asosida o'qish. 13. Mantiqiy urg'u berilgan so'zlarni topish va o'qish. 14. Takliflar mavjud bo'lgan matn parchasini o'qish[109].

Sinfdan tashqari o'qishning eng samarali shakllaridan biri – "Adabiy mehmonxona" sanaladi. U yuqori darajada istalgan, hattoki eng dadil g'oyani amalga oshirishga imkon beradi, zero, unda dramatik harakat, musiqa, qo'shiq, badiiy xarakterdagi o'yin, tomoshabinlar bilan muloqot hamda bahs-munozarani o'z ichiga olgan. Adabiy mehmonxonani tayyorlash va namoyish etish o'qituvchidan stsenariy yozish, rejissyorlik malakasiga, musiqiy didga va dunyoqarashga ega bo'lishni, ifodali o'qish ustida ishlash metodikasini bilishni, bundan tashqari ijodiy loyiha ishtirokchilari bilan o'zaro hamkorlik qila olishni[110].

**V. Ta'lim muassasasi va oila hamkorligi.** Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishda ta'lim muassasasi hamda oila o'rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Zero, ta'lim muassasasi o'zining pedagogik kontengenti, ularning pedagogik-spixologik tajribasiga ko'ra oilada boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan kitob o'qishda samaradorlikka erishish yuzasidan ota-onalarga amaliy-metodik ko'rsatmalar, tavsiyalar berish imkoniyatiga ega. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari oilalar bilan o'quvchilarda kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish loyihalariga ega bo'lishlari, ana shu loyihada oila bilan hamkorlik yo'nalishi, tadbirlar ko'lamini aks ettiruvchi bandlar bo'lishi zarur.

---

109 Зр[illegible] Т.П [illegible] // https://nsportal.ru/nachalnaya-shkola/chtenie/ 2012/03/ 31/razvitie-samostoyatelnoy-chitatelskoy-deyatelnosti-mladshikh

110 Жесткова Е.А. Миф детства в творческом сознании и художественной практике В.И.Даля // Ж. Филологические науки. Вопросы теории и практики. – М . 2014. № 4-3 (34) – С. 73.

Ta'lim muassasasi tomonidan oilalarga metodik yordam ko'rsatishda maktab kutubxonachisi ham faol ishtirok etishi zarur. Binobarin, kututbxonachi mutaxassis sifatida boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh, psixologik xususiyatlari, o'qish va yozish malakalari darajasini inobatga olgan holda qanday mavzu va turdagi kitobni taqdim etish imkoniyatiga ega. Shu sababli kutubxonachining ota-onalarga beradigan metodik yordami bolalarning yoshi, ta'lim bosqichi (sinfi), qiziqishi, o'qish tezligi kabi holatlarni inobatga olgan holda badiiy asarlarni tanlashga ko'maklashishdan iborat bo'ladi.

Kutubxonachilar o'qituvchilar bilan boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish yo'lida hamkorlik qilish uchun quyidagilarni yaxshi bilishlari zarur: bolalar uchun yozilgan kitoblar haqida ma'lumotga ega bo'lishi; o'quvchilarni kitob o'qishga odatlantirishda ko'zlanadigan pedagogik maqsad va vazifalarni to'g'ri anglab yetishi; o'quvchilarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirish usul va yo'llarini o'zlashtirgan bo'lishi; o'quvchilarga kitob o'qishni o'rgatishning turli usul, shakl, metodlarini tanlash va qo'llashni bilishi, bu jarayonda pedagogik texnologiyalarni qo'llay olishi; pedagogik bilimlarga, badiiy asarni pedagogik va badiiy tahlil qilish ko'nikmalarini egallagan, badiiy va o'quv adabiyotlarining barchaturlaridan ma'lumotga ega bo'lishi, ushbu bilimlarni o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish jarayonida qo'llay olishi; o'quvchilar bilan pedagogik muloqot qilish metodlaridan foydalanish, notiqlik ko'nikmalari hamda ifodali o'qish malakasiga ega bo'lishi; o'quvchilarning badiiy-ijodiy faoliyat xususiyatlarini bilishi hamda bu bilimlarni ularda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda qo'llashi; avtomatlashtirilgan ish jarayonida hamda zamonaviy texnik vositalar bilan ishlashni bilishi [111].

"Har bir sinf o'qituvchilarining maktab kutubxonachisiga sinfdagi o'quvchilarning qiziqishlari haqida axborot berishi" [112] u tomonidan o'qituvchilar va ota-onalarga boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun kitob

---

[111] Каюмхўжаева Е. Ўқувчиларнинг китобхонлик маданиятини шакллантириш имкониятлари. – Т.: А.Қодирий номидаги Тошкент давлат маданият институти, 2007. – 15-16-б.

[112] Каюмхўжаева Е. Ўқувчиларнинг китобхонлик маданиятини шакллантириш имкониятлари. – Т.: А.Қодирий номидаги Тошкент давлат маданият институти, 2007. – 11-12-б.

tanlash yuzasidan beradigan amaliy yordamining samarali bo‘lishini kafotlaydi. “Kutubxonachi esa xuddi shunday axborotlar bankini vujudga keltiradi”[113]. Axborotlar banki nafaqat badiiy adabiyotlar, shu bilan birga “o‘zbek va jahon klassiklari asarlari, xalq og‘zaki ijodi, hozirgi zamon mashhur yozuvchilarining asarlari, she’riy to‘plamlar, ilmiy-fantastik, sarguzasht, geografik kashfiyotlar tabiat va unga muhabbat, hayvonot dunyosi, bolalar va o‘smirlar hayoti haqidagi adabiyotlardan tashkil topishi zarur”[114].

Kutubxonachi ota-onalar bilan ixtiyoriy ravishda, qolaversa, o‘z ish rejasiga muvofiq bevosita yoki boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari bilan o‘zaro hamkorlikda muloqotda bo‘lishi mumkin. Ota-onalar bilan muloqoti shaklidan qat’i nazar kutubxonachining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda ishtiroki quyidagilarda namoyon bo‘ladi: 1. Maktab axborot-kutubxona resursi jamg‘armasida mavjud bo‘lgan manbalar orasidan bolalar adabiyotni tanlash va ularning miqdorini aniqlash. 2. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlari (individual xususiyatlaridan xabardor bo‘lsa yanada yaxshi), qiziqish, intilish, ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ular uchun mos badiiy adabiyotlar ro‘yxati – ma’lumotlar bankini tuzish. 3. Tanlangan bolalar adabiyotlarining mazmuni bo‘yicha boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va ota-onalar uchun annotatsiya tayyorlash. 4. O‘rta va yuqori sinf o‘quvchilarini volontyor sifatida jalb etgan holda boshlang‘ich sinf o‘quvchilar uchun tanlangan badiiy adabiyotlar haqida ma’lumot beruvchi plakat, buklet, alьbomlar tayyorlash orqali ularning reklamasi uyushtirish. 5. Volontyorlar yordami bilan hafta yoki oy yakunlari bo‘yicha “Eng faol kitobxon” tanlovi uchun ko‘krak timsol (emblema)larini tayyorlash. 6. Haftalik yoki oylik yakunlariga ko‘ra “Eng faol kitobxon” tanlovi g‘oliblarining nomlarini maxsus yozuv taxtasi (doska)da qayd etib borish. 7. Ta’lim muassasasi yoki guruh ota-

---

[113] Каюмхўжаева Е. Ўқувчиларнинг китобхонлик маданиятини шакллантириш имкониятлари. – Т.: А.Қодирий номидаги Тошкент давлат маданият институти, 2007. – 11-12-б.
[114] Quronov D. Muhimi – kitobxonlik darajasi va madaniyati // https://ziyouz. uz/suhbatlar/dilmurod-quronov-muhimi-kitobbonlik-darajasi-va-madaniyati-2015.

onalar yig'ilishida "Eng faol kitobxon" tanlovining haftalik yoki oylik yakunlariga ko'ra g'oliblarini e'lon qilib borish.

**IV. Volontyorlik faoliyati.** Zamonaviy sharoitda yetakchi xorijiy davlatlarda ijtimoiy ahamiyatga ega jarayonlarni tashkil etishda volontyorlik faoliyatiga tayanish tajribasi mavjud. Mazkur davlatlarning aholisi yosh toifasi chegaralanmagan holda turli yo'nalishda volontyorlik faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin. Tadqiqotni olib borish davrida mazkur xorijiy tajribadan boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonida ham foydalanish samaralidir, degan xulosaga kelindi. Volontyorlik faoliyatiga umumiy o'rta ta'lim maktabining o'rta va yuqori sinflarining o'quvchilari jalb etildi. Ularning asosiy vazifasi sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida o'qituvchi, kutubxonachi bilan o'zaro hamkorlikda boshlang'ich sinf o'quvchilariga badiiy asarlarini o'qib berish (1-2-sinflar), o'quvchilar tomonidan kitob o'qishni tashkil etish, o'qilgan asarlar yuzasidan o'qituvchi yoki kutubxonachi rahbarligida ishlab chiqilgan savollar bo'yicha kichik suhbatlarni tashkil qilish, o'qilgan asar bo'yicha taassurotlarini tengdoshlari biln o'rtoqlashish jarayonlarini tashkildan iborat bo'ldi.

Volontyorlar guruhi o'rta va yuqori sinf o'quvchilari bilan suhbatlar asosida o'rtasida ko'ngilli bo'lib, ijtimoiy-foydali ish (mehnat)ni bajarishning ijtimoiy-individual ahamiyatini, boshlang'ich sinf o'quvchilariga sinfdan tashqari vaqtlarda badiiy adabiyotlarni o'qib berish ham ko'ngilli ravishda bajariladigan ijtimoiy-foydali ish ekanligini tushuntirish asosida ular orasidan shakllantiriladi. Ko'ngillilar guruhiga kirish istagina bildirgan o'quvchilarning vazifasi haftada 2-3 marta darsdan bo'sh vaqtlarda boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashdan iboratligi, bu jarayonga mas'uliyatli yondashish talab etilishi aytib o'tiladi. Qat'iy qarorga kelgan o'quvchilar kichik guruhlarga biriktirilib, juftlik asosida belgilangan rejaga muvofiq navbatchilik asosida bir oyda 2-3 marta boshlag'ich sinf o'quvchilari bilan ishlaydi.

Ko'ngillilik faoliyati o'rta va yuqori sinf o'quvchilari uchun to'rt jihatdan ahamiyatlidir: 1) ko'ngilli bajarilgan ish shaxsda boshqalarga

kerakligini anglash, o‘zgalarni tushunish, o‘z-o‘zini hurmat qilish hislarini uyg‘otadi; 2) ijtimoiy-foydali ish shaxsdagi ruhiy zo‘riqishning oldini oladi yoki uni bartaraf etadi; 3) boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan bo‘ladigan muloqot ularda kommunikativlik, ijtimoiy faollik sifatlarini rivojlantiradi; 4) dunyoqarashni boyitadi.

**VII. O‘yinlar.** Harakatli va didaktik o‘yinlar zamonaviy boshlang‘ich ta’limda o‘qitish samaradorligini oshirishda o‘ziga xos o‘rin tutadi. Zero, yosh va psixologik xususiyatlariga ko‘ra bolalar 7 yoshgacha borliqni asosan o‘yin orqali anglaydi. Ular o‘yin orqali kattalarning xatti-harakatlarini imitatsiyalaydi, o‘zlarining atrofdagilarga, tabiatga bo‘lgan munosababtini ifodalaydi. Harakatli va didaktik xarakterdagi o‘yinlarning boshlang‘ich sinf o‘quvchilari faoliyatini davomli, tizimli tashkil etishga bo‘lgan ta’sirini inobatga olgan holda ular yordamida bolalarda kitob o‘qishga ijobiy munosabatni shakllantirish, kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik ko‘nikmalarini shakllantirishning muhim vositasi sifatida badiiy xarakterdagi o‘yinlardan foydalanish “asar mohiyatini chuqurroq anglash, bolalarning e’tiborini kitoblarning badiiy qiymatiga qaratish”[115] ga yordam beradi. Binobarin, “badiiy xarakterdagi o‘yinlarning maqsadi asar mazmunini yangicha talqin etish yoki uning negizida yangi g‘oyalarni yaratish”[116] bo‘lib, ular boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitob o‘qishga ijobiy munosabatni qaror toptiradi, qiziqishni oshiradi, shuningdek, fikrlash, mustaqil ravishda o‘z fikrini ifoda etish qobiliyatini tarbiyalaydi.

**VIII. Audio kitoblarni birgalikda tinglash.** Ma’lumki, kitoblarni fonografda tinglash buyuk kashfiyotchi Tomas Edison tomonidan taklif qilgan. Bugungi kunda “audiokitoblar tobora mashhurlikka erishmoqda” [117]

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda ham audio kitoblardan foydalanish mumkin. Zero,

---

[115] Жесткова Е.А. Мир детства в творческом сознании и художественной практике В.И.Даля // Ж. Филологические науки. Вопросы теории и практики. – М., 2014. № 4-3 (34). – С. 73.

[116] Жесткова Е.А. Мир детства в творческом сознании и художественной практике В.И.Даля // Ж. Филологические науки. Вопросы теории и практики. – М., 2014. № 4-3 (34). – С. 73.

[117] Норбобоев Н. Китоб ва мутолаа маданияти /Методик-библиографик қўлланма //http://natlib.uz/Content/userfiles/upload/pdf.word.excel/ мутахассислар-учун /услубий-фаолият/1Ахборот/Китобвамутолаамаданияти_ 482/20КБ.pdf.

psixologik xususiyatlariga ko‘ra bolalar uch guruhga ajratiladi: 1) audistlar – eshitganlarini yaxshi eslab qoluvchilar; 2) vizualistlar – ko‘rganlarini yaxshi eslab qoluvchilar; 3) kinestetiklar – bajarganini yaxshi eslab qoluvchilar. Qolaversa, global axborotlashuv sharoitida bosma kitobni o‘qigandan ko‘ra audio kitoblarni o‘qishni afzal ko‘ruvchilarning soni tobora ortib bormoqda. Mobil telefon, planshet orqali audio kitoblarni o‘qishning bir qadar afzallik ega. Chunki undan foydalanish alohida joy, manzil tandamaydi.

Ayni o‘rinda shuni ham aytib o‘tish kerak, audio kitoblardan foydalanish qanchalik qulay bo‘lmasin, ulardan foydalanish muayyan kamchiliklarga ham ega. Jumladan, elektron qurilmalar elektr quvvatida ishlaydi, doimiy ravishda elektr quvvati ta’sirida bo‘lish inson salomatligi uchun ham zararli sanaladi. Qolaversa, “kitobni tinglayotganda inson ongi diqqatni bir yerga jamlamaydi. Matnni ko‘rmay turib, kamroq narsani eslab qolinadi. Shunday tajriba amalga oshirilgan: ishtirokchilarga audio kitoblarni tinglash taklif etilgan. Ular parallel ravishda boshqa ish bilan shug‘ullanmay, ataylab kitobga quloq solishgan. Biroq baribir chalg‘ishgan” [118].

Shu bois, bizning fikrimizga ko‘ra, boshlang‘ich ta’lim, umuman holganda, uzluksiz ta’limning boshqa bosqichlarida ham audio kitoblardan foydalanish pedagogik faoliyatda qo‘llaniladigan asosiy vosita bo‘lmasligi, pedagogik faoliyatning “rang-barangligi”ga erishish, o‘quvchilarni qiziqtirish uchun vaqti-vaqti bilan foydalanish zarur. Zero, mazkur yosh davrida o‘quvchilarni bosma kitoblardan foydalanishga o‘rgatish maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatning muayyan tamoyillarga muvofiq tashkil etilishi kutilgan natijani qo‘lga kiritilishini kafolatlaydi. Tadqiqotni olib borishda korporativ, maqsadli, loyihaviy, tabaqaviy, qadriyatli, interfaol, innovatsion hamda refleksiv yondashuvlar, volontyorlik faoliyati, yosh xususiyatlarini inobatga olish,

---

[118] Норбобоев Н. Китоб ва мутолаа маданияти /Методик-библиографик қўлланма //http://natlib.uz/Content/userfiles/upload/pdf word excel/ мутахассислар-учун /Услубий-фаолият/1 Ахборот/Китобвамутолаамаданияти_482/20КБ.pdf.

vizualizatsiya, izchillik, uzluksizlik, tizimlilik, dars va sinfdan tashqari o'qish mashg'uloti birligi, rang-baranglik kabi tamoyillar boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlikni rivojlantirishda ustuvor ahamiyatga egaligi aniqlandi.

Ma'lum omillar ham boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonnga o'z ta'sirini ko'rsatib, uning samarali kechishini ta'minlaydi. Shu sababli tadqiqotni olib borishda bolalar adabiyotlari, oilaviy o'qish, ta'lim jarayoni (dars), sinfdan tashqari o'qish, ta'lim muassasasi va oila hamkorligi, volontyorlik faoliyati, o'yinlar, audio kitoblarni birgalikda tinglash kabi omillar tadqiq etilayotgan jarayonning samaradorligini ta'minlashda o'ziga xos o'rin tutadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotni olib borishda mazkur omillarning ta'siri yuqori ekanligi aniqlandi.

# II BO'LIM.
# BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA KITOBXONLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA DARS ISHLANMALARI

**Mavzu. Ona yurtim – oltin beshigim.**

**(4-sinf uchun o'qish fanidan dars ishlanma namunasi.)**

Ta'limiy maqsad.

1.Vatan haqidagi mavzu orqali DTS asosida ta'lim berish,og'zaki nutqini o'stirish.

1. Aqliy qobiliyatlarini o'stirish orqali vatanimizning buyuk kelajak sari odimlayotganini o'quvchilar ongiga yetkazish,vatan tuyg'usini o'stirish.

Tarbiyaviy maqsad.

2. Vatanni sevish, uni e'zozlash,kerak bo'lganda jonlarini fido qilishdek inson sifatida kamol toptirish.

3. Ahloqiy estetik va ekologik tarbiya berish.

Rivojlantiruvchi maqsad.

Ko'rgazmali qurollar va tarqaqtma materiallardan foydalanih orqali o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish , komil insonni tarbiyalash.

Dars uslubi. No'ananaviy.

Dars jihozi. Vatan haqidagi rasmlar, magnitafon, tarqatmalar,gul, meva maketlari,lug'at daftar.kiob,savat.

Darsni borishi.

1. Tashkiliy qism.
2. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.
3. O'quvchilar bilan guruhlarda topshiriqlar bajarish.
4. Dam olish daqiqasi.
5. Yangi mavzu bayoni.
6. Didaktik o'yinlar .

7. Mavzuni mustahkamlash.
8. Vazifa.

Dars Davlat madhiyasini kuylash bilan boshlanadi. Sana, fasl haqida suhbat. So'ng o'tilgan"Vatan mo'tabardir"mavzusidan savol-javob. O'qituvchi savol berishni boshlab beradi ,o'quvchilar esa bir-birlariga gul taqdim etib savol berishni davom ettiradilar .Savol- javobda o'quvchilar qatnashgandan so'ng

olqishlab rag'batlabtiriladi.

O'tilgan mavzu yuzasidan savollar

1 O'quvchi savoli: O'g'izxondan dushmanlar nimani talab qilisdi.
O'quvchi javobi: Dushmanlar turk xoqoni O'g'izxondan unga qarashli tashlandiq, hech narsa bitmaydigan bir parcha yerni talab qildi,

2 O'quvchi savoli: O'g'izxon nima deb javob berdi?
O'quvchi javobi: Vatandan ozgina bo'lsa ham bir qaqrich bo'lsa ham yer bermakka hech bir kimsaning haqqi yoqdir ,-deb javob berdilar.

3. O'quvchi savoli: Vatanga muhabbat nimadan boshlanadi.?
O'quvchi javobi: Vatanga muhabbat uning dalalari,qir –adirlar,moviy rang bog'lari,dasht-u sahrolariga bo'lgan muhabbatdan boshlanadi.

4. O'quvchi savoli: Biz vatanga muhabbatni kimdan o'rganishimiz kerak?
O'quvchi javobi: Biz vatanni sevmoqni dono bobolarimizdan o'eganmog'imiz kerak

5. O'quvchi savoli: Vatan nimaga qiyoslanadi? Va h.k
O'quvchi javobi:Vatan onaga qiyoslanadi.

Shundan so'ng o'quvchilar o'tilgan mavzu yuzasidan o'z olgan tushunchalarini bildiradi o'qituvchi mustahkamlab o'tilgan mavzuni yakunlaydi.

Sinf o'quvchilari gullar nomi bilan guruhlarga ajratiladi(Nomlar ixtiyoriy tanlanadi. )

M: 1. Binafsha.

2.Lola.

3.Boychechak.

Bu bosqichda guruh a'zolaridan biri quyidagi savollar yozilgan tarqatmalardan hohlagan birini olib guruhda muhokama qilishadi va berilgan vaqtda javob qaytarishadi.

«Binafsha» guruhiga : Vatan haqidagi maqollardan ayting va izohlang.

"Lola"guruhiga: Vatan haqidagi biror rivoyatlardan birini ayting.

"Boychechak"guruhiga: O'zbekiston respublikasi ramzlariga ta'rif bering.

Har bir guuh o'zlari kelishib sardor yoki guruh a'zosidan biri chiqib savollarga aniq javob aytishadi.So'ng guruhdan chiqqan o'quvchi savatda ochilgan gullardan yoqtirganini olib unga navbatdagi bosqich sifatida guruh bilan birga javob qaytaradi. Albatta favoblar hisobga olinadi va guruhlar rag'batlantirilib boriladi.

M: (savollar quyidagicha bo'lishi mumkin)

1. Yurtimizdagi qanday qo'shma korxonalarni bilasiz?
O'quvchi: Janubiy Kqreyanin DEU korparatsiyasi bilan hamkorlikda yengil avtomobillar ishlab chiqaradigan "O'zDEUavto " qo'shma korxonasi. Turkiyaning "Ko'chxolding" kompaniyasi bilan hamkorlikda avtobus va turli yuk mashinasi ishlab chiqaradigan "SamKoch avto"qo'shma korxonasi, O'zbekiston Ispaniya hamkorligidagi ichimliklar ishlab chiqaradigan "Janes "qoshma korxonasi va h.k.

2. Buyuk allomalarimizning nomlarini aytng?
Oquvchi: Abu Rayhon Beruniy ,Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy,al Xorazmiy, Naqshbandiy, Ulug'bek,Yusuf Xos Hojib,Imom Buxoriy va b...

3. Aka- opalarimiz qaysi chet davlatlarda tahsil olmoqda?
Oquvchi: Aka-opalarimiz Angliya,AQSh,Germaniya, Yaoniya, Fransiya kabi chet davlatlarda tahsil olmoqdalar.

4. O'zbekistonning birinchi avtomobillari qachon dunyoga keldi?
O'quvchi: O'zbekistonning birinchi avtomobillari 1996- yildan boshlab dunyoga kela boshladi.

Dam olish daqiqasi : O'quvchilar vatan haqidagi qo'shiqdan birini kuylashadi.

Yangi mavzu. Ona yurting- oltin beshik.

Muallif Oydin Hojiyeva ijodi haqida ma'lumot.O'qituvchi mavzuni ifodali o'qiydi.Ifodali o'qishni keyingi bosqich sifatida"Ifodali o'qish"da mavzu matnini o'qishni guruhlar davom ettiradilar.o'qishadi.Barcha guruh a'zolari, DTS talablari asosida ongli,ravon o'qishlarini hisobga olib boriladi va tegishli ballar qo'yib boriladi.Bir guruh o'qiyotganida qolgan guruhlar nazorat qilib borishlari, har bir guruh qolgan guruhdagi eng a'lo o'qigan o'quvchilarning nomlarini ko'rsatadilar va o'z guruh nomidan rag'batlantiruvchi sovg'a taqdim etishi mumkin.M: (gul,rasm h.k.)

Shu paytda lug'at ishi o'tkaziladi. Qaysi guruh ishi uchun ma'nosi tushinilmagan so'z aytilsa, agar uni qolgan guruh a'zolari bilsalar izohlashadi, yoki o'qituvchi tomonidan izohlab tushuntiriladi.

So'ng navbatdagi bosqichda yangi mavzu yuzasidan har bir guruh o'z fikr tushunchalarini ikki minut davomida ifodalashlari topshiriladi.

M: **Binafsha guruhi.** Vatanni oq sut bergan onaga qiyos qilishadi. Tilla beshiklarimiz –dastlabki vatanimiz bo'ladi.

**Lola guruhi.** Vatan biz bilan birga ulg'ayadi. Bizni allalab erkalab yupatlb suylb o'stirgan ilk vatanimiz tilla beshik.

**Boychechak guruhi.** Ona yurtimiz ostonadan boshlanadi uni sevamiz, ardoqlaymis. U tug'ilib o'sgan joyimiz, uni hech narsaga alishmaymiz.

Shundan so'ng navbatdagi bosqihsni "Yangi avlod tashrifi" deb nomlash mumukin.Bu bosqihsda "Yangi avlod" studiyasining suhandoni tashrif qilib gruhlar bilan tezkor savol- javoblar o'tkazish mumkin, suhandon gruhlardan intervy olish ushun o'yinchoq hayvonlardan foydalanadi. O'yinchoqlarni guruhlar oldindan tanlab oladi. (suhandon o'yinchoq orqasiga yozilgan savollarni shu guruhga beradi, savollar soni 3tadan iborat.)Savollarga to'g'ri ,aniq tez javob bergan guruh g'olib sanaladi va salom,tabrik yollash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Tezkor savollar quyidagicha beriladi.

1. A. Oripovning vatan haqidagi she'ridan birini ayting?

Javob: Men nechun sevaman O'zbekistonni,

Tuprog'in ko'zimga aylab to'tiyo,

Nechun Vatan deya yeru osmonni

Tabho atayman atayman tanho.

2. Nima uchun kishilar o'z vatanini sevadilar?
O'quvchi: Chunki insonlar u yerda tug'iladilar, yasjaydilar.

3. Vatan haqidagi qo'shiqdan bir band xirgoyi qilib bering?
O'quvchi: X. Bobomurodova she'ri:

Mening Temur bobom sohibqironim,

Qonidan olingan bir qoshiq qonim,

Asrlami yengib o'tgan bo'ronim,

Vatan yagonadir, vatan bittadir.

4. Yurtimizda tashkil etilgan orden va medallar nomini ayting?
O'quvchi: "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni, "Sog'lom avlod uchun "ordeni,"Mustaqillik"ordeni,"Shon-sharaf "oedeni, "Do'stlik"ordebi, "Amur Temur"ordeni, "Mehnat shuhrati'"ordeni, "Buyuk xizmatlari uchun "ordeni,"El-yurt hurmati"ordeni, "Jasorat"medali, "Shuhrat" medali, "Oltin yulduz "medali va h...

5. Yurtimizdagi shaharlar nomlarini sanab bering?
O'quvchi: Toshkent, Namangan, Buxoro, Qo'qon, Nukusm,Andijon, Guliston va b...

G'olib chiqqan guruh o'zi hohlagancha salom va tabrik yo'llashi mumkin.

Suhandon bilag'on sinf uchun sovg'a sifatida magnitafondan ona allasi ijrosini qo'yib taqdim etadi. So'ng mavzu mustahkamlanib vazifa beriladi.

**Mavzu. Ona yurting – oltin beshigimg.**

**(4-sinf uchun o'qish fanidan dars ishlanma namunasi.**

Ta'limiy maqsad.1.Vatan haqidagi mavzu orqali DTS asosida ta'lim berish,og'zaki nutqini o'stirish.

2. Aqliy qobiliyatlarini o'stirish orqali vatanimizning buyuk kelajak sari odimlayotganini o'quvchilar ongiga yetkazish,vatan tuyg'usini o'stirish.

Tarbiyaviy maqsad.

1. Vatanni sevish, uni e'zozlash,kerak bo'lganda jonlarini fido qilishdek inson sifatida kamol toptirish.

2. Ahloqiy estetik va ekologik tarbiya berish.

Rivojlantiruvchi maqsad.

Ko'rgazmali qurollar va tarqaqtma materiallardan foydalanih orqali o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish , komil insonni tarbiyalash.

Dars uslubi. No'ananaviy.

Dars jihozi. Vatan haqidagi rasmlar, magnitafon, tarqatmalar,gul, meva maketlari,lug'at daftar.kiob,savat.

Darsni borishi.

9. Tashkiliy qism.
10. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.
11. O'quvchilar bilan guruhlarda topshiriqlar bajarish.
12. Dam olish daqiqasi.
13. Yangi mavzu bayoni.
14. Didaktik o'yinlar .
15. Mavzuni mustahkamlash.
16. Vazifa.

Dars Davlaat madhiyasini kuylash bilan boshlanadi. Sana, fasl haqida suhbat. So'ng o'tilgan"Vatan mo'tabardir"mavzusidan savol-javob. O'qituvchi savol berishni boshlab beradi ,o'quvchilar esa bir-birlariga gul taqdim etib savol berishni davom ettiradilar .Savol- javobda o'quvchilar qatnashgandan so'ng olqishlab rag'batlabtiriladi.

O'tilgan mavzu yuzasidan savollar

3 O'quvchi savoli: O'g'izxondan dushmanlar nimani talab qilisdi.
O'quvchi javobi: Dushmanlar turk xoqoni O'g'izxondan unga qarashli tashlandiq, hech narsa bitmaydigan bir parcha yerni talab qildi,

4 O'quvchi savoli: O'g'izxon nima deb javob berdi?
O'quvchi javobi: Vatandan ozgina bo'lsa ham bir qaqrich bo'lsa ham yer bermakka hech bir kimsaning haqqi yoqdir ,-deb javob berdilar.

6. O'quvchi savoli: Vatanga muhabbat nimadan boshlanadi.?

O‘quvchi javobi: Vatanga muhabbat uning dalalari,qir –adirlar,moviy rang bog‘lari,dasht-u sahrolariga bo‘lgan muhabbatdan boshlanadi.

7. O‘quvchi savoli: Biz vatanga muhabbatni kimdan o‘rganishimiz kerak?

O‘quvchi javobi: Biz vatanni sevmoqni dono bobolarimizdan o‘eganmog‘imiz kerak

8. O‘quvchi savoli: Vatan nimaga qiyoslanadi? Va h.k O‘quvchi javobi:Vatan onaga qiyoslanadi.

Shundan so‘ng o‘quvchilar o‘tilgan mavzu yuzasidan o‘z olgan tushunchalarini bildiradi o‘qituvchi mustahkamlab o‘tilgan mavzuni yakunlaydi.

Sinf o‘quvchilari gullar nomi bilan guruhlarga ajratiladi(Nomlar ixtiyoriy tanlanadi. )

M: 1. Binafsha.

2.Lola.

3.Boychechak.

Bu bosqichda guruh a’zolaridan biri quyidagi savollar yozilgan tarqatmalardan hohlagan birini olib guruhda muhokama qilishadi va berilgan vaqtda javob qaytarishadi.

«Binafsha» guruhiga : Vatan haqidagi maqollardan ayting va izohlang.

“Lola”guruhiga: Vatan haqidagi biror rivoyatlardan birini ayting.

“Boychechak”guruhiga: O‘zbekiston respublikasi ramzlariga ta’rif bering.

Har bir guuh o‘zlari kelishib sardor yoki guruh a’zosidan biri chiqib savollarga aniq javob aytishadi.So‘ng guruhdan chiqqan o‘quvchi savatda ochilgan gullardan yoqtirganini olib unga navbatdagi bosqich sifatida guruh bilan birga javob qaytaradi. Albatta favoblar hisobga olinadi va guruhlar rag‘batlantirilib borilaadi.

M: (savollar quyidagicha bo‘lishi mumkin)

5. Yurtimizdagi qanday qo‘shma korxonalarni bilasiz?

O‘quvchi: Janubiy Kqreyanin DEU korparatsiyasi bilan hamkorlikda yengil avtomobillar ishlab chiqaradigan “O”zDEUavto ” qo‘shma

korxonasi. Turkiyaning “Ko‘chxolding” kompaniyasi bilan hamkorlikda avtobus va turli yuk mashinasi ishlab chiqaradigan “SamKoch avto”qo‘shma korxonasi, O‘zbekiston Ispaniya hamkorligidagi ichimliklar ishlab chiqaradigan “Janes ”qoshma korxonasi va h.k.

6. Buyuk allomalarimizning nomlarini aytng?
Oquvchi: Abu Rayhon beruniy ,Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy,al Xorazmiy, Naqshbandiy, Ulug‘bek,Yusuf Xos Hojib,Imom Buxoriy va b…

7. Aka- opalarimiz qaysi chet davlatlarda tahsil olmoqda?
Oquvchi: Aka- opalarimiz Angliya,AQSH,Germaniya, Yaoniya, Fransiya kabi chet davlatlarda tahsil olmoqdalar.

8. O‘zbekistonning birinchi avtomobillari qachon dunyoga keldi?
O‘quvchi: O‘zbekistonning birinchi avtomobillari 1996- yildan boshlab dunyoga kela boshladi.

Dam olish daqiqasi : O‘quvchilar vatan haqidagi qo‘shiqdan birini kuylashadi.

Yangi mavzu. Ona yurting- oltin beshik.

Muallif Oydin Hojiyeva ijodi haqida ma’lumot.O‘qituvchi mavzuni ifodali o‘qiydi.Ifodali o‘qishni

keyingi bosqich sifatida“Ifodali o‘qish”da mavzu matnini o‘qishni guruhlar davom ettiradilar.o‘qishadi.Barcha guruh a’zolari, DTS talablari asosida ongli,ravon o‘qishlarini hisobga olib boriladi va tegishli ballar qo‘yib boriladi.Bir guruh o‘qiyotganida qolgan guruhlar nazorat qilib borishlari, har bir guruh qolgan guruhdagi eng a’lo o‘qigan o‘quvchilarning nomlarini ko‘rsatadilar va o‘z guruh nomidan rag‘batlantiruvchi sovg‘a taqdim etishi mumkin.M: (gul,rasm h.k.)

Shu paytda lug‘at ishi o‘tkaziladi. Qaysi guruh ishi uchun ma’nosi tushinilmagan so‘z aytilsa, agar uni qolgan guruh a’zolari bilsalar izohlashadi, yoki o‘qituvchi tomonidan izohlab tushuntiriladi.

So‘ng navbatdagi bosqichda yangi mavzu yuzasidan har bir guruh o‘z fikr tushunchalarini ikki minut davomida ifodalashlari topshiriladi.

M: **Binafsha guruhi.** Vatanni oq sut bergan onaga qiyos qilishadi. Tilla beshiklarimiz –dastlabki vatanimiz bo‘ladi.

**Lola guruhi**. Vatan biz bilan birga ulg'ayadi.

Bizni allalab erkalab yupatlb suylb o'stirgan ilk vatanimiz

tilla beshik.

**Boychechak guruhi.** Ona yurtimiz ostonadan boshlanadi uni sevamiz, ardoqlaymis. U tug'ilib o'sgan joyimiz, uni hech narsaga alishmaymiz.

Shundan so'ng navbatdagi bosqihsni "Yangi avlod tashrifi" deb nomlash mumukin.Bu bosqihsda "Yangi avlod" studiyasining suhandoni tashrif qilib gruhlar bilan tezkor savol- javoblar o'tkazish mumkin, suhandon gruhlardan intervy olish ushun o'yinchoq hayvonlardan foydalanadi. O'yinchoqlarni guruhlar oldindan tanlab oladi. (suhandon o'yinchoq orqasiga yozilgan savollarni shu guruhga beradi, savollar soni 3tadan iborat.)Savollarga to'g'ri ,aniq tez javob bergan guruh g'olib sanaladi va salom,tabrik yollash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Tezkor savollar quyidagicha beriladi.

6. A. Oripovnin vatan haqidagi she'ridan birini ayting?
Javob: Men nnechun sevaman O'zbekistonni,

Tuprog'in ko'zimga aylab to'tiyo,

Nechun Vatan deya yeru osmonni

Tabho atayman atayman tanho.

7. Nima uchun kishilar o'z vatanini sevadilar?
O'quvchi: Chunki insonlar u yerda tug'iladilar, yasjaydilar.

8. Vatan haqidagi qo'shiqdan bir band xirgoyi qilib bering?
O'quvchi: X. Bobomurodova she'ri:

Mening Temur bobom sohibqironim,

Qonidan olingan bir qoshiq qonim,

Asrlarni yengib o'tgan bo'ronim,

Vatan yagonadir, vatan bittadir.

9. Yurtimizda tashkil etilgan orden va medallar nomini ayting?

O‘quvchi: “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni, “Sog‘lom avlod uchun “ordeni,”Mustaqillik”ordeni,”Shon-sharaf ”oedeni, “Do‘stlik”ordebi, “Amur Temur”ordeni, “Mehnat shuhrati’”ordeni, “Buyuk xizmatlari uchun ”ordeni,”El-yurt hurmati”ordeni, “Jasorat”medali, “Shuhrat” medali, “Oltin yulduz ”medali va h…

10. Yurtimizdagi shaharlar nomlarini sanab bering?
O‘quvchi: Toshkent, Namangan, Buxoro, Qo‘qon, Nukusm,Andijon, Guliston va b…

G‘olib chiqqan guruh o‘zi hohlagancha salom va tabrik

yo‘llashi mumkin.

Suhandon bilag‘on sinf uchun sovg‘a sifatida magnitafondan ona allasi ijrosini qo‘yib taqdim etadi.

So‘ng mavzu mustahkamlanib vazifa beriladi.

## O‘qish darslarida “Ona yurting – oltin beshiging, Ona – Vatan” mavzusi

**Darsning ta'limiy maqsadi:**

O‘quvchilarda to‘g‘ri, ongli, ifodali o‘qish malakalarini rivojlantirish, erkin fikrlashga, so‘zlashga o‘rgatish. Vatan haqidagi fikr va bilimlarini kengaytirish. Vatan borasidagi so‘z boyliklarini oshirish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:**

Ona – Vatanni sevish, uning muqaddas, bebaho ekanligini his etish, qadriga yetish tuyg‘usini o‘quvchilarga singdirish. Vatanni qadrlashni ota – bobolardan o‘rganishga odatlantirish, uning tabiiy boyliklarini asrash, o‘z Vatanini jonidan ortiq sevish va uning asl himoyachilari bo‘lib yetishish kabi xislatlarni tarbiyalash.

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:**

O‘quvchilarni o‘qilgan asardagi g‘oyani aniqlashga, uni taxlil qilib, ijobiy tomonlarini o‘rganishlarini tashkillash.

**Dars jihozi:**

Vatanimizning ayrim ko‘rinishlari, madaniy yodgorliklari aks ettirilgan rasm va bukletlar, O‘zbekiston xaritasi, magnitofon, allomalar haqida albom.

**Darsning turi:**

Yangi materiallarni o'rganish bilan bog'liq SOROS-interfaol dars usuli.

**Darsning shiori:**

Olamdan g'amsiz o'tay desang, Ilmu – hunar o'rgan. A.Navoiy

**Darsning borishi:**

**O'qituvchi:**

Assalomu alaykum,
Parvozga shay lochinlarim.
Mustaqil yurt kelajagi,
Alpomishu, Barchinlarim.

**O'quvchilar:**

Vaalaykum assalom, mehribon ustoz!
Bilimga chanqoq bizlar, umidimiz siz erur.
Mayli bizlarni savollarga tashlangiz butkul ko'mib.
Biz ertaning vorislari bo'laylikda munosib.
Prezident bobomiz kabi yurtimiz ishqida yonib.

**O'qituvchi:** Hozir darsimiz nima?

**O'quvchilar:**

O'qish bu odoblar ilmi,
Berar bizga hayotdan saboq.
U bordirki, hayot sururli,
U bordirki, kelajak porloq.

**O'qituvchi:** Ushbu dars yoqar kimga?

**O'quvchilar:**

Sizga, bizga, hammaga.
Yoqar ushbu darsimiz,
Chunki nafis she'riyatga,
Havas qo'ydik barchamiz.

**O'qituvchi:**

Rahmat bolalarim,

O‘tiringlar marhamat.

Savollarimga faqat,

Javob beringlar o‘ylab.

**O‘quvchilar:**

O‘ylab javob berishga,

Qilamiz biz harakat.

Darsning qo‘yidagi tartibda olib boraman:

I. Chaqiruv bosqichi: 10 daqiqa

a) “Lidokol”

b) “Klaster”

II. Anglash bosqichi: 15 daqiqa

a) o‘qing, o‘ylang

c) «Insert»

III. Fikrlash bosqichi: 15 daqiqa

a) debat

b) reja tuzish

c) senkveyn

O‘quvchilar, darsimizni musobaqa tarzida olib boramiz, shuning uchun men sizlarni guruhlarga bo‘lib olaman

1-guruhning nomi «Parvoz»

2-guruhning nomi «Umid»

3-guruhning nomi «Uchqun»

Demak, darsimizni 1-«Chaqiruv» bosqichi «Lidokol» o‘yini bilan boshlaymiz. Buning uchun bizga har bir qatordan bittadan ishtirokchi chiqadi va o‘zini kim ekanligini bilmaydi. Oldindan tayyorlab qo‘yilan yozuv yoki rasm o‘quvchi boshiga kiydiriladi.

| 1-qator | 2-qator | 3-qator |
|---|---|---|
| Bodring | Kitob | Mashina |

Ular savollar yordamida kim ekanligini topadilar.

- Men parrandalardanmanmi?

- Yo‘q

- Men gullardanmi?

- Yo‘q

- Men davlat ramzilaridanmanmi?

- Yo‘q

- Men poliz ekinlaridanmanmi?

- Ha

O‘yin shu tarzda davom etadi, har bir guruh o‘quvchilarini baholash uchun savollar beraman. Guruhlar olgan ballarni yozuv taxtasiga yozib boraman.

Endi har bir guruhga «Klaster» usulida topshiriqlar beraman. Topshiriqlarni yozuv taxtasiga har bir qator ro‘parasiga oq vatman qog‘ozga chizib qo‘yiladi.

**«Parvoz» guruhi**




**«Umid» guruhi**




**«Uchqun» guruhi**



O‘yin boshlanishi bilan har bir qatordan tartib bilan bittadan o‘quvchi chiqib, bitta javobni katakchaga yozadi va keyingi o‘quvchi chiqadi. Shu tariqa katakchalar to‘lguncha o‘quvchilar birin-ketin chiqib, bittadan javoblarni yozadilar. Topshiriqni birinchi bo‘lib to‘g‘ri bajargan guruhga yulduzcha, ikkinchi bo‘lib to‘g‘ri bajargan guruhga to‘rtburchak va uchinchi bajargan guruhga uchburchak beriladi. Agar guruhlarda katakchalardan biri to‘lmay qolsa ularga yodam berib g‘olib guruh aniqlanadi va ballar e'lon qilinadi.

## II. Anglash bosqichi (15 daqiqa)

**Yangi mavzu: «Ona yurting – oltin beshiging» hikoyasi va «Ona-Vatan» matnini o‘qish**

Yangi mavzuning bayonini yozuv taxtasiga yozaman.

«O‘qing va o‘ylang» qismiga keldik.

Men mavzuni o‘qishdan oldin Oydin Hojiyeva haqida qisqa kirish suhbati o‘tqazaman.

O‘zbekiston xalq shoirasi Oydin Nojiyeva 1942 yil Buhoro viloyatining Qiziltepa tumani Bo‘ston qishlog‘ida to‘g‘ilgan. 1966 yili Toshkent Davlat Universitetining Filologiya fakultetini tugatgan. 1985 – 1995 yillarda “Gulxan”, 1995 – yildan esa “Saodat” jurnali muharriri lavozimida ishlab kelmoqda. U 20 dan ortiq she’riy to‘plamlarning muallifidir. Uning birinchi she’riy to‘plami 1970 yilda “Shabnam” nomi bilan chop etilgan.

Asar bilan tanishtirish. O‘qish sifatlariga amal qilgan holda o‘qiydigan o‘quvchiga “Ona yurting – oltin beshiging” hikoyasi o‘qitiladi. O‘quvchilar diqqat bilan tinglashadilar.

Lug‘at ustida ishlash. O‘quvchi matndagi ma’nosi qiyin deb hisoblangan so‘zlarni izohi bilan oq vatman qog‘ozga yozib, yozuv taxtasiga qo‘yaman. O‘quvchilar esa daftariga yozadilar.

| |
|---|
| Sumanbar – xushbo‘y, zebo |
| Chinor – po‘sti ko‘kish, panjasimon shapaloq bargli uzoq umrli sershoh katta daraxt |

**O‘qituvchi:** Aziz bolajonlar! Bugungi darsimizda “Ona yurting – oltin beshiging”, “Ona – Vatan” mavzular orqali Vatanga bo‘lgan mehr - muhabbatingizni yanada oshirishdir.

Assalom, ona yurt, tonglar o‘lkasi,

Ta'rif – tavsifingni yo'q nihoyasi.

Senga bag'ishlanur muqaddas qo'shiq,

Bu - o'zbek elining o'z madhiyasi.

Vatanni oq sut bergan onaga qiyos qilinadi. Ona – Vatan deb mehr bilan aytishadi.

Siz dunyoga kelmay turib, ota – onangiz sizga beshik yasashni orzu qiladilar, tollar, jiydalar ekadilar.

Toldan chiroyli beshikcha yasaydilar. Beshikchaning dastalariga ko'zmunchoqlar osadilar. Isiriq tutadilar. Tilla beshikchangiz – birinchi Vataningiz bo'ladi. Sizga beshik bo'lgan tollar shu Vatanning bir bo'lagidir. Birinchi tilingiz chiqqanida, kulganingizda ilk bor "Ona" deganingizda mana bu tuproq onaday sevinadi. Go'dak dunyo esa siz bilan ulg'ayaveradi. Beshigingizga sig'may qolasiz. Bo'ylaringiz o'sib, chinorday yigitlar, sumanbar daraxtiday go'zal qizlar bo'lib yetishasizlar. O'shanda sizni allalab erkalab, yupatib , suyub o'stirgan ilk Vataningiz ya'ni tilla beshik, ona yurtga aylanganini sezib qolasiz.

Har bir qadamingizda, kulganingizda "Ona yurting – oltin beshiging" degan mazmun yotadi

Siz ham ona-Vatan bog'ida gulu – g'unchasiz. O'sib ulg'ayasiz! Siz bilimga, go'zallikka, mehrga chanqoqsiz. Siz ulg'ayyapsiz... Ona-Vatan yo'lingizga ko'z tikib, sizni kutmoqda. Siz hayotimizning mazmuni, yuragimizning ustuni , ona – halqimizning umid – ishonchi,. olam – olam quvonchi, Alpomish o'g'lonlari, qo'li gul, yo'li nur Barchinoy qizlarisiz! Siz – Vatanning tog'day tayanchisiz! Bizning ona - Yurt, dunyoda yagona Vatandir!

Vatanimiz ko'hna va qadimiy. Bizning O'zbekiston – botirlar Vatani! Shiroq, Muqanna, Jaloliddin Manguberdi kabi bahodirlar Vatani.

Bu yurt – allomalar yurti!

Buyuk sohibqiron Amir Temur, ulug' munajjim Mirzo Ulug'bek, Bobur Mirzo bu jannatmakon o'lkani bir umr qo'msab, sog'inib yashagan.

Alisher Navoiy ikki daryo oralig'idagi bu yurtni kuylab o'tgan.

Siz olamga dovrug' taratgan hur Vatan farzandlaisiz.

Dam olish daqiqasida magnitofon tasmasiga yozilgan "Alla" ashullasi eshittiriladi.

**O'qituvchi:** Vatanni sevish, uning har bir qarich yerini muqaddas bilib qadrlash go'daklik chog'imizdayoq ona allasi bilan qon – qonimizga singadi. Ona o'zining allasi orqali farzandini mard, botir, qo'rqmas, jasur, odobli, iboli, aqlli, mehnatsevar insonlar bo'lishini tilaydi.

Buyuk bobolarimiz Alisher Navoiy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, ibn Sino, al-Horazmiy va boshqalar ham ona allasini eshitib, ruhlarida yaxshi niyatlar jo'sh organ va buyuk kishilar bo'lib yetishganlar. Demak, "Alla" hayot qo'shig'i ekan, men ham shu qo'shiqni, eslab aytishni lozim deb topdim.

Alla desam bor bo'lgin , allayo – alla,

Menga nomus – or bo'lgin, allayo – alla.

Katta bo'lgan chog'ingda, allayo – alla,

Yurtga vafodor bo'lgin, allayo – alla.

Beshik buving alla bo'lsin, alla,

Oltin boshing omon bo'lsin, alla.

Kelajaging porloq bo'lsin, alla,

Tonglaring oppoq bo'lsin, alla.

Mavzu yuzasidan savol – javob o'tkazanam.

1. Sizning dastlabki vataningiz nima bo'lgan?

2. Qanday qilib ilk Vataningiz ya'ni "tillo beshik" ona-Yurtga aylanadi?

**Javob** – Men yangi to'g'ilganimda onam tayyorlagan beshikda yotganman. Mening dastlabki ilk Vatanim – tillo beshikcham bo'lgan.

**Javob** – Bizlar katta bo'lib chinorday yigitlar, xushro'y, zebo qizlar bo'lib yetishib beshiklarimizga sig'may qolamiz. O'shanda bizni allalab, erkalab, yupatib, suyub o'stirgan tillo beshigimiz ona yurtga aylanib qoladi.

O'quvchilarning javoblarini to'ldiraman. Shuning uchun Oydin Hojiyeva Vatanni oltin beshikka o'xshatgan. Go'dak uchun oltin beshik qanchalar qimmatli bo'lsa, ulg'ayganda Vatan ham shunchalik aziz va qimmatlidir.

O'qituvchi: "Ona - Vatan" mavzusi orqali Vatanimizni nima uchun Ona-Vatan deb atalishini bilib olamiz.

Men o‘quvchilarni Vatan haqidagi bilimlarini aniqlash maqsadida qo‘yidagi savollarni beraman:

- Bolalar, Vatan deganda nimani tushunamiz?

**O‘quvchilar:**

Vatan bu – tug‘ilgan makonim!

Vatan bu – kindik qoni tomgan joy!

Vatan bu – muqaddas beshigim!

Vatan bu – ostanayu – eshigim!

Vatan bu – sizu bizga dahildor zamin!

Vatan bu – ona -Yurtim!

Hikoyani ravon, to‘g‘ri, ifodali o‘qiydigan o‘quvchiga o‘qitaman. So‘ng o‘quvchilarga navbati bilan o‘qitaman. Hikoya o‘qib bo‘lingach Vaanimiz aks ettiilgan rasmlardan, O‘zbekiston xaritasidan Vatanimizning tekis, serunum tuprog‘li yerlari, daryolar ko‘rsatiladi va chegarasini izohlab tushuntiraman.

Vatan! Ne – ne aziz insonlar voyaga yetgan, uning porloq istiqboli, fazlu kamoli uchun jon fido etgan zamin.

El borki, Vatan bor,

Vatan borki, el bor.

Elsiz Vatan – biyobon,

Vatansiz el – darbadar.

O‘zbek xalqi o‘z Vatanini doimo e’zozlab kelgan. Vatan qadrini hamisha bilgan.

Prezidentimiz I.Karimov “O‘zbekiston kelajagi buyuk davlat” risolasida “Vatanning har bir asl farzandi o‘zini ota yurtining ajralmas bo‘lagi deb his etyapti va bundan faxrlanyapti. Istiqlol bergan eng katta boyliklardan birinchisi ana shu desak aslo yanglishmagan bo‘lamiz” – deb juda to‘g‘ri ta’kidlagan.

Demak, biz o‘quvchilar ona yurtga munosib farzand bo‘lish uchun namunali axloq – odob bilan o‘rnak ko‘rrsatish, Vatan uchun jon olib, jon berganlarni hamisha yodda tutish, Vatanimizning tabiatini, uning boyliklarini ko‘z qorachigiday asrash, el – yurt manfaati yo‘lida mehnatdan qochmaslik har bir o‘quvchining muqaddas burchidir.

Chunki, Vatan- ona kabi sizni bag'riga oladi, yediradi, tarbiyalaydi, voyaga etqazadi.

O'quvchilarga asar g'oyasini bilib olishlariga yordam beradigan topshiriq tanlab o'qish vazifasi beriladi.

Mamlakatimizning nima uchun ona – Vatan deb atalishini matndan o'qib, tushuntirib bering.

Vatanimiz bizni onamiz kabi o'zining issiq bag'rida mehr bilan erkalaydi. Sevib, ardoqlaydi, voyaga yetkazadi, kamol toptiradi. Shu sababli ham biz Vatanimizni onamiz kabi sevamiz, qadrlaymiz. Uning nomini ona – Vatan deb ataymiz.

**III. Fikrlash bosqichi. 15 daqiqa**

"Kim topqir" o'yinni guruhlar o'rtasida test asosida o'tkaziladi.

**1-"Parvoz" guruhiga**

Yurtim, senga she'r bitdim bu kun,

Qiyosingni topmadim aslo.

Shoirlar bor o'z yurtin butun,

Olam aro atagan tanho.

Ushbu satrlar kimning qalamiga mansub?

a) E.Vohidov

b) A.Oripov

c) H.Olimjon

**2-"Umid" guruhiga**

Dunyoda eng qimmatli boylik nima?

a) oltin

b) molu dunyo

c) vaqt

**3-"Uchqun" guruhiga**

O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi qachon tasdiqlangan?

a) 1992 yil 8 dekabr

b) 1992 yil 2 iyul

c) 1991 yil 31 avgust

Guruhlar olgan ballar hisoblanib, g'olib guruhning nomi va olgan ballar e'lon qilinadi.

Reja tuzish qismi

Bunda men sizlarni 1, 2, 3 raqamlar bilan raqamlayman.

1-raqamdagi o'quvchi "Parvoz" guruhi nomidan 1-mavzu asosida reja tuzib, so'zlab beradi.

2-raqamdagi o'quvchi "Umid" guruhi nomidan reja tuzib, so'zlab beradi.

3-raqamdagi o'quvchi "Uchqun" guruhi nomidan reja tuzib, so'zlab beradi.

**Reja**

1. Ona yurting – oltin beshiging
2. Vatanimiz botirlar, allomalar yurti
3. Vatanimiz – onamiz

Rejani yozuv taxtasiga yozib, maqollar asosida so'zlab, izohlab beradilar

1. Bulbul chamanni sevar- odam Vatanni.
2. Ona yurting omon bo'lsa, rangu ro'ying somon bo'lmas.
3. O'zga yurtning shohi bo'lma, o'z yurtingning gadosi bo'l

Guruhlarga rejani aniq yoritib berishiga qarab ballar qo'yiladi va yozuv taxtasiga to'plangan ballar yozib qo'yiladi.

Endi darsmizning "Sinkveyn" qismiga o'tamiz. Bu qismida o'quvchilar "Vatan" haqida she'r aytishadi, yod qilishadi

**O'quvchi:** Vatan har bir insonning
To'g'ilgan diyoridir,
Kindik qoni to'kilgan.
Muqaddas tuprog'idir,
Vatan so'zi muqaddas,
Vatan o'zi muqaddas.
Vatanga xizmat qilmoq,
Bizlar uchun qarzu farz.

**O'quvchi:**

Ey muqaddas gul diyorim,
Gulshanim jonim mening.
Men sening bag'ringda o'sdim,
Yo'qdir armonim mening.
Sen bilan o'tmoqda shodon,
Har kun, har onim maning.
Jon fido bo'lsin senga,ey,
O'zbekistonim mening!
Shuhrati olamni tutgan,
Shavkatu – shonim mening.

**O'quvchi:**

Ko'hna ona yurtim, qadim Turonim,
O'z beshik, o'z tilim, shavkatim, sha'nim.
Yetti iqlim ichra tengi topilmas.
Tuproq, toshi oltin O'zbekistonim.

Darsimizning bu qismida qaysi guruhdan ko'p she'r aytgan, ijod qilgan o'quvchilar aniqlanib rag'batlantiriladi va baholanadi.

**O'qituvchi:** O'quvchilar, bugungi darsimizda biz go'zal, ona Vatanimiz haqida bir muncha tasavvurga ega bo'ldik. Bu daryodan tomchigina xolos. Vatanimizni har qancha kuylasak, ta'riflasak ham adog'iga etolmaymiz.

**Shoir aytganidek:**

Qadringni bilmagan xor bo'lib o'lgay,
O'zga bir yurtlarda zor bo'lib o'lgay.
O'z elin deganlar bir umr kulgay,
To abad yoqqayman chiroqlaringni.

**Aziz o'quvchilar!**

Darsimiz ham o'z nihoyasiga yetib bormoqda. Bugungi darsimizda juda ko'p o'quvchilar faol qatnashib, o'z bilimini, kuchini sarfladi.

O'quvchilarning ismi va shariflarini aytib baholab rag'batlantiraman.

Guruhlar olgan ballar hisoblanib, golib bo'lgan guruhning nomi va ballari e'lon qilinadi hamda rag'batlantiriladi.

**Uyga vazifa:**

"Ona yurting – olting beshiging" va "Ona - Vatan" hikoyalarini o'qish. O'zbekistondagi 12 ta viloyat hamda chegaradosh davlatlar nomlarini o'qish, daftariga yozib kelish.

**Darsimiz tamom. Xayr**

**Mavzu:** *4-sinf O'qish kitobidagi Abdulla Oripovning "Iqboli buyuksan" she'ri.*

**Darsning maqsadi:** O'quvchilarga yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda "Iqboli buyuksan" she'rining mazmunini ochib berish. Mustaqillik yaqida o`quvchilarga tushunchalar berish.

**Darsning jixozi:** Darslik, mustahkamlash uchun klasterlar, darslikka oid testlar, rasmli ko'rgazmalar.

**Darsning tarbiyaviy vazifasi:** O'quvchilarning dunyoqa-rashini kengaytirish, mavzuga oid bilimlarni berish.

**Darsning ta'limiy vazifasi:** O'quvchilarni ifodali, ravon o'qishga o'rgatish, she'rdagi so'zlar mazmunini ongli tushuntirish, vatanga muhabbat hislarini uyg'otish, izohki o`qishga o`rgatish

**Darsning rivojlantiruo'chi maqsadi:** og'zaki va yozma nutqini o'stirish, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish.

**Dars turi:** Noan'anaviy, musobaqa tarzida olib boriladi.

**Darsning borishi:**

***a) Ch a q i r i q.***

O'quvchilarni 3 guruhga ajratiladi:

1-guruh - "Topqirlar".

2-guruh – "Zukkolar".

3-guruh – "Bilimdonlar".

- O'quvchilar bugungi darsimizni musobaqa tarzida olib boramiz. Darsda sizlarga turli shartlar qo'yamiz. Shartlarni qay tarzda bajarsangizni baholab boriladi. Baholarni sinfboshi hisoblab boradi.

Yozuv taxtasiga guruhlar nomlari yozilgan maxsus jadval osib qo'yiladi.

| | Topqirlar | Zukkolar | **Bilimdonlar** |
|---|---|---|---|
| 1 shart | | | |
| 2 shart | | | |
| 3 shart | | | |
| 4 shart | | | |
| 5 shart | | | |

**1-shart.** "Tez toping" deb nomlanadi. Bu shartda o'quvchilarga test savollari tarqatiladi. O'quvchilar tezda javob berishlari kerak. Buning uchun 1 daqiqa vaqt.

1-guruhga:

1. O'zbekiston Respublikasi qachon mustaqil bo'ldi?

   a) 1991-yil 1-sentabr.

   b) 1992-yil 1-sentabr.

   c) 1991-yil 12-oktabr.

2. O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi qachon tasdiqlangan?

   a) 1992-yil 8-dekabr.

   b) 1992-yil 10-oktabr.

   c) 1992-yil 2-dekabr.

2-guruhga:

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi qachon tasdiqlangan?

a) 1991-yil 2-iyul.

b) 1992-yil 2-iyul.

c) 1991-yil 10-noyabr.

2. Davlatimiz madhiyasining muallifi kim?

a) Z.Diyor.

b) A.Oripov.

c) M.Burxonov.

3-guruhga:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qachon qabul qilingan?

a) 1992-yil 8-dekabr.

b) 1991-yil 6-dekabr.

c) 1992-yil 4-dekabr.

2. O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasining musiqasini kim bastalagan?

a) M.Burxonov.

b) SH.Yormatov.

c) N.Norxo'jayev.

1-shart bo'yicha guruhlarning olgan baholari yozib boriladi.

**2-shart:** Toshkent shaxri suratini doskaga ilib, shu rasm bo'yicha qaysi guruh chiroyli matn tuza olish qobiliyatlari sinab ko'riladi. Ularga 5 daqiqa vaqt beriladi. Matnlarni o'qib baholanadi. Sinfboshi jadvalga yozib qo'yadi.

- "O'quvchilar, hozir 3-shartni boshlashdan oldin yangi mavzuni e'lon qilaman" deydi o'qituvchi. So'ngra o'quvchilar daftarlariga yangi mavzuni yozib oladilar.

***b) A n g l a sh.***

***Mavzu: A. Oripovning "Iqboli buyuksan" she'ri***

She'r matnini o'qituvchi tomonidan ifodali o'qib beriladi.

Avvalo rahmatdir Onaga,

So'ng esa albatta Otaga.

Bizlarga eslatmish hayotni,

Unutmang hech qachon ustodni.

Sen o'zbek elining farzandi,

Istiqlol yurtining dilbandi...

Vataning g'oyatda keng erur,

Barchaga barobar, teng erur.

She'r matni o'qib berilgandan so'ng, 3-shart e'lon qilinadi.

**3-shar:** Bu shart klaster o'yini bo'lib, bunda doira ichidagi ochqich so'z yozilgan bo'ladi. Ko'rgazmani doskaga osib qo'yiladi.






3-shart bo'yicha to'g'ri yozgan guruhlar javobini tekshirib, baholanadi, sinfboshi esa jadvalga yozib boradi.

**4-shart:** Bu shartda:

- Ona vatanimiz haqida qaysi guruh ko'p she'r biladi?

Guruh o'quvchilari navbatdan she'rlarini ayta boshlaydilar. Qaysi guruh she'rlardan ko'p aytgan bo'lsa, har bir she'rga 1 balldan hisoblanib jadvalga yoziladi.

*s)* ***F i k r l a sh.***

- O'quvchilar, charchamadingizmi? Agar charchagan bo'lsangiz bir oz dam oling!

Magnitofonga "Hech kimga bermaymiz seni O'zbekiston" kuyini qo'yib eshittiriladi. Kuy tamom bo'lgach, ushbu qo'shiqning muallifi, qo'shiq ijrochisi so'raladi. Qaysi guruh to'liq aytsa, o'sha guruh baholanadi.

**5-shart:** "Sizning fikringiz qanday" deb nomlanadi.

Bu shartda hozirgi davrda Mustaqil Davlatimiz kelajagiga tahdid solayotgan diniy ekstremizm va terrorizmga qanday qaraysiz, deb savol beriladi. O'z fikrini to'g'ri, aniq, tushunarli izohlagan guruh aniqlanadi, va baholanadi va sinfboshi ballarni jadvalga qo'yib, ballarni hisoblaydi.

- Mana o'quvchilar, bugungi biz Mustaqil O'zbekistonimiz haqida bilimlarni o'rganib, bilganlarimizni mustahkamlab oldik. Endi esa guruhlar yiqqan ballarni hisoblaymiz.

| Savollar | Topqirlar | Zukkolar | **Bilimdonlar** |
|---|---|---|---|
| **1 shart** | 2 | 2 | **2** |
| **2 shart** | **3** | **2** | **3** |
| **3 shart** | **2** | **3** | **1** |
| **4 shart** | **5** | **4** | **3** |
| **5 shart** | **2** | **1** | **3** |
| **Jami ball:** | **14** | **12** | **12** |

Guruhlarning ballar e'lon qilingach, ularni tabriklab, oldinday tayyorlab qo'yilgan sovg'alar topshiriladi.

**Xulosa:**

Hozirgi zamon darslarida, ayniqsa o'qish darslarida dam olish daqiqalarida o'quvchilar o'rtasida "Kim ko'p maqol aytish", "Topgan topaloq" o'yinlari, hadis, hikmatlar, rivoyatlar, o'gitlardan foydalanib, ularning mazmunini ochib berish kabi noan'anaviy tarzida dars o'tilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

**MAVZU : Minora**

Maqsadlar:

**a) ta'limiy** :

DTS talablari asosida o`quvchilarga madaniy-ma`rifiy bilim berish;

**b) tarbiyaviy :**

Ajdodlar merosini o`rganish va faxr-iftixor tuyg`usini tarbiyalash;

**d) rivojlantiruvchi :**

O`quvchilarni mustaqil erkin fikrlashga o`rgatish,ularning og`zaki nutqini,xotirasini rivojlantirish

**Dars turi:** Yangi bilim beruvchi

**Dars uslubi:** Noan`anaviy

**Dars jihozi:** Proyektor,DVD,televizor,slaydlar,buklet,I.A.Karimovning "Yuksak ma`naviyat-yengilmas kuch"asari,darslik

**Kutilayotgan natija:** O`quvchilarni o`qish darsida vatanimizning tarixiy obidalari bilan tanishtirish

**Darsning borishi:**

Tashkiliy qism

Salomlashish.Navbatchi axboroti. O`quvchilarning darsga tayyorgarligini ko`rib chiqish.

Sinfimiz shiori: **O`QUV QUNT BERADI, BILIM SHARAF-SHON,**

**SHU IKKOVI TUFAYLI ULUG`DIR INSON.**

O`qituvchi: O`quvchilar, o`qish darsida nimalarni bilishimiz kerak?

O`quvchi: Minutiga 65-70 ta so`zni o`qiy olishimiz kerak

O`quvchi: So`z va iboralarni to`g`ri talaffuz qila olishimiz kerak

O`quvchi: Gaplarni to`g`ri o`qiy olishimiz kerak

O`quvchi: Gap ohangiga rioya qilgan holda obrazli o`qishni

O`quvchi: Gaplardagi tinish belgilarini talaffuzda aks ettirishni

O`quvchi: Sinash va ajratish ohanglaridan to`g`ri foydalanishni

O`quvchi: Gap ohangiga rioya qilishni



O`quvchi: 15 she`rni yoddan bilish,ertak,maqol,tez aytish,topishmoq,alla,qo`shiq,hikoya kabi tushunchaga ega bo`lishimiz lozim.

O`qituvch: Ma'naviyat daqiqasi

Bir o`lkaki tuprog`ida oltin gullaydi

Bir o`lkaki qishlarida shivirlar bahor

Bir o`lkaki,sal ko`rmasa quyosh sog`inar,

Bir o`lkaki g`ayratidan asabi chaqnar.

O`qituvchi:Bugungu darsimiz har safardagi darsimizdan boshqacharoq.

O`quvchilar,bugun yurtimizning go`zal joylaridan biri Samarqand va Buxoro shaharlariga sayohat qilamiz. Hozir hammamiz yo`lga otlanamiz va sizlar bilan avtobusga chiqib joylashamiz. Biz ko`chada yurish va o`zini tuta bilish qoidalarini o`rganganmiz, ularni amalda ko`rish vaqti keldi.

Xo`sh bolalar,tayyormisiz?



Samarqand va Buxoro shaharlariga yetgunimizcha o`zimiz yashayotgan vodiy haqida o`z taassurotlarimizni o`rtoqlashsak.

Biz qaysi viloyatda yashaymiz

Biz Namangan viloyatida yashaymiz

Namangan gullar shahri

Namangan haqida she`r

O`qituvchi: Namangan o`zining hunarmandchiligi bilan,shirinsuxan odamlari,so`lim goshalari bilan vodiyda alohida ajralib turadi.Ayniqsa, Namangan novvoylari yopgan non,oshpazlari pishirgan mazali taomlar ta`mi og`zingizda qoladi.Chevarlari tikkan liboslar chet elnilidan qolishmaydi.

O`qituvchi:Vodiy deganda yana qaysi viloyatlar tushuniladi.

O`quvchi:Andijon va Farg`ona viloyatlari.

O`qituvchi:Andijon deganda qaysi buyuk ajdodimiz nomini esga olasiz

O`quvchi:Zahiriddin Muhammad Boburni




O`qituvchi: O`tgan darsimizda

Zahiriddin Muhammad Bobur haqida yozilgan hikoyani o`qiganmiz.Hikoyani o`quvchilar ketme-ket hikoya qilib beradilar.

O`qutuvchi: Zahiriddin Muhammad Bobur bobomiz qayerda tug`ilganlar

O`quvchi:Andijonda

O`qituvchi:Qayerda shoh bo`lganlar

O`quvchi:Hindistonda shohlik qilganlar

O`qituvchi:Juda to`g`ri. Zahiriddin Muhammad Bobur Boburiylar sulolasiga asos solganlar.Bu sulola 530 yil hukm surgan.Bobur bobomiz o`zga yurtlarda bo`lib.Ona vatan tuprog`ida o`tgan bolalik chog`larine qo`msab o`tganlar.Bu hikoyada Boburning besh yosh vaqtida o`rgangan jangovar ilmini namiyish etishi va otasi ,tomoshabinlarning hamdu sanosi haqida yozilgan.

O`qituvchi:Qani endi yo`lda davom etamiz.Vodiydagi viloyatlarni bilar ekansiz,O`zbekistonda yana qaysi viloyatlar bor

Viloyat nomlari sanab o`tiladi.

O`qituvchi:Iya bolalar, ana u tezyurar poyezdni ko`ring.Bu qanday poyezd?

O`quvchilar : Bu Afrosiyob poyezdi.Slayd ko`rsatiladi.



O`qituvchi: Mana bolajonlar,yo`l yursak ham mo`l yurdik,nihoyat ertaklarda doston bo`lgan azim shahar Samarqandga yetib keldik.

Samarqand juda qadimiy shahar,Mustaqillik sharofati bilan shahardagi tarixiy obidalar qayta ta`mirlanib yanada ko`rkamlashgan.Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan bu go`zallik namunalarini ko`rish uchun butun dunyodan sayyohlarning oyog`i uzilmaydi.Bilasizmi bolalar, sohibqiron bobmizning qarorgohi-Oqsaroy devoriga "Agar bizning kuch qudratimizga ishonmasang,biz qurdirgan imoratlarga boq"deb yozilgan.





O`quvchilarga proyektor orqali Samarqanddagi tarixiy obidalar ko`rsatiladi.

Endi yo`lda davom etamiz.Mana navqiron va qadimiy Buxoroga kirib keldik.Buxorodagi tarixiy obidalar har bir kishini lol qoldiradi.Bejizga:

Samarqand sayqali ro`yi-zamin ast,

Buxoro quvvati islomi din ast.





Ya’ni :Samarqand yer yuzining sayqali bo`lsa

Buxoro islom dini taraqqiy etgan shahar

Buxorodagi tarixiy obidalar slaydlar orqali ko`rsatiladi.

Bilasizmi bolalar, bu shaharlardagi ajdodlarimiz tomonidan yuksak did bilan yaratilgan tarixiy obidalar nihoyatda ko`pligi ,bu imoratlardagi arxitektura go`zalliklari hech qayerda qaytarilmasligi Samarqand va Buxoroni “ochiq osmon ostidagi muzey ” deb nomlanishiga sababdir.

**Rebus:**



(Javob : Minora)

Bolalar, mana bu minorani qarang.Uning balandligi,takrorlanmas naqshlari juda go`zal.

Darslikda berilgan shoir Safar Barnoyevning she`rida minora juda salobatli. O`quvchilar she`rni ifodali o`qib beraman.Qani `oquvchilar she`rni kim yoddan aytib beradi?



Buxoroda bo`lganingda
Ko`rganmisan, Gulnora?
Shaharning qoq o`rtasida
Turar ulkan minora.
Qancha yurtdan havas bilan
Kelishadi ko`rgani.
O`ymakorlik naqshlari
Diqqatingni tortad i.

Qaramoqchi bo`lsang unga –

Do`pping tushar boshingdan.

O`tib qolsang yonidan-chi,

Mehring tag`in ortadi.

Yo`lim tushsa unga doim

Ta'zim qilaman har gal.

U – bobomga mangulikka –

Toshdan qo`yilgan haykal.



O`quvchilar she`rni yoddan aytib beradilar.

Bolalar ,ana qarang chet ellik sayyohlar ham sayohatga chiqibdilar,kelinglar ularning suhbatini olamiz.

2 nafar sayyoh o`quvchilar bilan ingliz tilida suhbatlashadilar.



O`quvchi: Hello.Where are you from?

Sayyohlar: Great Britan.

Did you like Uzbekistan?

Yes, I like Samarkand, Buxara ,Tashkent.

Good bye

O`qituvchi minorai kalon haqida qo`shimcha ma`lumotlar beradi.

Minorai kalon majmuasi Buxoroda 1127 yilda amir Arslonxon tomonidan qurdirilgan.Balandligi 50 metr,aylanma uzunligi 9 metr.Pishiq g`ishtdan naqshinkor uslubda ishlangan.

Minoraning yuqori qismig`isht o`ymakorligi bilan bezatilib,karniz holiga keltirilgan.O`qsimon tirgak o`rtasida Arslonxon hamda binokor usta Baqoning nomi bitilgan.Minora ichida g`ishtdan aylanma zinapoya bo`lib,mezanaga olib chiqadi.

Minora azon chaqirish uchun masjid va madrsalar yonida yoki ularga tutash qilib quriladi.Minorai Kalonqubbasi va devordari muezzin ovozini yanada kuchaytirib berishga xizmat qiladi.

**Lug`at ishi:**

Muazzin-azon chaqiruvchi kishi

Mezana-azon chaqiriladigan joy

Qubba-minoraning eng baland joyi

**" Baliq skeleti " texnologiyasi misolida.**




O`quvchilar muhtaram Prezidentimiz Islom Abdug`aniyevich Karimovning "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" kitobida yurtimizdagi tarixiy obidalar va ulami qayta tiklash, obodonlashtirish, madaniy va ma'rifiy merosimizni asrab avaylashimiz lozimligi yozilgan.




O`qituvchi: Bolalar endi sizlarni yurtimizning qadimiy shaharlari, ulardagi tarixiy obidalar, madaniy, ma'rifiy va tarixiy ma'lumotlar aks ettirilgan videolavhani tomosha qilishga taklif qilaman.

O`qituvchi: Bolalar mana bugungi yurtimiz bo`ylab uyushtirgan sayohat darsimiz ham o`z nihoyasiga yetdi. Sizlar sayohat davomida qanday taassurotlarga ega bo`ldingiz?

O`quvchi: O`lkamiz shahar va qishloqlarini

O`quvchi: Yurtimizdagi tarixiy obidalarni bildik

O`quvchi: Ana shu tarixiy obidalarni chet elliklar ham qiziqib o`rganishlarini, ularga havas qilishlarini bildik.

O`quvchi: Ona-Vatanimizni sevishni va undan faxrlanishni o`rgandik.

Baholash: O`quvchilarning darsdagi faolligiga qarab baholar izohlanib qo`yiladi. Faol qatnashganlar rag`batlantiriladi.







**Uyga vazifa:** "Minora"she`rini yod olish , ixtiyoriy biror tarixiy obidani rasmini chizish va unga qarab gapirishni o`rganib kelish.



**Mavzu: Kichkina Alisher**

Zamira Ibrohimo

Darsning maqsadlar:

Ta'limiy maqsad: O'quvchilarning DTS bo'yicha bilim, ko'nikma, va malakasini aniqlash, buyuk ajdodlarimizga nisbatan hurmat, ularning hayotlarini o'rganishda qiziqish uyg'otish ,ko'nikmasini shakillantirish.

Tarbiyaviy maqsad:

O‘quvchilarni tartib-intizomga, o‘zgalarni hurmat qilish, tabiatni sevishni o‘rgatish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsad:

Bilimli,zukko hamda mehnatsevar bo‘lishga, erkin va mustaqil fikrlashga

undash. O‘quvchini mantiqiy fikrlashga o‘rgatishga yo‘naltirish. Og‘zaki nutqini rivojlantirish. Dunyoqarashini kengaytirish.

Darsning borishi;

1. Tashkiliy qism.Salomlashish she’riy tarzda

o‘tkaziladi:



Assalomu alaykum,
Parvozga shay lochinlarim .
Mustaqil yurt kelajagi,
Alpomishu, Barchinlarim.

O‘quvchilar: Assalomu alaykum, mehribon ustoz,
Maktab degan qutlug‘ dargoh,
Muqaddasdir bizga har chog‘
Bilim sari boshlar yo‘lga-
Aziz quchoq, tanish yo‘lka.

O‘qituvchi: Rahmat aziz bolalar, marhamat, o‘tiringlar.

O‘qituvchi:-Bizning shiorimiz

O‘quvchilar: A’lo o‘qish burchimiz,

Bunga yetar kuchimiz.

- Maqsadimiz: Olg‘a intilish

O‘quvchilardan bugungi sana ,oy,kun va ob-havo haqida ma’lumot olinadi. Mashg‘ulot davomida ular rioya qilishi kerak bo‘lgan „Oltin qoidalar’’eslatib o‘tiladi.

**Oltin qoidalar**



**1.Intizom**

**2.Faollik**

**3.Qisqa va aniq javob**

**4.O‘ng qo‘l qoidasi**

**5.O‘zaro hurmat**

O‘qituvchi:

Darsni boshlashdan avval sinfni

3 guruhga ajratib olamiz.

1- guruh: Vatan

2- guruh: Yurt

3- guruh: Diyor

Bugungi darsimizga “Bo‘g‘irsoq” ertagi qahramonlarini taklif qilganmiz. Dars davomida mehmonimizning bergan savollariga javob beramiz.

I -topshiriq.



1. 2015- yil qanday yil deb nomlanadi?

Javob; 2015-yil

“Keksalarni e’zozlash yili”

yili deb nomlandi.

2. Keksalarni e'zozlash uchun biz nimalarga e'tibor qilishimiz lozim?

Javob; Keksalarni e'zozash uchun avvalo ularga yordam berishimiz , og'irlarini yengil qilishga harakat

qilishimiz lozim , yaxshi o'qishimiz , odobli , aqlli va bilimli bo'lishimiz lozim.

3. To'kin va farovon hayot

qurib yashash uchun nimalar

qilmog'imiz lozim?




Javob; To'kin va farovon

hayot qurib yashash uchun

biz ajdodlarimiz o'gitlariga

amal qilmog'imiz, ona

yerimizdan olinadigan har qanday boyligimizni ko'z qorachig'imizdek asrashimiz va bilimlarimizni muntazam oshirib borishimiz kerak.

Rahmat bolajonlar. Endi o'tilgan mavzu yuzasidan savollarga javob bersangiz.

II topshiriq:

1-guruhga: Ra'noning oyisi nima uchun bunday yo'l tutdi?

2-guruhga: Siz ham shu hikoyada ishtirok etishni xohlarmidingiz?

3-guruhga: Siz uyda mehmonlarni qanday kutib olasiz?

III topshiriq:

Mehmonlar haqida

maqollar aytib

bering.

1. Mehmon kelar eshikdan,

   Rizqi kelar teshikdan.

2. Mehmon otangday ulug'.

3. Kelguncha mehmon uyalar,
   Ketgandan so'ng mezbon uyalar.



Kelish mehmondan, ketish mezbondan.

Kelmoq ixtiyor bilan,
Ketmoq ijozat bilan.

Mezbon borini qo'ysa,
Mehmon ozga sanamas.



Mehmon — aziz, mezbon — laziz.

Mehmon — atoyi xudo.

Mehmon joyi ko'z ustida.
Mehmon izzatda,
Mezbon xizmatda..

Mehmon kelgan uy — barakali.

Mehmon kelgan uyning chirog'i ravshan.

Mehmon kelsa, pastga tush,
Palov bermoq ahdga tush.

Yangi mavzuni tushuntirib berilgandan keyin o'quvchilar bilan savol – javob o'tkaziladi.

1 – savol.




Javob: Alisher Navoiy bolalikdan juda ziyrak, odobli, Aqlli bola bo'lgan. Uch yoshidan boshlab she'r, musiqa eshitishni yaxshi ko'rar ekan.




2-savol.

Javob: Urush, janjallar-u to'polonlar tufayli ko'pgina oilalar qatori Alisherlarning oilasi ham Hirotdan uzoqqa ko'chib ketishga majbur bo'lgan.Shuning uchun uning o'qishi uzoqqa cho'zilmagan.




3-savol.

Javob: U otdan sirg'alib yumshoqqina qum ustiga tushibdi va o'sha yerda uxlayveribdi.

Mehmonlar bilan birgalikda quvnoq daqiqa o‘tkazamiz.

O‘quvchilar tomonidan ingliz tilida she’r ijro etiladi.

Darsni mustahkamlash: Mehmonjonlarning savollari bilan o‘quvchilar bilimini sinab ko‘ramiz.




1-savol: Alisher Navoiy qachon dunyoga kelgan?

Javob: O‘zbek xalqining buyuk shoiri Alisher Navoiy 1441-yil 9- aprelda Hirot shahrida tug‘ilgan.




2-savol: Uning otasi kim edi?

Javob: Uning otasi G‘iyosiddin kichkina ilm, san’atning qadrin biladigan inson edi.

Shuning uchun o‘g‘lining yaxshi tarbiya olishiga, ma’lumotli bo‘lishiga katta ahamiyat berdi.



3-savol: U nimaga asos solgan?

Javob: G‘azal mulkining sultoni, o‘zbek tilining asoschisi. Ma’rifatparvar, adolatparvar inson.

Rahmat bolajonlar. Biz sizlardan juda ham xursandmiz.

Endi uyga vazifani yozib oling.

**Uyda;** A. Navoiy haqida yana ham ko'proq ma'lumotlar to'plab kelasiz va "Kichkina Alisher" hikoyasini o'qib kelasiz.

O'qituvchi; Parvoz qiling qanotingiz
Qayrilmasiz, sinmasin.
Murg'akkina qalbingizga
Hech kim ozor bermasin.

O'quvchilar: Tinmay o'qib, o'rganish
Vazifamiz, burchimiz.
O'qib elning ishiga
Sarf etamiz kuchimiz.

**U nimaga asos solgan?**



***Mavzu:*** Kitobim, jon kitobim

***Maqsad :*** a) ta'limiy maqsad: O'quvchilarga mavzuni to'g'ri va ongli o'qishni o'rgatish she'r yodlash malakasini oshirish;

b) tarbiyaviy maqsad: Doimo kitob o'qishga odtlanish. Kitob bilan do'st tutunish, uni asrab-avaylashga o'rganish.

d) rivojlantiruvchi maqsad: mustaqil ishlash va erkin fikrlashga odatlanish.

***Darsning jihozi:*** sinf kutubxonasi,kompyuter,tarqatma mavzuga oid rasmlar.

***Darsning uslubi:*** yangi bilim beruvchi,noan'anaviy

***Darsning borishi:***

1.*Tashkiliy ishlar:* salomlashish,sinfkom axboroti

Sog'lom bola yili haqida amaliy mashg'ulot:

Sog'lom bola bo'lish uchun nimalarga e'tibor berish kerak?

a) doimo badantarbiya bilan shug'ullanish lozim;
b) shaxsiy gigienaga rioya qilish kerak;
c) vaqtida vitaminli ovqatlar iste'mol qilish kerak;
d) sog'lom turmush tarziga amal qilish lozim.

O'tilgan mavzuni so'rash,baholash,mustahkamlash

Kitobni asrang

(o'quvchilar 3 guruhga bo'linadilar va har bir guruhdan ekspertlar ajratiladi)

1-guruh **„Kapalak"**

2-guruh **„Bahor"**

3-guruh **„Qaldirg'och"**

Ekspertlar guruhlar yig'gan „rag'bat'' , „yaxshi" , „o'rta" , „jarima" kartochkalarni doskaga osilgan konvertlarga yig'ib boradilar.

1-topshiriq. O'z guruhi nomiga mos she'r aytish.

*2-topshiriq.* Vatan,Ona,do'stlik haqida maqollar aytish.

*3-topshiriq.* Doskada mahsus tayyorlangan harf kassa-siga 1-guruh a'zolaridan bittasi chiqib unli harflarni,2-3-guruhlardan ham a'zolar chiqib undosh harflarni joy-laydilar.

*4-topshiriq.* O'tilgan mavzu "Kitobni asrang" mavzusini guruh o'quvchilaridan 2,3 tasi o'qiydi.

Guruh ekspertlari matnni to‘g‘ri o‘qishlarini tekshiradi va kerakli kartochkalarni beradilar.

*5-topshiriq*. „Sog‘lom bola'' yili bo‘yicha amaliy mashg‘ulot. Bunda guruhlardan eng past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bajaradilar. 3ta taqsimchada mevalar va sun'iy tayyorlangan mahsulotlar aralashtirib qo‘yiladi. O‘quvchilar vitaminli mahsulotni tanlab iste'mol qilishlari lozim.

1-taqsimchada:olma,shirinlik

2-taqsimchada:yong‘oq,bodom,xot dog

3-taqsimchada:anor,qurut,saqich

*6-topshiriq*.Kompyuter monitorida 3ta rangli rasm namoyish etiladi



Qaysi kitobni o‘qisam ekan?



Kitob – bilim bulog‘i.



To‘g‘ri va ongli o‘qing.

O‘quvchilar rasm asosida tuzilgan gaplarni o‘qiydilar.

Guruh ekspertlari o‘quvchilar to‘plagan kartochkalar-

ni hisoblaydilar,qaysi guruhda „rag‘bat” kartochkasi ko‘p bo‘lsa o‘sha guruh g‘olib bo‘ladi.

*O‘tilgan mavzuni mustahkamlash:* „koptok” o‘yini orqali.Bu o‘yinda o‘qituvchi koptokni savollar orqali o‘quvchilarga uzatadi,o‘quvchi esa javob orqali koptok-

ni qaytaradi.

1.Ota-bobolarimiz kitobni qanday asrashgan?

2.Kitob haqida maqol ayting?

3.Siz qanday badiiy kitoblar o‘qigansiz?

Darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘batlantirib baholanadi.

***Yangi mavzu bayoni:*** **Kitobim, jon kitobim**

**(Dilshod Rajab she’ri)**

Nur, ziyoga kon o‘zing,

Do‘st-u qadrdon o‘zing,

Ma’no to‘la har so‘zing,

Kitobim, jon kitobim.

Zavq-shavqqa to‘lar dilim,

Olaman sendan bilim,

Bulbulday sayrar tilim,

Kitobim, jon kitobim.

Qo‘limdan hech qo‘ymayman,

O‘qib-o‘qib to‘ymayman.

Kelajakka bo‘ylayman,

Kitobim, jon kitobim.

**Maqol;** Bilgan o‘qir, bilmagan to‘qir.

**Kitob bilan ishlash:** Darslikdan she’rni ifodali o‘qib beriladi. She’r mazmunini o‘qituvchi tushuntirib beradi. Ziyo so‘zini ma’nosini tushuntiriladi.

O‘quvchlar zanjir usulida she’rni ifodali o‘qiydilar.

Yangi mavzuni mustahkamlash: O‘qituvchi kitob o‘quvchining eng yaqin do‘sti ekanligi, doimo kitob o‘qib bilimni oshirib borishni o‘rgatadi.

**Hikmatli gap:** Kitob bilim bulog‘i.



**Topishmoq:** Tinmay o‘qisang agar,

Ko‘p narsani o‘rgatar.

Bilsang, uka, o‘ylab top,

Bilim koni u - ...

O‘quvchilar qo‘llaridagi ertak kitoblarni mazmunini qisqa aytib, sinf kutubxonisini boyitadilar.

**Uyga vazifa:** “Kitobim, jon kitobim” she’rini yod olish, kitob, bilim haqida maqollardan yod olish.

**O`qish:** Noan’anviy “Ertak” darsi. Darsda “Ertak qahramonlari”.

**Mavzu: Chumchuq bilan chumoli. Aziz Abdurazzoq**

**Darsning maqsadlari:**

1. **Ta’limiy maqsad:** O`quvchilarda “Chumchuq va chumoli” ertagini ifodali o`qish, qayta hikoya qilish, DTS asosida to`g`ri, aniq, ongli o`qish ko`nikmalarini shakllantirish.

2. **Tarbiyaviy maqsad:** Vatan degan muqaddas tuyg`uni, vatanga muhabbat, mehnat qilish, dangasa, maqtonchoq bo`lmaslik, halol mehnatkash insonlarning doimo farovon hayot kechirishlarini qalbiga yetkazish.

3. **Rivojlantiruvchi maqsad:** Darsda o`quvchilar ongiga mehnatkash bo`lishni, maqtanchoq bo`lmaslikni, halol bo`lishni singdirish.

**Darsning uslubi:** Tushuntirish, suhbat, mustaqil ish, klaster usulidan foydalanish

**Darsning jihozi:**

1. Ertak qahramonlarini niqoblari.
2. Magnitafon
3. Tarqatma materiallar
4. Rag`bat kartochkalari.
5. Maketlar va oq qog`ozlar.
6. O`qish kitobi.
7. Mavzuga oid rasmlar.

**Darsning uslubiy jihozlari:**

30 nafar o`quvchilar 3 guruhga ajratib, guruhlarni nomlash. "Bo`ri", "Tulkiboy", "Quyon" deb nomlash. "Klaster", "Zid-zad" usullardan foydalanish.

**Darsning borishi:**

Noan'anviy va yangi pedagogik texnologiyalar asosida suhbat olib boriladi.



Sinfda O`zbekiston Respublikasining davlat madhiyasi yangraydi.

O`quvchilar qo`llarini koksilarida madhiyani tinglab jo`r bo`lishadi. Darsni bashlaymiz.

- Assalomu alaykum.
- Vaalaykum assalom
- Kim navbatchi?
- Yaxshi! Davomat – 100%

Konstitutsiya bayrami yaqin bo`lgani munosabati bilan Konstitutsiya haqida she'rlar yod olishadi.

Men darsimizni boshlashdan avval sizlarni 3 ta guruhga bo`lib olaman. Yaqinda qanday bayramni nishonlaymiz?

- Yangi yil.
- O`quvchilar "Yangi yil" bayramini ertak qahramonlarisiz tasovvur qila olmaymiz-a. Bugungi darsimizni ertak qahramonlarini qatnashtirib dars o`tamiz. Darsimizga mehmon bo`lib "Bo`ri", "Tulkivoy", "Quyon"lar kelishgan.

Oldindan tayyorlab qo`yilgan hayvonlar maketini ko`rsatiladi.

Sinfni uch guruhga bo`lib:

1- guruh "Bo`ri"
2- guruh "Tulkivoy"
3- guruh "Quyon" deb e'lon qilinadi.
Niqoblar guruh sardorlarining boshlariga kiydirib qo`yiladi.

Bo`ri, tulki, quyonlarga ta'tif beriladi.

- Bo`ri qanday hayvon?
- Qo`rqmas, yirtqich, yovvoyi.
- U nimani yaxshi ko`radi?
- Quyonni.
- Tulki qanday hayvon?
- Ayyor, yirtqich, chiroyli.
- U nimani yaxshi ko`radi?

- Tovuqni.
- Quyon qanday hayvon?
- Qo`rqoq, hurkak, uy hayvoni.
- U nimani yaxshi ko`radi?
- Sabzini.

Demak guruhlar o`zlaringizni qandayligingizni bilib oldingiz. Men guruh sardorlariga "Klaster" Tarqataman, undagi markaziy so`zga ma'nodosh so`zlar topishadi. Guruhlar musobaqa tarzida dars o`tamiz. G`olib guruhga darsimiz so`ngida rag`bat sifatida sirli mukofat beramiz. G`oliblarni aniqlash uchun ularga ball o`rniga hayvonlarning o`zi yoqtirgan narsalarning suratlari topshirib boriladi.

Rasmlarni to`plab, oxirida sanaymiz, golibni aniqlaymiz.

Quyidagicha rasmlar tarqatib boriladi.

1. "Bo`ri" guruhiga.



2. "Tulki" guruhiga.



3. "Quyon" guruhiga.



O`quvchilardan o`tgan mavzu so`raladi.

- O`quvchilar "Yaxshi bo`ldi" hikoyasini o`qib keldingizmi?
- Xa.

Yuda vazifani 3 guruhga 3 xil qilib bo`lib berganman. 1- guruhga mazmuniga mos rasm ishlash, 3- guruhga ifodali o`qib kelish.

Guruhdan qayta hikoya qilib berishlarini so`rayman. So`zlab bergan o`quvchilarga "Quyonchalar" rasmini tarqataman.

1- ya'ni "Tulki" guruhini rasmlarini ko`rib, rasmga qarab hikoya qilib berishlarini so`rayman. Ularga "Tovuqchalar" rasmlarini beraman.
2- "Quyon" guruhiga hikoyani ifodali o`qib berishlarini iltimos qilaman. Ularga "Sabzi" rasmini tarqataman.

Guruh sardorlaridan "Klaster"lar yig`ishtirib olinadi. O`qib eshittirib, to`g`ri bajarganlarini ta'kidlab, ularga ham tegishli rasmlar beriladi.

"Quyon" guruhini sardori bajargan ishida bugungi mavzuni yozgan bo`ladi. Shunday qilib yangi mavzu e'lon qilinadi.

Xat taxtaga mavzu yozilguncha o`quvchilar dam olish daqiqalariga xor bo`lib she`r aytadilar.










Qo`limizda besh barmoq,

Maqsadimiz besh olmoq.

Bir ikki uch,

Birlikdadir kuch.

Bugun biz sizlar bilan “Chumoli bilan chumchuq” ertagini o`qib o`rganamiz. (Doskaga mavzuga oid rasm-ko`rgazmalarni ilib qo`yiladi).

Ertakni mazmunini so`zlab beraman. Savol-javoblar o`tkazaman.

**Mustahkamlash:**O`quvchilarga “Zig-zag” usulida ertakni o`rgataman. (Bir nuqtadan)

O`quvchilarga “Esse” yozishlarini aytaman. (Siz qanday yozgan bo`lar edingiz)

O`quvchilar mana mavzuni tushinib oldingizlar. 2012 yil qanday yil deb e'lon qilindi?

- "Mustahkam oila" yili.
- Barakalla. Kelinglar oila haqida she'r yozib ko`ramiz. O`z guruhingizga ball to`blab berasizlar.

**Rag`batlantirish:** O`quvchilar to`plagan rasmlarini sanab, g`oliblar aniqlanadi. G`olib guruhga sinfimizning go`zal raqqosa qizi "Xorazimcha" raqsini ijro etib beradi. Magnitafonda kuy yangraydi.

Dars so'ngida yaxshi qatnashgan o`quvchilarni ballari kundaliklariga qo`yib berishlarimni aytaman.

**Uyga vazifa:** "Bo`ri" guruhiga rasm chizib kelish.

"Tulki" guruhiga ifodali o`qib kelish.

"Quyon" guruhiga qayta hikoya qilish topshiriladi.

- O`quvchilarni bu mavzu orqali rasm chizish qobiliyatlarini shakllantiriladi.
- Yozuv malaka va konikmalarini oshiriladi.
- Fikrlash, xotiralari mustahkamlanadi.
- Kasbga yonaltiriladi.
- O`zaro o`rtoqlik munosabatlarini tiklanadi.
- Vatanga, ona tabiatga bo`lgan munosabatlarini oshiraman.

*Dars tamom.E'tiboringiz uchun raxmat.*

**Mavzu: " Alisherning bolaligi " Oybek**

**Ta'limiy maqsad:** O`quvchilarga" **Alisherning bolaligi _" qissasi** haqida tushuncha berish.o`rgangan bilim va ko`nimalari asosida yangi bilim hosil qilish

**Tarbiyaviy maqsad:** Mavzuning mohiyatini yoritishda turli usullardan o'rinli foydalanish, yangi pedagogik texnologiya asosida yakka, juft, jamoa bo'lib o'quvchilarni jalb etish orqali o'quvchilarda hozirjavoblik fazilatini tarbiyalash

**Rivojlantiruvchi maqsad:** O`quvchilarga tezkor savol javob o`tkazishni va ifodali o`qish mahoratini oshirish. Ertaklardagi voqelarni ro`llarga bo`lib ijro etish mahoratini oshirish

**Dars turi:** Yangi bilim beruvchi

**Dars usuli:** Savol-javob, suhbat, musobaqa.

**Dars jihozi:** Ko`rgazma ,rasm, tarqatma, slaytlar

DARSNING BORISHI.

1. Tashkiliy qism: a) Salomlashish.

O`qtuvchi: Salom sizga bog`imning g`unchalari
Salom sizga kuyimning gukg`unchalari
Salom sizga muallimning sof o`zbek tilidan
Salom sizga ustozingiz yonib turgan dilidan
Ikki qo`lim ko`ksimda aylayin yazim
Qabul aylang bolajonlar "Assalomu alaykum"

O`quvchi: Ko`zzimizning nuri sizsiz
Qalbimizning qo`ri sizsiz
Muallimjon sizga yo`llab shirin kalom
Deymiz sizga "Va alaykum assolom"

b) Davomatni aniqlash.

Navbatchi o`quvchi: Sinfda men navbatchi
Ustozimga yordamchi
Pok tutaman xonani
Hamda yozuv tahtani
Ustozim shod bo`ling

Bugun hamma shu yerda

Darsingizni miriqib

Eshitish umidida

s) Darsga tayyorgarlik.

Bizning tug`ulib o`sgan vatanimiz qayer?

Vatan deganda nimani tushunasiz?

Yurtimizda qanday bayram nishonlanmoqda?

Konistitutsiya deganda nimani tushunasiz?

Qanday moddalarni bilasiz?

" Raqamlar tilga kiganda" o`yini

1 2 8 10 14 21



2. O`tgan darsni mustahkamlash: O`quvchilardan o`tgan bo`lim va mavzu yuzasidan savol javob o`tkazish va tayyorlab kelgan sahna ko`rinishlarini kuzatish.

O`quvchilarda inliz tilida ertak qahramonlarini nomlarini so`rash.

Yana qanday ertaklar bilasiz? (Inglizcha)

Dam olish daqidasi: "Nafas olish mashqi" o`yinini o`ynash

1. Yangi mavzu bayoni: **Alisherning bolaligi**

4. Darsni mustahkamlash: O`quvchilar bilan o`tilgan mavzular yuzasidan savollarga javob berib krasvord bajarish orqali bilimlarni mustahkamlas

1.Dalat ertagida dehqonga kim to`g`ri maslahat beradi?

2.Qanday kishi o`limga yaqin

3.Quyosh sevgan......

4. Baqaning orzusi

5. Tulkini dumsiz qilgan narsa?

6.Barmoqday keladigan bola?

7.Shavla pishadigan idish?

8. Qadimgi qorlar rangi?

9Bolalar uhlashdan oldin nimani sevib eshitishadi?

5. Darsniya kuni: O`quvchilarni olgan ballarini e,lon qilb rag`batlantirish.

6. Uyga vazifa: Ertakni o`qib o`rganish

**Darsning mavzusi: Yaxshidan bog` qoladi (Rivoyat)**

**Darsning maqsadlari:**

**a)Ta`limiy maqsad:** O`quvchilarni „Yaxshidan bog` qoladi" rivoyati mazmuni bilan tanishtirish, ajdodlarimizning hayoti va ijodi haqida ma`lumotlar berish;

**b)Tarbiyaviy maqsad:**O`quvchilarni mehnatsevarlik, vatanparvarlik va tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalash, yuksak insoniy sifatlarga ega bo`lishga chaqirish;

**d) Rivojlantiruvchi maqsad:** Matnni to`g`ri, tez va ifodali o`qish malakalarini takomillashtirish, matn ustida ishlash, tahlil qilish ko`nikmasini mustahkamlash,lug`at boyligini oshirish.

**Dars turi:** Yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars usuli:** Suhbat, savol-javob, klaster, „Davom ettir" o`yini.

**Darsda foydalaniladigan jihozlar:** Alisher Navoiy bobomiz suratlari, matn mazmuniga mos keluvchi bog` manzaralarini aks ettiruvchi rasmlar, AKT, o`zbek xalq maqollaridan namunalar, rag`bat uchun turli gul shakllari...

| T/R | Dars bosqichlari | Vaqt taqsimoti |
|---|---|---|
| 1 | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| 2 | O`tilgan mavzuni mustahkamlash | 12 daqiqa |
| 3 | Yangi mavzuni tushuntirish | 15 daqiqa |
| 4 | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| 5 | Darsni yakunlash va o`quvchilarni baholash | 3 daqiqa |
| 6 | Uyga vazifa berish | 2 daqiqa |

**Darsning borishi:**

**Tashkiliy qism:**

a) Salomlashish;
b) Navbatchi axborotini tinglash;
d)O`lkamizda bahor fasli hukm surayotgani uchun magnit tasmasidan taralayotgan

bahorni tarannum etuvchi kuy ohangi ostida o`quvchilardan bahorni madh etuvchi she`rlar so`rash;

Masalan:

-Yana bahor keldi, yana olamda,
Ajib bir go`zallik, ajib bir bayot.
Men seni qutlayman shu ulug` damda

Aziz yelkadoshim, muzaffar hayot!

-Uchib yurar mayin shamollar

Yelpib-yelpib anhor yuzini.

Qirg`oqlarda soyabon tolla

Oyna-suvda ko`rar ozini.

Bog`lar qiyg`os gulda yaxlit bir chaman,

Har daraxt anvoyi bir tarovatda.

Bir kaft bog` mehnat-u hosilga vatan,

O`zga ko`rk, o`zga rang har bir daraxtda.

Tashkiliy qismda o`quvchilarning har bir to`g`ri javobi yoki darsdagi bir ishtiroki bitta rag`bat kartochkasi bilan baholanishi mumkinligi aytiladi, rag`batlarni tarqatuvchi o`quvchilar saylab qo`yiladi.

**O`tilgan mavzuni mustahkamlash:**

**"NAVRO`Z-BAHOR BAYRAMI"** hikoyasi mazmunini 5-6 o`quvchi qismlarga bo`lib doskada yoritadi. O`quvchilarning matn mazmunini yoritishlarida „Davom ettir" o`yini qo`llanadi.

- Bahor! Hali yerlarda qor ko`p.Qor kechalari quyosh nurida eriydi, yerga singiydi,kechalari esa muzlaydi.

Tol kurtaklari yorilib,undan bo`z momiq g`unchalar chiqadi. Bo`g`otda sap-sariq bo`lib osilib yotgan sumalaklar quyosh shu`lasiga chidayolmay yosh to`kmoqdalar.

-O`lkamizda uyg`onish fasli-bahor hukm surmoqda. Tabiat uyg`onmoqda.qadimda yilning boshlanishi 21-martdan boshlangani uchun bu kunni Navro`z, ya`ni yangi kun deb nomlashgan.

-Navro`zgacha turli meva nihollari ekiladi, yo`llar va ko`chalar tozalanib, ariqlar qaziladi, turli manzarali daraxtlar ekiladi.

Navro`zda bobodehqonlarimiz ham o`z ishlarini boshlab yuboradilar. Yer haydab. unga urug` qadaydilar.

-Navro`zga atab yoshlar rang-barang kiyimlar tiktiradilar. Navro`zda qariyalar va bemorlar holidan xabar olinadi.

-Navro`z taomlaridan –sumalak, halim pishiriladi. Moy, qaymoq, jizza,yong`oq solib kulcha, patir, lochiralar pishiriladi. Turli ko`katlardan somsalar tayyorlanadi. Navro`zda tug`ilgan o`g`il bolaga Navro`z, Murod kabi ismlar qo`yilsa, qizlarning ismiga gul qo`shib aytiladi. Masalan, Gulasal,Gulbahor, Gulzamon kabi.

-Navro`z kunlari yoshlar keksalar oldiga navro`zlik ko`tarib, salomga borishadi. Yalpiz, binafsha kabi xushbo`y narsalarni olib borsalar, qariyalar qo`llariga olib, „Esonlik-omonlik, hech ko`rmaylik yomonlik, yanagi oylar-yillarga o`ynab-kulib yetaylik ", deb tilak bildiradilar.

Matn mazmunini so`zlagan o`quvchilarga quyidagi savollar beriladi va bergan javoblariga qarab, 1 tadan rag`bat kartochkasi bilan bilan taqdirlanadilar.

Savol:-Bahorda tabiatda qanday o`zgarishlar sodir bo`ladi?

Javob:- Bahor kelishi bilan tabiat uyqudan uyg`onadi,kunlar asta-sekin isiy boshlaydi.

Savol:-Navro`zgacha va Navro`z kunlari qanday yumushlar bajariladi?

Javob:-Navro`zga atab turli liboslar tiktiradilar,qariyalar va bemorlar holidan xabar oladilar, ko`chalar tozalanadi, kochatlar ekiladi, turli navro`z taomlari pishiriladi...

Savol:-Navro`z urf-odatlaridan nimalarni bilasiz?

Javob: -Navro`zda uy-joylar tozalanadi, daraxtlar tanasi oqlanadi, sumalak pishiriladi,yaxshi niyatlar qilinadi, araz-ginalar unutiladi, qarindosh- urug`lar holidan xabar olinadi...

Savol:-Navro`z bayrami haqida prezidentimiz o`zlarining „Yuksak ma`naviyat-yengilmas kuch" nomli risolalarida qanday fikrni ilgari surganlar?

Javob:-Navro`z bayrami biz uchun hayot abadiyligi, tabiatning ustuvor qudrati va cheksiz saxovatning,ko`p ming yillik milliy qiyofamiz, oliyjanob urf-odatlarimizning betakror ifodasi bo`lib kelmoqda.

O`qituvchi: -Demak, mana shunday milliy bayramlarimiz, oliyjanob urf-odatlarimiz bizning yuksak ma`naviyatli xalq ekanligimizni ko`rsatib turar ekan.

Savol:- Ma`naviyat o`zi nima?

Javob:-Ma`naviyat insonni ruhan poklanishga, qalban ulg`ayishga chorlaydigan, uning ichki dunyosini, irodasini baquvvat qiladigan, iymon-e`tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg`otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir..

Ma`naviyatga Otkir Hoshimovning bergan ta`rifi o`quvchilarga eslatiladi.

Odamzod nima uchun kaftdek hovlisiga gul ekadi? Undan ko`ra sholg`om eksa, qozoniga tushadi-ku.

Odamzod nima uchun bulbul chax-chuxini eshitganda entikib ketadi? Undan ko`ra bulbulni sho`rvaga solib pishirsa, nafsini qondiradi-ku.

Odamzod nima uchun osmonda charaqlab turgan yulduzlarni ko`rib, ko`ngli zavqqa to`ladi? Yulduzlar uning cho`ntagidagi tillalar emas-ku.

Odamzod nima uchun kitob o`qiyotib,suyukli qahramoni o`lib qolsa yig`laydi? Uni yozuvchi „ichidan to`qib chiqargani"ni biladi-ku.

Odamzod nima uchun bolasining boshida alla aytadi? Go`dak alla eshitmasa uxlamaydimi?

Gap shundaki, Odamzodni hayvonotdan ajratib turadigan chegara bor. Bu chegaraning nomi Ma`naviyat deb ataladi!

**Yangi mavzu bayoni:**

Oquvchilarni rivoyat mazmuni bilan tanishtirishdan oldin ularga rivoyat haqida eslatish.

**Yaxshidan bog` qoladi**

Ko`klam kunlarinig birida Sulton Husayn saroyda yolg`iz o`tiraverib, zerikib ketibdi. Sundan keyin u do`sti Mir Alisherdan xabar olish uchun u yashaydigan mahallaga boribdi.

Qarasa, do`sti yeng shimarib,bog`ida ishlayotgan ekan. Buni ko`rgan Husayn otidan tushib, do`sti bilan so`rashgach:

-Hormang, do`stim! Nega shoirlar majlisida ko`rinmay qoldingiz desam, bog`bonlikni pesh qilibsiz-da!-debdi.

Mir Alisher ham belbog`i bilan peshanasidagi terini artar ekan:

-Ko`klam kelsa ko`chat ek, degan ekan mashoyixlar. Shu bog`dagi qurigan

olmalarning o`rniga uch-to`rt tup yong`oq ekyapman,-deb javob beribdi.

-Ey do`stim-ey, qarigan chog`ingizda bog` qilishning sizga nima keragi bor, axir? Siz bilan men yoshimizni yashab, oshimizni oshagan bo`lsak, bu yong`oqlaringiz qachon hosilga kiradi-yu, siz qachon mevasidan yeysiz? Oxir umringizda mana shu bog`dagi mevalarning boriga qanoat qilib,soya-salqinda tinchgina g`azal bitib o`tiravermaysizmi?

-Do`stim, yaxshidan bog` qoladi, degan naqlni eshitganmisiz? Men bu ko`chatlarni o`zim uchun emas, mana shu mahallamiz ko`chalarini changitib yurgan bolakaylar, balkim ularning ham bolalari uchun ekyapman. Bir kun kelib, shu ko`chatlarning har biri azim daraxt bo`ladi. Hosil bera boshlaydi. Shunda odamlar uning mevasidan totib,

„Bu bog` Mir Alisherdan qolgan!”-deyishadi. Shuning o`zi menga har qanday ne`matdan lazzatliroqdur,-deb javob beribdi.

Bu gaplarni eshitgan Sulton Husayn Mir Alisherning saxovatiga qoyil qolib, unga hamyon to`la tilla chiqarib beribdi. Mir Alisher tillaga qarab turib:

-Ana ko`rdingizmi, do`stim! Ekayotgan ko`chatlarim hozirdanoq hosil bera boshladi,-deya kulib qo`yibdi. Sulton Husayn Mir Alisherning hozirjavobligiga yana bir bor qoyil qolgan ekan.

Matnni oqituvchi o`qiydi, o`quvchilar kuzatib boradilar, keyin o`quvchilar davom ettirib yakuniga yetkazadilar.Matn o`quvchilarga rollarga bo`lib o`qitiladi va lug`at bilan ishlanadi.

Mashoyixlar- donishmandlar

Qanoat qilib-sabr qilib

Azim-katta

**Yangi mavzuni mustahkamlash:**

Yangi mavzu klaster usulida va savol-javob orqali mustahkamlanadi.

Sulton Husayn va Alisher Navoiy nomlari o`rtaga yoziladi.Tarmoqlarda esa ularga mos kelgan harakatlar yoziladi.

Masalan:



1.Sulton Husayn nima uchun Mir Alisherni qidirib keldi?

-Sulton Husayn ancha vaqtdan beri Mir Alisher saroyda ko`rinmagani uchun uni qidirib Mir Alisher yashaydigan mahallaga keldi.

2.Mir Alisher nima qilayotgan edi?

-Mir Alisher yeng shimarib bog`da ko`chat ekayotgan ekan.

3.Mir Alisher ko`chatlarni nima niyatda ekayotgan edi?

-O`zi uchun emas, mana shu mahalla bolaalari, qolaversa, ularning ham bolalari uchun ekayotgan edi.

4„Yaxshidan bog` qoladi" maqolini siz qanday tushunasiz?

-Yaxshi inson o`zidan keyingi avlodlarning xotirasida faqatgina yaxshi, ezgu ishlari bilan yashaydi.

5. Yaxshilik, mehnat haqida yana qanday maqollarni bilasiz?

-Yaxshilik yerda qolmas.

-Yomon bilan yurdim, qoldim uyatga,
Yaxshi bilan yurdim,yetdim niyatga.

-Mehnat baxt keltirar.

-Yomon kelsa buzar,
Yaxshi kelsa tuzar.

-Mehnatdan kelsa boylik.
Turmush bo`lar chiroylik.

-Yaxshi el g`amida,
Yomon o`z g`amida

-Yaxshidan bog` qolar,
Yomondan dog`

6.Alisher Navoiyning

G`urbatda g`arib shodmon bo`lmas emish,

El anga shafiqu mehribon bo`lmas emish.

Oltin qafas ichra g`r qizil gul bitsa,

Bulbulga tikondek oshyon bo`lmas emish ruboiylari misolida o`quvchilarga Vatan deb atalmish muqaddas go`shaning o`rnini hech qanday narsa bilan almashtirib bo`lmasligini tushuntiriladi...

7.Rivoyat orqali siz o`zingizga qanday xulosa chiqardingiz?

Bu yil 9-fevralda Navoiy bobomiz tavalludining necha yiiliklari nishonlandi?

**Darsni yakunlsh va o`quvchilarni baholsh**

Mana o`quvchilar, bugun biz „Yaxshidan bog` qoladi" rivoyati orqali bobokalonimiz Mir Alisher Navoiy va u kishining do`sti, shoh Sulton Husayn haqida, ularning qilgan ishlari haqida ba`zi ma`lumotlarga ega bo`ldik.

Shu bilan birga tabiatni sevish, uni asrab-avaylash, tabiat ne`matlaridan oqilona foydalanish har birimizning burchimiz ekanligiga yana bir bor ishonch hosil qildik.

Hozir bahor fasli.Bahorda turli ko`chatlar ekiladi. Bolalar siz ham ota-onangizga turli ko`chatlar ekishda yordam berasiz, deb umid qilaman.

Darsning boshida aytganimizdek har bir o`quvchining dars davomida to`plagan rag`batlarini hisoblab o`quvchilarga ballar qo`yiladi va qo`yilgan ballar izohlab beriladi.

**Darsni yakunlash:**

Uyga vazifa: Matnni ifodali o`qishga va mazmunini so`zlab berishga tayyorlanib kelish.Savollarga javob berish.

Yaxshilik, mehnat haqida maqollar yod olish.

**Mavzu:"Bobur va Humoyun"P.Qodirov**

**2. Darsning maqsadi:**

a) Ta'limiy maqsad: O'quvchilarning to'g'ri, ongli, ravon hamda tushunib o'qish malakalarini shakllantirish.

b)Tarbiyaviy maqsad: O'quvchilarning dunyoqarashlarini shakllantirish, matn mazmuniga ko'ra, ota-onani hurmat qilish, e'zozlash , Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash.

d) Rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish, tez ravon o'qish malakasini rivojlantirish.

3. Darsning turi: Yangi bilim beruvchi.

4. Darsning uslubi: Guruhlarda ishlash, savol-javob, tushuntirish.

5. Darsning jihozi: Rangli rasmlar, tarqatma materiallar, DVD, kompyuter, testlar.

DARSNING BORISHI:

I. Tashkiliy qism.

Darsning boshlanishida o'quvchilar bilan salomlashish, tozalikni tekshirish, davomatni aniqlash.

Bugun biz o'quvchilar o'qish darsimizda noan'anaviy usulda dars olib boramiz. Buning uchun sinfni uch guruhga bo'lib olamiz.

I guruh «Lolaqizg'aldoq»

II guruh «Binafsha»

III guruh «Chuchmoma» deb nom qo'yamiz.

O'quvchilar bilan mustaqilligimiz uchun qanday ishlarni amalga oshirilganligi haqida savol-javob o'tkaziladi.

- O'zbekiston qachon mustaqil bo'ldi?
- O'zbekiston mustaqil bo'lgandan keyin qanday ramzlarga ega bo'ldi?

- O‘zbekiston prezidenti I.A. Karimovning “yuksak ma’naviyat yengilmas kuch “ asari ma’lumot aytingch?
- O‘zbekiston haqida qanday she'rlar bilasiz?

Raqamlar tilga kirsin 1 ,9 ,12, 26

Savol-javoblar orqali o‘quvchilarning bilimlarini sinab, ko‘riladi.

<u>II. O‘tgan mavzuni mustahkamlash.</u>

O‘quvchilarni o‘tilgan mavzu yuzasidan bilimlarini so‘rab baholanadi. So‘rovni savol-javoblar asosida tashkil qilinadi.

1. Ota-ona haqida hadislarda nima deyilgan?
2. Farzandning ota-ona oldidaga vazifasi nimalardan iborat ekan?
3. Yurtimizdan qanday insonlar yetishib chiqqan?
4. Siz Vatan uchun nima qila olasiz?
5. Vatan haqida she’r ayting.




III. Quvnoq daqiqa.

Ingliz tilida „ Hafta kunlari” qo‘shig‘ini kuylash.

IV. Yangi mavzu bayoni: “Bobur va Humoyun”P.Qodirov

Mavzuga oid kirish suhbati o‘tkazish.

Bobur kim bo‘lgan? Qanday ishlarni amlga oshirgan? Bobur dovyurak,epchil,kuchli,o‘ta idrokli inson bo‘lgan.U ona yurti

Andijonni,oilasiniqadrlagan,farzandlari sevgan.Farzandi uchun o'z jonini berishaga tayyor turgan.

Bir kuni Humoyun betob bo'lib qoldi.U tuni bo'yi alahlab ,behush yotdi.

Saroy tabiblari bu og'r dardga hech bir davo topolmadilar.Humoyunning onasi Mohimbegim yum-yum yig'laydi.Bobur o'rtanadi.Og'ir paytlarda Boburga suyangan,undan yordam olishga o'rgangan odamlar hozir ham biror chorasizlikdan qiynalardi.

Bobur o'ziga umid bilan qarab turgan odamlarning orasidan o'tib Numoyunning to'shagi yoniga keldi.

-Humoyun,jagarbandim. Sening shu og'ir dardingni xudo sendan olibmenga btrsin.... Gulbadanbegimning yozishicha ,o'sha kuniyoq Humoyunning ahvoli yaxshilana boshlabdi.Boburning esa,mazasi qochib yotib qoldi.



- O'qituvchi matnni ifodali qilib o'qib beradi.

- 3 ta guruhdan ravon o'qiydigan o'quvchilar doskaga chiqariladi va matnni o'qitiladi.
- Eng yaxshi o'qigan o'quvchilarga rag'bat kartochkasi beriladi.
- Bu usul orqali o'quvchilarni mustaqil o'qishga o'rgatib boriladi.

<u>V. Yangi mavzuni mustahkamlash.</u>

O‘quvchilarga navbatma-navbat ifodali, ongli, tushunib o‘qish tavsiya etiladi.

O‘qituvchi darsda test savollari va tezkor savol javoblar asosida yangi mavzuni mustahkamlaydi.

O‘quvchilarni ko‘proq har bir darsda test usullaridan foydalanishni tavsiya etish kerak. Chunki test o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, topqirlikka va hozirjavoblikka o‘rgatadi.

Test.

Bobur kim bo‘lgan?

a)shoir b) shoh va shoir d) ,vazir? 2.Qayerda tug‘ilgan?

2a) Andijonda b) Namanganda d) Samarqandda

3.U qayerda podshohlik qilgan?,

a) Hindistonda b) Andijonda d) ikkala javob to‘g‘ri

3 ta guruh vakiliga tezkor savollar beriladi.

**1-guruh vakiliga.**

1. Eng sovuq fasl. (Qish)
2. Madhiya muallifi kim? ( A. Pripov )
3. Eng mo‘tabar zot. ( Ona )
4. Alisher Navoiy kim bo‘lgan? ( So‘z mulkining sultoni )
5. Hayvonlar shohi ( Sher )

**2-guruh vakiliga.**

1. O‘zbekiston poytaxti qayer? ( Toshkent )
2. Birlashtirib kiyimni, issiq tutadi bizni. ( Tugma)
3. Sumalak qachon pishiriladi? ( Navro‘zda )

4. Archa qayerda o'sadi? ( O'rmonda )

5. 2014-yil qanday yil deb nomlandi? (Sog'lom bola yili)

**3-guruh vakiliga.**

1. Otning bolasi nima? ( Toy )

2. Onalar qo'shig'i nima? ( Alla )

3. Jo'janing onasi nima? ( Tovuq )

4. Bayrog'imizda necha xil rang bor? ( 4 xil )

5. Amir Temur kim? ( Shox va sarkarda)

VI. Guruhlarni rag'batlantirish, baholash:

Darsni yakunlashda har bir guruhda darsda faol qatnashgan o'quvchilar o'qituvchi tomonidan rag'bat bali bilan taqdirlanadi.

Dars qanday o'tganligi haqida o'quvchilar fikrlari tinglanadi.

VII. Uyga vazifa: Mavzuni ifodali o'qish, mazmunini so'zlash. Hikoya asosida reja tuzib sozlab berish

**Fan: Odobnoma**
**Mavzu:Konstitutsiyamiz – baxtimiz poydevori**
**Darsning maqsadi:**

**Ta'limiy:** Konstitutsiya-baxtimiz qomusi, Konstitutsiya — davlatning asosiy qonuni, bolalar huquqlarining davlat tomonidan ta'minlanishi, huquq va burchlarimiz haqida o'quvchilarga ma'lumot berish. FK2: qonun, qoida, tartib tushunchalarini biladi, ularning buzilishi yuzasidan munosabat bildira oladi.
**Tarbiyaviy:** Barkamol avlodga xos odoblilik san'ati va madaniyatini singdirish, bugun yurtimizda bolalarning baxtli yashashi, bilim olishi uchun yaratilgan sharoitlardan unumli foydalanish kerakligini tushuntirish. TK2: Televizordan ko'rgan, radiodan eshitgan lavhalaridan ma'lumotlar tushunib aytib bera olish.

**Rivojlantiruvchi:** o'quvchilarni mustaqil izlanishga, fikrlashga, o'z fikrini isbotlash va turli vaziyatlardan chiqishga o'rgatish. TK5: orasta kiyinish, maktab ichki tartib qoidalariga va gigiyena talablariga doimo rioya qilish.

**Darsning turi:** Yangi bilim beruvchi

**Darsning usuli:** zamonaviy texnologiyalar

**Darsning jihozi:** mavzuga oid rasmlar, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kitobi, 4-sinf odobnoma darsligi, slaydlar.

| № | Darsning bosqichlari | Vaqti |
|---|---|---|
| I. | Tashkiliy qism. | 3 daqiqa |
| II. | O'tilgan mavzu yuzasidan takrorlash. | 7 daqiqa |
| III. | Yangi mavzu bayoni. | 15 daqiqa |
| IV. | Yangi mavzuni mustahkamlash. | 15 daqiqa |
| V. | Darsga yakun yasash, o'quvchilarni rag'batlantirish. | 3 daqiqa |
| VI | Uyga vazifa berish, tushuntirish. | 2 daqiqa |

**Darsning borishi:**

I.Tashkiliy qism:

**O'qituvchi:**

Quvnoq zukko o'quvchim
Siz baxtim quvonchim
Shaymisiz sabog'imga
Kelajakka ishonchim.




**O'quvchilar:**

Bizlar quvnoq zukkomiz
Yayrab bilim olamiz
Bilim olishga shaymiz
Ishonchingiz oqlaymiz

**Navbatchi axboroti**

Bugun sinfda navbatchi kim
Ne gaplar bor xabar bering
Bugun sinfda men navbatchi
Tozalik, tartibga soqchi
Sinf xonasi ozoda
Yozuv taxtasi toza
Bugun darsda hamma bor
Saboq olishga tayyor

- Darsning asosiy qoidasi-"Oltin qoidalar" eslatib o'tiladi.

**Dars shiori:**-Fan ko'kida qil parvoz,

Qancha bilsang shuncha oz.

Odobnoma fani, uning maqsadi haqida savol-javoblar o'tkaziladi.

Guruhlar ularni dars davomida baholash tartibi haqida ma'lumot berish.




"Ma'naviyat daqiqasi"da qish faslidagi muhim sanalar aytib o'tiladi. Darstaxtaga rim raqamlarida sonlar yozilgan, o'quvchilar ana

shu sonlarni aytadilar va bu sonlar nimani anglatishi haqida ma'lumot beradilar.

I-1-Dekabr Xalqaro giyohvandlikka qarshi kurash kuni, 1- Yanvar yangi yilning birinchi kuni.

III-3-Dekabr- Nogironlarni himoya qilish kuni.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasi.

VIII-8-Dekabr- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun.

IX-9-Fevral-So'z mulkining sultoni Alisher Navoiy tavallud topgan kun.

X-10-Dekabr-O'zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasi tasdiqlangan kun.

**II.O'tilgan mavzuni so'rash:**

O'quvchilardan o'tilgan mavzuni so'zlab berish so'raladi. O'tilgan mavzu asosida savol-javob o'tkaziladi.

1. Yaxshi qo'shiq va musiqa insonga qanday ta'sir ko'rsatadi?

2. Siz qanday qo'shiqlarni sevib tinglaysiz?

3. «Kuy sehri» matnini diqqat bilan o'qing. Bitta asbob yordamida ijro etilgan kuylar nima uchun insonlarga har xil ta'sir ko'rsatdi?

4. Qo'shiq va musiqa tinglash odobi haqida mulohaza yuriting.

**Ekranda test savoli bilan ishlanadi.**

**O`zbek maqom san'atining rivojlanishiga ulkan hissa qo`shgan buyuk san'atkor kim edi?**

A)Muxtor Ashrafiy B)Yunus Rajabiy C)Mutal Burhnov D)Betxoven

   

Dam olish daqiqasi. "Lazgi" kuyiga raqs tushiladi.

III. Yangi mavzuning bayoni:

- O'quvchilar, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qachon qabul qilingan?
- Bu kitobni bilishimiz bizga nima uchun kerak?

O'quvchilar javoblarini umumlashtirib, mavzu bilan tanishtiraman.

O`zbekiston xalqining istiqlolga erishganlik baxti uning mustaqillik qomusi bo`lmish Konstitutsiyada mustahkamlangan. Kostitutsiya dunyo siyosiy xaritasida yangi demokratik davlat-O`zbekiston Respublikasi paydo bo`lganligini tasdiqladi. Konstitutsiya xalqning o`zini o`zi boshqarish, erkinlik va ijtimoiy adolat, insonparvar davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish to`g`risidagi orzusini ifodalagan. Konstitutsiyada mustaqil mamlakatimizning mazmun-mohiyati, uning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy tizimining demokratik tabiati, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligi, fuqarolarning huquq va erkinliklari qat`iy belgilab qo`yilgan. Konstitutsiya bu istiqbol va mustaqil O`zbekiston ramzidir. 1992-yil 8-dekabr kuni O`zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan mamlakatimizning Asosiy qonuni bir ovozdan qabul qilindi.

Konstitutsiyamiz muqaddima ,olti bo`lim,26 bob va 128 moddadan iborat.Uning birinchi bo`limida 4 ta asosiy prinsip bayon etilgan.Bular-

davlat suvereniteti, xalq hokimiyatchiligi, Konstitutsiya va qonunning ustunligi hamda tashqi siyosat prinsiplaridir.

**Darslik bilan ishlash.**

Darslikda berilgan ma'lumotni o'qib beraman. Matn yuzasidan suhbat o'tkazaman.

Darslikda berilgan Qambar Otaning "Baxt qomusi" she'rini ifodali o'qiymiz.

Vatanimni yashnatar
Istiqlolning ziyosi.
Xalqni baxtiyor etar
Erk, adolat dunyosi.
Ozod mamlakatimda
Konstitutsiyam baxtim
Vatanga sodiq bo'lib
O'sish yurakda ahdim.

Hammaning haq-huquqi
Aniq bayon etilgan.
Halol yashash yo'llari
Qonun qilib bitilgan.
Doim himoyasida
Inson faxr, nomusi.
Yashasin mustaqillik
Yaratgan baxt qomusi.

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

Guruhlarda ishlash.

1-guruh: Aqliy hujum. Savol-javob o`tkaziladi.

-Konstitutsiya so`zi qanday ma`noni bildiradi?

-Konstitutsiya qachon va qaysi sessiyada qabul qilingan?

-Konstitutsiya tuzilishi aytib bering.

- Konstitutsiya moddalaridan bilasizmi?

2-guruh: Tarmoqlash orqali Konstitutsiya bo`limlarini ko'rsating



3-guruh: Test savollari bilan ishlash.

**1.O`zbekistonda bayramlarning eng ulug`i qaysi javobda aks etgan?**

A)Navro`zi olam B)Onajonlar bayrami C)Mustaqillik bayrami D)Yangi yil










**2.Qaysi mutafakkirni o`zbek adabiy tilining asoschisi sifatida taniymiz?**

A)Bobur B) Alisher Navoiy C) Islom Karimov D)Ustozlar









**3.O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasi nima haqida?**

A) Har kim bilim olish huquqiga egaligi haqida

B) Har kim fermer xo`jaligini tashkil etishi mumkinligi haqida
C) Har kim bayram kunlari ishlamaslik huquqiga egaligi haqida

D) Har kim kasb tanlash huquqiga ega ekanligi haqida









**4.Qaysi qushni biz tinchlik qushi deb e'tirof etamiz?**

A)Qaldirg`och B)Humo C)Bulbul D)Kabutar






**5. Odobnoma kitobidagi mavzularda bir narsa haqida ko`p gapirilgan. Uni asrash kerakligi, uning bebaho ne'mat ekanligi haqida uqtiriladi.U nima?**

A)Sog`liq B)Kuch-qudrat C)Tinchlik D)Milliy qadriyatlar






**V. Darsni yakunlash va baholash**

1. Konstitutsiya so'zi qanday ma'nolarni anglatadi?

2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qachon qabul qilingan?

3. Konstitutsiyada belgilangan qanday huquqlaringizdan foydalanmoqdasiz?

4. Bugun yurtimizda bolalarning baxtli yashashi, bilim olishi uchun yaratilgan sharoitlar haqida so'zlab bering.

O'quvchilar javoblarini umumlashtirib, dars yakunlanadi. G'olob guruhlar aniqlanib, faol qatnashgan o'quvchilar ballari e'lon qilinadi.

**VI.Uyga vazifa:** Qambar Otaning «Baxt qomusi» she'rini yod oling

## XULOSA

Yozuv paydo bo'lganidan boshlab kitob tarixiy taraqqiyoti davomida insoniyatga uning ma'naviy ehtiyojini qondirishga xizmat qilib kelmoqda. O'tgan vaqt davomida uni tayyorlashda ishlatilgan xomashyoning turi ijtimoiy taraqqiyotga mos, mutanosib ravishda evolyutsion tarzda o'zgarib bordi. Shu bilan birga kitoblarning shakli, hajmi, dizayni va turi ham izchil o'zgarib bordi.

Insoniyat tsiviliztsiyasining bevosita ta'siri tufayli qo'lyozma, bosma va elektron kitoblar tizimi yuzaga keldi. Shakli, hajmi, dizayni, turi, ma'naviy-axloqiy va psixologik ta'siri kabi xususiyatlaridan qat'iy nazar kitoblar jamiyat ravnaqi hamda shaxs kamolotini ta'minlashda o'ziga xos ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Shaxsda kitob o'qish va kitobxonlikka ijobiy munosabatni qaror toptirish o'z-o'zidan ro'y bermaydi. Buning uchun har bir shaxsni maktabgacha ta'lim yoshidan boshlab, kitoblar bilan tanishtirish, ularning jamiyat va inson hayotidagi ahamiyati, amaliy qiymatini tushunishlari uchun zarur pedagogik shart-sharoitni yaratish lozim.

Shaxsni kitoblar bilan tanishtirishda uzluksiz ta'limning izchil, tizimli va maqsadli amalga oshiriladigan dastlabki bo'g'ini – boshlang'ich sinflar o'ziga xos o'rin tutadi. Boshlang'ich sinflarda tashkiliy-metodik jihatdan pedagogik, psixologik talablar negizida tizimli faoliyatning yo'lga qo'yilishi boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini samarali rivojlantirishga imkon beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish murakkab pedagogik jarayon bo'lib, uni samarali tashkil etish boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan jarayonga maqsadli, tizimli yondashishni talab etadi.

Binobarin, tegishli yosh davri o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirishda boshlang'ich sinf o'qituvchilari yetakchi o'rin egallaydi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilarda kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirish jarayonining pedagogik-psixologik asoslari, tashkiliy-metodik talablaridan yetarli darajada xabardor bo'lsalargina kutilgan natijani qo'lga kiritish mumkin.

Ular, shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirishda bu boradagi mavjud ahvoldan, qolaversa, mazkur jarayonning samarali kechishiga xizmat qiladigan omillar, ularning pedagogik-psixologik ta'siridan ham xabardor bo'lishlari zarur.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish muammosining muayyan jihatlari uzoq va yaqin xorijiy davtatlarda mustaqil yo'nalish sifatida o'rganilgan. Xorijiy davlatlarda mazkur yo'nalishlarda bajarilgan ishlar uchun tadqiqot ob'ekti sifatida maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchida kitobga bo'lgan hurmat tuyg'usini shakllantirish, boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish, shu jumladan, badiiy adabiyotlarni o'qish malakalarini, umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quvchilari, oliy ta'lim muassasalarining talabalarida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish jarayonlari qabul qilingan. Muammoning mavjud holatini amaliy (asoslovchi) tajriba asosida baholash shuni ko'rsatdiki, oila sharoitida, qolaversa, umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida o'quv dasturi ko'rsatmalariga muvofiq "O'qish" darsida o'quvchilarda o'qish ko'nikma, malakalarini shakllantirishga e'tibor qaratilgani holda mualliflik dasturlari asosida badiiy asarlarni o'qishga ijobiy munosabatni qaror toptirishga qaratilgan izchil, tizimli pedagogik faoliyat tashkil etilmaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kitobxonlik ko'nikmalariga ega bo'lishlari esa ana shu maqsadga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat mazmuni, mexanizmi v texnologiyalarining puxta asoslanganligiga bog'liq. Shu bois nazariy tahlil va amaliy o'rganishlar natijasi boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishning puxta asoslangan kontseptsiyasi, mexanizmi, metodikasi hamda texnologiyalarini ishlab chiqarishni taqozo etadi.

Ixtisoslashgan (kitoblarni yaratuvchi, chop etuvchi va tarqatuvchi) yirik (masalan, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti, Osiyo axborot-tahlil jamg'armasi, Allensbach Institute, Publishing Technology, The Pew Internet i American Life Project, AQShning San'at milliy jamg'armasi (National Endowment for the Arts – NEA),

G‘arbiy Avstraliyada o‘smirlarning kitob o‘qish holatini o‘rganish (West Australian Study in Adolescent Book Reading – WASABR), Kayzer oilasi jamg‘armasi (The Kaiser Family Foundation), Pyu tadqiqotlar markazi (Pew Research Center) kabi o‘nlab) markaz, kompaniyalar tomonidan milliy-ijtimoiy jihatdan izchil o‘rganish orqali tashxislanadi. Aholining kitobxonlik darajasining kovariatsiyali (covariance analysis; o‘zaro bog‘liq qiymatlar va miqdor hamda sifat ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi aloqani belgilovchi modelni aniqlash), korrelyatsiyali (correlation analysis; bir nechta tasodifiy qiymatlar o‘rtasidagi bog‘liqliklarni topish), dispersiyali (og‘ishli) tahlil (variance analysis; tajriba ma’lumotlari bo‘yicha o‘rtacha qiymat farqlarining ahamiyatini tadqiq qilish), regressiya (regression analysis; o‘zaro bog‘liq o‘zgarishlarda bitta yoki bir nechta mustaqil o‘zgarishlarning aks etishini tadqiq qilish) tahlil asosida o‘rganilishi mazkur kompaniyalarning kitoblarni yaratish, chop etish va tarqatish borasidagi faoliyati istiqbollari uchun umumiy manzarani hosil qilishga yordam beradi.

Kassil metodi, Iskra Daunis metodi, “Qadimgi xalqlar metodi”, “Asarning muqovasini diqqat bilan o‘rganish” metodi, “Og‘zaki rasm” metodikasi, “Adabiyot daholari” hamda “Bilim daraxtini parvarishlash” o‘yinlari kabi xorijiy davlatlarning shaxsda kitobxonlik ko‘nikma hamda madaniyatini shakllantirishdagi metodik imkoniyatlari ijobiy baholandi.

Korporativ, maqsadli, loyihaviy, tabaqaviy, qadriyatli, interfaol, innovatsion hamda refleksiv yondashuv, volontyorlik, yosh xususiyatlarini inobatga olish, vizualizatsiya, izchillik, uzluksizlik, tizimlilik, dars va sinfdan tashqari o‘qish mashg‘uloti birligi, rang-baranglik tamoyillari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda ustuvor ahamiyatga egaligi pedagogik tajriba orqali isbotlandi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda bolalar adabiyotlari, oilaviy o‘qish, ta’lim jarayoni (dars), sinfdan tashqari o‘qish, ta’lim muassasasi va oila hamkorligi, volontyorlik faoliyati. o‘yinlar, shuningdek, audio kitoblarni birgalikda tinglash kabi omillarning pedagogik-psixologik ta’siri yuqori ekanligi

kuzatildi. Pedagogik jarayonlarning samarali tashkil etilishida amaliy-metodik ko'rsatmani shakllantirish va u asosida jarayonni tashkil qilish ish sifatini ta'minlashi tarbiya amaliyotida ko'p bor tasdiqlangan. Shu sababli ilmiy pedagogik tajribani olib borishda boshlang'ich sinflarda "Mutolaa soati"ni tashkil etish boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishning tarkibiy elementi bo'lishi kerak. SHu maqsadda boshlang'ich sinf o'qituvchilari, maktab kutubxonchisi va ota-onalar uchun "Mutolaa soati"ni pedagogik-psixologik jihatdan to'g'ri tashkillashtirish yuzasidan amaliy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi va u tajriba maydonlari bo'lgan umumiy o'rta ta'lim maktablarida sinovdan o'tkazildi. Sinov natijasi mazkur amaliy-metodik tavsiyalarning maktab amaliyotiga mosligini ko'rsatdi.

Tadqiqot jarayonida "Ko'p qismli asar", "Ertak (hikoya, she'r) ni yakunla", "Savollarga asoslangan ertaklar", "Men yoqtirgan she'r" va "Tasvirdagi ertak" kabi innovatsion texnologiyalarning takomillashtirilishi ulardan boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishda kutilgan natijalarga erishish mumkinligi isbotlandi.

Pedagogika va psixologiya sohalarda tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy ishlanishning muhim tarkibiy qismi tajriba-sinov ishi sanaladi. Zero, tajriba-sinov ishi dissertant tomonidan ilgari suriladigan nazariy g'oyalarning amaliyotga qanchalik mos kelishini, amaliy qiymatga egaligini baholashga yordam beradi. Shu sababli mazkur sohalar bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni olib borishda tajriba-sinov ishini nazariy-metodologik hamda amaliy-metodik jihatdan puxta asoslanishiga e'tibor qaratiladi. Ana shu tendentsiyaga ko'ra boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy izlanish doirasida tajriba-sinov ishlari dasturi va metodikasi pedagogik kuzatishni izchil, tizimli tashkil etish va chuqur nazariy tahlilga muvofiq asoslandi.

Dastur va metodikani asoslashda boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh, psixologik xususiyatlari, tajriba maktablarining zarur pedagogik sharoitga egalik darajasi, sinov ishlariga jalb etilgan metodist o'qituvchilarning kasbiy malakalari inobatga olindi.

# ILOVALAR

1-ilova

## "YOSH KITOBXON" TANLOVINI O'TKAZISH TARTIBI TO'G'RISIDA NIZOM[119]

I. Umumiy koidalar

1.1. Mazkur Nizom yoshlar o'rtasida "Yosh kitobxon" tanlovini (bundan keyingi o'rinlarda – "Tanlov" deb yuritiladi) o'tkazish tartibini belgilaydi.

1.2. Ushbu tanlov bevosita yoshlar o'rtasida kitobxonlik madaniyatini oshirishga qaratilgan ustuvor vazifalarni izchil amalga oshirishga yo'naltirilgan.

1.3. Tanlovni yuqori saviyada o'tkazish uchun O'zbekiston yoshlar ittifoqi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari tashkiliy-amaliy ishlar bo'yicha, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-ijodiy ishlar bo'yicha mas'ul tashkilotlar etib belgilanadi.

II. Tanlovning maqsad va vazifalari:

2.1. Qadimiy va betakror diyorimizdan yetishib chiqqan buyuk alloma, adib va mutafakkirlarimizning boy ma'naviy merosini, umumbashariy tsivilizatsiya, madaniyat, dunyoviy va diniy ilm-fan taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan ulug' ajdodlarimizning noyob asarlarini asrab-avaylash, kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish, ularning nodir merosini, ibratli hayoti va ijtimoiy faoliyatini har tomonlama chuqur o'rganish va targ'ib etish, yoshlarimizni o'zlikni anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ular o'rtasida kitobxonlik madaniyatini keng ommalashtirish maqsadida tashkil etiladi.

---

[119] "Ёш китобхон" танловини ўтказиш тартиби тўғрисида Низом // http://pharmi.uz/wp-content/uploads/2018/05/Ёш-китобхон.pdf.

2.2. Tanlovni tashkil etish orqali quyidagi vazifalar bajarilishi ko'zda tutiladi: yoshlarning barcha qatlamlarini kitob o'qishga da'vat etish xamda kitob o'qishga bo'lgan qiziqish va intilishlarini qo'llab-quvvatlash. joylarda adabiy muhit shakllanishiga erishish; yoshlar ongida Vatanimiz tarixi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ijtimoiy hayot haqidagi tushuncha va bilim, ko'nikmalarini yanada yuksaltirish; milliy adabiyotimizning durdona asarlari, adiblarimiz ijodini yoshlar o'rtasida keng targ'ib etish, kelajakda ijodkor yoshlar tomonidan badiiy yetuk, yuqori saviyali asarlar yaratilishiga erishish.

III. Tanlovni tashkil etish va o'tkazish:

3.1. Tanlovda 10 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan O'zbekistonning barcha yoshlari, xususan, o'quvchi-talabalar, ishchi-xodimlar, harbiy xizmagchilar, uyushmagan yoshlar va boshqalar ishtirok etishi mumkin.

3.2. Tanlovni tashkil etish va uni o'tkazish vazifasi mas'ul tashkilotlarning vakillaridan iborat Tashkiliy qo'mita zimmasiga yuklatiladi. Tashkiliy qo'mita zaruratdan kelib chikib, tanlov nizomi na uni o'tkazish tartibga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishi mumkin.

3.3. Tanlovda ishtirok etishni xohlovchi yoshlar O'zbekiston yoshlar ittifoqining ta'lim muassasalaridagi boshlang'ich tashkilotlari yoki mahalliy Kengashlariga ariza bilan murojaat qilib, o'zi haqidagi tegishli ma'lumotlar (tanlov anketasi, tug'ilganlik haqidagi guvohnoma yoki pasport nusxalari, o'qish. ish yoki yashash joyidan)ni takdim etadi.

3.4. Tanlovda yoshlar o'zlari yashayotgan yoki o'zlari o'qiyotgan (ishlayotgan) muassasasi joylashgan hududdan ishtirok etadi.

3.5. Tanlov quyidagi uchta yosh toifasi bo'yicha alohida-alohida tartibda o'tkaziladi:

- 10 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan yoshlar;
- 15 yoshdan 19 yoshgacha bo'lgan yoshlar;
- 20 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar.

3.6. Tanlov to'rt bosqichda tashkil etiladi. Birinchi bosqich tanlovning arizalar qabul qilish va saralash bosqichi bo'lib, unda tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan yoshlardan arizalar qabul qilinadi va ishtirokchilar test sinovi asosida saralanadi.

Arizalar har yili 15-apreldan 20-maygacha O'zbekiston yoshlar ittifoqining boshlang'ich tashkilot yetakchilari hamda tuman (shahar) Kengashlari tomonidan qabul qilinadi. Test sinovi har yili 20 may – 1 iyun kuni oralig'ida o'tkaziladi. Unda ariza topshirgan yoshlar adabiyotga va buyuk adiblarimiz hayoti va ijodiga oid 50 ta test savollariga javob berib. Har bir to'g'ri javob uchun 2 ball belgilanadi. Test natijalariga ko'ra 86 va undan yuqori ball to'plagan yoshlar keyingi (ikkinchi) bosqichda ishtirok etish huquqini qo'lga kiritadi. Ikkinchi bosqich tanlovning mahalliy bosqichi bo'lib, har yili iyunь oyida barcha tuman (shahar)lar miqyosida saralash bosqichida yuqori ballni qo'lga kiritgan ishtirokchilar o'rtasida quyidagi shartlar asosida o'tkaziladi:

- "O'zbek adabiyoti bilimdoni" sharti (20-21 asr adabiyoti bo'yicha);
- "Jahon adabiyoti bilimdoni" sharti.

Har bir yosh toifasi bo'yicha g'oliblikni qo'lga kiritgan ishtirokchilar (jami 3 nafar) hududiy bosqichga yo'llanma oladi.

Uchinchi bosqich tanlovning hududiy bosqichi bo'lib, har yili iyul-avgust oylarida quyidagi 2 ta shart asosida teletanlov shaklida o'tkaziladi:

- "O'zbek adabiyoti bilimdoni" (mumtoz adabiyot bo'yicha) sharti;
- "Buyuk mutafakkir va adib" sharti (buyuk ajdodlarimiz bo'yicha).

Har bir yosh toifasi bo'yicha g'oliblikni qo'lga kiritgan 1 nafardan ishtirokchilar Respublika bosqichiga yo'llanma oladi.

To'rtinchi bosqich tanlovning Respublika bosqichi bo'lib, har yili oktabr-dekabr oyi davomida "Yoshlar" telekanali orqali teletanlov shaklida, 4 ta shart asosida o'tkaziladi.

3.7. Tanlovni tashkil etish va uni o'tkazish mas'ul tashkilotlarning vakillaridan iborat Tashkiliy qo'mita zimmasiga yuklatiladi.

3.8. Tanlovning tuman (shahar), viloyat va respublika bosqichlari bo'lib o'tadigan joyi, sanasi respublika va hududiy Tashkiliy qo'mitalar tomonidan belgilanadi hamda 10 kun oldin hududiy bosqichlarda g'olib bo'lgan ishtirokchilarga ma'lum qilinadi.

3.9. Har yili O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti bilan xamkorlikda tanlov shartlari bo‘yicha davrlashtirilgan holda adiblar va ularning asarlari ro‘yxatlarini shakllantirib boradi hamda saralash bosqichida foydalanish uchun test savollarini tuzib beradi.

IV. Tanlov shartlari va baholash mezonlari:

4.1. Tanlov quyidagi shartlar asosida o‘tkaziladi:

1- shart. “O‘zbek adabiyoti bilimdoni”. Ushbu shartda o‘zbek adabiyotiga oid kitoblardan parcha o‘qiladi va ishtirokchidan asarni topish hamda mazmun-mohiyati, g‘oyasi va ahamiyati to‘g‘risida gapirib berish so‘raladi. SHarhlash jarayonida ishtirokchi bilimini tekshirish maqsadida hakamlar hay’ati tomonidan qo‘shimcha savollar berilishi mumkin. Ishtirokchilar kitobdan parchani bilet tortish orqali tanlaydi, tayyorgarlik ko‘rish uchun 2 daqiqa, javob berish uchun 3 daqiqa vaqt belgilanadi. Mazkur shart uchun 100 ballgacha baho beriladi.

2-shart. “Jahon adabiyoti bilimdoni”. Ushbu shartda Respublika tashkiliy qo‘mitasi tomonidan tavsiya etilgan jahon adabiyotiga oid kitoblarning mazmun-mohiyati, g‘oyasi va ahamiyati to‘g‘risida ishtirokchilar sharhlab berishi so‘raladi. SHarhlash jarayonida ishtirokchi bilimini tekshirish maqsadida hakamlar hay’ati tomonidan qo‘shimcha savollar berilishi mumkin. Ishtirokchilar kitob nomini bilet tortish orqali tanlaydi, tayyorgarlik ko‘rish uchun 1 daqiqa, javob berish uchun 3 daqiqa vaqg belgilanadi. Mazkur shart uchun 100 ballgacha baho beriladi.

3-shart. “Buyuk mutafakkir va adib”. Ushbu shartda Respublika tashkiliy qo‘mitasi tomonidan tavsiya tgilgan Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Mirzo Ulug‘bek, Imom Buxoriy, Imom at-Termiziy singari ulug‘ allomalar, o‘zbek va jahon adabiyoti namoyondalari haqida ma’lumot berishlari so‘raladi, ishtirokchi bilimini tekshirish maqsadida hakamlar hay’ati tomonidan qo‘shimcha savollar berilishi mumkin. Ishtirokchilar ulug‘ allomalar yoki o‘zbek adabiyoti namoyandalari nomini bilet tortish orqali tanlaydi, tayyorgarlik ko‘rish

uchun 2 daqiqa, javob berish uchun 3 daqiqa vaqt belgilanadi. Mazkur shart uchun 100 ballgacha baho beriladi.

4-shart. "She'riyat". Ushbu shartda ishtirokchilar Respublika tashkiliy qo'mitasi tomonidan tavsiya etilgan she'riy parchani davom ettirishi xamda mazmun-mohiyatini sharhlab berishi so'raladi. Ishtirokchilarga tayyorgarlik ko'rish uchun 2 daqiqa, javob berish uchun 3 daqiqa vaqt belgilanadi. Mazkur shart uchun 100 ballgacha baho beriladi.

4.2. Tanlovlar jarayonida foydalaniladigan savollar va testlar majmuasi Respublika tashkiliy qo'mitasi tomonidan tanlovning barcha bosqichlari uchun alohida-alohida tuziladi, maxsus konvertlarga solinib. muhrlanadi hamda joylarga yetkaziladi.

4.3. Tanlovning hududiy va respublika bosqichlarida yuqoridagi shartlar mavzusi saqlangan holda, shartlar mazmuni va tartibi teletanlovga moslashtirilgan shaklda o'tkazilishi mumkin. Tanlov shartlaridagi o'zgarishlar bo'yicha ishtirokchilar bellashuvdan kamida 3 kun oldin xabardor qilinadi.

4.4. Tanlovning har bir bosqichida shoir-yozuvchilar, o'qituvchilar, jurnalistlar va boshqa mutaxassislardan iborat Hakamlar hay'atlari tuziladi. Hakamlar hay'ati ishtirokchilarni baxolashda ularning belgilangan kitoblarni o'qiganligini tekshiradi hamda mohiyatini to'g'ri tushungani va ifoda etib bera olish qobiliyatiga qarab baholaydi.

4.5. Tanlov o'tadigan kundan kamida bir oy oldin belgilangan kitoblar ro'yxati e'lon qilinadi hamda kitoblar ro'yxatini tuzishda ishtirokchilarning yosh toifasi inobatga olinadi.

4.6. Barcha shartlar bo'yicha umumiy ballar qo'shib hisoblanganda, eng yuqori ko'rsatkichga erishgan ishtirokchi tanlovning g'olibi deb topiladi. Agar ishtirokchilar o'rtasida umumiy to'plangan ballar teng kelib qolgan taqdirda, I, II va III o'rinlarni taqsimlash Hakamlar hay'ati a'zolari tomonidan hal etiladi. Shuningdek, buyuk alloma, adib va mutafakkirlarimiz merosini chuqur o'rganish maqsadida hamda ularning yubiley sanalari munosabati bilan hamkor tashkilotlar tomonidan muayyan yo'nalishlarda qo'shimcha nominatsiyalar ta'sis

etilishi mumkin. Qo'shimcha nominatsiyalar haqida ma'lumot har yilgi tanlovlar e'lonida ma'lum qilinadi.

4.7. Hakamlar hay'ati tomonidan qabul qilingan qarorga sharh berilmaydi va ushbu qarorni muhokama etishga yo'l qo'yilmaydi.

V. G'oliblarni taqdirlash:

5.1. Tanlov g'oliblari quyidagi tartibda taqdirlanadi:

Tanlovning tuman (shahar) bosqichi g'oliblari: uchta toifada 1-o'rinni egallagan ishtirokchilarning har biri planshet, diplom va Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bosqichiga yo'llanma bilan; uchta toifada 2-o'rinni egallagan ishtirokchilarning har biri uyali telefon va diplom bilan: uchta toifada 3-o'rinni egallagan ishtirokchilarning har biri o'zbek adabiyotining' durdona asarlaridan iborat (20 ta) kitoblar jamlanmasi va diplom bilan.

Tanlovning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bosqichi g'oliblari:

uchta toifada I-o'rinni egallagan ishtirokchilarning har biri noutbuk, diplom va tanlovning respublika bosqichiga yo'llanma bilan;

uchta toifada 2-o'rinni zgallagan ishtirokchilarning har biri planshet va diplom bilan;

uchta toifada 3-o'rinni egallagan ishtirokchilarning har biri o'zbek adabiyotining durdona asarlaridan iborat (50 ta) kitoblar jamlanmasi va diplom bilan;

Tanlovning Respublika bosqichi g'oliblari:

uchta toifada 1-o'rinni egallagan ishtirokchilarning har biri qimmatbaho sovg'alar, diplom va "Yosh kitobxon" statuetkasi bilan;

uchta toifada 2-o'rinni egallagan ishtirokchilarning har biri kompьyuter jamlanmasi (monoblok), printer (1x3), diplom va "Yosh kitobxon" statuetkasi bilan;

uchta toifada 3-o'rinni egallagan ishtirokchilarning har biri o'zbek adabiyotining durdona asarlaridan iborat (200 ta) kitoblar jamlanmasi, diplom va "Yosh kitobxon" statuetkasi;

kolgan barcha respublika bosqichi ishtirokchilarining har biri o'zbek adabiyotining durdona asarlaridan iborat (20 ta) kitoblar jamlanmasi, sertifikat va "Yosh kitobxon" statuetkasi bilan takdirlanadi.

5.2. Tanlovning tuman (shahar) bosqichi g'oliblariga beriladigan diplomlar tuman (shahar) xokimlari tomonidan, tanlovning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bosqichi g'oliblariga beriladigan diplomlar Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar xokimlari tomonidan, tanlovning Respublika bosqichi g'oliblariga beriladigan diplomlar esa O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan imzolanadi.

5.3. Qo'shimcha nominatsiyalar bo'yicha g'oliblar tashkiliy qo'mitalar va xamkor tashkilotchilar tomonidan esdalik sovg'alari bilan takdirlanadi.

VI. Yakuniy qoidalar:

Tanlovni o'tkazish bilan bog'lik sarf-xarajatlar O'zbekiston yoshlar ittifoqi tomonidan moliyalashtiriladi.

6.2. Tanlovni tashkil etish va o'tkazish jarayoniga homiylik mablag'larini jalb etish mumkin.

2-ilova

**"Yosh kitobxon" tanlovining yangi mavsumi uchun saralangan kitoblar ro'yxati (2019-yil**

## 10-14 yosh toifasi uchun adabiyotlar ro'yxati

| № | Kitob nomi | Muallifi | Nashriyoti va chop etilgan yili |
|---|---|---|---|
| 1. | "Alpomish" | Xalq dostoni (Fozil Yo'ldosh o'g'li varianti) | "Yoshlar nashriyot uyi", 2018-yil |
| 2. | "Avazxon" | Xalq dostoni (Rahmatilla Yusuf o'g'li varianti) | "Yozuvchi" nashriyoti, 1997-yil |
| 3. | "Rustamxon" | Xalq dostoni (Fozil Yo'ldosh o'g'li varianti) | "O'zfan" nashriyoti, 1942 -yil |
| 4. | O'zbek xalq ertaklari | Xalq og'zaki ijodi | "Yoshlar nashriyot uyi", 2018-yil |
| 5. | Qaro ko'zim (g'azallar) | Alisher Navoiy | G'.G'ulom nashriyoti, 1988-yil |
| 6. | G'azallar | Zahriddin Muhammad Bobur | |
| 7. | Zarbulmasal | Gulxaniy | "Yoshlar nashriyot uyi", 2018-yil |
| 8. | Kalila va Dimna | Hind xalq eposi | "Yoshlar nashriyot uyi", 2018-yil |
| 9. | Guliston | Sa'diy Sheroziy | "Yoshlar nashriyot uyi", 2018-yil |
| 10. | Juda qiziq voqea (she'rlar va ertaklar) | Anvar Obidjon | "Yulduzcha" nashriyoti, 1987-yil |
| 11. | Cho'l to'rgayi (she'r va doston) | Ibroyim Yusupov | G'.G'ulom nashriyoti, 1972-yil |
| 12. | Cho'pchagim cho'pchak (she'rlar) | Boris Pak | "Cho'lpon" nashriyoti, 2007-yil |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 13. | Qiziquvchan Matmusa | Erkin Vohidov | "Yoshlar nashriyot uyi", 2018-yil |
| 14. | Osmondagi darvoza | Tursunboy Adashboyev | "Sharq" nashriyoti, 2011-yil |
| 15. | Ibn Sino ulashar davo (she'riy o'gitlar) | Po'lat Mo'min | "Abu Ali ibn Sino" nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2003-yil |
| 16. | Senga nima bo'ldi? | Miraziz A'zam | "Yosh gvardiya",1970-yil |
| 17. | Meshpolvon jangga otlandi | Anvar Obidjon | "Yoshlar nashriyot uyi", 2018-yil |
| 18. | Eshitmadim demanglar (she'rlar va ertaklar) | Rauf Tolib | "Yosh gvardiya", 1983-yil |
| 19. | Oygul bilan Baxtiyor | Hamid Olimjon | "Yangi asr avlodi", 2017 -yil |
| 20. | Antifer tog'aning ajoyib va g'aroyib sarguzashtlari | Jyul Vern | "Davr press", 2010-yil |
| 21. | Kapitan Grant bolalari | Jyul Vern | "Sharq", 2016-yil |
| 22. | Pinokioning boshidan kechirganlari | Karlo Kollodi | "Yozuvchi" nashriyoti, 1994-yil |
| 23. | Chipollinoning boshidan kechirganlari | Janni Rodari | "O`qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017-yil |
| 24. | Tom Soerning sarguzashtlari | Mark Tven | "Sharq", 2015 yil |
| 25. | Bilmasvoy bilan do'stlarining boshidan kechirganlari | Nikolay Nosov | "Yangi asr avlodi", 2015-yil |
| 26. | Jelsomino yolg'onchilar mamlakatida | Janni Rodari | "Yangi asr avlodi", 2015-yil |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 27. | Oq kema | Chingiz Aytmatov | "Yoshlar nashriyot uyi", 2018-yil |
| 28. | Sariq devni minib | Xudoyberdi To'xtaboyev | "Yoshlar nashriyot uyi", 2018-yil |
| 29. | Besh bolali yigitcha | Xudoyberdi To'xtaboyev | "Yangi asr avlodi", 2012-yil |
| 30. | Alisa mo'jizalar mamlakatida | Lyuis Keroll | "Yangi asr avlodi", 2016- yil |
| 31. | Cho'ldan topilgan bola | Frensis Bret Gart | G'.G'ulom nashriyoti, 1972-yil |
| 32. | Dyumchaxon | Gans Kristian Andersen | "Yangi asr avlodi", 2016 -yil |
| 33. | Zolushka | Sharl Perro | "Yangi asr avlodi", 2016 -yil |
| 34. | Olov gul | Sergey Aksakov | "Yangi asr avlodi", 2016 -yil |
| 35. | Teddi | Yuriy Kazakov | "Yangi asr avlodi", 2016- yil |
| 36. | To'maris | Mirkarim Osim | "Yoshlar nashriyot uyi", 2018-yil |
| 37. | Bolalik (qissa) | Maksim Gorkiy | "Yosh gvardiya", 1981-yil |
| 38. | Qizimga maktublar | O'lmas Umarbekov | "Sharq" nashriyoti, 1994-yil |
| 39. | Shirin qovunlar mamlakati | Xudoyberdi To'xtaboyev | "Yangi asr avlodi", 2012 -yil |
| 40. | Tush kinoga o'xshaydi (kichik qissalar) | Erkin Usmonov | "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1998-yil |
| 41. | Champo otli ilon (qissalar) | Erkin Malik | "Sharq" nashriyoti, 2006-yil |
| 42. | Dunyoning ishlari | O'tkir Hoshimov | "Yoshlar nashriyot uyi", 2018-yil |
| 43. | Erta qaytgan turnalar (qissa) | Chingiz Aytmatov | "Sharq" nashriyoti, 2006 -yil |
| 44. | Shum bola | G'afur G'ulom | "Yoshlar nashriyot uyi", |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | 2018- yil |
| 45. | G'aroyib bolalar | Aziz Nesin | "Sharq" nashriyoti, 2006- yil |
| 46. | Akam klarnet chalardi | Anatoliy Aleksin | "Yosh gvardiya", 1986-yil |
| 47. | Oq kaptar | Lev Branndt | |
| 48. | Bo'tako'z | Chingiz Aytmatov | "Sharq" nashriyoti, 2009- yil |
| 49. | Sohil bo'ylab chopayotgan olapar | Chingiz Aytmatov | G'.G'ulom nashriyoti, 1984- yil |
| 50. | Alvido, ey, Gulsari | Chingiz Aytmatov | G'.G'ulom nashriyoti, 1968- yil |
| 51. | Kapitan qizi | Pushkin | "Yangi asr avlodi", 2017- yil |
| 52. | Chig'oning siri (qissa va hikoyalar) | Erkin Nosirov | "Yosh gvardiya", 1990-yil |
| 53. | Kish haqida qissa | Jek London | "Yosh gvardiya", 1979-yil |
| 54. | Bolalagim-podsholigim | Nosir Fozilov | "Yulduzcha", 1989-yil |
| 55. | Guliverning sayohatlari | Jonatan Svift | "Yoshlar nashriyot uyi", 2018-yil |
| 56. | Bo'ri bolalarini qanday o'rgatadi (ertaklar, hikoyalar, masallar) | Lev Tolstoy | "Cho'lpon" nashriyoti, 1994-yil |
| 57. | Bolalik xotiralarim | Oybek | "Yoshlar nashriyot uyi", 2018-yil |
| 58. | Maugli | Kipling | "Yangi asr avlodi", 2016-yil |
| 59. | Beg'ubor jilg'alar | Kavsar Turdiyeva | |
| 60. | Robinzonlar maktabi | Jyul Vern | "Yangi asr avlodi", 2016 -yil |

3-ilova

## BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING KITOBXONLIK KO'NIKMALARIGA EGALIKLARI ANIQLOVCHI ANKETA

(respondent o'qituvchilar uchun)

1. Sizningcha, "kitobxonlik" va "kitobxonlik ko'nikmasi" tushunchalari qanday ma'noni anglatadi?
2. Siz qanday fikrdasiz, kitobxonlik ko'nikmasi negizida qanday sifatlar namoyon bo'lishi zarur?
3. Nima deb o'ylaysiz, o'quvchilaringiz kitobxonlik ko'nikmasiga egami?
4. O'quvchilaringizning kitobxonlik ko'nikmasini Siz qanday baholaysiz?
5. Siz qanday fikrdasiz, boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmasini shakllantirishda nimalarga e'tibor qaratish zarur?
6. Sizning fikringizcha, boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitob o'qishga bo'lgan qiziqishni shakllantirishda qanday omil muhim ahamiyat kasb etadi?
7. O'quvchilarning kitobxonlik ko'nikmasiga ega bo'lishlariga e'tibor qaratasizmi?
8. Sizningcha, boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan harakatlaringiz nimalardan iborat bo'ladi?
9. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmasini shakllantirish borasida shaxsiy tajribaga egaman, deb hisoblaysizmi?
10. O'quvchilaringizda kitobxonlik ko'nikmasini shakllantirishda ota-onalar bilan o'zaro hamkorlikka tayanasizmi?

4-ilova

## "O'quvchilarning bolalar she'rlari bo'yicha bilimlarini aniqlash" texnologiyasi uchun tanlangan she'rlar (muallif: T.Adashboyev)

### 1. Do'stlik

Nasibaning olmasi
Tushib ketdi ariqqa.
Tutqich bermay o'ynaydi,
O'xshab oltin baliqqa.

Sodiqjon ko‘rib qolib,
Olmani ushlab berdi.
“Rahmat” aytib Nasiba,
Yarmisin tishlab berdi...

## 2. Turnalar

Uchburchakli xat misol
Parvoz yetar turnalar.
- Arg‘imchog‘in ne uchun
Uzmay ketar turnalar?
- “Arg‘amchiga qil quvvat”
Eldan qolgan naqldir.
Uka, bilsang, turnalar,
Ana shunday ahildir.

## 3. Momaqaymoq

Momaqaymoq, quyosh nuri
Senga ko‘proq oqarmi?
Yo sariq soch o‘zingga
Haddan ortiq yoqarmi?
Bugun ko‘rib tanimay,
Ko‘plar hayron boqardi.
Qani, ayt-chi, soching nega
Bir kechada oqardi.
Ohista qo‘l uzatsam,
Shamol turdi aksiga.
Soching to‘zg‘ib birdaniga
Tushding yelning raqsiga.
“Umrim bekor o‘tmabdi,
Shuning o‘zi qadrli.
Netay, uch kn bo‘lsa-da,
Yashnatdim qir-adirni”.

### 4. Xayrlashmay...

Tolning bargi suvga tushib
Qayiq bo'ldi.
Bu, ayniqsa, chumoliga
Loyiq bo'ldi.
Qo'sh qirg'oqni to'lqin yalab
Ko'kka sapchir.
Eshkakni-ku, o'zi eshar
Chaqqon-abjir.
Teng-to'shlari qoldi gap-so'z
Tayinlashmay.
Chumolivoy jo'nab ketdi
Xayrlashmay...

### 5. Dazmol

- Buvi, nega peshangiz,
Ajin bosib, tirishgan?
Sababini ayting yoki
Xafamisiz bir ishdan?
Bunga Zebi xolaning
Qistab ketdi kulgusi.
– Erkatoyim, bu ajin,
Qarilikning belgisi.
– Haligi-chi, deb Akmal
So'zin bayon etadi.
– Dazmol bosib olsangiz,
Tekis bo'lib ketadi.

## GLOSSARIY

**Akademik litsey** - o'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur, sohalashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo'naltirilgan ta'lim olishlarini ta'minlash maqsadida davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'rta maxsus ta'lim beruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasi.

**Akademiya** - kadrlar tayyorlash va bilimlarning keng sohalari bo'yicha oliy va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim dasturlarini amalga oshirishga imkon beruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasi.

**Amaliy ishlar metodi** – o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantiruvchi usul.

**Anomaliya** (yunoncha – anomal) - me'yordan, umumiy qonuniyatlardan chetlanish, noto'g'ri rivojlanish.

**Anomal bolalarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantiris**- korrektsion pedagogikaning asosiy tushunchasi bo'lib, nuqsonning darajasi va tuzilishiga mos keladigan metod hamda vositalar yordamida anomal bolalarni faol ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlash, ularda fuqarolik sifatlarini shakllantirish.

**Axloq** (lotincha «moralis» - xulq-atvor ma'nosini bildiradi) - ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari yig'indisi

**Axloqiy ong** – shaxga axloqiy me'yorlar va xulq-atvor qoidalari to'g'risidagi nazariy bilimlarni berish asosida hosil qilinuvchi ong shakli.

**Axloqiy tarbiya** – muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan tartib, odob, o'zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o'quvchilar ongiga singdirish asosida ularda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko'nikmalari va axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.

**Aqliy tarbiya** - shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi bilimlarni berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkuri va dunyoqarashini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi

**Baynalminallik** («inter» – orasida, o'rtasida, aro, «natio» – xalq) – o'zga millat va elatlarning haq-huquqlari, erki, urf-odatlari, an'analari, turmush tarzi, tili hamda vijdon erkinligini hurmat qilish, ularning manfaatlariga ziyon yetkazmaslikni ifoda etuvchi shaxsga xos ma'naviy-axloqiy fazilat

**Bakalavriat** - mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta'lim olish muddati kamida to'rt yil davom etadigan tayanch oliy ta'lim

**Bashoratla**- bo'lajak darsni tashkil etilishining turli varianlarini baholash va ulardan qabul qilingan mezonlarga muvofiq eng ma'qulini tanlab olish.

**Baho** – ta'lim oluvchilarga ularning ta'lim olishi, bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan ijodiy yondoshishini rag'batlantirish maqsadida ta'sir ko'rsatish vositasi.

**Bilim** – shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui.

**Bilim olish** – borliqni idrok etish, o'rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko'nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni.

**Bilish** - ob'ektiv borliqning inson ongida aks etish shakli; ilmiy bilimlarni o'zlashtirish jarayoni

**Boshlang'ich ta'lim** - o'quvchilarga murakkab bo'lmagan ilmiy bilimlarni berish asosida ularda o'qish, yozish va hisoblashga oid dastlabki bilim, ko'nikma hamda malakalarni shakllantirish asosida ularda shaxsiy gigiena va sog'lom turmush tarzi elementlarini hosil qilish bosqichi.

**Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi** – boshlang'ich sinflar o'quvchilarini tarbiyalash, ularga ta'lim berish, ularning o'ziga xos psixologik hamda fiziologik xususiyatlarini tadqiq etish, shuningdek, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga yetkazish masalalarini o'rganadi.

**Vatanparvarlik** (lotincha «patriotes» – vatandosh, «patris» – vatan, yurt)- shaxsning o'zi mansub bo'lgan millat, tug'ilib o'sgan vatani tarixidan g'ururlanishi, buguni to'g'risida qayg'urishi hamda uning porloq istiqboliga bo'lgan ishonchini ifoda etuvchi yuksak insoniy fazilat

**Verbal** – bilim (ma'lumot, axborot)larni so'z yordamida (og'zaki) yetkazib berish, ifoda etish.

**Gnoseologiya** (yunon tilidan gnosis – bilim, ong, o'rganish) – bilish, ilmiy bilimlarning shakllanishi, xususiyatlari, qonuniyatlari, uslublari, ilmiy tafakkur shakllari, shuningdek, insonga xos bo'lgan borliqni anglash qobiliyati haqidagi nazariya, ta'limot

**Davlat ta'lim standarti** – 1) ta'lim olish shaklidan qat'iy nazar bitiruvchilar erishishlari zarur bo'lgan ta'lim darajasini belgilovchi asosiy hujjat; 2) o'quv fani bo'yicha ta'limning yakuniy natijalarini belgilovchi asosiy hujjat; 3) ta'lim dasturlari mazmunining minimumi, o'quvchilar tomonidan bajariladigan o'quv ishlarining maksimal hajmi, shuningdek, bitiruvchilarning tayyorgarlik darajalariga qo'yiluvchi talablar.

**Dars** - bevosita o'qituvchi rahbarligida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim jarayonining asosiy shakli.

**Darslik** – muayyan fan bo'yicha ta'lim maqsadi, o'quv dasturi va didaktik talablarga muvofiq belgilangan ilmiy bilimlar to'g'risidagi ma'lumotlarni beruvchi manba.

**Didaktika (ta'lim nazariyasi)** – (yunoncha «didaktikos» "o'rgatuvchi", «didasko» – "o'rganuvchi") - ta'limning nazariy jihatlari (ta'lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati mazmuni, ta'lim maqsadi, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari va hokazo muammolari)ni o'rganuvchi fan.

**Didaktika tamoyillari** - (lotin tilidan «principium» - har qanday nazariyaning asosiy, boshlang'ich, dastlabki holati) – ta'limni tashkil etishga qo'yilgan me'yoriy talablarni ifodalovchi, shuningdek, ta'lim jarayonining asosiy maqsadi va qonuniyatlariga muvofiq uning dastlabki holatini belgilovchi qarashlari

**Didaktik tashhis maqsadi** – o'quv jarayonining samaradorligini aniqlash, baholash va tahlil qilish.

**Didaktik tizim** (yunoncha «systema» – yaxlit, qismlarda tashkil topgan, birlashtirish) – ma'lum mezonlari asosida ta'lim jarayoning yaxlit holatini belgilash, ajratib ko'rsatish.

**Didaktik o'yin** – o'rganilayotgan ob'ekt, hodisa va jarayonlarni modellashtirish asosida o'quvchining bilishga bo'lgan qiziqishi va faollik darajasini rag'batlantiruvchi o'quv faoliyati turi.

**Dunyoqarash** - tabiat, jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e'tiqodlar tizimi

**Jazolash** - tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berish usuli.

**Jamoa** (lotincha «kollektivus» so'zining tarjimasi bo'lib, yig'ilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh kabi ma'nolarni anglatadi) - bir necha a'zo (kishi)lardan iborat bo'lib, ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maqsad asosida tashkil topgan guruh

**Jamoa an'analari** – jamoa a'zolari tomonidan birdek qo'llab-quvvatlanuvchi barqarorlashgan odat.

**Jamoaning norasmiy tuzilmasi**- jamoa a'zolari o'rtasidagi shaxslararo ma'naviy-psixologik munosabatlarning umumiy tizimi, shuningdek, jamoada mikroguruhni tashqil qiluvchi ayrim shaxslar o'rtasidagi tanlash munosabatlarining mazmuni

**Jamoaning rasmiy tuzilishi**- turli ko'rinishdagi jamoa faoliyatini yo'lga qo'yishning tashkiliy jihatlari.

**Jinsiy tarbiya**- o'zida shaxsni jinsiy jihatdan chiniqtirish, ularni tozalik va ozodalikka o'rgatish, o'z sog'ligi uchun g'amxo'rlik qilish va mas'uliyatli bo'lishni ta'minlashga qaratilgan pedagogik faoliyat mazmuni.

**Jismoniy tarbiya** - o'quvchilarda jismoniy va irodaviy sifatlarni shakllantirish, ularni aqliy va jismoniy jihatdan mehnat hamda Vatan mudofaasiga tayyorlashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi.

**Joriy nazorat** – ta'lim jarayonida o'quvchilar tomonidan o'quv dasturida belgilangan muayyan mavzularni o'zlashtirilish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, baholash shakli.

**Idrok** – aniq maqsadga yo'naltirilgan anglash jarayoni.

**Ijtimoiy adaptatsiya** (yunoncha adapto - moslashish) – anomal bolalar individual yoki guruhli xulqlarining ijtimoiy qadriyatlar va xulq-atvor qoidalari tizimiga mos kelishi.

**Ijtimoiylashuv** – ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi asosida shaxsning hayot va ishlab chiqarish jarayoniga moslashuvi.

**Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar**- o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlar, e'tiqod hamda dunyoqarashni shakllantirish maqsadida ularning ongi, his-tuyg'usi va irodasiga ta'sir ko'rsatish usullari

**Izohlash** (tarbiya metodi sifatida) – tarbiyalanuvchiga hissiy-og'zaki ta'sir etish usuli.

**Ilmiy dunyoqarash** - uzluksiz, izchil ravishda mavjud fanlar asoslarini puxta o'zlashtirib borish, ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etish natijasida barqarorlashgan dunyoqarash shakli.

**Ilmiy tafakkur** – inson aqliy faoliyatining yuksak shakli sanalib, ijtimoiy voqea-hodisalar, jarayonlarga nisbatan ilmiy yondashuv.

**Ilmiy qarash** (yunoncha «idea»- g'oya, tasavvur, tushunchalar yig'indisi) - muayyan hodisa, jarayonning mohiyatini yorituvchi, ilmiy jihatdan asoslangan fikr, g'oya.

**Individ** (lotincha "individium" bo'linmas, yagona, alohida degan ma'nolarni anglatadi) independent– xatti-harakatlarini shartli refleks yordamidagina tashkil eta oluvchi biologik mavjudot.

**Individuallik** - shaxsning o'ziga xos xususiyatlari

**Institut** - bilimlarning bitta sohasi doirasida aniq yo'nalishlar bo'yicha oliy va qoidaga ko'ra oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasi.

**Iqtisodiy tarbiya** - o'quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish, ularda iqtisodiy faoliyat (oila byudjetini shakllantirish, xo'jalikni yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko'paytirish, savdo-sotiq munosabatlarini to'g'ri tashkil etish va hokazolar)ni tashkil etish ко`никма ва малакаларини шакллантиришдан иборат педагогик жараён.

**Iqtisodiy ta'lim** - o'quvchilarga xo'jalik yuritish tizimi (oila byudjetini shakllantirish, xo'jalikni yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko'paytirish, savdo-sotiq munosabatlarini to'g'ri tashkil etish va hokazolar) to'g'risidagi nazariy bilimlarni berishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

**Yosh xususiyatlari** - muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik_xususiyatlar.

**Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash** - mutaxassislarning kasb bilimlari va ko'nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtirish maqsadida tashkil etiluvchi ta'lim bosqichi.

**«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»** - «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalariga muvofiq, milliy tajribaning tahlili hamda ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqlol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirish mazmunini belgilab beruvchi yuridik hujjat.

**Kadrlar tayyorlash milliy modeli** - shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarish kabi tarkibiy qismlarning o'zaro hamkorligi, ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik asosida «yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tayyorlash Milliy tizimi» mohiyatini aks ettiruvchi andoza, loyiha Uning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat

**Shaxs** – kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi

**davlat va jamiyat** – ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimi faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlarni tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari;

**uzluksiz ta'lim** – malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimining tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi;

**fan** – yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi;

**ishlab chiqarish** – kadrlarga bo'lgan ehtiyojni, shuningdek, ularning tayyorgalik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilaydigan asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliyaviy va moddiy-texnikaviy jihatdan ta'minlash jarayonining faol ishtirokchisi.

**Kasb-hunar kolleji** - o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantiruvchi, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini yaratish maqsadida tegishli davlat ta'lim standartlari doirasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini beruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasi.

**Kategoriya** - fanning mohiyatini ochib beruvchi eng muhim, asosiy tushuncha.

**Kompensatsiya** (yunoncha «compensatio» – o'rnini to'ldirish, tenglashtirish)- oliy nerv faoliyatining zahira imkoniyatlariga tayangan holda organizmning buzilgan yoki rivojlanmagan funktsiyalarining o'rnini to'ldirish yoki qayta qurish.

**Korrektsiya** (yunoncha «correctiio» - tuzatish)- pedagogik uslub va tadbirlardan iborat maxsus tizimi yordamida anomal bolalarning psixik va jismoniy rivojlanishidagi kamchiliklarini qisman yoki to'liq tuzatish.

**Korreksion (maxsus) pedagogika** (defektologiya - yunoncha «defectus»– nuqson, kamchilik, «logos» – fan, ta'limot) – rivojlanishda jismoniy yoki psixik kamchilikka ega, maxsus, individual tarbiyalash va o'qitish metodlariga asoslangan, salomatlik imkoniyatlari cheklangan bolaning individualligi hamda shaxsini rivojlantirish jarayonini boshqarish mohiyati, qonuniyatlarini o'rganuvchi fan.

**Korreksion-pedagogik faoliyat**- yaxlit ta'lim jarayonini qamrab oluvchi hamda murakkab psixofiziologik va ijtimoiy-pedagogik chora-tadbirlarning amalga oshirilishini nazarda tutuvchi pedagogik tizim.

**Korreksion-tarbiyaviy ishlar** - shaxsning anomal rivojlanishi xususiyatlariga ko'ra umumiy pedagogik ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlari tizimi.

**Ko'nikma** – shaxsning muayyan harakat yoki faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati.

**Ko'rgazmali metodla** - predmet, hodisa yoki jarayonlar mohiyatini tabiiy holatda namoyish qilish, ularning maketlarini ko'rsatishda qo'llaniluvchi usullar.

**Loyihalashtirish (rejalashtirish)** - o'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish dasturini yaratish

**Logopediya** (yunoncha «logos» – so'z, nazariya, ta'limot, «paideia» - tarbiyalash)

- nutqiy nuqsonlarni o'rganish, ular kelib chiqishining oldini olish va ularni qisman yoki to'liq tuzatish masalalarini o'rganuvchi fan; korrektsion pedagogika (defektologiya)ning muhim sohasi.

**Madaniyat** («cultura» so'zidan olingan bo'lib, parvarish qilish, ishlov berish ma'nosini bildiradi) – ijtimoiy taraqqiyot davomida insonlarning faoliyati tufayli qo'lga kiritilib, ularning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi moddiy va ma'naviy boyliklar tizimi

**Mazmun** (ta'lim (bilim olish) mazmuni) – ta'lim jarayonida shaxs tomonidan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma, malaka, fikrlash hamda faoliyat usullari tizimi.

**Maktabdan tashqari ta'lim** - madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda yo'lga qo'yiluvchi, bolalar hamda o'smirlarning ta'limga bo'lgan, yakka tartibdagi, ortib boruvchi talab-ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish maqsadida tashkil etiladigan ta'lim bosqichi.

**Malaka** – muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli.

**Materialni og'zaki bayon qilish metodlari** – o'quv materiali mohiyatini ozg'aki (hikoya, tushuntirish, maktab ma'ruzasi kabi shakllarda) yoritishda qo'llaniluvchi usullar.

**Mafkura** (arabcha «mafkura» - naqtai nazar va e'tiqodlar tizimi, majmui) – jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, shuningdek, ma'naviy-axloqiy yuksaklish, ma'rifiy-tarbiyaviy ishlarning rivojini ta'minlovchi, ularning maqsad va yo'nalishlarini aniqlashda yetakchi o'rin tutuvchi g'oyalar tizimi

**Mashq va o'rgatish (faoliyatda mashqlantirish) metodlari-**_muayyan mashqyordamida bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq va har tomonlama puxta tashkil qilish, ularni axloq me'yorlari va xulq-atvor qoidalarini bajarishga odatlantirish usullari.

**Ma'lumot** – ta'lim-tarbiya natijasida o'zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui.

**Ma'naviyat (arabcha «ma'naviyat» - ma'nolar majmui)** – mohiyatiga ko'ra ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir o'tkazuvchi falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvur, tushuncha va g'oyalar majmui.

**Ma'rifat** – shaxs ongiga ilmiy bilim, axloq qoidalari hamda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy me'yorlarni singdirish, ta'lim-tarbiyani takomillashtirish, milliy meros va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganish, ularni targ'ib etish maqsadida amalga oshiriladigan tadbirlar tizimi

**Ma'ruza** – yirik hajmdagi o'quv materialini og'zaki bayon qilish shakli.

**Menejment** – mavjud minimal imkoniyatlardan maksimal natijalarga erishish uchun shaxs (xodim) yoki guruhga ta'sir o'tkazish asosida ularning faoliyatini tashkil etish tamoyillari, shakllari, metodlari va usullari.

**Metod** - yunoncha tarjimasi «tadqiqot, usul, maqsadga erishish yo'li» kabi ma'nolarni anglatadi.

**Metodika** (fan sifatida)– xususiy fanlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi.

**Mehnat tarbiyasi** - shaxsga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat, shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydali harakat yoki kasbiy ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni; ijtimoiy tarbiyaning tarkibiy qismi

**Munozara** (tarbiya metodi sifatida) - tarbiyalanuvchilarga hissiy-og‘zaki ta’sir ko‘rsatish asosida ularda ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan bahs-munozara usuli

**Nazorat** (ta’lim jarayonida)– ta’lim oluvchining bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini aniqlash, o‘lchash va baholash jarayoni

**Nafosat didi** - shaxsning buyum yoki hodisaga nisbatan munosabat bildirish turi, ob’ektiv nafosat o‘lchovi

**Nafosat madaniyati** - go‘zallikni his etish, undan zavqlanish, mavjud go‘zalliklarni asrash va boyitish yo‘lida o‘zlashtirilgan bilim hamda amalga oshiriladigan nafosat faoliyatini tashkil etish darajasining sifat ko‘rsatkichi.

**Nafosat ongi** - go‘zallik, go‘zallikni his etish, uning mohiyatini anglash, nafosat his-tuyg‘usi, nafosat didi kabi tushunchalarning ongda aks etishi.

**Nafosat tarbiyasi** (estetik tarbiya- lotincha «estezio» go‘zallikni his qilaman) - o‘quvchilarni voqelik, tabiat, ijtimoiy va mehnat munosabatlari va turmush go‘zalliklarini anglash, idrok etish va to‘g‘ri tushunishga o‘rgatish, . ularning badiiy didini o‘stirish, ularda go‘zallikka muhabbat uyg‘otish, ular tomonidan go‘zallikni yaratish qobiliyatlarini tarbiyalashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.

**Oila** – kishilarning nikoh yoki qon-qarindoshlik rishtalari, umumiy turmush tarzi, axloqiy mas'uliyat hamda o'zaro yordamga asoslanuvchi kichik guruhi.

**Oilaviy munosabatlar** – ota-onalar (yoki bolaning kamoloti uchun mas'ul bo'lgan shaxslar) hamda farzandlar o'rtasida turli yo'nalishlarda tashkil etiluvchi munosabatlar.

**Oila tarbiyasi** – ota-onalar (yoki bola kamoloti uchun mas'ul shaxslar) tomonidan tashkil etiluvchi hamda farzandlarni har tomonlama yetuk, sog'lom etib tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

**Pedagogika** (yunoncha «paidagogike» bo'lib, «paidagogos» - bola, yetaklayman) – ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta'lim berishning mohiyati va muammolarini o'rganadigan fan.

**Pedagogika tarixi** – ta'lim va tarbiyaning yuzaga kelishi, taraqqiy etishi, muayyan tarixiy davrlarda yetakchi o'rin egallagan pedagogik fikrlar taraqqiyoti masalalarini o'rganadi

**Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari** – shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo'nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berish tamoyillari, ob'ektiv va sub'ektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullari.

**Pedagogik mahorat** – bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy mahoratlarini oshirish, takomillashtirish muammolarini o'rganadi.

**Pedagogik paradigma** - (yunoncha «paradeigma» - misol, namuna) – pedagogika fani rivojining ma'lum bosqichida ta'limiy va tarbiyaviy muammolarni hal etish namunasi (modeli, standarti) sifatida ilmiy pedagogik hamjamiyat tomonidan e'tirof etilgan nazariy hamda metodologik ko'rsatmalar to'plami; ta'limning kontseptual modeli

**Pedagogik talab** - turli xatti-harakatlarni bajarish hamda faoliyatda ishtirok etish jarayonida o'quvchi tomonidan amal qilinishi zarur bo'lgan ijtimoiy xulq-atvor me'yorlari.

**Pedagogik texnologiya**– ta'lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, texnologik yondashuv asosida ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o'rganadi.

**Pedagog kadrlar tarkibi** – o'qituvchi, metodist, tarbiyachi, psixolog, defektolog, logoped, sport instruktori, musiqa, badiiy ijodiyot, radiotexnika, sport va boshqa yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatuvchi to'garaklarning rahbarlaridan iborat mutaxassislar.

**Pedagogik mahorat** – ta'lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo'llay olish qobiliyati, yuksak pedagogik tafakkur.

**Pedagogik talab** - turli harakatlarni bajarish, muayyan faoliyat jarayonida ishtirok etishda o'quvchi amal qilishi zarur bo'lgan ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarini ifodalovchi vazifa; tarbiyaning eng muhim usuli.

**Rag'batlantirish** - tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko'ngilini ko'tarish va uni qo'llab-quvvatlash usuli.

**Rivojlanish** – shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon

**Reyting** (baholash, tartibga keltirish, klassifikatsiyalash) - muayyan hodisani oldindan belgilangan shkala bo'yicha baholash

**Sinf** - yoshi va bilimi jihatidan bir xil bo'lgan, ma'lum o'quvchilar guruhi

**Surdopedagogika** (yunoncha «surdus» – kar) - eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash jarayonini o'rganuvchi fan; korrektsion (maxsus) pedagogikaning yana bir muhim sohasi.

**Suhbat** – savol va javob shaklidagi dialogik ta'lim metodi.

**Tamoyil** (yunoncha «principium») – biror-bir nazariyaning asosi, negizi, asosiy boshlang'ich qoidasi; boshqaruvchi g'oya, faoliyatning asosiy qoidasi; umumlashtirilgan talab.

**Tarbiya** – muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

**Tarbiya jarayoni** - o'qituvchi va o'quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan samarali hamkorlik jarayoni.

**Tarbiya mazmuni** - shaxsning shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyati.

**Tarbiya metodi** (yunoncha «metodos» – yo'l) – tarbiya maqsadiga erishish yo'li; tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va xulqiga ta'sir etish usullari.

**Tarbiya nazariyasi** – pedagogikaning muhim tarkibiy qismi; tarbiyaviy jarayon mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari hamda uni tashkil etish muammolarini o'rganadi.

**Tafakkur** (ijtimoiy voqea-hodisalarning ongda to'laqonli aks etishi, inson aqliy faoliyatining yuksak shakli)

**Tashhis** –didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash.

**Ta'lim** – o'quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan jarayon.

**Ta'lim va tarbiya mazmuni** – shaxsning aqliy va jismoniy qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish, dunyoqarashi, odobi, xulqi, ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlik darajasini shakllantirish jarayonining mohiyati.

**Ta'lim vositalari** – ta'lim samaradorligini ta'minlovchi ob'ektiv (darslik, o'quv qo'llanmalari, o'quv qurollari, xarita, diagramma, plakat, rasm, chizma, dioproektor, magnitafon, videomagnitafon, uskuna, televizor, radio, kompьyuter va boshqalar) va sub'ektiv (o'qituvchining nutqi, namunasi, muayyan shaxs hayoti va faoliyatiga oid misollar va hokazolar) omillar.

**Ta'lim jarayoni** – o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

**Ta'lim menejeri** – ta'lim muassasasi faoliyatini zamonaviy menejment qonuniyatlariga muvofiq boshqaruvchi mutaxassis.

**Ta'lim metodlari** – ta'lim jarayonidaqo'llanilib, uning samarasini ta'minlovchi usullar majmui.

**Ta'lim muassasi Ustavi** – ta'lim muassasasiga rahbarlik mohiyatini yorituvchi hamda uning faoliyatini boshqarish tizimini aniqlovchi hujjat.

**Ta'lim kontseptsiyalari** (lotin tilidan «conceptio» –tizim) – ta'lim-tarbiya mazmuni, istiqbolini yorituvchi yaxlit qarashlar tizimi; uzluksiz ta'lim tizimining turli bosqichlarida ta'lim muassasalari faoliyati yo'nalishi, maqsad va vazifalarini belgilashning alohida usuli.

**Ta'lim mazmuni** – davlat ta'lim standartlari asosida belgilab berilgan hamda ma'lum sharoitda muayyan fanlar bo'yicha o'zlashtirilishi nazarda tutilgan ilmiy bilimlar mohiyati

**Ta'lim maqsadi** (o'qish, bilim olish maqsadi) – ta'limning aniq yo'nalishini belgilab beruvchi yetakchi g'oya.

**Ta'lim natijasi (ta'lim mahsuli)** – ta'lim yakunining mohiyatini qayd etuvchi tushuncha; o'quv jarayonining oqibati; belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi

**Ta'limni boshqarish** – ta'lim muassasalarining faoliyatini yo'lga qo'yish, boshqarish, nazorat qilish hamda istiqbollarini belgilash masalalarini o'rganadi.

**Ta'limning sinf-dars tizimi** - dars shaklida muayyan o'quvchilar guruhi bilan o'quv rejasiga muvofiq tuzilgan aniq jadval bo'yicha olib boriladigan ta'lim jarayoni.

**Ta'lim tizimi** – davlat siyosatining asosiy tamoyillari asosida yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish yo'lida faoliyat yurituvchi barcha turdagi ta'lim muassasalari majmui.

**Ta'lim shakli** – ta'lim jarayonining tashkiliy tuzilmasi.

**Tizim** (mustaqil tushuncha sifatida) - o'zaro bog'langan ko'plab elementlar (tarkibiy qismlar) o'rtasidagi mustahkam birlik va o'zaro yaxlitlik.

**Tiflopedagogika** - (yunoncha typhlos – ko'r) – ko'rish qobiliyati buzilgan bolalami o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish muammolarini o'rganuvchi fan; korrektsion pedagogika (defektologiya)ning muhim sohasi.

**Test** - aniq maqsad asosida muayyan holat darajasini sifat va miqdoriy ko'rsatkichlarda belgilashga imkon beruvchi sinov vositasi.

**Topshiriq** - o'quvchilarda mehnat, ijtimoiy xulq va hayotiy tajriba ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida qo'llaniladigan usul

**Tushuntirish** - o'quv materiali mazmunini isbot, tahlil, umumlashma, taqqoslash asosida bayon qilish.

**To'garak** - o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida sinfdan yoki maktabdan tashqari sharoitda uyushtiriluvchi qo'shimcha ta'lim shakli.

**Umumiy pedagogika** – maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish masalalarini o'rganadi.

**Umumiy o'rta ta'lim** - o'quvchilarning fan asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlarini, ularda bilim o'zlashtirish ehtiyojini, asosiy o'quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarni, mehnat ko'nikmalarini, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lishni va kasb tanlash ko'nikmalarini shakllantirish bosqichi.

**Universitet** - kadrlar tayyorlash va bilimlarning keng sohalari bo'yicha oliy va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasi.

**Usul** - muayyan o'quv materialini o'zlashtirishda qo'llanilayotgan asosiy ta'lim metodi bilan birga ikkinchi bir ta'lim metodining ayrim elementlaridan foydalanish

**Faoliyat** - shaxs tomonidan tabiiy va ijtimoiy maqsadga muvofiq tashkil etiluvchi kundalik, ijtimoiy yoki kasbiy harakatlarning muayyan shakli. ko'rinishi.

**Fuqaro** – fuqaroligi huquqiy jihatdan e'tirof etilgan hamda muayyan jamiyat (davlat) a'zosi bo'lgan shaxs.

**Fuqarolik** – huquqiy va axloqiy me'yorlarga ongli rioya etish, ma'lum huquqlardan foydalanish hamda burchlarni bajarishga mas'ullik bilan yondoshuv, mehnat jarayoni va jamoadagi faollik, ma'naviy yetuklik asosida muayyan davlatga mansublik.

**Fuqarolik tarbiyasi** – fuqarolik tushunchasining mohiyatini anglatish orqali o'quvchilarda yuksak darajadagi fuqarolik madaniyatini shakllantirish, ularni xalq, Vatan, jamiyat uchun fidoiy fuqarolar etib tarbiyalashdan iborat

**Shaxs** - psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi.

**Shaxsni ijtimoiylashtirish** - uni jamiyat tomonidan tan olingan xulq-atvor me'yorlari, bilim hamda qadriyatlar tizimini o'zlashtirishdan iborat ijtimoiy hayotga jalb etish jarayoni.

**Shkalalash** - aniq jarayonlarni raqamlar tizimi yordamida modellashtirish.

**Ekologik madaniyat** - o'quvchining ijtimoiy talablarga muvofiq tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish qobiliyati.

**Ekologik ong** - tabiat va atrof-muhitning mavjud holati, ularni muhofaza etish borasidagi tushunchalarning ongdagi ifodasi.

**Ekologik madaniyat** - o'quvchining ijtimoiy talablarga muvofiq tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish qobiliyati.

**Ekologik tarbiya** - o'quvchilarga dastlabki ekologik bilimlarni berish, ularning mavjud ekologik bilimlarini boyitish, ularda tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayon.

**Ekologik ta'lim** - o'quvchiga aniq maqsadga muvofiq, izchil, tizimli va uzluksiz ravishda nazariy ekologik bilimlarni berishga yo'naltirilgan ta'limiy jarayon.

**Ekologik faoliyat** - ekologik bilimlarga tayanilgan holda tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan xatti-harakatlar majmui.

**Estetik tarbiya** - o'quvchilarni tabiat, ijtimoiy va mehnat munosabatlari, turmush go'zalligini idrok etish, to'g'ri tushunishga o'rgatish, ularning badiiy didini o'stirish, ularda go'zallikka muhabbat uyg'otish va hayotiga go'zallik olib kirish qobiliyatini tarbiyalash jarayoni; ijtimoiy tarbiyaning tarkibiy qismi.

**E'tiqod** - dunyoqarash negizida aks etuvchi ijtimoiy- falsafiy, huquqiy, ma`naviy-axloqiy, estetik iqtisodiy, hamda ekologik bilimlarning takomillashgan ko'rinishi; muayyan g'oyaga cheksiz ishonch.

**Yakuniy nazorat** – ta'lim oluvchilarning chorak yoki yarim yillik uchun belgilangan o'quv materiallari bo'yicha o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, baholash shakli

**O'z-o'zini baholash** - mavjud fazilatlari, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish asosida o'z shaxsiga baho berishga yo'naltirilgan faoliyat usuli.

**O'z-o'zini tarbiyalash metodlari** - o'quvchilarning o'zini o'zi idora qilishlari, turli o'quvchilar organlari faoliyatida faol ishtirok etishlarini ta'minlash, ularning ijtimoiy mavqelarini oshirish maqsadida qo'llaniluvchi usullar.

**O'z-o'zini tahlil (nazorat) qilish** - o'z shaxsi, mavjud fazilatlari, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish, mavjud sifatlarni boyitish yoki salbiy odatlarni bartaraf etishga qaratilgan faoliyat usuli.

**O'z-o'zini qayta tarbiyalash** – shaxsning o'zidagi salbiy odatlar, xarakteridagi zararli sifatlarni yo'qotish, ularni bartaraf etishga qaratilgan ichki faoliyati jarayoni.

**O'zlashtirish** –ta'lim jarayonida ustuvor o'rin tutuvchi ijtimoiy talablarga muvofiq shaxs tomonidan muayyan xatti-harakat va xulq usullarining egallanishi.

**O'rgatish** - tarbiyalanuvchilar ijtimoiy xulq-atvor ko'nikmalari, odatlarini shakllantirish maqsadida rejali va izchil tashkil qilinadigan turli harakatlar, amaliy ishlar.

**O'qituvchi (pedagog)** – pedagogik, psixologik va mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha maxsus ma'lumot, kasbiy tayyorgarlik va ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega hamda ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxs.

**O'qish** – ma'lum usullar yordamida tashkil etilgan bilimlarni o'rganish jarayoni; o'quvchilar tomonidan o'quv faoliyati usullarini egallab olishga yo'naltirilgan faoliyat.

**O'quv dasturi** – muayyan o'quv fani bo'yicha bilim. ko'nikma va malakalar mazmuni, umumiy vaqtning mavzularni o'rganilishi bo'yicha taqsimlanishi, mavzularning ketma-ketligini belgilash hamda ularning o'rganilish darajasini yorituvchi me'yoriy hujjat.

**O'quv rejasi** – ta'lim muassasida o'qitiladigan o'quv fanlarining tartibi, ularning o'quv yili bo'yicha taqsimlanishi, har bir o'quv faniga ajratiladigan haftalik va yillik o'quv soatlari, shuningdek, o'quv yili tuzilishini belgilovchi me'yoriy hujjat.

**O'quv fani** – ta'lim muassasalarida o'quvchilarning yosh, idrok etish imkoniyatlariga muvofiq ularga muayyan fan sohasi bo'yicha umumiy yoki mutaxassislik bilimlarini berish, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni ta'minlovchi manba.

**O'quvchilar jamoasi** – ijtimoiy-foydali ahamiyat kasb etuvchi umumiy maqsad va birgalikdagi faoliyatga asosan jipslashgan o'quvchilar birlashmasi, guruhi.

**O'quvchilarning o'z-o'zini boshqarishi** - o'quvchilarning jamoa faoliyatini uyushtirish va boshqarishdagi faol ishtiroklari.

**O'quv qo'llanmasi** – 1) ma'lum o'quv fanlari bo'yicha metodik materiallar, tushuntirishlar, tavsiyalarni yorituvchi hamda o'qituvchi yoki o'quvchilar uchun mo'ljallangan manba; 2) muayyan fan bo'yicha tayyorlangan hamda metodik jihatidan o'quv-tarbiyaviy jarayonda bevosita foydalanish imkonini beruvchi qo'shimcha o'quv materiallari.

**Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi** - yoshlarni vatan himoyasi hamda harbiy mudofaaga tayyorlash, ularda favqulotda holatlarda harbiy mudofaani tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

**Hikoya** – o'qituvchi tomonidan mavzuga oid dalil, hodisa va voqealarning yaxlit yoki qismlarga bo'lib, tasviriy vositalar yordamida obrazli tasvirlash yo'li bilan ixcham, qisqa va izchil bayon qilinishi.

**Hisobga olish** – ta'limning muayyan davrida o'quvchilar va o'qituvchi faoliyatini umumlashtirish, xulosalash.

**Huquqiy madaniyat** – shaxs tomonidan huquqiy bilimlarning o'zlashtirilishi hamda huquqiy faoliyatni tashkil etish darajasining sifat ko'rsatkichi.

**Huquqiy ong** - muayyan jamiyatning moddiy hayot tarzi bilan belgilanadigan tasavvur, idrok, tafakkur va e'tiqodlar tizimi bo'lib, ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida murakkab tuzilishga ega.

**Huquqiy tarbiya** - shaxs tomonidan o'zlashtirilgan nazariy-huquqiy bilimlar negizida huquqiy faoliyatni tashkil etish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, unda ijobiy huquqiy sifatlarni qaror toptirish va huquqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

**Huquqiy ta'lim** - o'quvchilarga huquqiy me'yorlar, qonunlar hamda ijtimoiy-huquqiy munosabatlar mohiyati to'g'risidagi tizimlangan bilimlarni berish, ularda huquqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, huquqiy ongni shakllantirish jarayoni

**Huquqiy faoliyat** - huquqiy me'yorlar, qonunlar talablariga nisbatan ongli yondashish, ularga qat'iy va og'ishmay amal qilish, qonunlarni hurmat qilish, ularni shaxs erkini himoya qilish kafolati sifatida e'tirof etish, huquqiy munosabatlar jarayonidagi faol ishtirokni tashkil etishga yo'naltirilgan amaliy xatti–harakatlar majmui.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI


1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo`limizni qat`iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko`taramiz. – T.: "O`zbekiston", NMIU, 2017. – 592 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz // O`zR Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag`ishlangan Oliy Majlis palatalari qo`shma majlisidagi nutq. – T.: O`zbekiston, 2016. – 56 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta`minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: "O`zbekiston" nashriyoti, 2017. – 24-byu
4. O`zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" //Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1997. – 31-61-b.
5. O`zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O`zbekiston, 2014. – 48 b.
6. O`zbekiston Respublikasining "Ta`lim to`g`risida"gi Qonuni //Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1997. – 20-29-b.
7. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ`ib qilish bo`yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to`g`risida"gi (2017 yil 13 sentyabr) Qarori //lex.uz/docs/3338600.
8. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ`ibot qilish bo`yicha komissiya tuzish to`g`risida"gi Farmoyishi // http://uza.uz/oz/documents/kitob-masulotlarini-chop-etish-va-tar-atish-tizimini-rivozh-12-01-2017.
9. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha Harakatlar strategiyasi

to`g`risida»gi (2017 yil 7 fevral) Farmoni // http://lex.uz/pages/getpage.aspx?lact_idq3107036#3109146.

10. Abakumova S.I. Tvorcheskoe chtenie. Opo`t metodiki chteniya xudojestvenno`x proizvedeniy v shkolax nachalnogo tipa. – Brokgauz-Efron: Efron, 2008. – S. 92.

11. Abdulazizov A. O`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi o`quv yurtlarida shaxs mutolaa sub`ekti sifatida // Fan, ta'lim, madaniyat va biznes sohalarida internet va kutubxona-axborot resurslaridan foydalanish: "Central Asia-2008" konferensiya materiallari. – Farg'ona: FarDU, 2008. – 300-304-b.

12. Авдеева А.В., Молькова М.В. Формирование читательской компетенции младших школьников // Ж. Молодой ученый. – Казань: 2015. - №22. – С. 44-46.

13. Агапова И., Давыдова М. Литературные игры для детей. – М.: "Лада", 2011. – 165 с.

14. Актуальные проблемы детского чтения и подготовки педагогов-библиотекарей / Сборник мат. междунар. научно-практ. конф. Науч. ред.: Г.А.Иванова, А.С.Матвеева. – М.: МГУКИ, 2013. – 167 с.

15. Акулова О.В., Гуревич Л.М. Чтение художественной литературы. – М.: Изд-во "Детство-Пресс", 2012. – 192 с.

16. Беленькая Л.И. Ребенок и книга / О читателе восьми-девяти лет. – М.: ВЦХТ, 2005. – 144 с.

17. Библиотерапия: задачи, подходы, методики / Сб.статей. Сост. О.Л.Кабачек. М.:БМЦ, 2001. – 128 с.

18. Библиотечная энциклопедия. – М.: Изд-во РГБ "Пашков дом", 2007. – 1300 с.

19. Большой психологический словарь / Под ред. Б.Мещерякова, В.Зинченко. – СПб.: Прайм-Еврознак, 2003. – 666 с.

20. Бондаренко Г.И. Развитие умений смыслового чтения в начальной школе // Ж. Начальная школа плюс: до и после. – М.: 2012. - №1. – С. 1-3.

21. Бородина В. А. Культура чтения – универсум развития личности и модернизация образования // Культура чтения в

контексте модернизации Российской школы: материалы Второй науч.-практ. конф. – СПб.: 2003. – С. 7-9.

22. Бунеева Е.В., Чиндилова О.В. Технология работы с текстом в начальной школе и 5-6 классах (технология формирования типа правильной читательской деятельности) // Образовательные технологии. Сборник материалов. – М.: Баласс, 2008. – С. 77.

23. Васюкова, Н. Е., Алиева, Т. И. Художественная литература для детей 5-7 лет / Мет.пособие. – М.: Изд-во "ТЦ Сфера", 2015. – 224 с.

24. Воропаев А.Н., Столяров А.А. Читатель и книга. Проблемы чтения в развитых зарубежных странах // Проблемы полиграфии и издательского дела. – М.: 2005. – № 4. – С. 89-99.

25. Воспитание детей в школе: Новые подходы и новые технологии / Под ред. Н.Е.Щурковой. – М.: Новая школа, 2010. – 303 с.

26. Вьюшкова Л.Н. Развитие чувства юмора при обучении школьников чтению // Ж. Русский язык в школе. – 1996. - №5. – С. 21-28.

27. Гаппоева Л.А. Педагогические условия подготовки студентов университета – будущих учителей к формированию читательской культуры младших школьников / Монография. – М.: Директ-Медиа, 2014. – 160 с.

28. Гербова В.В. Приобщение детей к художественной литературе / Учеб.пособие. – М.: Мозаика-Синтез, 2008. – 80 с.

29. Граник, Г.Г., Бондаренко С.М., Концевая Л.А. Как учить работать с книгой. – М.: Мой учебник, 2007. – 256 с.

30. Григорьева Е.Ю. Развитие у учащихся интереса к чтению // Молодой ученый. – Чита: 2011. - №7. Т.2. – С. 86-90.

31. Гриценко З.А. Положи твое сердце у чтения / Пособ. для родителей по орг. чтения дошкольникам. 2-е изд. – М.: Просвещение: РОСМЭН, 2004. – 77 с.

32. Гриценко З.А. Пришли мне чтения доброго / Пособ. для чтения и рассказывания детям седьмого года жизни (с метод. реком. – М.: Просвещение, 2003. – 93 с.

33. Гриценко З.А. Ребенок и книга // Ж. Дошкольное воспитание. – 2000. – № 3. – С. 49-52.

34. Голубева Е.И. Поддержка семейного чтения – общая задача специалистов // Недетские проблемы детского чтения. – М.: Российская детская библиотека, 2002. – С. 20-23.

35. Гроф С. Области человеческого бессознательного. – М. : Изд-во Трансперсонального Института, 1997. – 457 с

36. Гурович Л.М. Ребенок и книга / Пособие для воспитателя детского сада. – 3-е изд. – М.: Изд-во “Детство-Пресс”, 2007. – 128 с.

37. Гусев Д.А. Народное творчество как средство развития духовно-нравственных ценностей в дошкольном и младшем школьном детстве в условиях села // Ж. Детский сад от А до Я. – М.: 2015. - № 3. – С. 34-40.

38. Гусев Д.А. Педагогический потенциал народного творчества в контексте исторического анализа развития образовательных учреждений на селе // Ж. Гуманитарные науки и образование. – М.: 2015. - № 1 (21). – С. 44-47.

39. Денисова С.А. Родители о детском чтении и роли библиотек // Ж. Родительское собрание по детскому чтению. – 2008. – С. 30-32.

40. Детство / Примерная образ.программа дошкольного образования / Т.И.Бабаева и др. – СПб.: ООО Изд-во “Детство-Пресс”, 2014. – 321 с.

41. Диагностика эмоционально-нравственного развития / Ред. и сост. И.Б.Дерманова. – СПб.: Юность, 2002. – С. 114.

42. Дитрих А.К. Почемучка: детское справочное бюро / Для совместного чтения родителей с детьми – М.: ООО “Издательство Астрель”, 2002. – 348 с.

43. Добрынина Н.Е. В мир книг до рождения: когда учить ребенка читать // Ж. Книжное обозрение. – М.: 2000. - №16. – С. 4.

44. Добрынина Н.Е. По ступенькам культуры чтения // Ж. Библиотековедение. – М.: 2000. - №3. – С. 52-57.

45. Добрынина Н.Е. Черты духовной общности: рус. худож. лит. в чтении многонац. сов. читателя. – М.: Книга, 1983. – 112 с.

46. Дубин Б.В., Зоркая Н. А. Чтение и общество в России 2000-х годов // Ж. Вестник общественного мнения. – М.: 2008. – № 6. – С. 30-53.

47. Дунаева Н.О значении художественной литературы в формировании личности ребёнка // Ж. Дошкольное воспитание. – М.: 2007. – № 6. – С. 35-39.

48. "Yosh kitobxon" tanlovining yangi mavsumi uchun saralangan kitoblar ro`yxati e`lon qilindi //https://kun.uz/news/2019/02/01/yosh-kitobxon-tanlovining-yangi-mavsumi-uchun-saralangan-kitoblar-royxati-elon-qilindi.

49. Жесткова Е.А., Клычёва А.С. Духовно-нравственное развитие младших школьников на уроках литературного чтения посредством русской народной сказки // Ж. Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. – М.: 2015. - №1(1). – С. 126-129.

50. Жесткова Е.А. Мир детства в творческом сознании и художественной практике В.И.Даля // Ж. Филологические науки. Вопросы теории и практики. – М.: 2014. № 4-3 (34). – С. 70-74.

51. Жесткова Е.А., Цуцкова Е.В. Внеклассная работа по литературному чтению как средство развития читательских интересов младших школьников // Ж. Современные проблемы науки и образования. – М.: 2014. - №6. – С. 1330.

52. Збаровская Н.В. Информационная культура личности // Ж. Библиотечное дело. – М.: 2005. - №1. – С. 7-8.

53. Збаровская Н.В. Формирование культуры чтения в общедоступных библиотеках: Дисс…канд.пед.наук. – СПб.: 1997. – С. 156.

54. Здравомыслов А.Г. Потребности, интересы, ценности. – М.: Изд-во Политиздат, 1999. – 563 с.

55. Ибрат. Ажзий. Со`физода. – Т.: Шарq, 1999. – 38 б.

56. Иванова Г.А., Тихомирова И.И. Психология чтения школьников /Учеб.-мет.пособ.для педагогов-библиотекарей. – М.: РШБА, 2016. – С. 74/

57. Из детства – в творчество / Программа для родителей и воспитателей по формированию здоровья и развитию детей от 1 года до 7 лет. Т.Н.Доронова и др. – М.: Просвещение, 2007. – 303 с.

58. Илдаркина Е.В. Библиотечные уроки: Обучение школьников основам библиотечно-библиографических знаний / Мет.пособие. Вып 1: 1-11 кл /Сост. Е.В. Илдаркина. – 2-е изд. – М.: Глобус, 2007. – 217 с.

59. Ипполитова Н.А. Обучение школьников разным видам чтения. Ознакомительное чтение // Ж. Русский язык в школе. – М.: 1998. - №2. – С. 9-14.

60. Ипполитова Н.А. Развитие речи школьников в процессе обучения чтению // Ж. Русский язык в школе. – 1997. - №1. – С. 11-19.

61. Истоки / Примерная образовательная программа дошкольного образования. Т.И.Алиева и др. Под ред. М.Н.Лазутова. – 5-е изд. – М.: ТЦ Сфера, 2014. – 161 с.

62. Yo`ldosheva E. Xazinalar maskani // Muloqot j. – T.: 2001. - № 6. – 29-30-b.

63. Yo`ldoshev E. Kutubxona va yosh kitobxon. – T.: O`zbekiston, 2003. – 298 b.

64. Yo`ldoshev E. Kutubxonada bolalar o`qishiga rahbarlik qilish / O`quv qo`ll. – T.: O`zbekiston, 2002. – 128 b

65. Как проектировать универсальные учебные действия в начальной школе: от действия к мысли: пособие для учителя / Под ред. А.Г.Асмолова. – М.: Просвещение, 2011. – С. 152.

66. Kitob komillikka yetaklaydi / Metodik-bibliografik qo`ll. Tuzuvchi M.Boltaboyeva. Muharrir Sh.Qurbon. – T.: A.Navoiy nomidagi O`zbekiston milliy kutubxonasi, 2017. – 78 b.

67. Колесникова Е. В. Развитие интереса и способностей к чтению у детей 6-7 лет / Учеб.-мет.пособие. 3-е изд., перераб. – М.: Изд-во “Ювента”, 2016. – 64 с.

68. Колпащикова Ю.С., Рожина В.А. Как развивать интерес к чтению у младшего школьника? // Научно-мет.элек. ж. «Концепт». – М.: 2017. – Т. 29. – С. 104-109.

69. Куно К. Чтение во Франции. – М.: Рудомино, 1992. – 21 с.

70. Курочкина М. Методы развития творческих способностей младших школьников // Ж. Воспитание школьников. – М.: 2009. - № 4. – С. 48-51.

71. Леонтьев А.А. Язык и речевая деятельность в общей и педагогической психологии. – М.: Изд-во МПСИ, 2004. – С. 471.

72. Леонтьев А.Н. Психологические основы развития ребенка и обучения. – М.: Смысл, 2009. – С. 119-185.

73. Леонтьев Д.А. Методика изучения ценностьных ориентации. – М.: Смысл, 1992. – 17 с.

74. Ливанова О.А. Учимся читать художественную литературу. – М.: Школьная пресса, 2004. – 80 с.

75. Машриq замин – hикмат бо`стони. – Т.: Шарq, 1997. 39-б.

76. Методика обучения литературе в начальной школе / Учебник для студ. высш. учеб.заведений. Под ред. М.П.Воюшиной. – М.: Издат.центр “Академия”, 2010. – 288 с.

77. Мокина М. Чтение – основа грамотности // Ж. Этносфера. – М.: 2008. – № 12. – С. 21-22.

78. Морозова Н.Г. Учителю о познавательном интересе. – М.: Сфера, 2007. –110 с.

79. Мосунова Л.А. О теоретических основах развития полноценного восприятия художественной литературы // Ж. Вестник Вятского государственного гуманитарного университета. – Вятск: 2009. - №1. – С. 136-141.

80. Набатова М. Б. Чтение и читательские интересы в исследованиях 90-х годов // Ж. Мир библиотек сегодня. – М.: 1995. – Вып. 2. – С. 13-21.

81. Необутова Н.Л. Формирование читательской культуры на уроках литературы в 5-6 классах: Дис...канд.пед.наук. – Якутск: 2000. – 187.

82. Нечаев А.П. Психологические основы разных типов процесса чтения у детей // Хрестоматия по возрастной и педагогической психологии. – М.: Изд-во МГУ, 2000. – С. 8-11.

83. Пантюхова Т.В. Читательская культура в обществе коммуникаций // Ж. Библиотековедение. – М.: 2008. - №3. – С. 61-64.

84. Перова Г.М. Проверочные работы по чтению в начальных классах. – М.: АРКТИ, 2006. – 127 с.

85. Петровский, А. В. Общая психология / Учеб. для студ.пед. ин-тов. – 2-е изд., доп. и перераб. – М.: Просвещение, 1996. – С. 195.

86. Поддержка и развитие чтения: тенденции и проблемы: по итогам пяти лет реализации национальной программы поддержки и развития чтения в России / Сборник статей. – М.: Межрегиональный центр библиотечного сотрудничества, 2011. – 216 с.

87. Посашкова Е.В. Формирование читательской культуры младших школьников на уроках внеклассного чтения (на материале авторской программы по внеклассному чтению) // Ж. Педагогическое образование. – М.: 2009. №1. – С. 76-82.

88. Примаковский А.П. О культуре чтения: методы самостоятельной работы с книгой в свете научной организации умственного труда. – М.: Книга, 2009. – 158 с.

89. Рабочая книга социолога / Под общ. ред. Г. В. Осипова. – 3-е изд. – М.: Аудиториал УРСС, 2003. – 343 с.

90. Раввинский Д. К. Чтение в контексте времени // Что мы читаем? Какие мы? // Сб. науч. тр. – СПб.: 1993. – С. 9-15.

91. Радуга / Примерная образовательная программа дошкольного образования. Т.Н.Доронова и др. – М.: Просвещение. – 232 с.

92. Развитие / Образовательная программа дошкольного образования / Е.В.Андреева и др. Под ред. А.И.Булычевой. – М.: НОУ “УЦ им. Л.А.Венгера “Развитие”, 2016. – 173 с.

93. Rokeach M. The nature of human values. – N.Y.–L.: 1973. – 73 p.

94. Рубинштейн Л.С. Основы общей психологии. – 2-е издание. – СПб.: Питер, 2009. – С. 186-525.

95. Основы общей психологии: в 2 т. – Т. 2. – М.: Педагогика, 1989.– 370 с.

96. Самохина М.М. Социально-психологические аспекты чтения молодежи // Ж. Вестник Библиотечной Ассамблеи Евразии. – 2004. – Вып. 4. – С. 56-60.

97. Самохина М.М. Читающая Россия: мифы и реальность. – М.: Либерия, 1997. – С. 4.

98. Синицына Е.И. Сказки для игры и развития. – М.: Лист Нью, КАРО. 2002. – 241 с.

99. Сластенин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Педагогика / Учеб. пособие для студ. высш. пед.учеб. зав. – М.: Издат-кий центр "Академия", 2002. – С. 99.

100. Смородинская М.Д., Маркова Ю.П. О культуре чтения. – М.: Книга, 1994. – 125 с.

101. Суворова Е.В. Душа поэта и теория литературы // Ж. Литература. – М.: 1997. - №26. – С. 14.

102. Сухин И.Г. Литературные викторины в начальной школе. – М.: "Айрис Пресс", 2005. – 128 с.

103. Сухин И.Г. 50 литературных викторин для детей дошкольного и младшего школьного возраста. – М.: АРКТИ, 2002. – 272 с.

104. Сухомлинский В.А. Сердце отдаю детям. – Минск: Народная асвета. 2001. – 287 с.

105. Творчество как основа деятельности детской библиотеки: Материалы Всеросс. науч.-практ. конференции. – Пермь: Перм. обл.дет. б-ка им. Л.И.Кузьмина, 2001. – 176 с.

106. Тихомирова И.И. Педагогическая деятельность школьного библиотекаря / Учеб.-мет. пособие. – М.: РШБА, 2014. – 464 с.

107. Umarov A. Jamiyatda mutolaa madaniyatini shakllantirish va kutubxonachilik muammolari // Fan, ta'lim, madaniyat va biznes

sohalarida internet va kutubxona-axborot resurslaridan foydalanish: "Central Asia-2004" konf.mat. – T.: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2004. – 4-10-b.

108. Umarov A. Kitob va kitobxon: an`analar va yangiliklar // Sog`lom avlod uchun j. – T.: 2003. - №11. – 16-20-b.

109. Umarov A. Kutubxona – yoshlar muloqot maskani // Betger o`qishlari – 2008: "Kutubxona: yoshlar tilida muloqot" mavzusidagi davra suhbati mat.to`pl. – T.: A.Navoiy nomidagi O`zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – 9-12-b.

110. Umarov A. Kutubxona faoliyati va mutolaa madaniyati // Jamiyat va boshqaruv j. – T.: 2004. - №1. - 14-18-b.

111. Umarov A. Mutolaa madaniyati (kitob inson uchunmi yoki inson kitob uchunmi?) // Hayot va qonun j. – T.: 2004. - №6. - 74-76-b.

112. Umarov A. Mutolaa madaniyatini shakllantirishda ommaviy kutubxonalarning o`rni // Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari j. – T.: 2004. - №4. – 135-140-b.

113. Umarov A. Mutolaa madaniyati – taraqqiyot omili // Betger o`qishlari-2003: "Kutubxona ustivorligi" davra suhbati mat. – T.: A.Navoiy nomidagi O`zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2003. – 14-22-b.

114. Umarov A. Mutolaa madaniyati: shaxs, jamiyat, taraqqiyot / Mas`ul muhar. M.Bekmurodov. – T.: Fan, 2004. – 192 b.

115. Umarov A. Mutolaa – ehtiyoj farzandi // Hayot va qonun j. – T.: 2005. - №2. – 71-73-b.

116. Урман Ф. И. Формирование осознанного чтения в начальной школе // Ж. Школа. – М.: 2003. – № 3. – С. 41-42.

117. Федорова Т.В. Что читают и не читают современные школьники // Ж. Директор школы. – М.: 2003. - № 9. – С. 57-61.

118. Филатова С.Г. Станиславчик Н.Ф. Формирование читательской грамотности младших школьников в рамках ФГОС //http://school4.
minusinsk.net/files/attestazia20ushit/Станиславчик/chto-takoe-chitatelskaja-gramotnost.pdf

119. Филиппова Л.В. Словарная работа как средство формирования коммуникативных умений младших школьников // Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. – М.: 2014. - № 11. – С. 800-803.

120. Хабко Е. Д., Соколова Т. В. Читатель, как объект исследования // Ж. Научные и технические библиотеки. – М.: 1996. – № 6. – С. 15-27.

121. Хафизов Д.М. Социокультурные практики повышения читательской активности молодежи: стимулирующие возможности моды: Автореф.дис... канд.наук. культуралогии. – Челябинск: 2017. – 27 с.

122. Хьелл Л., Зиглер Д. Теории личности: основные положения, исследования и применение. – СПб.: Питер, 2011. – 606 с.

123. Чернышова С.А., Тарасова А.И. Формирование читательской культуры младших школьников на уроках внеклассного чтения // Ж. Молодой ученый. – М.: 2015. - №22.1. – С. 72-74.

124. Шипилова И.З. Библиотека семейного чтения как социокультурный институт // Ж. Вестник Московского государственного университета культуры и искусств. – М.: 2016. - №1. – С. 216-222.

125. Щукина Г.И. Актуальные вопросы формирования интереса в обучении. – М.: Сфера, 2004. – 192 с.

126. Цыбульник В.И. Золотой карнавал сказок – М.: ООО "Изд-во АСТ" Донецк, 2001. – 157 с.

127. Эрштейн Л. Б. Запретная теория ценностей: Психологические и социологические следствия представления ценностей как динамических запретов. – СПб.: 2008. – 100 с.

128. Юматова М.А. Интерес к чтению: как его пробудить? //открытыйурок.рф/статьи/501680.

129. Ядов В. А. Стратегия социологического исследования. Описание, объяснение, понимание социальной реальности. – 3-е изд., испр. – М.: Омега-Л. 2007. – 567 с.

130. Яницкий М.С. Ценностные ориентации личности как динамическая система. – Кемерово: Кузбассвузиздат, 2000. – 204 с.

131. O`zbek tilining izohli lug`ati. N – Tartibli / 5 jildli. Uchinchi jild. A.Madvaliev tahriri ostida. – T.: “O`zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. – 416-b.

132. O`zbek tilining izohli lug`ati. ye – M / 5 jildli. Ikkinchi jild. A.Madvaliev tahriri ostida. – T.: “O`zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 376-655-b.

133. Qayumxo`jaeva Yo. O`quvchilarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirish imkoniyatlari. – T.: A.Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat instituti, 2007. – 12-48-b.

134. G`anieva B. Bolalar o`qish madaniyatini tarbiyalashning muammolari // Betger o`qishlari-2004: Kutubxona resurslaridan faol va ijodiy foydalanish muammolari / Davra suhbati mat. – T.: A.Navoiy nomidagi O`zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2004. – 135-137-b.

O`G`ILOY ASQAROVA, DILAFRO`Z MUMINOVA

# O`QISH DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Bichimi 60×84. 1/16.Shrift garniturasi Times New Roman.
Hajmi 13.5 bosma taboq. Oq qog'ozga ofset usulda bosildi
Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 14. Bahosi kelishilgan narxda.

**«Navro'z» nashriyoti. Litsenziya raqami AI – 170. 20 dekabr 2009 yil.**

**Manzil: Toshkent shahri, A.Temur ko'chasi, 19-uy.**

**"Fazilatorgtexservis" XK matbaa bo'limida chop etildi.**
Namangan shahri, Navoiy ko'chasi,72-uy.

ISBN 978-994-356-52-96
9 789943 565296

«Наврӯз»
нашриёти